

M.TOJIBOYEV, U.XO'JAMQULOV,  
SH.BOTIROVA

**ADABIY  
GERMENEVTIKA  
VA BADIY TIL  
POETIKASI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI

M.TOHIBOVYEV, U.XO-JAMQULOY, SH.BOTIROVA

**ADABIY GERMENEVTIKA VA  
BADIY TIL POETIKASI**

137/19/26

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA  
MAXSUS TAILIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

«ZEBO PRINT»  
TOSHKENT – 2022

UO'K: 68(075.832)

KBK: 45ya62

**M.Tojiboyev, U.Xo'jamqulov, Sh.Botirova**

**Adabiy germenevika va badiiy til poetikasi** [Matn]: o'quv qo'llanma / M.Tojiboyev, U.Xo'jamqulov, Sh.Botirova.—Toshkent: «ZEBBO PRINT», 2022. —244 b.

Ushbu o'quv qo'llamada badiiy asar matnini tushunish adabiy germevikaning asosiy omili, adabiy germevikaning taraqqiyot mezonlari, badiiy matni tushunish va aqliy faoliyat tizimi jarayonlari, adabiy germevikaning boshqa fanlar orasidagi o'rni, adabiy germevika tarixi, germevika tahlil va badiiy asar yorqini, badiiy matni o'zlashtirish jarayonida ijodiy yorqin imkoniyatlari, badiiy matnda germevika tahlilning munosabat kategoriyalari xususida yuritilgan.

O'quv qo'llanma kredit modul asosida ta'lim oluvchi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi bakalavr, magistr'lari, tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

filologiya fanlari doktori, professor **N.Rahmonov**

**Mualliflar:**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **M.Tadjiabayev**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent **U.N.Xodjamqulov**

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent **Sh.I.Botirova**

**Taqrizchilar:**

pedagogika fanlari doktori, professor **S.Matchonov**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent **N.I.Satova**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25 dekabr'dagi 538-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-8554-7-2

## KIRISH

Buyuk fransuz faylasufaridan biri "Alloh insonga o'zining haqiqiy his-tuyg'ulari va fikr-mulohazalarini yashirish uchun gapirish haqiqatini bergan", degan edi. Gapirish, so'zlash jarayonida inson o'zining haqiqiy maqsad va istaklarini ommadan yashirar ekan, o'sha yashiringan maqsad-istaklarni qanday bilish, aniqlash mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu o'rinda insonga germevika yordamga keladi. So'zni aql orqali anglab etamiz, tuyg'uni esa, hissiyot bilan sezamiz. So'z bilan anglangan dunyo, aql bilan etkazilgan borliq. Rah bilan sezilgan holat esa, tuyg'u, qalb ruhi, hissiyot to'lgini, uni halli nomlash zaruriyati bor. Shu hodisaga nom izlash jarayonida biz dunyoning yangi ranglarini ochib boramiz. Agar biz bironing tushunmayotganligiga duch kelsak, shuni e'tiborga olishimiz lozimki, bu uning aybi emas, balki bu uning bu hodisadan tamoman bezabartligi sababli, xolos. Bir tomondan olib qaralganda germevika ma'nosizlikdan ma'no qidirishdan iborat, chunki olam hodisalarining tubsiz rang-barangligi ham shundaki, har qanday xaosda ham o'ziga xos ma'no va qonuniyat mujassam.

Jahon adabiyotshunosligining so'nggi davrdagi yutuqlaridan biri bu germevika sohasidagi tadqiqotlarda miqdor va sifat salmog'i-ning ortganligi bilan bog'liq. Badiiy asar matni tahlilining yangi metod va usullari badiiy matni tushunib etish orqali uning original matn arxitektonikasi vositasida aks etgan badiiy tafakkur qirralarini anglab etish, uni o'zlashtirish va hazm qilishning ratsional-emosional imkoniyatlarini kengaytirib yubordi.

Badiiy adabiyot ijtimoiy ong sohasi sifatida jamiyat hayotining barcha tomonlariga kirib borgan. Shu bois ijtimoiy psixologiya, ilm-fan yutuqlari, iqtisodiyot mezonlari ham badiiy tafakkur ifoda aspektlarining ichida bo'lib qoldi.

Germevika bu-vujud ichki vulqonlari natijasida toshga chiqayotgan qudrat sililasining badiiy matn orqali aks etgan holatlari, qirralariga nom berish demakdir. Musiqqa — inson ruhiy, botiniy dunyosi holatlari, harakatlarning ovozi, sasi. Ovoz, sas notalarini nomlash she'riyat, poetikaning vazifasidir. Germevika nom olgan elementlarning ma'no qirralarini ochish vositasida ikkinchi to'lqin ichki ruhiy bo'ronlar poetiyasiga yo'l ochadi. Keyingisi yana keyingisiga yo'l beradi. Bu

ruhii kashfiyotlar tizimi cheksiz davom etaveradi. Biroq har bir partiya ruhii to'liqlilar inson tasavvur dunyosini, olamni ruhii o'zlashtirish imkoniyatlarini, uning intellektual mentalitetini yangi bosqichga olib chiqadi. Binobarin, inson oldida dunyoning yangi ranglarini kashf qiladi.

Antik adabiyotdagi mitologik tafakkur o'rta asrlarda realistlik manzaralarda, yangi davrda esa romantizm va realistlik tasvir usulining chatishgan mezonlarini shakllantirdi. XIX asr adabiyotida bosh planga ko'tarilgan hol bu - inson ichki dunyosining poetik tasviri edi. Inson ichki dunyosining individual qirralarini topish, uning yangi shtrixlarini kashf qilish, binobarin, ijtimoiy psixologiyaning yangi-yangi tamoyillarini shakllantirish badiiy adabiyot, badiiy tafakkurning faqatgina falsafiy - estetik hodisa sifatidagi holatini istisno qildi.

XX asrning 90-yillarida insoniyat ikkita buyuk inqilobni boshdan kechirdi. Bulardan birinchisi siyosada, ikkinchisi texnologiyada amalga oshirildi. Siyosiy inqilob sotsialistik lagerni barbod qildi, chegaralarni ochib yubordi yoki intizomni bo'shashtirdi. Odamlarning dunyo bo'ylab erkin aylanib yurishlari uchun sharoit yaratdi. Ilm-fan natijalarining inson faktori yoki ommaviy nashr, kitob vositasida xalqaro istilohga kirishi tezlashdi. Kommunikatsiyaning kuchayishi yangi badiiy asarlar bilan birga, yangi adabiy qarashlarning ham o'zlashtirilishida hududiy to'siqlarni olib tashladi. Shu o'rinda ikkinchi - texnologiya sohasidagi inqilobning ham o'rni va ahamiyati buyuk. Odamlar internet, mobil aloqa vositalari orqali qisqa muddatlarda borliqning turli chekkasida yuz bergan, berayotgan va hattoki yuz berishi mumkin bo'lgan yangilikdan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib qoldilar.

Imkoniyatlarning kengayishi inson ongi, tafakkuri, badiiy-estetik qarashida ulkan o'zgarishlar yasadi. Natijada odamlar borliqqa, hayotga, jamiyatga tamomila yangi ko'z, yangi nigoh bilan qaray boshladilar. Avvallari inson mentalitetida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy faktor bosh rol o'ynagan bo'lsa, endilikda inson ichki dunyosi, individual psixologiya, uning qalb manzaralarini o'rganish, shu orqali borliqning, jamiyatning yangi ranglarini kashf qilish muhimroq bo'lib qoldi. Badiiy asarning ham san'at namunasini, ham ijtimoiy - estetik ong namunasini sifatidagi imkoniyatidan foydalangan holda jamiyat psixologiyasining yangi ranglarini topish, yaratish va shakllantirish borasidagi imkoniyatlari getmenevitkaniing ahamiyatini oshirib yubordi. Badiiy matn tahlili orqali

inson asarda aks etgan hayot manzarasini o'z imkoniyati darajasida o'z mentalitetiga muvofiq shaklda qabul qilishi mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyoti poetikasining taddiqi ko'lamini beqiyos. Uning izlanish ob'ektlari va aspektlari badiiy jarayonning deyarli barcha xususiyatlarini qamrab olgan. Navoiy, Bobur, Shaboniy, Mashrab, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furgat va yana qator klassiklarining ijodiy merosi taddiqot doirasi kengligi bilan ajralib turadi. Avvaliga, navoiyshunoslik, navoiyxonlik natfaqat O'zbekistonda, balki jahon miqyosida keng masshtabga egalligi bilan tahsinga sazovor. Klassiklarning ijodiy merosi to'la yoki ayrim to'plan va alohida asarlari misolida taddiq qilingan. Bunday ishlarida asosiy e'tibor eng avvalo ijodkor adabiy merosining g'oyaviy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan edi.

O'zbek mumtoz adabiyoti badiiy tilining o'rganilishi ham o'ziga xos an'analarni mujassam qiladi. Bu boradagi taddiqotlarning aksari badiiy asar tili va adabiy til o'rtasidagi munosabatlarni muqoyasa qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Adabiy til umumxalq tilining muayyan qolipga solingan shakli bo'lib, uning barcha lisoniy xususiyatlarini qamrab oladi, o'zining barcha qirralari bilan badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi. Biroq har qanday badiiy asarni adabiy til namunasini deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi, chunki bu hol badiiy asarning individual ijod namunasini ekanligini namoyon qiladi. Sho'ir (ijodkor) o'z asarlarida goh hazil, goh chuqur falsafiy mat'oli fikrlarga tayangan holda tasodifan yangi, kutilmagan fikrlarni, tushunchalarni kashf qiladi. "Ijod bu-sog'lik, bu-har qanday kasallikka qarshi kurash, bu-yangilanish va ruhan poklanish, katarsis" demakdir<sup>1</sup>. Ijodkorning badiiy fantaziyasi uning milliy va shaxsiy mentalitetiga muvofiq ravishda lisoniy imkoniyatlari bilan bog'liq. Ijodkorning xalq tilidan qanchalar bahramand ekanligi muammosi uning o'zi egallab turgan tili xususiyatlarini badiiy matnda qanchalar mahorat bilan qo'llay olishi bilan bog'liq. Biroq yolg'iz bilish va

1 Винокур Г.О. О языке художественной литературы. - М.: 1991, стр. 30.

2 Арнаулов М. Психология литературного творчества. - М.: 1970, стр. 49.

qo'llashning o'zi muallifning cheklangan imkoniyati xolos, u shuning uchun ham ijodkori, tilning yangi badiiy imkoniyatlarini hosil qilishi, yaratishi lozim. Xuddi mana shu o'rinda ijodkor okkazonal holatlar vujudga keltradi, badiiy fantaziya yaratadi, badiiy tafakkurning yangi qirralarini shakllantiradi, binobarin, insoniyat ijodkorligi imkoniyatlarini kengaytiradi. Tilning leksik-semantik imkoniyati, o'quvchi-kitobxon mentaliteti va uning ijodiy tayyorgarligi mana shunday sharoitda badiiy matn ifoda imkoniyatlarining germeneytik taraqqiyoti asosida yotadi.

Biroq bu hol har qanday ijodkorning ham imkoniyati darajasida emas. Badiiy asar orqali ijtimoiy ong, badiiy tafakkur taraqqiyotiga hissa qo'shish, uning sayqal topishini ta'minlash yolg'iz klassiklaragagina nasib qiladi. Chunki klassik—bu shunday ijodkori, toki undan inson hali o'zi anglab etmagan borliq ufiqlarini, uning yangi qirralarini o'rganib. Ana shu jihatdan olib qaralganda badiiy asar matni, uning arxitektonikasi orqali aks etgan ijodkor badiiy dunyosini o'rganish bir tomondan o'ta murakkab bo'lsa, ikkinchi tomondan nihoyatda muhim hamdir.

She'riy asarlar inson badiiy-estetik dunyoqarashining o'ziga xos ifodasi bo'lganligi bois alohida tadqiqotni talab qiladi. She'riyat tilining funksiyasi oddiy, umumxalq tilining funksiyasiga mos kelmaydi, uning gundaydir o'ziga xos timoliy murakkabligini tashkil qiladi. She'riyat tili - murakkab til, unda tushunchalar bir xil timsollar vositasida belgilanib, o'ziga timsollarda izohlanadi, boshqalari bilan xulosalanadi.

She'riy asarlar matnining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mana shu timsollar vositasida yangi, mavhum tasavvur-illyuziya uyg'otadi. Shuning bilan bir qatorda she'riy timsolli so'zlar real, mavjud so'zlarning alohida funksiyasi sifatida in'ikos etiladi, chunki she'riyatning o'zi bizni o'rab turgan ob'ektiv borliqning xususiy bir in'ikositidir. Shoir xalq tilidan bir tushunchani olib boshqa xil bilan qiyoslaydi yoki bir tushunchani ikkinchisiga chog'ishtiradi, natijada sintez-uchinchi, yangi fikr hosil bo'ladi.

Lirik matnda stilistikaning o'tmi muhim, chunki oddiy nutqdagi bir ma'noli so'zlar she'riyatda ko'chma ma'no kasb etadi, bu hol stilistik yo'l bilan amalga oshiriladi. Stilistika she'riyatda qanchalik muhim bo'lmasin, g'oya - ma'no-mohiyat tili doimo etakchi o'rinda turadi, chunki shoirning stilistik uslubdan ko'zlagan maqsadi ham g'oya-original g'oya ifodalashdir. She'riy asar matni o'zida nafaqat

tilning ma'lum bir shakllarini mujassam etadi, balki eng avvalo tilda ifodalangan g'oya, ma'no va hissiyotni aks ettiradi. She'riy matnda har bir so'z obrazga aylanaadi.

Badiiy asar matni, badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish o'ziga xos tushirga ega. Sharq ilmidagi badiiy asar matnini o'rganish borasida Abu Nasr Farobiyning asarlari muhim ahamiyatga ega<sup>1</sup>. U o'zining she'r san'ati va shoiriylarning she'r yozish san'ati qonunlari haqidagi asarlarida lirik asarlar matni, uslub va ularni badiiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qilish borasida qimmatli fikrlar bildirgan<sup>2</sup>. Bevosita turkiy adabiy yodgorliklar janri, vazni va boshqa poetik xususiyatlari haqida matn va badiiy til xususiyatlariga bag'ishlangan asarlardan Navoiyning «Mezon ul-avzon»<sup>3</sup> va «Majolis un-nafois»<sup>4</sup> risolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bobur o'zining «Muxtasar» asarida eski o'zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan lirik asarlar adabiy — ilsoniy va matn xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bildirgan<sup>5</sup>.

Keyingi davrlarda o'zbek mumtoz adabiyotining matn va poetik xususiyatlarini o'rganish borasida qator yirik tadqiqotlar bajarildi<sup>6</sup>.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan so'ng avvalda ta'qiqlangan qator yangi sohalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Adabiyotda va adabiy ong taraqqiyotida ham tub islohotlar kuzatildi.

Milliy madaniyatning yangi qirralari belgilanayotgan hozirgi sharoitda uning ajralmas qismi bo'lgan adabiyotni yaratish, o'rganish va uning badiiy-g'oyaviy imkoniyatlari orqali ijtimoiy — siyosiy ong

<sup>1</sup> Феробий А. Фотил олмавлар ширри.-Т.:1993.

<sup>2</sup> Шы асар. 110-125-бетлар.

<sup>3</sup> Навоий. Мезон ул-авзон.-Т.: 1974.

<sup>4</sup> Навоий. Маҷолис ул нафис. Илмий-танқидий матн.-Т.: Фан. 1977.

<sup>5</sup> Бобур 3М. Мухтасар.-Т.: Фан. 1971.

<sup>6</sup> 1) Малиев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи.-Т.:1965.

<sup>2</sup> Халитметов А. Навоий лирикаси.-Т.: 1961.

<sup>3</sup> Нодиров О. Ўзбек адабиётининг тарихи.-Т.: 1972.

<sup>4</sup> Навои С.П. Пять веков узбекской поэзии в красе негленной предстаёт.

Учебническия классическая лирика XV-XX вв.-М.:1977.

<sup>5</sup> Рувалтов А. Навоийнинг бадий махорати.-Т.:1982.

<sup>6</sup> Насков Ф. Навоий поэтикаси.-Т.: 1983.

<sup>7</sup> Себелев И. В. Семантика поэзии Бобура.-М.: 1982.

<sup>8</sup> Султон И. Адабиёт назариси.-Т.: 1986.

<sup>9</sup> Тоғайбеков М. Мухаммад Шайбоний лирикасида бадий тил муаммолари.-Т.: 2006.

tahlilini yo'lga qo'yish, ijtimoiy ongni takomillashtrishning izchil usul va yo'nalishlarini ishlab chiqish alohida e'tiborni talab qiladi.

O'zbek milliy adabiyoti o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida qator xalqlar adabiyoti bilan turli darajada aloqalarga ega bo'ldi. Musulmon Sharqi adabiyotining tarkibiy qismi sifatida arab, fors adabiyotlari, qadimgiroq davrda xitoy, hind kabi sharqning ko'hna adabiyotlari namunalari uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Zamonaviy adabiyotda bevosita rus tili va adabiyoti orqali shakllangan adabiy muhit imkoniyatlarini alohida qayd qilish zarur.

Insoniyatning yangi – texnika taraqqiyotiga asoslangan davrida Yevropa xalqlari adabiyoti tizimli nazariyalari dunyo xalqlari badiiy tafakkurining yangi ufg'larini kashf etdi. Binobarin, Yevropa adabiyotining juda ko'p xususiyatlari butun dunyo xalqlari uchun umumiy bo'lib qoldi. Shu yo'nalishda Yevropa adabiyotining o'zida ham qator adabiy muhitlar, maktablarning ilg'or tomonlari o'zida mujassamlashtirdi va takomillashtirdi. Yevropa adabiyotining dunyoviy adabiyotga aylanishida ayнан shu holat hal qiluvchi rol o'ynadi. Arab va hind adabiyotlaridagi gumanizm, sentimentalizm, xitoy, yapon adabiyotlariga xos didaktizm, Amerika xalqlari folkloriga xos abolitsionizm va transsendentalizm xususiyatlari unumjahon adabiyot xazinasining mulkiga aylandi.

Mustaqillik tufayli avvalda biz faqat rus tili va adabiyoti orqaligina o'rgangan Osiyo, Yevropa, Amerika va Afrika xalqlari badiiy madaniyati namunalari bevosita ona tilimizda o'zlashtirishimiz uchun sharoit yaratildi. O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganish binobarin xorijiy adabiyotlarni o'qish va o'rganishning ham yangi bosqichlariga turki berildi.

«Jahon adabiyoti» jurnalida jahon adabiyoti xazinasining eng go'zal namunalari o'zbek tilida nashr qilina boshlandi. Qolaversa, jahon adabiyotshunosligining ilg'or xususiyatlarini tahlil qilish, o'zlashtirish binobarin milliy adabiyotshunoslikning yangi taraqqiyot omillarini belgilash imkoniyati yaratildi.

Mustaqillik jahon adabiyoti va adabiyotshunosligini o'zlashtirish, tahlil qilish, o'qitish va o'rganish tizimida siyosiy to'siqlarni bartaraf qildi. Senzuraning olib tashlanishi milliy adabiyotni jahon miqyosiga chiqishiga sharoit yaratdi.

O'zbekistonda xorijiy filologiya tahsiliga mo'ljallangan O'zbe-

kiston davlat jahon tillari universiteti va yana qator institutlar, universitetlarning tegishli fakultetlarida xorijiy tillar, adabiyoti va madaniyatini o'rganish, qiyoslash, tahlil qilish hamda ularni milliy adabiyot nuqtai nazaridan tadqiq qilish borasida etuk filolog kadrlar tayyorlashga mo'ljallangan baza yaratildi. Til ta'limining uzviy qismi, amiqrog'i, uning ikkinchi tomoni til xususiyatlarini o'zida in'ikos etirib beradigan adabiyot bo'lib, uning o'rganilishi va o'qitilishining ahamiyati ham etuk filolog kadrlar tayyorlashda beqiyosdir.

Har qanday milliy til o'zining barcha xususiyatlarini badiiy adabiyotda namoyon qiladi. Hozirgi zamon badiiy adabiyoti insoniyatning faqatgina estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan madaniyat hodisasi sifatidagi funksiyasidan allaqachon chiqib bo'lgan. Globallashuv jarayoni adabiyotning ijtimoiy funksiyasini kengaytirib yubordi. Adabiyotning jamiyat va umuman insoniyat oldidagi vazifalari beqiyos darajada yuksaldi. Hozirda juda ko'p global unuminsoniy muammolar badiiy asarlarda obrazli til vositasida o'ziga xos uslubda in'ikos topmoqda.

Aynan shu hol bevosita jamiyatni, tilni, milliy psixologiyani o'rganishda birinchi manba sifatida badiiy adabiyot namunasini ilgari suradi. Bas shunday ekan, xorijiy tilni o'rganayotgan har bir inson ona tilidagi milliy adabiyotni mukammal o'rganгани holda o'sha pozitsiyadan turib xorijiy tildagi adabiyot va adabiyotshunoslikni o'rganishi hamda tahlil qilishi zarur. Bu zaruriyat uning o'sha xalq tili, dunyog'arashi va milliy psixologiyasini chuqur o'rganishga xizmat qiladi, xalqning ichiga kirib borishiga yo'l ochadi.

Jahonda ilg'or madaniyat maktablari yaratgan xalqlar adabiyoti bevosita ularning insoniy go'zalliklarni badiiy tafakkur vositasida tahlil qila olish imkoniyatini ham ta'minlagan. Tilning barcha ma'naviy, falsafiy va estetik rang – barangligi o'z navbatida adabiyotning kamolotini ta'minlaydi. Ingliz filologiyasitahsilida Shekspir, Bayron, Dikpens, fransuz filologiyasida Gyugo, Kamyu, Stendal, nemis filologiyasida Gyote, Geyne va ispan filologiyasida Servantes kabilarning ijodiy dunyosi, lug'aviy boyligi tahlilsiz yosh insonga tilni mukammal o'rganish aslo mumkin emas.

Badiiy adabiyot matnii imkoniyatlarining germeneytik tahlili inson ijtimoiy tafakkuri taraqqiyotidagi eng muhim bosqich. Har bir millat adabiyoti tarixi adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix kabi fanlar bilan

uzviy bog'liq. Bas shunday ekan, millatning estetik - madaniy dunyoqarashida badiiy adabiyotning o'rni va ahamiyatini kamsitib bo'lmaydi. Tiltning tarqiqiyot bosqichlari bevosita adabiyotning tarqiqiyot bosqichlari bilan uzviy bog'langan.

Badiiy adabiyot namunasi o'qib - o'rganish va tahlil qilish adabiyotshunoslik fanining asosini tashkil qiladi. Demak, adabiyotshunoslik fani shaxs estetik tarbiyasining eng muhim mezoni sifatida badiiy adabiyotning badiiy - g'oyaviy ahamiyatini inson tomonidan o'zlashtirilishida sintezator vazifasini o'taydi.

Yangi avlod tarbiyasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturining bosh omili bo'lib turgan paytda bu muhim vazifa alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlarga adabiyot tarixi ta'limi jarayonida milliy adabiyotning rivojlanish bosqichlari va bu o'rinda adabiy siymolar ijodiy merosining ahamiyatini mukammal o'rgatish jarayonida adabiyotshunoslik fanlarida badiiy adabiyot namunalarini til va badiiylik nuqtai nazaridan tahlil qilish zarur.

Xorijiy adabiyot ta'limida ham biz eng avvalo uning qator qitralarini o'z milliy adabiyotimizga qiyoslab o'rganishimiz til o'rganishning samarali vositasi hisoblanadi. Xususan, ingliz adabiyotida roman janrining tarqiqiyoti uni keyinchalik yirik siyosiy voqealarning so'z orqali badiiy panoramasini qayta tiklash jarayoniga asos soldi. Qolaversa, fransuz adabiyotida Jyul Vern asarlari insoniyat tarixida texnik tarqiqiyotga xizmat qilgan bo'lsa, Balzak o'z asarlarida jamiyat psixologiyasining nozik qitralarini kashf etdi. Bularning hammasi adabiyotning jamiyat tarqiqiyotidagi o'rini belgilashda yangi bosqichga asos soldi, deb ayitishimiz mumkin.

Insoniyat romantikasiz, o'y-fikr, xayolot, orzusiz yashashi mumkin emas. Zotian, ularsiz hayot insonni mahdudlikka kishanlab qo'yadi. Vaholanki, romantika eng avvalo kitob mutolaasi, badiiy asar tahlili orqali amalga oshadi. Qolaversa, romantika, mutolaa inson ma'naviyatini saygallashtiradi. "Har bir inson aql-zakovatini o'tkiritishirmoq uchun, madaniy saviyasini yuksaltirmoq uchun butun umri davomida bir daqiqaga ham tinim bilmay kurashmog'i, mehnat qilmog'i kerak. Bunday mehnat shu bugundan boshlanmog'i zarur. Odam uchun aqlli peshlamogqa, ma'naviy dunyoni boyitmogqa imkon beradigan vositalar ko'p. Shulardan eng samaradori, eng qulayi, eng beeminati va eng

kamchigimi kitobdir"<sup>1</sup>.

Sharq klassik adabiyotida romantik uslubning tarqiqiyoti barkamol shakllangan bo'lsa, Yevropa o'rta asarlar sarguzasht asarlarida realistik manzaralar ma'rifatchilik g'oyasi bilan uyg'unlashgan holda beriladi. Bularning hammasi jahon adabiyotining muhim qitralarini jahon tillarini mukammal egallash orqali o'rganishga chog'langan inson bilimni takomillashtirishdan tortib, adabiyot va adabiyotshunoslik fanini o'qitishning o'rni va ahamiyati naqadar muhimligidan ham dalolat beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xorijiy Yevropa va Sharq tillarining tahsili jarayonida adabiyot tarixini bosqichma - bosqich o'rgatish, hozirgi adabiy jarayonni esa alohida muhim bosqich sifatida o'qitish zaruratini taqozo qiladi. Badiiy material arxitektonikasining matnry-lisonly imkoniyatlari kitobxon so'z boyligini, u o'rganayotgan tilning grammatik qurilishi va morfologik tizimini o'rganishda eng muhim va yagona yozma mamba rolini o'taydi, eng muhimi, matnning lingvopoetik assotsiativiyasi orqali millat yoki individual inson qalb manzaralarining yangi ranglarini kashf qiladi.

Badiiy adabiyotni bevosita o'rganilayotgan tilda o'qish va tahlil qilish til o'rganishning eng muhim tamoyilidir. Xorijiy tillarni o'rganayotgan insonga til va adabiyot uyg'unligida saboq berish ularning etuk kadr sifatida jamiyatga xizmat qilishlarida bezavol manbadir.

Hozirda badiiy asar matni tahlilining muhim qitrasini sifatida poetik tilni xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlarga jahon va o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini materialida o'rgatish zarurati tug'ilgan. Binobarin, getmenevika, badiiy til poetikasini o'rganish borasida yangi qarashlar, g'oyalar va nazariyalar ilgari surilgan.

O'quv qo'llanma jahon adabiyotshunosligining so'nggi yutuqlari asnosida badiiy asar matnini getmenevika o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili orqali o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini poetikasini getmenevika istifoda qilish borasida lirik asarlarda matn arxitektonikasi hamda badiiy matnlarning lingvopoetik, falsafiy-estetik, falsafiy-poetik va semantik-stilistik imkoniyatlarini kengaytirish, binobarin, ma'nada shakllangan betakror shaxsni falsafiy-ratsional va psixologik-emotsional tushunishning nazariy asoslarini yaratishga hamda

<sup>1</sup> Шарфулдинов О. Матнвий камолот йўлларида. -Т.: 2001. 85-б.с.

o'rganish va o'rgatishga qaratilgan. Dissertatsiyada matn hermenevtikasini shakllantirish jarayonidagi lingvopoetik paradigmalari Sharq va Yevropa xalqlari adabiyotining eng ilg'or namunalari misolida asoslanadi, shuningdek, hermenevtik tafakkurning yangi kategoriyalari badiiy tilning alohida ko'rinishlari asnosida tadqiq qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning qator asarlarida yoshlarda milliy ruh va mentalitetni oshirish borasida o'timish va zamonaviy madaniyat yodgorliklarini, buyuk shaxslar hayoti va ijodini keng targ'ib qilish hamda ularda aks etgan ruhiy-ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli ochib berish zarurligi ta'kidlangan. Uning «O'zbekistonning buyuk kelajagini mard va olijanob xalqimiz bilan biga quramiz» asarida «Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar, osori-atiqalar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»-deb yozilgan edi<sup>1</sup>.

Madaniyat yodgorliklari, xususan badiiy adabiyot namunalarida aks etgan milliy, betakror individual ohang yoki ruhni aniqlash turli tadqiqot usullari orqali amalga oshadi. Bu borada hermenevtika fani har bir ijodkor yoki asarning o'ziga xos ovozin, ohangini aniqlashga xizmat qiladi.

Hermenevtika (yunoncha hermenevtikos - tavsiflovchi, bayon qiluvchi) termini «tarjima san'ati», «tavsiflash san'ati» (Germes yunon mitologiyasida xudolarning xohish-istagini odamlarga tavsiflab beruvchi, o'zaro fikr etkazuvchi hisoblangan) ma'nolarini anglatadi<sup>2</sup>. Ko'p ma'no'i yoki turli ma'nolarda talqin qilinadigan, turli sabablar tufayli shaklan shikastlangan (asosan qadimgi) asarlar mahlarini o'rganish ham hermenevtikaning tadqiqot doiralari ichida yotadi<sup>3</sup>. Hermenevtika ilmiy doiralarda til haqidagi klassik fanning o'ziga xos metodi sifatida tan olingan bo'lib, qadimgi adabiy yodgorliklarni interpretatsiya qilishning nazariyasi va umumiy qoidalarini birlashtirgan holda dastlab Aleksandriya maktabida Bibliya matnlarini tavsiflash uchun qo'llanilgan.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистоннинг буюк келажатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Т.: Ўзбекистон, 2018.-29-Бет.

<sup>2</sup> Философия: Энциклопедический словарь/под ред. А.А.Ивина. - М.: Гардарика, 2004.-стр. 107.

<sup>3</sup> Словарь иностранных слов. -Москва: 1983. стр.121.

Hermenevtika hozirda til shakllari va konstruksiyalarni anglab etish bilan shug'ullanuvchi fan sohasidagi holatdan farqli ravishda umuman begona inson ichki dunyosiga kirib borish (eng avvalo muallif, qolaversa, o'quvchi), uning individual ruhiy dunyosini, qab manzaralarini, psixologiyasini ochib berish uchun qo'llanmoqda. Adabiyotshunoslikda hermenevtika badiiy matnlarni turli interpretatsiyasi orqali badiiy tafakkur qirralarini ochish va umuman badiiy asar matnini, binobarin, matnda aks etgan inson ichki dunyosi, uning qab manzaralarini, jamiyatan farqli o'laroq o'ziga xos dunyosini turli shakllarda anglab etish usuli hisoblanadi. Qolaversa, ma'lum bir badiiy matn orqali kitobxonning o'zida shakllanadigan individual mentalitet, psixologiya ham hermenevtik tadqiqotlar doirasiga kiradi.

Hermenevtika insonni to'rt narsaga o'rgatadi: 1-si insonch, ya'ni insonning o'zligiga, o'z ruhiga ishonchi; 2-si insonni tushunish, ya'ni insonning atrof-muhiti, uni o'rab turgan borliq bilan muvozanatini tushunib etish; 3-si shulardan kelib chiqqan holda adolatli hayotga intilish, halollik; va nihoyat 4-si belletristika, ya'ni insonni yaratuvchanlikka, go'zallikdan ezigulik yaratish san'atiga o'rgatadi.

Badiiy asar tahlili ko'p qirrali jarayon. Muallifning asar matniga kiritgan g'oyasi uning matn yaratish imkoniyatlari, matnda qo'llangan badiiy-tasviriy vositalar yoki boshqa poetik usullar orqali o'quvchiga etib boradi. Adabiy hermenevtika matn arxitektonikasi tavsifi, talqini paradigmatlarini tushunish, asar zaminiga singdirilgan ma'no-mohiyat, inson ichki dunyosi orqali aks etgan badiiy-falsafiy g'oya, emotsional-estetik ta'sirning rang va darajalarini aniqlashni ham o'z tadqiqotlari doirasiga kiritadi.

Jahon adabiyotida she'rlyat eng ko'hna janrlardan hisoblanadi. Har bir milliy adabiyot bevosita she'rly asarlar vositasida ibtido olgan. She'rlyatda badiiy til, g'oya va estetik ifoda tili ham qadim zamonlardan buyon tadqiqotlar markazida turgan. Bu borada qo'llimizdagi eng eski matniallar yunon adabiyoti borasida antik olimlarning ilmiy risolalari hisoblanadi.

Jahon she'rlyati va uning matn, badiiy til xususiyatlarini o'rganish borasida tadqiqotlarning qanchalik qadimi va keng bo'lishiga qaramasdan bu mavzu hamisha navqiron va dolzarb. Vaholanki, she'rlyat insoniyatning ajralmas orzular ummoni kabi muttasil va ajralmas hamroh. Ko'kdagi yulduzlar insoniyatning ilk hayot kunlaridan boshlab



ganday portlagan va chorlagan bo'lsa, ularning o'rni va tafti hamda tortish quvvati hali-hanuz so'nmagan va aksincha ortmoqda.

Bu fikrlar jahon she'riyati falsafasi, mantiqi, ma'no-mohiyati, eng muhimi hozirda badiiy matni uning arxitektonik imkoniyatlari orqali anglab etishning yangi tamoyillaridan biri hisoblangan gemmenevtkaning binobarin, badiiy asar g'oyasini anglab etishning yangi usuli va uslublari uchun muntazam va mutasil yo'l ochib borish zaruriyatini taqozo qiladi. Asar mohiyatini, uning badiiy – estetik xususiyatlarini ochib berishning yagona yo'li bu – asar matni, tili va til birliklari assotsiatsiyasi, badiiy matn arxitektonikasi orqali aks etgan ijodkor g'oyasi, «so'zi» va individualizmini shartlash, ya'ni asar matni, uning g'oyasi orqali badiiy tafakkurning yangi jilolarini anglab etishdir. Bu o'rinda aytib o'tish lozim bo'lgan xususiyatlardan yana biri bu – badiiy matnda natqat ijodkor aytmoqchi bo'lgan g'oyani aniqlash, balki u aytolmagan va hatto uning o'zi fahmlay olmagan g'oyani ham kasht qilish masalasidir.

Badiiy asar matn xususiyatlarini o'rganish asar poetikasining lingvistik imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. «Ma'lumki, tiling erkin va muntazam istiqomat makoni badiiy adabiyotdir»<sup>1</sup>. Badiiy adabiyot tili, uning lingvopoetik xususiyatlari badiiy matning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Zero biz anglab etgan har qanday voqea-hodisa inson lisoniy idroki imkoniyatlari doirasida yotadi.

Hozirga qadar o'tkazilgan tadqiqotlar badiiy tiling umumxalq tili, uning lug'aviy yoki grammatik taraqqiyot yo'lga munosabati yuzasidan olib borildi. Endilikda badiiy asar matning gemmenevtik metodda tadqiq etish orqali badiiy tiling asar mohiyatini, badiiy so'z san'ati paradigmatlari orqali uning original g'oyasini ochib berish borasidagi yangi imkoniyatlarini aniqlash zaruriyati tug'ildi. Gemmenevtika asar matni, unda so'z orqali aks etgan betakror shaxs qalb manzaralari aks etgan poetik imkoniyatlarini o'rganishning yangi tamoyillarini yaratadi.

Badiiy asar janri, mavzu va boshqa poetik imkoniyatlari bilan bog'liq til xususiyatlarini ochishni biz badiiy asar dekorativ tili deb atadik. Chunki aylan tilda ijodkorning ichki dunyosi namoyon bo'lar ekan, bu hodisa asar matning shakli imkoniyatlari orqali semantik

spektrlar yaratishi tabiiy. Gumbolga ko'ra «Tilning vazifasi inson aqliy faoliyatini materiallashtirishdan iborat»<sup>1</sup>. Shunday ekan, badiiy matn dekorativ arxitektonikasi ham o'ziga xos g'oya tashishi aniq. Ijodkor poetik yorqin orqali asar uchun tanlangan material imkoniyati, g'oyasi va mo'ljaldan kelib chiqib asar badiiy tafakkurda ramkaga solinadi yoki badiiy asarning fasadi yaratiladi. Aynan mana shu ramkalashtirish asar janri, shaklini yaratadi, binobarin, asarning lingvopoetik xususiyatlarini ham shakllantiradi, asar tili uning umumiy ko'rinishi uchun so'z vositasida material bo'ladi. She'ring vazn, qofiya, turoq, rifm, ritm, band kabi fasad elementlari uning speksifikasini tashkil qiladi. Speksifika asar g'oyasiga mos ravishda ma'lum lisoniy-g'oyaviy maydonda namoyon bo'lar ekan, uning o'zi ham g'oya tashiydi. Badiiy tiling mana shu munosabatlarini ochib berish badiiy asarning dekorativ til xususiyatlari imkoniyatini shakllantiradi.

Badiiy asarda g'oya lingvopoetikasi ijodkor ommaga etkazmoqchi bo'lgan yoki umuman asar mazmunidan kelib chiqadigan poetik tafakkurning reallashgan aksi. Poetik tafakkur soyasi sifatida g'oya ijodkorning o'zi uchun ham kutilmagan holatda shakllanishi yoki so'dir bo'lishi mumkin. G'oya tili asar syujeti mazmunidan tubdan farq qilgan holda so'zlarning original assotsiatsiyalari orqali badiiy matn arxitektonikasining turli interpretatsiyalarini mujassamlashtiradi hamda bu interpretatsiyalar va ularni tushunib etish jarayoni gemmenevtikaning asosida yotadi. Uning mohiyati asar ijodiy metodi, ijodkor uslubi, poetik tiling ifoda imkoniyatlari, individual, milliy, bashariy mentalitet bilan bog'liq. Romantik, realistik metodda yoki modernistik usulda yozilgan asarlar g'oyasi binobarida ularning lug'aviy, lingvopoetik imkoniyatlari bir xil yoki har xil bo'lishidan qar'iy nazar tubdan farq qiladi.

Badiiy asar shaklining dekorativ til xususiyatlari asarni o'qimishli, naqli, jarangdor, mazmunдор hamda g'oyaviy paradigmatlari spektrini joylabdor va jimjimador qilar ekan, uning muvaffaqiyati asarning gemmenevtik imkoniyatlarini kengaytirish uchun ijodkor yaratgan matn imkoniyatlari doirasida belgilanadi.

Dekorativ til xususiyatlari badiiy asar estetik ahamiyatining eng

<sup>1</sup> Максудов Н. Бадий сўз масъулияти // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т.: 2010 йил 23 апрел. 17-сон.

<sup>1</sup> Умболт В. О различия строения человеческого языка и его влияния на душевное развитие человеческого рода. В книге: В.А.Звягинцев. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях ч. 1.-М.: 1960. стр. 78.

muhim in'ikososi. Bularsiz asar mavhum yoki rangsiz, o'qilishi qiyin, xalq jonli tilidan uzok bo'lib qoladi. O'quvchida estetik zavq uyg'ota olmaydigan asar abadiyatga dahldor bo'la olmaydi. Badiiy asarning dekorativ imkoniyatlari uning poetikasini shakllantiradi, asar matn fasadi badiiy talqini yangi nurlar bilan tovlanishiga asos yaratadi, yangi g'oyaning in'ikosiga aylanadi.

Germenevika tahlil yangi g'oyani nafaqat asar matn arxitektikasining lingvopoetik imkoniyatlari, so'zlar va ularning turli lingvopoetik paradigmatalari ustiga yuklangan semantik-stilistik manzarlardan izlaydi, balki uning tadqiqotlari zamirida matn orqali shakllanadigan betakror emosional jarayonlarni ham yoritadi, izohlaydi, jamiyatning intellektual mulkiga aylantiradi.

Germenevika nuqtai nazardan badiiy til tahlili jarayonida uning borligi, mavjudligi, ramziy xususiyatlari, asar mazmuni, metodi, g'oyasining real kaliti hisoblanadigan hodisa-badiiy asar yorqinidir. Yorqin ijodkorning eng muhim ijodiy quruli, kitobxonning badiiy asarni o'zlashtirish jarayonidagi «sehrli tayogchasi». Yorqin jamiyatning intellektual mulk doirasidagi barcha munosabatlarni birlashtirib turadi. Vaholanki, sillogizm, transformatsiya va illyuziya inson intellektual mentalitetidagi eng muhim bosqichlarki, ularsiz hech bir inson o'z ruhiy kvalifikatsiyasini takomillashira olmaydi.

Yorqin kitobxon mentalitetiga muvofiq har bir o'quvchida turli darajada shakllanadi. Asar badiiyati, badiiy tili, vaholanki, asar metodi va g'oyasini tushunish uchun insonning ma'lum ilmiy-ijodiy tayyorgarligi, u egallab turgan ilmiy salohiyat bevosita yorqin vositasida namoyon bo'ladi. Bas, badiiy asar yorqini uni o'zlashtirishdagi «yo'lchi yulduz» ekan, germenevika – badiiy mahni o'zlashtirish aynan mana shu yulduz shu'lashing aksi demakdir. Yorqin butun asar matnini tushunishning barcha germenevika va g'oyaviy xususiyatlarini birlashtirib turadi.

Badiiy asar germenevika tahlili va uning badiiy tilga munosabatini yoritishda bu kabi tamoyillarga asoslanish uning o'quvchi – kitobxon, omma tomonidan to'laqonli o'zlashtirilishida muhim vosita bo'la oladi. O'quv qo'llanma mana shu tamoyillar asnosida, jahon adabiyotshunosligining yangi yutuqlari binobarida lirik asarlar germenevika tahlilini qator Yevropa xalqlari adabiyoti va o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarida amalga oshirishga mo'ljallangan. Dissertatsiya ishida eng muhim tamoyil – asar arxitektonik badiiyati va uning zamirida

13-19/25

yotadigan badiiy til xususiyatlarini germenevika tahlil vositasida she'rriyatning mazmun – mohiyatini, insoniyat estetik dunyosi, ma'rifiy – ma'naviy paradigmalik tovlanishlarini, binobarin, uning badiiy tafakkur taraqqiyotida tutgan o'rni hamda ahamiyatining nazariy qirralarini ishlab chiqishdan iborat. Adabiyotchilarning vazifasi shoirga g'oyibdan kelgan ilohiy ruhning holatini u yaratgan asar orqali tavsiflab berishdan iborat. Vaholanki shoirlar kelajak darakchilari ekan, ularda aks etgan ruh holati, ijod tasviriga, izohga muhoj.

O'quv qo'llanma o'zining o'rta tashlagan yangi ilmiy gipotezalari va dasturlari bilan kelajakda badiiy adabiyot, badiiy tafakkur va umuman, adabiyotshunoslik taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O'zbek mumtoz she'rriyati namunalari misolida germenevika tahlil vositasida badiiy asar ijodkori bilan uning o'quvchisi fikrlash doirasidagi farqlarni bartaraf qilish, badiiy asar mohiyati, g'oyasi, badiiy-estetik qirralarini kitobxoniga yaqqolroq ochib berish binobarida borligini yangi poetik ranglarda his qilish, asar badiiyati orqali aks etgan o'ziga xos dunyoning ijimoiy talqinini belgilash hamda bu o'rinda milliy, individual mentalitetning ahamiyatini aniqlashga intilishi hamda individual badiiy ijodning yangi ufg'alarini belgilashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Germenevika metod doirasida badiiy asar san'ati va umuman san'atni tushunish va his qilish qilishning tamomila yangi paradigmatlarini kashf qilganligi bilan ajralib turadi.

Adabiy germenevika XX asrda alohida fan sifatida dashtlab G'arb mamlakatlarida shakllangan yo'nalish va metodlar birligi bo'lib, badiiy matnlarni turli usullarda interpretatsiya qilish orqali har xil ma'nolarni aniqlashga qaratilgan edi. Bunday tadqiqot usullarining tarixi Aleksandriya filologiya maktabi (eramizning boshlarida) faoliyati bilan boshlanadiki, bu maktab olimlari Bibliyaning ilohiy ma'nolarini talqin qilishga intilgan edilar. Shuningdek, XVIII – XX asrlarda U. Shekspir asarlar matn xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi.

Adabiy germenevika F.D.E. Shleyermaxer, V.Dilley, X.G.Gadamer kabi tomonidan ilgari surtilgan falsafiy germenevika ta'sirida shakllandi. Ularning ayrim tadqiqotlarida badiiy matn tahlili ham kuzatildi. Bunday tadqiqot namunalarini italyan «germetik tanqid» maktabi namoyandalari K.Bo, O. Makri va boshqalarning ishlarida hamda Angliya-Amerika «yangi tanqid» maktabi namoyandalari V.S. RRTA

Eliot, D.K.Rensom, R.P. Uellek, O.Uorrenlar asarlarida kuzatish mumkin.

Yangi davr adabiy germenevtikasi tamoyillari amerika adabiyotshunosi E.D.Xirsh tadqiqotlarida belgilab berildi («Interpretatsiyada haqqoniylik» 1967, «Germenevtikaning uch o'lehami» 1972, «Interpretatsiya maqsadlari» 1972). Xirsh o'z asarlarida interpretatsiyaning uch - diskriptiv, me'yoriy, metafizik o'lehamini ilgari surdi. Bularning birinchisi - diskriptiv usul matnning turli ma'nolarini ochib beradi (xuddi belgilar sistemasi kabi). Bu ma'nolar o'zaro teng hisoblanib, ularning biri boshqasidan ustun qo'yilmaydi. Ikkinchi-me'yoriy o'leham tadqiqotchining etik tanlovi natijasi hisoblanadi. Bunda bi-  
ror-bir matn ustunligi tan olinadi. Uchinchi - metafizik o'leham matn ob'ektiv tarixiy tadqiqning natijasi sifatida qabul qilinib, unda matnning boshlang'ich ma'nosi ochib beriladi. Xirshning fikriga ko'ra ger-  
menevtikaning maqsad va mazmuni - matnning dastlabki ma'nosini (semiotekada denotat) uning barcha konnotativ qirralarini tenglashtir-  
gan holda ularidan eng muhimini ajratib olish orqali aniqlashdan iborat.

Adabiy germenevtikaning yirik namoyandalari sifatida D.B.Medi-  
son, G.Silverman, Y.Gronidinlarni sanash mumkin. Ular o'z ishlarida Gadamer g'oyalarni taraqqiy toptirib, asosan postmodernizm namu-  
nalarining matn xususiyatlarini o'rgananlar. Bu boradagi tadqiqotlar Rossiyada M.M. Baxtin, D.S.Lixachev va V.V.Vinogradovlarning ba-  
diy matnga oid ishlarida kuzatiladi<sup>1</sup>.

Germenevtika sohasidagi so'nggi yirik asar bu - Erloni Tiselkonning  
«Germenevtika» asari bo'lib, unda bu fanning barcha taraqqiyot yo'li,

<sup>1</sup> Adabiyotlar: Михайлов А.А. Современная философская герменевтика.-  
Минск: 1984; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.: 1986;  
Гадамер Х.Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. -М.: 1988;  
Шлег Г.Г. Герменевтика и ее проблемы // Контекст. Литературно-теоретические  
исследования. -М.: 1989-1992; Кузнецов В.Г. Герменевтика и литературное  
познание. -М.: 1991; Рикёр П. Конфликт интерпретаций: Очерки о герменевике.  
-М.: 1995; Пурганова Е.А. Герменевтика // Западное литературоведение XX  
века.-М.: 2004; Hirsch E.D. Validity in interpretation.- New Haven. 1967; Ibid.  
Three dimenstions of hermeneutics // New Literary history. -Balti-more. 1972. V.3.  
№2; Ibid. The aims of interpretation. -Chikago. 1976; Madison. The hermeneutics -  
of postmodernity. -Bloomington. 1988; Silverman H. Gadamer and hermeneutics. -  
New York: 1991; Grondin J. Hermeneutische Wahrheit? Zum Wahrheitsbegriff H.-G.  
Gadamer. Weinheim. 1994.

undagi e'vritishlar,uning taraqqiyot tamoyillari ochib berilgan. Ger-  
menevtikadagi oqimlar, ularning nazariy asoslari tahlil qilingan<sup>1</sup>. Bi-  
nobarin, o'zbek adabiyotshunosligida B.Karimov, A.Erkinov, H.Bol-  
taboev, U.Jo'raqulov kabilar germenevtik tadqiqotlar doirasini to'ldi-  
rishga intilganlar.

O'quv qo'llanma jahon adabiyotshunosligi an'analari asosida adabiy  
germenevtikaning o'zbek adabiyotshunosligida nazariy asoslarini yara-  
tadi. Yaratilgan nazariy baza kriteriyalari asosida Yevropa va o'zbek  
mumtoz adabiyotining sara namunalari misolida badiiy asar ger-  
menevtik tahlilining yangi tamoyillarini ishlab chiqadi. Badiiy matn  
orqali individual insonning ichki dunyosini tushunishning eng muhim  
quruli sifatida poetik til tahlili jarayonida nazarda tutilishi lozim  
bo'lgan yangi badiiy til tahlili mezonlarini o'rta tashlaydi. Binobarin,  
bularning barchasi badiiy asarni o'zlashtirish jarayonida ijodkor bilan  
kliboxonning badiiy tafakkur imkoniyatlari, badiiy ta'bi doirasidagi  
farqlarni bartaraf qilishdan iborat.

O'quv qo'llanma o'zbek mumtoz adabiyoti materiallari misolida  
badiiy til tahlilining yangi kriteriyalarini belgilashga va asoslashga  
ham xizmat qiladi. Badiiy asar mohiyati, mazmuni va g'oyasini to'g'ri  
belgilashni tizimli o'rganishning yangi tamoyillarini taklif qiladi. Badiiy  
asarning mavzu xususiyatlari, janri, uslubi va g'oyasini badiiy asar  
tiliga qiyosan o'rganish borasida germenevtik tahlilni amalga oshiradi.  
Badiiy tahlil badiiy asarni o'zlashtirish jarayonida jamiyatning badiiy-  
estetik ta'bi, uning mentaliteti, badiiy tafakkur qirralari kabi jifitmoiy  
tamoyillar asnosida badiiy asar matnini o'zlashtirishning yangi  
tamoyillarini ishlab chiqadi.

Badiiy asar g'oyasiga muvofiq ijodkorning badiiy til vositalaridan  
foydalanish usullarini aniqlaydi. Badiiy asar tili nafisligi, unda g'oya  
hamda shakl va mazmunning dekorativ mutanosibligi, badiiy matn  
arxitektonikasi vositasida asarda g'oyaning mazmuniy va mantiqiy  
amalgardorligi omillarini belgilaydi.

O'quv qo'llanma quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldiga maqsad  
qilib qo'yadi:

- Badiiy asar matnini tushunish imkoniyatlarining yangi paramet-  
rlarini aniqlash, asarda ijodkor tomonidan kiritilgan yoki asarning

<sup>1</sup> Инвертон Э. Герменевтика. -Черкасси: 2008.

matn imkoniyatlari orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan badiiy-estetik, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma'naviy, individual-psixologik g'oyalarni ochib berish;

- asarda retsipient (qabul qiluvchi) va protsudent (yaratuvchi) o'rtasidagi informatsiya almashuvining diskursiv, ratsional, emotsional (sentimental), psixologik jarayonlarining darajasini belgilash usullarini aniqlash;

- Badiiy adabiyot, eng avvalo lirik asarlarda badiiy tafakkurning lirik – emotsional – hissiyoti qirralarini shakllantirish orqali asar ta'sirchanligining mezonlarini aniqlash;

- Badiiy asar muvaffaqiyatini ta'minlaydigan dekorativ, g'oya va shakl qirralari orqali matnda badiiy g'oya tovlanishi imkoniyatlarini belgilash;

- Ijodkor salohiyatini belgiloovchi omillarni qayd etish;

- Lirik asar namunalarini poetik til nuqtai nazaridan mukammal bo'lishi binobarida ortiqcha takror, mujmal jumalardan qochish, asar tilini o'tkir, jozibali, aniq, ravon va ta'sirchan qilish usullarini aniqlash;

- Lirik asarlarda badiiy fantaziya samaradorligini ta'minlaydigan matn arxitektonikasining optimal shakllarini tavsiya qilish;

- Badiiy asar ta'sirchanligining samaradorligini oshirish jarayonida ijodkor tomonidan voqea-hodisa va g'oyalarni aniq, lo'nda misralarda ifoda qilish usullarini belgilash;

- O'quvchiga, ommaga ijodkor aytmoqchi bo'lgan g'oya, so'z, gapni payqash, so'z yoki aniqrog'i poetik vositalar orqali asar g'oyasini fahmlab borish usullarini ko'rsatib berish;

- Shoir (ijodkor) ning badiiy matn arxitektonikasi vositasida individual estetika dunyosiga muvofiq ruhiy – falsafiy holat yaratish usullarini taklif qilish yoki yaratilgan badiiy asar vositasida har bir inson ichki dunyosi, ruhiy olamining hali ilg'ammagan qirralarini aniqlashga yordam berish, ruhiy – falsafiy fikrlash orqali insonga o'z imkoniyatlari vositasida badiiy asar tahlilini to'g'ri amalga oshirish usullarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

- germenevтик tahlil orqali insonga yoki insonning o'ziga va atrofidagilarga hurmat va muhabbat hissinı yaratish, tarbiyalash iborat, chunki bu dunyodagi har bir mavjudot yaratgandan ruh olgan. Ularning har biri o'ziga xos, o'zining ichki va tashqi dunyosiga ega. Shu sabab har bir mavjudotning yashash, hurmat va hayot huquqini qayd etishdan

iborat.

O'quv qo'llanma o'zida ko'tarilgan yangi tahlil parametrlari orqali o'quvchi ko'z o'ngida badiiy asarning barcha shakl, ma'no va g'oya xususiyatlarini ochib berish jarayonida yangi isitiloh, yangi uslub, metod va yo'nalishlarni ham ilmiy tadqiqotlar doirasiga kiritadi.

O'quv qo'llanmada o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasi tizimida hali yaxshi o'rganilmagan sahifa hisoblanmish shoh va shoir Muhammad Shaboniy hayoti va ijodiy dunyosi alohida yoritiladi. Shoir asarlari misolida mumtoz adabiyot lirikasida aks etgan germenevтик jarayonlar tahlil qilinadi.

Germenevтика bo'yicha olib borilgan dunyo olimlarining ilmiy tadqiqotlari hamda mavzu doirasida o'zbek va jahon olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qamroviga kiritildi. Tadqiqotning nazariy aspektlari Yevropa, xususan, ingliz, nemis va rus hamda o'zbek mumtoz adabiyotida asrlar davomida yaratilgan sara asarlar namunalari vositasida yuzaga chiqarildi. Shekspir, Bayron, Ch. Dikens, Gyote, Pushkin hamda Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Nodira, Muqimiy kabi adiblarning turli janr va mavzularda yaratilgan asarlari tadqiqot doirasini tashkil qiladi. Ishda Muhammad Shaboniy ijodiy merosi alohida tadqiq ob'ekti sifatida olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida jahon adabiyotshunosligidagi germenevтик tadqiqotlarga bag'ishlangan adabiyotlar hamda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining badiiy-qiyosiy tahlili bo'yicha olib borilgan ishlar va o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari olingan.

O'quv qo'llanma oldiga qo'yilgan maqsadga erishish va bu boradagi vazifalarni bajarish binobarida eng avvalo ratsional-g'oyaviy, badiiy-g'oyaviy, badiiy-qiyosiy va lingvopragmatik analizni amalga oshiradi. Dissertatsiya ishi bayoni davomida lingvistik tahlil (badiiy bo'yodkor so'zlar uchun), komponent tahlil metodi, qiyosiy metod, statistik metod, kognitiv-konseptual metod (badiiy matn interpretatsiyalari jarayonida), ijtimoiy so'rov metodi (leksik-semantik vositalarning iste'mol darajasini aniqlash borasida), lingvomadaniyat metodi (stilistik bo'yodkor so'zlarning qo'llanishini ijtimoiy tabaqalanishi binobarida), ijtimoiy dialektik tahlil metodi, ijtimoiy sinxronik metodi amalda bo'ladi.

O'quv qo'llanmaning manbalari sifatida germenevтика sohasida olib borilgan jahon va rus adabiyotshunosligidagi ilmiy-tadqiqot ishlari muallifi, Mixaylov A.A. (Sovremennyya filosofskaya germenevтика. –

Minsk: 1984), Baxtin M.M. (Estetika slovesnogo tvorchestva. —M.: 1986), Gadamer X.G. (Istina i metod: Osnovy filosofskoy germenевtiki. —M.: 1988), Shipet G.G. (Germenevika i ee problemi // kontekst. Literaturno-teoreticheskie issledovaniya —M.: 1989-1992), Kuznetsov V.G. (Germenevika i literaturnoe poznanie. —M.: 1991), Rikvor P. (Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevike —M.: 1995), Surganov E.A. (Germenevika // Zapadnoe literaturovedenie XX veka.—M.: 2004), Hirsch E.D. (Validity in interpretation. — New Haven: 1967), Ibid (Three dimentions of hermeneutics // New literary history. — Baltimore: 1972.V.3 №2, Madison. The hermeneutics of postmodernity. Bloomington. 1988, Silverman H. Gadamer and hermeneutics- New York. 1991, Grondin J. Hermeneutische Wahrheit? Zum Wahrheitsbegriff H.—G. Gadamers. Weinheim. 1994), Stepanov G.V. (O grantsax lingvistikeskogo i literaturovedcheskogo analiza // Teoriya literaturnyx stiley // Sovremennye aspekty izucheniya. — Moskva: 1982) larning ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llangan metod va ushblarning yo'nalishi saqlandi.

O'zbek mumtoz adabiyoti va mumtoz adabiyotning nazariy aspektlari borasida tadqiqot ishlari olib borgan V.Zohidov, N. Mallaev, G°.Karrimov, B.Qosimov, Yo. Ishoqov, B.Sarimsoqov, A.Hayitmetov, A.Hojiahmedov, I. Haqulov kabilarining ilmiy-nazariy ishlari dissertatsiyaning nazariy asoslarini yaratish uchun manba bo'ldi.

O'quv qo'llanmaning gipotezasi. Adabiy germenевtkaning nazariy aspektlarini o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini doirasida ishlab chiqish va tabiiq etish mumtoz adabiyot namunalarining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik va poetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Uni badiiy matning turli poetik rakurslari, poetik paradigmatlari badiiy tafakkurning yangi ranglarini topish va izohlashda samarali qo'llash mumkin bo'ladi. Tanikli mumtoz adabiyot namunadalarini asarlarning germenевtik tahlili jamiyatning badiiy — estetik ta'bini mukammallashtiradi.

1. Adabiy germenевtikani fan sifatida predmetini belgilash. Uni boshqa fanlar orasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish. Germenевtik tahlilning nazariy asoslarini yaratish. Badiiy matni samarali tushunish imkoniyatlarini ochib berildi;

2. Badiiy asar poetikasi, uning arxitektonikasi, kompozitsiyasi hamda ruhiy-psixologik imkoniyatlarini birlashtirishda ijodiy yorqinning

vazifasini ko'rsatildi;

3. Badiiy asar matnini tashkil qilgan leksik-semantik vositalarning alohida holdagi ma'no-mohiyatidan farqli ravishda ularni matn arxitektonikasi orqali o'rganilishi doirasidagi badiiy-estetik, ruhiy-psixologik, ijtimoiy-g'oyaviy paradigmatlarini kashf qilish ko'rsatib berildi;

4. Germenевtkaning badiiy til imkoniyatlari orqali ochiladigan qirralari sharhlandi;

5. Lirik asarlarda g'oyaning germenевtik tahlil orqali ochilishi hamda badiiy til tahlilining germenевtik mezonlari belgilandi;

6. Lirik va epik asarlarda milliy-individual mentalitet, ijtimoiy-matlabiy faktorning, muallif tarjimai holdagi ruhiy jarayonlarning badiiy matn ruhiga, g'oyasiga ta'siri munosabatlari aniqlandi;

7. O'zbek mumtoz adabiyotining tanikli namunadalarini asarlari misolida germenевtik tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida olingan natijalarning sintezi qayd qilindi.

8. Badiiy asarda hayot manzaralarining turli qirralari aks etar ekan, lirik portret yoki lirik asar inson qalb manzarasining bir oniy lahzaalik ko'rinishi yoki holatini yasaydi. Shu bir lahzaalik ko'rinishda aks etgan dunyoviy ruhning hisobsiz paradigmatlari tavsifi tadqiqotchidan, tinglovchidan alohida ruhiy-psixologik, badiiy-estetik, ilmiy, etik-hisoiy tayyorgarlikni talab qiladi. Tayyorgarligi turli darajada bo'lgan insonlar badiiy matni o'zlashtirishda turli natijalarga kelishi tabiiy. Omma yoki individual shaxsning badiiy matni ruhiy-psixologik va badiiy-falsafiy jihatdan tushunishini ta'minlashda germenевtkaning ikki muhim qirrasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu holatda global va individual germenевtkaning yoki ular doirasida sillogizmining ichki aspektlari muhim rol o'ynaydi. Bunday klassifikatsiya lirik obrazlarning yuqori ideali nuqtai nazari bilan tavsiflanadi.

9. O'zbek mumtoz adabiyotining eng gullab yashagan davri - XV asrning oxiri XVI asrning birinchi choragida yaratilgan lirik, epik va boshqa janrlardagi asarlar jahon adabiyoti xazinasini boyitgan. Shu bois bu davr o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini misolida lirik asarlarning germenевtik tahlili ilgari surilgan nazariy g'oyalarni amalda joriy qilinishida muhim material vazifasini o'tashi tabiiy. Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy Amiriy, Nodira, Uvaysiy sara asarlarining germenевtik tahlili bizda mumtoz adabiyotning g'oyaviy, badiiy-falsafiy, badiiy-estetik mundarijasini yangi ko'z bilan o'rganishga da'vat qiladi.

10. Milliy adabiyot va adabiyotshunoslik taraqqiyotini jahonda bu sohadagi ilmiy-ijodiy yangiliklar tahlilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli dissertatsiya ishining asosiga germenevika nazariyasining qator aspektlari mashhur adabiyot namoyandalari asarlari misolida tahlil qilindi.

Defo, Bayron, Amal Dunqul asarlarining germenevtik tahlili disserteratsiya ishida ilgari surilgan nazariy fikrlar universal xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

11. XV asrning oxiri XVI asrning o'zbek mumtoz adabiyotining g'oya, ideal, poetik mahorat va badiiy tafakkur qirralarini chuqur o'zlashtirishda shoh va shoir Muhammad Shaboniy hayoti va ijodiy merosi qiziqarli material beradi. Xususan, uning asarlarida bir tomondan qadimgi turkiy davr adabiyoti, ikkinchi tomondan Navoiy asos solgan musulmon fors adabiyotining adabiy analari to'qnashadi va bu holat unga zamondosh yoki keyingi avlod ijodkorlari merosiga nisbatan yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu hol shoir asarlarida misolida mumtoz adabiyotda germenevtik sharoitning shakllanish holatlarini alohida o'rganilish uchun asos bo'ladi.

O'quv qo'llanma adabiy germenevtikaga oid nazariy muammolarni qamrab olgani holda adabiyotshunoslik, badiiy asar, badiiy asar matni, ilmiy-ijodiy tahlil yo'nalishlarining yangi strategiyasini belgilaydi. Ilmiy tahlilning yangi aspektlarini ishlab chiqadi, adabiy tahlilning original rakurslarini ko'rsatib beradi. Shu bois quyidagi ilmiy yangiliklarni istihoga kiritadi:

- jahon adabiyotshunosligining yangi yutuqlari asosida badiiy asar germenevtik tahlilining o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini misolida yangi kriteriyalarini ishlab chiqish;
- germenevtik tahlil vositasida badiiy asar poetikasini tushunib etishning yangi nazariya va usullarini yaratish;
- jahon adabiyotining taniqli namoyandalari asarlari misolida germenevtik tahlilni amalga oshirish;
- badiiy asar tahlili jarayonida ijodiy yorqin imkoniyatlaridan foydalanish;
- o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini asosida badiiy matn arxitektikasining poetik qirralarining badiiy fantaziyaga munosabatini aniqlash;
- badiiy tilni o'rganishning yangi nazariy tamoyillarini ishlab chiqish;

- badiiy til va badiiy nutq o'rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirish;

- o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini asosida badiiy tilning badiiy ong va umuman ijtimoiy ong taraqqiyotidagi o'rnini va rolini baholash;

- Muhammad Shaboniy ijodiy merosining badiiy-germenevtik tahlil orqali uning o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi tutgan o'rnini va ahamiyatini aniqlash;

- badiiy asar germenevtik tahlili orqali badiiy asar tilining estetik mezonlarini milliy mentalitet va umuman insoniyat tafakkuri taraqqiyotidagi o'rnini va ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat.

O'quv qo'llanma natijalari respublika ta'lim muassasalarida adabiyotshunoslik ta'limi tizimida o'quv qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin. Uning natijalaridan darslik, o'quv qo'llanmalari, monografiya va kurs ishlari yozishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida yangi avlod darslik, qo'llanmalar yaratishda ham metodik qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

O'quv qo'llanma bevosita san'at sohaslarida badiiy asar matni va umuman badiiyatni tushunish, anglab etishning yangi parametrlarini ishlab chiqqan holda badiiy ijod sohasida o'quv-metodik qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot natijalari jahon adabiyotshunosligining yangi yutuqlari asosida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rganishning yangi aspektlarini ishlab chiqadi. Dissertatsiya ishi natijalari jamiyatning falsafiy-estetik, ma'naviy-axloqiy, adabiy-ijtimoiy, ilmiy-psixologik qarashlarida, badiiy asar o'zlashtirishi jarayonida yangi tamoyillarni ilgari suradi. Badiiy asarning ijtimoiy ong taraqqiyotidagi o'rnini va rolini ko'rsatib beradi.

O'quv qo'llanma adabiy germenevtika, badiiy adabiyot va badiiy tilni o'rganish hamda tadqiq qilishning umumiy nazariy aspektlarini ishlab chiqadi.

O'quv qo'llanma adabiyotshunoslik sohasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun dastur sifatida badiiy asar matnini o'zlashtirish, badiiy til, badiiy tafakkur taraqqiyoti orqali jamiyatda ijtimoiy ong, badiiy, falsafiy-estetik ruhani takomillashtrishga xizmat qiladi.

Falsafiy - estetik, psixologik qarashlarda o'zgarishlar yasaydi, insoniyat jamiyatida badiiy go'zallikni his etishning yangi aspektlarini ishlab chiqadi.

Jamiyatning issoniy - estetik, intellektual madaniyatini, milliy mentalitetini oshirishga yordam beradi.

## I BOB. ADABIY GERMEVEVITKA VA BADIY ASAR ARXITEKTONIKASI

### 1. Badiiy asar matnini tushunish adabiy germenevtikaning asosiy omili sifatida

Inson borligini aql va qalb bilan qabul qilar ekan, farosat, zakovat, fahm, idrok kabi ratsional kategoriyalardan farqli ravishda olamni ruhiy-psixologik, hissiy – emosional tushunib etishi, his qilingan dunyo ranglarini izohlash germenevtika fanining asosiy omili hisoblanadi.

Germenevtika ruhiy-psixologik, hissiy-emosional o'zlashtirilgan dunyoning turli manzaralarini izohlaydi, individual o'ziga xoslik kategoriyalarini tavsiflaydi.

Adabiy germenevtika – badiiy matnni tushunish va uning jarayonini o'rganadigan fandir. «Arxitektonika» termi yunoncha arhitektonike – «qurilish san'ati» ma'nosidagi so'z bo'lib, ilmiy doiralarda: 1) arxitek. qurilish ob'ektlari fasadi, arxitektura tuzilishlari konstruksiya tizimining badiiy g'oyasini aks ettirish; 2) badiiy asar qurilishining umumiy estetik rejasi, qismlari o'zaro munosabatlarining tamoyillarini aniqlash; 3) geol. geologik qurilishlarning umumiy kartinasi ma'nolarida qo'llanadi. Biz bu o'rinda arxitektonikaning ikkinchi-badiiy asar qurilishiga oid ma'nosidan foydalangan holda badiiy matn shakl qirralarining falsafiy-estetik, semantik-stilistik tomonlarini ochib berish, umuman badiiy matnning estetik modeli orqali g'oya yaratish imkoniyatlarini aniqlash uchun qo'llaymiz.

Matnni tushunish degani inson mentaliteti, siyosiy-ijtimoiy, ruhiy-psixologik, ilmiy-ijodiy tajribasini matnga, uning mazmuni, ma'no-mohiyatini egallash uchun yo'naltirilishi demakdir. Matn mazmuni va mazmun orqali shakllangan g'oyani egallash uchun yo'naltirilgan tajriba bir vaqtning o'zida individual (xususiy) yoki ijtimoiy bo'lishi mumkin: bir odamning tushunish imkoniyatlari ikkinchi odamning faoliyatida taraqqiy topsa, ikkinchi odamning muvaffaqiyatlari esa, birinchi odamning imkoniyatlarini kengayishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan tushunish yoki ma'nolarni anglab etish jarayonining intersub'ektivligi haqida gapirish o'rinnlidir.

Filologiya fanida matnni tushunish mohiyati haqidagi masala eng muhim, dolzarb va murakkab muammolardan biridir. Shu sababli tushunish jarayonini biror bir yagona yo'nalish asosida o'rganish mumkin emas. Tushunish jarayoniga dialektik munosabat uning yo'nalishlarini kengaytirilishini hamda tushunish tashkil topishini ham diaxronik amolda o'rganishni talab qiladi.

Tushunishning ta'rifi nisbatan qisqa, ya'ni ular fanning boshqa sohalardan – ong, tafakkur, bilim kabildan farqini aniqlashga qaratilgan. Yagoriya aytilganlar asosida tushunishning aniq yo'nalishlari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Tushunish – matn arxitektonikasining ichki aloqalarini anglab etish jarayoni;

Tushunish – matnning mantiqini anglab etish jarayoni;

Tushunish – matnda shakllangan o'zga insonlarning ichki his-

siyoylari, fikri va qarorini uqib etish;

Tushunish – bilimga intilish, bilimni ishlab chiqishi;

Tushunish – matnda muallifning ong, ruhiy-psixologik, emosional harakatlari manzaralarini qayta tiklash.

Bu ta'riflarning birortasi ham so'nggi va aniq hisoblanmaydi,

ular faqat adabiy germenevtika tematik manzaralarining rang-barang ekanligini ko'rsatib beradi, xolos. Matnni anglab etishning barcha jarayonlarini o'rganishga intilgan inson sharoitining mohiyatini tushunib etgach, yana boshqa ta'riflarga ehtiyoj sezishi tabiiy hamda ularni kengaytirishga harakat qilishi aniq. Masalan, «tushunish – bu butunlikka qo'shilish» ta'rifini o'qib chiqqan odam anglab etadiki, «butunlik» turli odamlarda hamda turli davrlarda har xil kenglik va gorizontalarga ega. Shunda u ta'kidlaydiki, bu gorizontal tushunishga intilish jarayonida cheksiz kengayib boraveradi. O'z vaqtida mana shunday kuzatuvlar asnosida quyidagicha ta'rif qabul qilingan edi: «to'laqonli tushunib etish bu – yangi gorizontalarga olib chiqilgan gorizontal». Bu kabi ta'riflarning miqdori yana shu hol bilan xarakterlanadiki, matnni tushunib etish shakllari turli tip-larga bo'linaadi. Aksar hollarda bu tiplar shunchalik farqlanadiki, ularni «tushunish» termiini ostiga birlashtirishning o'zi ko'p hollarda ularni turli-tumanlik, hatto ko'p o'rinlarda qarama qarshilikka borib chiqadi va haqiqatni anglash yo'lini to'sib ham qo'yadi. Xuddi shunday fikrni tadqiqot predmeti tipologiyasi bo'la oladigan «tushunadigan

odam», «matn», «mazmun», «arxitektonika» kabilar haqida ham aytilish mumkin. Aksar hollarda «aniq ta'rif» tushunchasi emas, balki har bir elementlarning borig'idagi farq va qarama-qarshiliklarni aniqlashirish matnlarning mohiyatini anglab etishga xizmat qilishi mumkin.

Adabiy germeneytikani o'rganishning bu yo'lini egallash borasida shuni nazarda tutmoq lozimki, binobarin hayot haqiqatini aks ettirishning, inson fikriy faoliyati sistemasi murakkab komponentlarining bir muhim momenti boriki, unga ko'ra hayot haqiqatini aks ettirish o'zining ob'ektivligini har qanday ulkan jarayonlarning vositachiligi holatida ham saqlab qoladi. Tushunish – yolg'iz insoniyatga xos faoliyat, chunki unda fikr va hodisalar tipologiyasining asosida faqat insonga xos bo'lgan belgi tizimi sifatida tidan foydalanish imkoniyati yotadi. Eng murakkab, eng yuqori usullarda matni tushunish tiplarining kelib chiqishi (to'planishi emas) oddiy – so'zlashuv tilining belgilarining kodini ochish, ya'ni ma'no-mohiyatini tavsif qilish, sharhlashga asoslangan, chunki matn hayot haqiqatidagi inson munosabatlarini til shakllarida, ya'ni uni inson tomonidan egallangan shakllarda yoritib beradi. Avvalda aytilganidek, tushunish binobarida matn mazmunini egallashga bo'lgan intilish jarayoni amalga oshiriladi. Muhimi shundaki, bu egallash inson tomonidan hayot haqiqatini egallashning faqat bir tomoni xolos, chunki dunyoni anglab etishning usullari farqi (predmetli-amaliy, ilmiy, badiiy va boshqalar) matni anglab etishning tipologik farqlarida bir-birining o'rini bosishi mumkin. Xuddi hayot haqiqatini egallash jarayonidagi kabi matn mazmunini egallashda (tushunishda) ham insoniyat haqiqatini anglab etishga intiladiki, bu faoliyat sub'ektivlikning asoslaridan biri, ya'ni uni ob'ektivlikdan farqlarini bartaraf qilishga qaratiladi. Shu sababli tushunish insoniyatning barcha faoliyatiga belgilar vositasida kirib keladi.

Matn, sub'ektivlik natijasi va protsipienti (qabul qiluvchisi) da, shuningdek, uning protsudenti (yaratuvchisi) da ham mavjud. Matn faqatgina sub'ektga singdirilgan tayyor ob'ektidan iboratgina emas. Tushunish bu-sub'ektning ob'ektga moddiy-amaliy, individual-psixologik munosabati hamdir. Shu bois matni tushunish insonga uni o'zlashtirish jarayonida muallif miyasidan o'quvchi miyasiga ma'lumotlarni oynadagi aksi kabi o'tkazib yuborish emas. Bu erda protsudent va retpisipientlar muvofiqlashgan harakatlarning murakkab

sub'ektivligi o'rin tutadiki, bu hol ijtimoiy – tarixiy sabablar bilan shartlashgan bo'ladi. (Bu haqda quyida yorqin kategoriyasida alohida hayon qilinadi).

Matni tushunish, uning mazmunini o'zlashtirish bu "mening butun tajribam" ni matnga aylantirish, binobarin, uning mazmunini shunday shakllantirish demakki, u keyinchalik "mening sub'ektiv dunyom"ning bir qismiga aylansin. Keyin uning mazmunida "mening tajribam" asosida "begona tajriba"ni ajratib tashlash, bu bo'linishdan "o'z faoliyatim" uchun zarur bo'lgan qismini ajratib olish lozim, degan fikr yotadi. Bir vaqning o'zida "men o'z sub'ektivligim asosida harakat qilishim va ob'ektiv informatsiyaga ega bo'lishim" kerakki, toki mazmun o'zlashtirish voqelikning ob'ektiv aks etishi bilan birlashadi.

Tushunish jarayonida men qisman o'zgartgan holda o'z holimcha qo'llashim meni tushunish jarayonining haqiqiylikini ta'minlashga bo'lgan intilishimni kamaytirmaydi. Xuddi shu hol doimo meni quyidagi tartibda tuziladigan savollarga javob izlashga majbur qiladi: «Men nimani tushundim, men tushundimmi o'zim? Agar men hammasini tushunmagan bo'lsam, qanday qilsam hammasini tushunaman?», yoki «Nima uchun men anovi tanishimday tushunmadim?», yoki «Qanday qilib hammasini tushunishim mumkin?» va boshqalar. Ko'rinish turganidek, biz uchun bu erda muhimi tushunishni tushunish, ya'ni tushunish refleksiya (bundan tashqari: bilim haqida bilim, xo'ira haqida xo'ira v.b.) dan iborat.

Refleksiya tushunishga qarindosh bo'lgan tushuncha, tushunish esa refleksiyaning uyushgan holati demakdirki, bu hol adabiy gemme-nevikaning muhim holatlaridan biri: to'laqoni tushunishga erishish uchun inson refleksiya ham o'rganishi kerak. Kitobxonidan kafolati tushunishni talab qilish uchun reja asosida uni refleksiya o'rgatish kerak.

Matn bo'lganidek, agarda tushunish refleksiya bilan bir xil hodisa emas ekan, u holda refleksiya fikrlash faoliyatining tizimi sifatida, voqelikni o'zlashtirish hodisasi sifatida tushunishning yaqin qarindoshi bo'lib chiqadi. O'zlashtirish jarayoni o'z ichiga tushunishdan tashqari bilim, fikrlash-tafakkur qilish kabilarni ham kiritadi. O'zlashtirish bu keng ma'noda ozod energiya, shunday energiyaki, unda avvalda kuchga kiritilgan informatsiya tamomila yangi tizimda aks etadi. Bu hol falsafiy nuqtai nazardan «Men va ob'ektning identifikatsiyasi» - degan



afsonaviy shaklda qayd qilinadi. Keyinchalik bunday afsonaviy fikrlar o'zlashtirishning muhim hodisasini shakllantirishda chuqurlashtirildi. Tushunishning oxirgi bo'g'ini bu – predmet (narsa) ni yoki voqelikni sifat nuqtai nazaridan anglab etishdan iboratki, uning ichiga narsa yoki voqelikning barcha mazmun xususiyatlari kiradi. Matnning mazmun xususiyatlari ichiga ob'ektiv voqelikning muallif tomonidan sub'ektiv aks ettirilgan barcha hodisalari kiradi: intersub'ektivlik, mazmun va xabar berilayotgan holatning ijtimoiy mohiyati kabilar ham unda mujassam bo'ladi. Ob'ektni o'zlashtirishning barcha holatlarida bo'lganidek, tushunish sub'ekti ob'ektga nisbatan faol munosabatta mazkur holatda esa, matn mazmuni bilan o'zaro hankorlikda ishlash jarayonida bo'ladi. Shu sababli matnlarning mazmuniy xususiyatlari tarixiy o'zgarishlarga moyil, matnning tushunilish qirralari esa dialogik inkoniyatlar zaminida yotadi.

Shunday qilib tushunish voqelikni aks ettirish va uni o'zlashtirish momentlaridan biri. Faoliyat turi sifatida tushunishning o'zi ham gator momentlarni mujassam qiladi. «Tushunish» so'zi tushunish jarayonini ham, (masalan: «U mutolaa jarayonida Oybek ifodalagan fikrlarni ham, chuqurroq tushunib borar edi») tushunishga intilish jarayonini ham, binobarin tushunishning natijasini ham aks ettiradi: («Uning tushunchasi boshqalarikidan farq qilar edi»), shuningdek, tushunish jarayoniga nisbatan qobiliyat va tayyorgarlikni ham («Uning qabuliga dadil kirib bordim, u odamni yaxshi tushunadi») aks ettiradi. Bu momentlar ko'pincha tushunishni muhokama qilish jarayonida aralashtrilib yuboriladiki, bu xatodir. Bularning ichida tushunish jarayoni etakchilik qiladi, tushunish jarayonisiz tushunishning o'zi haqida gap bo'lishi ham mumkin emas. Bu talabga har doim ham amal qilinavermaydi. Og'zaki nutqda «men bilaman» gapi komil ishonch bilan tushunishga ishora qiladi, tushunish deb bu o'rinda o'zini komil ishonch bilan haq deb bilishga ishora qiladi.

Tushunish jarayoni muhofazasi haqida gapirish o'rinni bo'lib, unda tushunishning aylanna holati yuzaga keladi: bu shaklda mavjud holatning kelib chiqishi va mohiyati niqoblangan holatda bo'ladi. Tushunishning me'yoriy jarayoni me'yordagi shakl bilan muvofiq davom etadi: «men har bir matn parchasida ma'lum fikrni nazarda tutaman, o'qiyman (eshitaman) davom etib, yana ma'lum fikrni nazarda tutaman».

Nazarda tutish jarayonining ikkinchi bosqichi yoki ikkinchi fikrni birinchi bosqichga qo'shish, yoki birinchi fikrning ikkinchisi bilan o'zaro aloqadorligini isbotlash, ya'ni o'zgartirilgan (yoki rad qilingan) ekanligini isbotlashdan iborat bo'lib, bu hol fikrlarning har qanday holatdagi taraqqiyoti natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Yaxit matn ko'plab mitti matnlardan iborat bo'ladi, shu bois fikrlar taraqqiyoti bir matnning ikkinchisi bilan so'nggi nuqtasiga qadar bo'lgan to'qnashuvlari jarayonida amalga oshadi. Bu jarayon boshdan oyoq reflektiv, shuningdek, uning oxiri-natijasi ham reflektiv bo'lib, uning so'ngida refleksiya bilimga aylanadi. So'nggi reflektiv holat insonni «Men nimani tushundim?» savoliga to'qnashiradi hamda unga ijobiy javob berish uchun inson shaxsiy kuzatishlari natijasini his qila olishi kerak. Boshqacha aytganda insonning so'nggi refleksiyasi, ya'ni badiiy asar o'qib yakkunlanganidan so'ng o'zlashtirish–tushunish, fikriy talqin, fikrni rivojlanitira olish jarayonlarining katta tajribasiga asoslanishi kerak. Binobarin, bu tajriba ko'plab izchil va mantiqan o'zaro bog'liq mitti matnlar mazmunlarining ichki harakati natijasida paydo bo'ladi.

Tushunish jarayonini nazarga ilmaslik oqibatida inson tamomila o'zgacha natijaga ega bo'lish mumkin. Bunda refleksiyaning barcha amaliy faoliyati natijasi olinganidan so'ng harakatga tushadi. (Bu o'rinda refleksiya bu – aqlning o'z faoliyati va uning namoyon bo'lish usullari ustidan o'rnatgan nazorati demakdir. Shunday jarayonlardan biri epifenomenal tushunish bo'lib, bu hol tushunishning o'zgaragan, buzilgan shakllaridan biridir. Epifenomen esa, haqiqiy mohiyatga yondosh, boshqa hodisalar bilan bog'liq qo'shimcha mohiyat, ma'no demakdir).

Bunday holatlarda munosabat masalasi tubdan o'zgaradi, me'yor buziladi. Inson mitti matnlarni birin-kecin o'qishi jarayonida mazmun tashuvchi belgilarning kodini ochib boradi. Masalan, A.Qahor asarlaridagi fraza – iboralarda tushunarli mazmun shakllantirish uchun uning mohiyatini anglash lozim. «Og'riq tishlar» asarida Oqila Xumroxonga qarab, «Qaysi it ko'chada yotgan suyakni g'ajimaydi» deydi. Matnga muvofiq epifenomal tushunishda o'quvchi anglab etadiki, Oqila Zargarovni «it», Xumroxonni esa, «suyak» deb hisobladi. Agar o'quvchida refleksiya shakllanmasa, u matn mazmunini angalay olmaydi. «It» kim yoki nima, «suyak» kim yoki nima, bularni hazm qilish uchun o'quvchida ma'lum lisoniy muhida yorqin vositasida

shakllangan tajribaga asoslangan refleksiya bo'lishi kerak.

Hamma belgilarning rasman kodi ochib bo'lingan bo'lsa-da, bu o'rinda mitti matnning mazmun shakli e'tibordan chetda qoladi. Uning o'ziga xos sintaktik tizimi, murakkablashtirilgan nutqiy avtomatizat-siyasi va boshqa xilma xil belgilari hisobga olinmaydi, chunki bu belgilar mazmun tarqiyotini ta'minlamaydi. Badiiy asarda qahra-monlarning hammasi ham bunday murakkab avtomatizatsiyaga ega bo'lgan tilda so'zlashmaydi. Ular faqat ayrim momentlarning qisqa va yorqin xarakteristikasi uchungina qo'llanadi, xolos. Qachonki, asar o'qib bo'lingandan so'ng, kitobxon matnning avvalidan boshlab oxiriga qadar bo'lib o'tgan voqealar tizimini tahlil qilar ekan shunday refleksiv savollar bilan to'qnashadi: asar nima haqida? Asarda nima aytilgan? Qahramonlarning qaysi biri muallif siymosini aks ettira oladi? Boshqacha aytganda, asardan g'oya izlash boshlanadi, biroq bu jarayon matn qabul qilish (retsepsiya) jarayonisiz mumkin emas, zero g'oya va ob'ekt orasidagi farq bartaraf qilinishi zarur. Shu sababli tushunish asar mazmunining o'zlashtirilishini ta'minlamaydi, faqatgina epifenomal mazmun yaratadi, xolos. Bunday tushunish natijaning o'tkinchi shakli sifatida qaraladi. Asar mazmunini xato tushunish bunday hollarda oddiy holat: epifenomal tushunish asar g'oyasining o'zgaragan (yoki buzilgan) shaklini yaratadi hamda mazmun haqidagi har qanday deklaratsiya uchun turtki beradi. Masalan, Hamzaning "Boy ila xizmatchi" drammasida G'ofur shariat va hokimiyat peshvolariga qarata "Hoy bo'rilar, bu niyatingdan qayt!", deb hayqitar ekan, bu bilan u faqat o'z manfaatini, Jamilani xotinlikda olib qolish uchungina kurashmaydi va bu jumlaning o'rta tashlamaydi ham, balki o'sha davr jamiyati tizimi qonun-qoida himoyachilarining basharasini ochish orqali ulkan ijtimoiy-siyosiy xunrezlikni fosh qiladi. G'ofur taqdiri o'sha zamondagi minglab insonlarni taqdirida o'z aksini topganligi uchun ham bu jumla asar muvaffaqiyatini ta'minlagan. «Qutlug' qon» romanida Yo'ldashning Mirzakarimboyga qarata «Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, qari tovuq», -degan xitobida ham mana shunday ulkan ijtimoiy adolatsizlikning izini anglab etish mumkin.

Kitobxon epifenomal tushunish asosida matn interpretatsiyasini ishlab chiqar ekan, asarning asosiy g'oyasidan chalg'iydi, u faqat obrazli ifoda qurboniga aylanib qoladi, xolos. Uning uchun «bo'ri», «it» va «tovuq» kabilar iboraviy obraz bo'lib, ularni yozuvchi faqat

asar tilini ta'sirchan yoki rang-barang bo'lishi uchungina qo'llagan, xolos.

Asar matnidagi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan g'oya uning estetik fanni ro'yasida qolib ketmasligi kerak. Shu zaylda biz adabiy germe-nevtikning eng muhim muammosi qarshisida turamiz, bu muammo asar matnini to'laqonli tushunish yoki matnda aks etgan asar g'oyasini to'g'ri tushunib etish, aniqrog'i, umuman asarni tushunib etish muammosi. Matnning arxitektonik imkoniyatlarini tushunmaslik ger-menevtik jarayonda sharoitni o'zlashtira olmaslik natijasida paydo bo'ladi.

Germe-nevtik sharoit, bu - matni yoki tushunish mumkin, yoki tushunish mumkin emas, degani. Shunga muvofiq ravishda germe-nevtik faoliyatning ijtimoiy ahamiyati qator holatlarda tubdan farqlanadi. Birinchi holatda adabiy germe-nevtika ta'kidlaydiki, tushunish mumkin bo'lmagan matnning o'zi yo'q, faqatgina ayrim odamlar tushunib eta olmagan matnlar bor, xolos. Ikkinchi holatda matni tushunmaslik mumkinligi e'tirof etiladi va bu tabiiy hisoblanadi. Uchinchi holatda badiiy fantaziya asar matni arxitektonikasiga muvofiq kitobxonning o'zida ruhiy - psixologik kashfiyotlarga yo'l ochishi tan olinadi.

Ko'rinib turganidek, yuqoridagi ikkinchi holat kitobxonning badiiy ongi tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aslan olib qaralganda tushu-nishning bosh va o'zgaragan (buzilgan) shakllari ham bilvositalikka asoslanadi. Epifenomal tushunish aynan mana shu bilvositalikning natijasidiki, ichki ta'rifiarida o'zining paydo bo'lish jarayonini topa olmaydi. Haqiqiy tushunish esa aksari tavsifga asoslanadi. Qis-man, badiiy adabiyot mutolaasi davomida badiiylik shaklining qator elementlari mayda matnlarni izchil tushunishni, mantiqiy takomil-lashtirish jarayonini tashkillashtiradi. Epifenomal tushunishda badiiy-tasviriy vositalar ortiqcha holat bo'lib ko'rinadi. Bu noto'g'ri, aslida asarning shakl arxitektonikasi mazmunida refleks uyg'otadi yoki shakl rang-barangligi g'oyalar rang-barangligiga olib keladi. Shu sababli tushunish jarayonida biz badiiy-tasviriy vositalar hamda ularda aks etgan predmetlashtirilgan ma'no-fikrlar paradigmatlarini muntaзам korrelyatsiya qilib borishimiz kerakki, ular matn mazmunini refleksiv o'zlashtirish jarayonida egallab boriladi.

Yuqorida keltirilgan jarayon va natijani farqlashga oid ma'lumotlar tushunilgan har xil uslubdagi tavsiflarni aralashitirib yuborishga qarshi

zaruriy ehtiyotkorlik sifatida qaralishi zarur. Kategoriyalarni farqlash zarurati ayrim muammolarni tug'diradi, chunki matni tushunish jarayoni vaqt jarayoni va fikrlash jarayoni hamda tizimli bilimning shakllanish jarayoni bilan bog'liq. Bu holatda bizning tushunchalarimiz "mazmun"ga aylanadi, qachonki, biz harakatga kelganimizda ular bizning faoliyatimiz amaliyotiga aylanadi<sup>1</sup>. Bundan tashqari tushunish, fikrlash, bilim ta'limi kabi individual mentalitetga bog'liq holatlar bilan bir qatorda tushunayotgan sub'ektning ruhiy holati ham muhim o'rin tutadi va bu hol "kechinma", "quvonch" yoki "qayg'u" shaklida sub'ekt tomonidan anglab etilgan yoki anglab etilmagan holatda ro'y beradi. Bu momentlarning bir vaqtda yuz berishi ularning o'xshashligini bildirmaydi hamda ularga tushunayotgan inson faoliyati tahlili davomida tegishli tushuncha va terminlar "o'zaro yopishtirilmashligi" kerak.

Tushunish jarayoni masalaning mohiyatini to'la anglab etishga olib keladi, vaholanki, bu mohiyat tushunish orqali amalga oshadi. Shuning bilan bir qatorda tushunchalarni egallash ham, ularni turi shakllarda ishlab chiqish ham tushunish jarayonining o'ziga teng emas. Mantiqan olib qaralganda "x (iks) ga teng bo'lmagan x ga olib keladi hamda x ga aylamaydigan x ni tashkil qiladi" - tipidagi tushuncha qurilishi tushunish mohiyatini tasvirlashda eng muhim holat hisoblanadi.

Bu hol matni tushunishni tavsiflashda har doim ham hisobga olinavermaydi. Birinchidan, ba'zi hollarda tushunish jarayonini inkor qilgan holda tushunib etishga intiladi, zotan ayrim mualliflarning fikriga ko'ra tushunish sub'ektda uning tushunib etganidek kelib chiqmaydi, aksincha, hissiyotdan tushunishgacha bosqichma-bosqich refleksdan ongli xulosaga qadar o'z-o'zidan yig'ilib boradi. Ikkinchidan, tushunish jarayonining tadqiqida matn interpretatsiyasining o'zini alohida ta'kidlash lozimki, ko'pincha uni tushunish bilan almashirib yuboradilar. Vaholanki, interpretatsiya refleksiyaning ongli tashkillashuvi sifatida muhim bo'lsa-da, matni interpretatsiya qilishga tayyor bo'lmagan odam uni tushunmaydi, deyishga bizda asos yo'q. Bundan tashqari, ko'pchilik hollarda odamlar o'zlarini tushunmaydigan matnlarni interpretatsiya qilishga intilayotganliklarini kuzatish ham mumkin.

Hosilga bir holat "subbat", "xabar", "kommunikatsiya", "tushunish" kabi tushunchalarni aralashirib yuborishda kuzatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "kommunikatsiya" "tushunish" tushunchasiga nisbatan juda ham keng, uni faqatgina axborot almashuv yoki axborotlar etkazilishiga tenglashtirish unuman noto'g'ri hol. Inson fikrlash tizimining aloqa kommunikatsiyasida aks etmagan momenti yo'q. Kommunikatsiya shakllari cheksiz: ikki insonning jonli dialogdan tortib, o'quvchining allaqachon hayotdan ko'z yungan yozuvchi bilan asar orqali suhbatini ham shu turkumga kiradi. Bularning hammasida tushunish muhim o'rin tutadi, toki, kommunikatsiyadagi mavjud yoki ehtimoldagi uzilishlar u orqali bartaraf qilinadi.

Bu holatni hisobga olmaslik germevenitik sharoitlarni ajrata olmaslikka olib keladi, ya'ni shundoq ham tushunari shaklda tushunishni (o'zidan va boshqalardan) talab qilish orqali yuzaga chiqadi. Matni interpretatsiya qilish jarayonida o'zining va boshqalarning imkoniyatlarini rejalashtirish hamda germevenitik sharoitdagi nihoyatda ko'p holatlar aynan mana shu ajratishning jiddiy tavsifi uchun materialni rejalashtirish orqali kelib chiqadi. Umuman har qanday holatda ham shuni nazarda tutish lozimki, inson bolalikdan kommunikatsiya daryosida cho'millar ekan, ko'p narsani tushunadi va ko'p holatda bunday tushunish o'z-o'zidan tabiiy holatda ro'y beradi (xuddi reflektiv hodisalar kabi), shuning uchun tushunish tabiiy bir holat sifatida qabul qilinadi. Aynan shu holat inson ruhida va tafakkurida yorqinni tashkil qiladi. Yorqin vostasida kommunikatsiyadagi uzilish joylarini aniqlanadi. Ular tushunishning tabiiy jarayonida germevenitik kuchlanish, ya'ni fikrlash faoliyatining alohida shakli sifatida amalga oshirilishi zarur.

Tushunish holatining tabiiyligini ta'kidlagan holda bu jarayondagi yana bir nuqtani unutmashlik lozim. Bu — individning ijtimoiy imkoniyatlari yoki mentalitetini oshirib yuborish, ya'ni tushunishni individning ijtimoiy holati sifatida qabul qilish. Ayrim hollarda individning kallasida qandaydir "tushunish mexanizmi" bor va u talantli odamlarda mukammal ishlaydi, deb tasavvur qilinadi.

Miya fikrlash jarayonining substrati ekanligiga shubha yo'q, biroq har qanday holatda ham tushunish yolg'iz psixologik imkoniyatlar bilan cheklanmaydi, uning ijtimoiy imkoniyatlari ham muhim. Ya'ni, individ tushunish jarayonini uning jamiyatdagi imkoniyatlari, ya'ni mentaliteti

<sup>1</sup> Шерповицкий Г.П. Смысл и значение. - В кн.: Проблемы семантики. - М.: 1974. стр.90.

doirasida egallay oladi.

“Men tushunishni xohlayman” psixofiziologik motivatsiya mo’ljalli refleksdan kelib chiqadi. Biroq hayotda o’z o’rnini topishga uringan inson uchun bu “men tushunishni xohlayman” shaklidagi qaror ijtimoiy zaruriyatga aylanadi, chunki “men odamlar orasida inson bo’lib yashashni xohlayman” shaklida talqin qilinadi. Tushunish bu-ikkita “men” ning kontakti emas. Jamiyada ijtimoiy sharoitlarigagina bog’langan “men”ning o’zi yo’q: “inson dunyodan alohida yashaydigan mavjudot emas”. Inson bu-insoniyat dunyosi, bu-jamiyat, davlat. Shu vaqtga qadar shunday mualliflar bo’lganki, ular badiiy matnlarni tushunishning umumiy qobiliyatlarini “qo’zg’atish jarayonining kuchi” yoki oliy nerv faoliyatini tiplashtirishning insonga xos usullari ta’siri ostida tavsiflashga intilganlar. Bu hol individual qabni emas, balki jamoa qablining namoyon bo’lishi deb hisoblangan.

Tushunish jarayonining murakkab dialektik holati shundan iboratki, jamoa tajribasi matnga murojaatda matn mazmunini o’zlashtirishning individual shakldagi kuchini o’zlashtirish demakdir. Individual shakldagi o’zlashtirish ham o’ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega, biroq tushunish texnikasining samarali usullari (germenevtik usullar tartibi) har bir inson tomonidan alohida tanlab olinadi. Shaxsiy reflektiv harakat organi individual tushunish qirralarini qayd etadi – matn mazmunining shunday tomonlarini topadiki, ularning ayrimlari shaxsiy va ijtimoiy germenevtik holat uchun alohida ahamiyatga ega bo’ladi. (muallif nima demogchi edi; yoki tushunilgan matndan men o’z faoliyatimga nima olib kirishim mumkin; kabi qirralarni anglab etish).

Individual va ijtimoiy dialektikani tushunib etmaslik germenevtik holatga nafaqat zarar keltiradi, balki adabiy germenevtikaning o’zini fan sifatida mavjudligini ham inkor qiladi. Dialektikasiz germenevtikani tushunish haqidagi gaplar oddiy ko’channing gapiga aylanib qoladi. Bunday ko’cha gaplarining asosida “har kim o’z bilganicha tushunadi”, degan fikr yotadiki, bu hol matnning ob’ektiv mazmuni bilan bog’lanmaydi, binobarin tushunuvchi sub’ekt ijtimoiy ahvoli taraqqiyotining serqirra (har tomonlama) ekanligini inkor qiladi. Shu o’rinda psixologik naturalizm ustunlik qiladi: “Odamlar tabiatan turlicha, shu sababli ular gancha bo’lsa, tushunish ham shuncha” shaklida fikr yuritiladi.

Vaholanki, matni ilmiy tushunib etish yoki tushuna olish, bu

demotikka erishish demakdirki, bu fikr ikki ming yildan buyon o’z dolzarbligini yo’qotgan emas. Yoki, tushuna olish bu – shaxs dunyasiga ko’tarila olish demakdir, ya’ni jamiyada shaxslar, o’zaro bir-birini tushunadigan odamlar yashaydi. Matn organi inson kommunikatsiyasini takomillashtirish - jamiyat a’zolarining fizik va intellektual imkoniyatlarini birlashtirish – jamiyatning eng muhim vazifasidir.

Yuqorida keltirilganlarning barchasi nafaqat ishning mohiyatiga munosabatta tushunishni aniqlashga yordam beradi, balki adabiy germenevtikaning statusini aniqlashga ham xizmat qiladi. Adabiy germenevtika badiiy matni tushunish fani demakdir. Binobarin, tushunish faoliyati ham demakdir.

Aynan shu o’rinda ta’kidlash lozimki, borliqning ishonchli tavsifini shakllantirish va uni yoritilishida tushunushning fikriy faoliyatida tushunish qator jarayonlar va faoliyatning boshqa kategoriyalari bilan aralashib ketadi. Biz bu o’rinda tushunishning o’zini nima va qanday hodisa ekanligi farqlab, aqliy faoliyat tizimining boshqa jarayonlardan ajratib olishimiz kerak.

## 2. Adabiy germenevtikaning taraqqiyot mezonlari

Badiiy adabiyot olamida eng muhim muammolardan biri bu-tasvir-lanayotgan voqea-hodisalarning ma’lum makon va zamonda shakllanishini belgilash muammosi. Vaholanki, bundanda muhimrog’i tasvir-langana voqea-hodisaning ma’lum sikl va maydondagi geometrik progressini anglab etish. Biz quyida badiiy asarni san’at sifatida inson borlig’idagi abstrakt kuch va qudratini hamda bu kuch – qudratning inson tarbiyasi uchun naqadar ahamiyatli nuqtalarini belgilashga harakat qilamiz. Buning uchun tasavvurda aks etadigan voqea-hodisalarning san’at namunasi sifatidagi o’zligini tushunib etishga intilamiz hamda buning barobarida ularning makon va zamondagi hissiy (sentimental) dunyosini tahlil qilamiz.

Sentimentalizm badiiy adabiyot san’ati, aniqrog’i umuman san’at dunyosining borlig’i, chunki san’at borligini faqatgina hissiyot, tasavvur bilan qabul qiladi, tasavvur bilan yaratadi, tasavvur bilan o’zgartiradi. Bas shunday ekan, san’at dunyosida inson tasavvur bilan yashaydi, tasavvurning negizi esa, hissiyot, borliqni hissiy anglab etishdir, bu

holat esa – sentimentalizm. Shuningdek, tasavvurda makon va zamon kategoriyalarining ham umuman ahamiyati yo'q. Chunki ular buyuk ramziy, ilohiy tushunchalar bilan istifoda qilinadi. Ilohiylik esa, har qanday makon va zamondan tashqarida bo'ladi.

Mavzuni yoritishda ko'zda tutilgan eng muhim holat bu inson tasavvurining mobil shakllarini yaratish. Vaholanki, germevika ham insonni tushunish uchun eng avvalo uning tasavvurini o'rganish, va uni yangilash, takomillashtirish, binobarin, har bir insondan uning borliq haqidagi tasavvurini yangilash orqali uning o'zini o'zgartirishga intiladi. Bizning vazifamiz har bir insonga o'zini o'zgartirishga uchun imkoniyat yaratish. Hech qanday boylik insonning ichki dunyosidagi uning ruhiy boyligiga teng kela olmaydi. Toki inson o'z ichki dunyosida tasavvur orqali cheksiz makon va zamonda sayr qiladi. Cheksiz makon va zamonda hukm suradi. Biroq tasavvurning pozitiv yoki negativ bo'lishi uning mentaliteti bilan bog'liq. Mana shu erda insonga germevika yordamga keladi. Chunki tasavvurlar har xil ekan, xulq, inson tabiatining biriligi haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Biz san'atda uning umuminsoniy qudrat orqali yorqin tasavvurlarni, insoniy nurlar bilan boyitish hamda keyinchalik mukammal tasavvurda paydo bo'lgan poetik fantazyalarni bashariy ufiqlarini butun insoniyatda birday yoritilishini ta'minlashga intilamiz.

Metamorfoza, katarsis kabi holatlar umumbashariy kontekstda odamlarning nafqat qiyofa biriligi, balki dunyog'arash, tasavvur kabi ruhiy-psixologik jabhalarining birilgini ta'minlay oladi.

Biz faqat insonga ularni umumlashtirish va yangi dunyog'arashni shakllantirish uchun buyuk insonlarning hayotbaxsh tasavvurlarining ko'chma shakllarini ko'rsatishimiz va ularni boshqalarga o'rgatishimiz kerak. Universal insoniy tasavvurlar yaratishimiz kerak. Mana shu o'rinda insonning boriligi va mavjudligidan dalolat beruvchi nutq vositalari unga yordamga keladi. Xususan, undov, chaqiruv orqali insonni buyuk ishlarga yo'llash yoki uning ichki dunyosiga turki berish mumkin. Siz haqiqiy san'at namunasi bo'lgan asarlarni o'qiganingizda shuuringizda mana shunday undov va chaqiruvlarni his qilasis, o'zingizni, borlig'ingizni va o'z dunyoingizni o'zgartirish vaqti kelganligini anglab etasis. Dialoglarda inson psixologik kechimmalari to'qnashadi, qarama-qarshi fikrlarda haqiqat toblanadi, uning tovlanishi orqali rangorang qiyofalari so'zga tushadi, javobsiz so'roqlar inson o'z ruhi

bilan yuzma-yuz qolganda paydo bo'ladi. Xuddi shu paytda odam o'zidagi, o'z qiyofasi va mentalitetidagi bor haqiqatni tan oladi. Germevikaning vazifasi mana shu haqiqatni insonning o'ziga o'z ruhi orqali tushuntirish, unga tasavvurlar kechimmasi va tasavvurlar uyg'unligi orqali yangi dunyoni, u hali tushunib etmagan dunyoni kashf qilish, poetik fantaziya orqali borligining cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib o'z haqiqat sayyorasini yaratishga yordam berish hamda aynan shu orqali uning borlig'ini, mentalitetini tubdan o'zgartirishdan iborat, mana shu holat germevika, boshqa til bilan aytganda borliq va insonning muvofiqlashuvi deb aytiladi.

Vaholanki, borligining har qanday nuqtasi, yoki holati insonda eng avvalo tasavvurida paydo bo'ladi.

Bizning vazifamiz buyuk idrok sohiblari buyuk ijodiyot sohiblari ekanligini nazarda tutgan holda ularning poetik dunyog'arash olamida yaratgan durdonalarini boshqalarga tasavvur orqali ko'chirishga yordam berish toki har qanday insonni tushunish, kashf qilish uning tasavvurini o'zlashtirish orqali yuz beradi.

Badiiy asarni anglab etish, tushunish, o'rganish, tahlil va tarjima qilish barobarida inson o'z tafakkuri saviyasiga muvofiq turli usul, uslub va metodlarga tayyanadi. Albatta, tarjimaning to'laqonli chiqishi jarayonida uni asarning barcha qirralarini shakllantirish orqali amalga oshirish zarurati bilan bog'liqligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Men bu o'rinda badiiy asarni ruhiy-psixologik nuqtai nazardan egallash, o'rganish va asarni to'laqonli hazm qilish borasida zarur bo'lgan ayrim momentlarga e'tibor qaralmogchiman. Vaholanki, asarni so'zsiz, ovozsiz tushunish, his qilish, boshqa til bilan aytganda asarni ruhiy-psixologik egallashning o'ziga xos imkoniyatlari ham bor. Faqatgina his qilingan holatni tasavvur orqali idrok etishning o'zi inson psixologik faoliyati misliis imkoniyatlarining in'ikosini yaratadi.

Tasavvur, hissiyot, fahmlash, tuyg'u... bular – badiiy asarni borligining umumparadoksal aksi sifatida to'laqonli tushunishning turli variantli bosqichlari bo'lib, ular har xil shakllarda psixofizologik jarayonlar bilan amalga oshadi. Biz bu o'rinda umuman san'at yoki so'z san'ati namunasini borliq, jamiyat, inson hamda uning mentalitetini ko'rsatuvchi san'at bilan bog'liq holda tushunish aspektlari haqida fikr yuritamiz. Bu holat yoki hodisani bir tomondan tushunish, ikkinchi tomondan esa, tarjima yoki talqin (interpretatsiya) deb ham atash

mumkin. Zero, asar namunasini borliqning xususiy bir in'ikosi sifatida olib qarash borasida alohida individual inson psixologik mamlakatiga, uning xususiy borlig'i, dunyosiga duch kelar ekamiz, uni tushunish, his qilish hamda atrofodagilarga tushuntirib sharhlab berish uchun avvalo uni o'zimiz tomondan etarli o'zlashtirishni ta'minlashimiz zarur. Bu esa, tushunish orqali yuz beradi. Vaholanki, tushunish jarayoni germenevitik metodning asosida yotadi.

Germenevitik metod ildizlari antik madaniyat davriga borib taqaladi. Yevropada bu fan m.a.3000 yilda paydo bo'lgan. Uning asl vazifasi o'zga tildagi fikrlarni tushuntirish-sharhlashga asoslangan edi. Germenevika (yun. Hermeneutika // "hermeneo-tushuntiraman, izohlayman" dan olingan) fani XX asr o'rtalarida ekzegetika (yun. exegetike//exegomai dan olingan-sharhlash haqidagi ta'limot)ga o'rin bo'shajib bergan. Germenevika ibtidosida (ko'p hollarda eskirgan, dasrlabki ma'nolari turli o'zgarishga uchragan) ma'nolarning birlamchi ma'nolarini tiklashga qaratilgan ta'limot edi. Qadimiy ma'nolarning dasrlabki ma'nolari davr o'tishi bilan o'zgarishlarga uchraydi yoki etarli darajada e'tibor berilmaganligi sababli ular shaklan shikastlanadi hamda to'laqonli o'qib o'rganish va tushunish imkoniyati yo'qoladi. Mana shunday mohiyati o'zgaragan ma'nolarni tiling leksik-grammatik imkoniyatlari orqali tadqiqdan o'tkazib, dasrlabki ma'nosini tiklashga qaratilgan fan germenevika demakdir. XXI asr boshlarida bu fanga yangicha rakursdan qarashlar boshlandi.

Germenevitik metodning asosida tushunish jarayoni yotar ekan, shu o'rinda tushunish jarayonining o'zi nima va u qanday yuz beradi, nimani va qanday tushunish kerak, degan savol tug'iladi. Vaholanki, germenevika ulkan haqiqatni, shu qadar ulkanki, inson izmi va hattoki, farishta va payg'ambarlar izmidan ham yuqori bo'lgan ulkan haqiqatni tushunish jarayonini shakllantiradigan fan yoki metod. Borliqni o'rganish aslida falsafaning vazifasi. Falsafa borliqning yaratilish qonun-qoidalari tizimini yaratadi, tizimlashtiradi va izohlaydi. Germenevika esa, mana shu tizimning muttasiligini tushunishga yordam beradi. Vaholanki, borliq inson izmidan tashqarida ekan, undagi voqea-hodisalar ham inson izmidan emas. Qolaversa, hatto jamiyatda ham hamma narsa inson xohish-istagi bilan yuz beravermaydi. Biz buni tushunish uchun germenevitik metod qoidalaridan foydalanamiz. Aynan shu holat uni ontologik fanlar qatoriga tenglashtiradi. Biroq germenevika ontologik

fan emas, u faqat metod xolos, biz yuqorida aytib o'tgan falsafiy muammoni echishning yo'llarini o'rganish va o'rgatishga qaratilgan metod.

Shu kungga qadar germenevitikaga murojaat qilgan olimlar uni dasrlab diniy falsafa doirasida paydo bo'lganligini va diniy asarlar tafsiriga qaratilganligini qayta va qayta takrorlaydilar. Borliqning yaratilishida uning Ulug' zot g'oyasidan paydo bo'lgan degan diniy qarash ustunligini e'tiborga olsak, bu erda hech qanday tushunmovchilik yoki ikki xil fikrlashga o'rin yo'q. Keyinchalik, germenevika jamiyatning turli sohalarida turlicha qo'llanadigan bo'lib qoldi; xususan, diniy, huquqiy, ijtimoiy va san'at germenevitikasi kabi. Bizning tadqiqot mavzusi bo'lgan adabiy germenevika san'at germenevitikasi doirasida o'rganiladi. Zotan, borliqni poetik (badiiy) qabul qilish xoh tosh, bo'yoq, sopol, yog'och yoki so'z orqali bo'lsin baribir san'at doirasiga kiradi. San'at borliqni psixologik qabul qilishda tasavvurga asoslanadi. Biz tasavvur doirasida nafaqat borliq va undagi muvozanatni, balki inson va tabiat ichki dunyosidagi muvozanatni shakllantirishni ham o'rganamiz.

Germenevika badiiy asarni o'rganishga metodik yondashuv doirasida bu jarayonning muttasil dinamikasini ta'minlaydi. Uning asosida badiiy asarni to'laqonli tushunish, uni egallash muammosi yotadi. Tushunish bir tomondan olib qaralganda intellektual hayot uchun hech qanday muammo tug'dirmaydigan hodisa, vaholanki, asarni tushunish, uning mundarijasini egallash til bilgan odam uchun hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydigan jarayondek tuyuladi. Ammo bu shunchaki, yuzaki holat xolos.

Aslida matnmi, badiiy asarni tushunish, uni egallash, hazm qilish juda katta ruhiy-psixologik jarayonlar faoliyatini talab qiladi: chunki har bir inson o'ziga bir odam, uning o'ziga xos ichki dunyosi bor. Mana shu dunyo badiiy asardagi obrazli tushunchalar vositasi orqali oziqlanadi. Mavjud dunyo asardagi obrazli dunyo elementlari bilan boyitiladi. Shundoq ekan biz badiiy asar tahlilida faqatgina ijodkor mentaliteti bilan chegaralanib qolmasligimiz darkor, chunki obrazli tasavvur, obrazli dunyo badiiy asar yaratilgan va u o'qilishi lozim bo'lgan jamiyat a'zolarining ruhiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Biz butun boshli jamiyat mentaliteti haqida fikr yuritganimizda shuni nazarda tutamizki, unda faqat ijodkorimizgina emas, balki ikkinchi bir odam, ya'ni o'quvchi-kitobxon mentaliteti ham muhim. Asar muallifi

bilan o'quvchi o'rasidagi fikrlash qobiliyati jarayonining o'zaro yaqin ruhiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy uyg'unligi kongeniallik deb ataladi<sup>1</sup>. Xuddi shu o'rinda o'quvchi kitobxon mentaliteti shtrixlarini chizishda bizga germevika yordam beradi.

Germevitik metodda Shleyermaxer ikki aspektni ajratib ko'rsatgan: 1-lingvistik aspekt, 2-psixologik aspekt. Bularning birinchisida asarning mundarijasini tashkil etgan so'zlarning grammatik, leksik-semantik imkoniyatlari asosida yaratilgan mazmun, mohiyat, voqea-hodisa, syujetning birlamchi mazmuni etakchi hisoblanadi. Ya'ni so'zlarning lug'aviy-grammatik ma'nolariga tayaniyadi hamda shular vositasida ma'lum bir voqea-hodisa in'ikosini yaratadi. Bu oddiy holat. Biz uchun muhimi esa, asar mahining mana shu birlamchi mazmuniga tayaniilgan holda undan yangi turli mazmun va ma'no, syujetlar, boshqacha qilib aytganda yangi voqea-hodisalar dunyosini yaratish, fantaziya qilish imkoniyatini shakllantira olish muammosi. Bunday tahlil psixologik aspekt deb nomlanadi. Va binobarin, bunday tushunish ham bir qancha metod va usulga tayanadi:

1. **Sillogizm**, ya'ni voqea-hodisalar shakllanishini induktiv va deduktiv metodda o'rganish yoki butunning qismga, qismining butungga munosabatini shakllantirish;

2. **Transformatsiya**, ya'ni voqea-hodisalar ruhiy-psixologik aspektida bir jarayonni ikkinchisiga ko'chirish, ya'ni rivoyat qilingan asar syujetini kitobxon tasavvurida turli sharoit va obrazlar ishtirokida turli mazmun, turli makon va zamonda shakllantirish. (Bu o'rinda butun adabiyot borliqni masal sifatida taqdim qilishi bois badiiy asar rivoyat sifatida olib qaraladi, undagi makon, zamon va antroponomik chegaralar yo'qoladi hamda insonga ruhan borliqning yolg'iz kuzatuvchisi va yaratuvchisi statusiga chiqa olishi imkoniyatini yaratadi);

3. **Tasavvur**, illyuziya, ya'ni asardagi voqea-hodisalar tasavvurda yaratish, ko'rish, shakllantirish, ya'ni badiiy asardagi konkret borliqni abstraktlashtirish imkoniyatidan foydalangan holda asar voqealar tizimini tasavvurga ko'chirish va uni o'z tasavvurida ichki dunyosiga aylantirish.

Bu metodlarning birinchisida biz barcha asarlardagi katta yoki kichik voqealarning umumiy uxud xususiy birligini tushunamiz. Har

bir asardagi xususiy bir voqea-hodisa bir tomondan ulkan va cheksiz borliqning bir ko'rinishi bo'lsa, ikkinchi tomondan o'ziga xos bir dunyo. Ularning o'zmi va ahamiyati eng avvalo o'zlari uchun muhim, chunki biz, ya'ni jamiyatning boshqa a'zolari ularning borligi va faoliyatini ko'pincha sezmay ham qolamiz. Asarni o'qish jarayonida o'quvchi uchun hayot, borliq, butun jamiyat faqat shu gahramonlarning atrofidagi mujassamlashganday bo'ladi.

Bu borada kognitiv tishunoslik ilmda ham ma'lum fikrlar ilgari borlgan: "Bilish metodlarini tanlashda birini ikkinchisiga (mas. induksiyanı deduksiyaga) qarama qarshi qo'yish noto'g'ri. Binobarin, yaxitlik va yakkaalik (alohida bo'laklar) munosabatini olsak, bunda bilish jarayonining yo'nalishi faqatgina yaxitidan yakkaalkka (induktiv) yoki aksincha, yakkadadan yaxitiga yo'naltilsa, kutilgan natijaga erishish amri mahol. Faylasufarning ta'biricha, induksiya va deduksiya tafakkur harakatining mustaqil shakllari bo'lishiga qaramasdan ular doimo jonli aloqada"<sup>1</sup>.

Bu o'rinda taqdim qilingan bilish metodi borliqni ratsional o'zlash-irishga qaratilgan. Germevitik tushunish esa, uni badiiy – sentimental tushunish kategoriyasi sifatida qabul qiladi. "Germevika bu – eng avvalo tushunish san'atining amalda qo'llanilishi demakdir... va bu o'rinda tuyg'uning alohida ahamiyatini ta'kidlash zarur"<sup>2</sup>.

Bunday tushunishda badiiy obrazlar butun jamiyatni o'rab turgan muhitni boshqaradilar. Kitobxon uchun mutolaa jarayonida o'sha muhit ruhan yagona jarayon bo'lib tuyuladi. Masalan, Chingiz Aytmatovdagi *Jamila*, Doniyor, "Choliqushi"dagi *Feride*, "Shaytanat" dagi *Asadbek* taqdiri o'sha asar doirasida etimon, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ashda esa, real hayotda, ularni o'rab turgan jamiyatda ularning hayoti sezilmusdan, tinch va osoyishta, ortiqcha shovqin-suronlarsiz kechadi. Biroq o'quvchi tasavvurida ular butun insoniyat taqdirida ulkan buri-lish yasaug'otgan siymolardek, butun jamiyat faoliyati ularning atrofidagi quyulg'andek bo'lib ko'rinadi, ularning atrofidagi hayot ular uchun to'laqonli bo'lsa, butun jamiyat uchun umumiy hayotning bita zanjiri, kolos. Biroq jamiyat va umuman borliqning o'zi mana shunday

<sup>1</sup> Сафиров Ш. Когнитив тылунослик. Жгззах: 2006. 48-6с.

<sup>2</sup> Hahn – Georg Gadamer, "Reflection on My Philosophical Journey" in *The Philosophy of Hans Georg Gadamer*, ed Lewis Edwin Hahn (Chicago and La Salle, Ill. ^ Open Court, 1977), стр. 33" Карвин: Тисельтон Э. Гермеvеvтика. – Минск: 2008. стр. 8

zanjirlardan iborat ekanligi ularning taqdiri to'g'risidagi syujetni umumlashariy hayotning ko'rinishi sifatida tasavvur qilishimiz uchun imkon beradi.

Badiiy asar mazmunini va syujetini transformatsiya qilish jarayonida biz butunlay begona inson taqdirini asardan olib o'z taqdirimizga aylantiramiz, ya'ni ijodkor yaratgan obrazlar bilan bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalar xuddi biz bilan, kitobxon bilan yuz berayotgandek, bo'lib ko'rinadi. Xuddi shu asosda biz asar syujetini o'z taqdirimizga transformatsiya qilamiz. Xuddi asar ichida, uning voqea-hodisalarini ichida yashayotgandek, tasavvur qilamiz o'zimizni. Bunday tasavvurni bizga ruhiy-psixologik transformatsiya taqdim qiladi. Bunda bir xil voqealar oddiydirladi, boshqalari esa, globalashtriladi. Yurakda jo'sh urayotgan his – tuyg'ular umumfazoviy global muammo bo'lib ko'rinadi, biz har bir ishimiz, har bir qilishimiz uchun butun insoniyat oldida o'zimizni mas'ul sezamiz. Binobarin, jamiyatga zid ishlarni qilmaslikka intlamiz, o'zimizni ruhan ulkan taqdirga tayyorlaymiz. Har qanday azob-uqubaga, har qanday sinovga ruhan tayyorlanamiz, o'zimizda ulkan sabr-toqat, ulkan kuch va matonatni eng avvalo ruhimizda shakllantiramiz. Bunday transformatsiya o'quvchi-kitobxonlarda ruhiylikni yaratadi, takomillashtiradi, uni ruhan chinig'itiradi. Uning vositasida buyuk adabiy asarlar har bir inson tasavvurida yangi syujet holatida aks etadi. Asar gahramonlarining yuksak insoniy fazilatlarini tarannum etuvchi faoliyatlari o'quvchida mana shunday faoliyatga ruhiy ishtiyotni uyg'otadi, uni ulkan hayotga munosib shaxs bo'lishga undaydi.

Transformatsiya talanti odamlar faoliyati va taqdiri uchun eng muhim hodisa bo'lib ko'rinadi. Zero, "Jo'shqin xayolot egalari hech qachon hech narsani xotirlab qololmaydilar. Ehtirosalar, ishtiyotlar, ayniqsa, ushalmay qolgan yoki namoyon bo'lmagan orzular, tushlar, timsollar, qiliqlar, xavotirlar, uyat tuyg'usi, xullas, har bir odam o'z yolg'izligini nima bilan to'ldirsa, shularning hammasi san'atkor uchun uning ijodiy laboratoriyasi bo'lib xizmat qiladi".

Transformatsiya jarayoni alohida salohiyatga ega talanti odamlar tomonidan keng va mazmundor amalga oshiriladi, zero ijodkorlik

<sup>1</sup> Паравлюевский Ян. С'ыз киндеси // Жахон алиблари адабиёт хақида.-Т.: Марнавийт. 2010. 293-бет

aynan mana shunday jarayonni talab qiladi. "Gyote chinakam ijodkorida dunyoni bilish tug'ma va har gal uning oldiga qo'yilgan vazifalarni oddalanoq uchun unga shaxsiy tajribaning xojati yo'q, deyishga haqqi bor edi".

Tasavvur kategoriyasi germevenitik tushinishda ijodiy fantaziyaning bazisi bo'lib xizmat qiladi. Unda biz o'zimiz uchun har bir asar doirasida har bir gahramon va har bir hodisa borasida alohida tasavvur yoki tasavvurlar tizimini yaratamiz. Shu tizim orqali ularning ustidan hukm chiqaramiz, ularni o'z dunyomizning mukliga aylantiramiz. Albatta, tasavvurning barkamolligi muammosi ijodkorning mentalitetiga chambarchas bog'liq. Uning Yaratgan tomonidan berilgan alohida ishe'dodi, talanti va qobiliyati binobarida badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirgan hayotiy tajribasi, insoniy fazilatlarini ham muhim rol o'ynaydi.

"Hayot ularning xarakterini shakllantirgan. Irodalarini, qalblarini, aql-zakovatlarini toblagan, o'pkalarini toza havoga to'ldirgan, aynishlariga, munkillab qolishlariga yo'l qo'ymagan, tajriba bilan boy'tigan, odamlar haqida, olam to'g'risida bilim bergan. Avvalo inson bo'lmog kerak, keyin san'atkor bo'lasan – bu fikrni ba'zilar baland ovozda baralla aytishgan, boshqalar esa, o'z hayotlaridan misollar keltirib, uni hech qanday shubha tug'dirmaydigan haqiqat ekani tasdiqlash bilan cheklanishgan. Ma'lumki, Dikens, Gamsun, Peymont, Konrad, Gorkiy hayotda xilma-xil mashaqqatlarni ko'rganlar, uning turfarang sinovlariga dosh berishga majbur bo'lganlar. Xo'sh, mana shu mashaqqatlar va shovlar ularning ijodi uchun juda qimmatli material bergan emas, deb kim ayta oladi? Urimendan boshlab to bugunga qadar butun Amerika adabiyoti haddan tashqari g'ayrioddiy yo'llardan o'tib kelgan odamlar tomonidan yaratilgandir. Ular shaxsiy hayotlarida shunaga ishlarni va shovotlarni ko'rganlarki, bunagasini boshqa mamlakatlardagi ko'pgina yozuvchilar hatto tushlarida ham ko'rgan emas. Ular o'z faoliyatlarini bilan o'z asarlarini uchun xomashyo barpo etishgan".

Bu o'rindagi yana bir muhim holat bu – fantaziya. Yuqori saviyada yaratilgan badiiy asarlar bizga fantaziya uchun material beradi. Shu shubhali asar doirasida o'zimiz yaratgan dunyoda o'z fantaziyanimiz

<sup>1</sup> Ий жолдан. 294-бет  
<sup>2</sup> Ий жолдан. 291-бет



ichida o'zimiz hukmronlik qilamiz, o'zimiz yaratamiz, o'zimiz yo'qqa chiqaramiz. Fantaziya faoliyati jarayonida kitobxon o'zini yuqori insoniy fazilatlar doirasida ko'rishga intiladi. Chunki uning nochor bo'lsa-da mavjud tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat e'tibori, jamiyat izzat-hurmati markazida aynan shunday odamlar turadi. Bunday ruhiy-psixologik jarayon insonni qalban, ruhan poklanishga olib keladi. Har qanday fantaziyaning bazasi tasavvur. Illyuziya-tasavvurni uyg'otish va shakllantirishdagi eng muhim holat bu – pafos. Pafossiz hech qanday san'at hech qanday poetika haqida gap bo'lishi mumkin emas. Chunki aynan pafos inson ruhini uyg'otadi, uning yaratuvchilik ishtiyogini boshqaradi. Aynan pafos fantaziya-dagi eng asosiy boshqaruvchi kuchdir.

Adabiyotda ijodkorning shaxsi, kundalik hayotdagi axloqi, tarbiya-viy mentaliteti unchalik muhim emas, balki uning yaratuvchilik talanti, iste'dodi muhim, chunki har bir ijodkor siyrati, qalbi, ichki dunyosining bir ko'rinishi uning asarlarida namoyon bo'ladi. Uning real borliqdagi yurish-turishi uning kimligini ko'rsatmaydi. Vaholanki odamlarning asl qiyofasi ularning niyatida aks etadi. Ulug' bir alloma aytganidek, "til insoniyatga uning asl maqsadini yashirish uchun berilgan", xolos. Asarda aks etgan alohida dunyo biz uchun ideal dunyoga aylanadi. Biz o'zimizni aynan o'sha dunyodagina baxtli his qilamiz. Biz mutolaa jarayonida ruhanamiz, ilhomlanamiz va o'z-o'zimizdan buyuk ishlarga chog'lanamiz, zero bilimimizki, "G'oyaning ulug' qo'ng'irog'iga zang urish vaqti keldi."<sup>1</sup> Aynan shu holatni Aristotel katarsis deb atagan edi.

Vaholanki, hayot, dunyo, borliq o'tkinchi, undagi vaqting para-metrlarini ham hech kim belgilab bera olmagan. Shu bois biz san'atda faqatgina uning mavjudligi haqidagi o'z fantazyalarimizni ijod qilamiz, xolos. Hayotning nimaligini, uning qandayligini faqat tasavvurda his qilamiz. Uning oldida o'z o'rijizligimizni o'zimiz yaratgan asarlarda aks ettiramiz:

Est tolko mig, est tolko mig...  
Mejdu proshlym i budushem.  
Imenno on pazyvaetsya jizn<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Парандловский Ян. С'яз кимёси // Жахон адиблари адабиёт хақида.-Т.: Манлавиат. 2010. 252-бет

<sup>2</sup> "Санниқовлар ери" фильмидан

Ha'zi olimlarimiz lirik asarlar germanevitik tahlil uchun material berib olmaydi; germanevitika faqat yirik epik asarlarda borliq manzaralarni yaratishga mo'ljallangan, shuning uchun lirik asarlardagi voqea yoki holat ko'lamii bunday metod uchun asos bo'la olmaydi, degan fikr bildiradilar. Keyingi vaqtda germanevitika borasida yaratilgan asarlar bunday qarashlarning noto'g'riligini isbotladi<sup>1</sup>. Har qanday germanevitika etuk tugallangan asarga tayanadi, bu aniq aksioma. Biroq lirik asarlarni tugallanmagan de'yish muammosi munozarali va shubhali.

Lirik asarlarning hajman kichik ekanligi ularni tugallanmagan asar de'yishga asos bermaydi. San'at asari o'zi qalanga olgan mavzuni to'laqonli ochib berishi shart emas. U shuning uchun ham san'at asariki, unda voqea-hodisalarning umumiy mazmun – mantiqiga faqat ishora bilan, allegorik tarzda hayola qilinadi. Vaholanki, san'at asari mazmun va mantiq bilan ta'minlanishi ham shart emas, chunki lirik asar oniy ruhiy-psixologik ekstazining mahsuli, undan qanday ma'no-mazmun olish yoki uni qanday istifoda qilish har bir kishining o'z shaxsiy mentaliy atmosferasidagi holatiga bog'liq. Biz bu o'rinda yuqoridagi allegorizm metodini yodga olishimiz lozim. Undagi induksiya va deduksiya bizning fantazyamizga ilhom beradi, makon yaratadi. Lirik asar esa, bunday fantaziyaning shakllanishiga xamirturush vazifasini o'taydi. Aforizimga aylanib ketgan boqiy misralarning ulkan ma'nolar ummoni hech kimni befarq qoldirmaydi.

Lirik asarlar-inson qalbining mitti kartinalari. Ularda shoir o'z qalb manzaralarini kichik, biroq nihoyatda yorqin rangli manzaralarda ifodalaydilar. Har bir rang: u xoh faktor, xoh original bo'lsin inson qalbining betakror bir shtrixini chizishga yordam beradi. O'quvchi asar mutolaaasi davomida yangi manzaralarni kashf etarkan hayratlanadi, ehtiros dunyosi ochiladi, borliqning yangi holatini qalban sezadi, tafakkur dunyosining yangi sarhadlariga chiqib olganini his qiladi. Xuddi shu holat unga yangi fantaziya uchun ilhom beradi. Bu o'rinda yuksak mahorat bilan yaratilgan Navoiy g'azallari, Umar Xayyom ruboiylari, Shekspir sonetlari, Cho'Iprou she'rlarining tugallangan asar ekanligi hech kimda shubha tug'dimasa kerak. Ularning har biri original qalb manzarasi ekanligi aniq va tan olingan holat.

Tushunishni san'at sifatida qabul qilganimiz bois uni san'atning

<sup>1</sup> Фиеллтон Э. Германевтика. пер. с англи – Черкасск. 2011. 430 стр.

rang-barang va betakorligi zamirida tushunishning ham paradigmatic manzarasi haqida gapirish o'rinli. Har bir inson o'z mentaliteti, o'z iste'dodi va yashab turgan muhitidan kelib chiqqan holda tegishli voqea-hodisani o'z holicha tushunadi. Uning biron bir sharoit yuzasidan tushunchasining noto'kisligi uning aybi emas, balki uning ibtidosida unga taqdir qilingan hayotning originalligi, ya'ni uning o'zini shunday yaratilganligi sababidandir. Biz hech qachon mushukdan yo'lbars yasay olmashimiz ganchalik haqiqat bo'lsa, ikki xil sharoitdagi odamlardan bir xil natija talab qila olmaymiz. Sog'lom raqobat muhitida eng avvalo shuni tushunib etish kerak. Biroq bu o'rinda korruptsiyani keltirib chiqaruvchi anarxiya istisno qilinadi.

Har bir inson unga Alloh tomonidan taqdir qilingan hayotni yashab o'tadi. O'z taqdiri in'ikosi davomida inson faqatgina yaxshi xulq, odob va ezgu ishlar tufayli umr mazmunini o'z foydasiga hal qilishi mumkin. Bu borada din falsafasi beqiyos adabiyotlar xazinasini yaratgan. Ammo yana biz hali tushunib etmagan shunday holatlar borki, ular faqat yolg'iz Yaratganning o'zigagina ayon. Turli taqdir jarayoni mobaynida ayrim insonlar o'zlari bilmagan holda borliqning yangi ranglarini kashf qiladilar, bu kashfiyotni his qilganlarida o'zlari geniy deb o'ylaydilar, va o'zlarini ulkan hayotga chog'laydilar. Biroq tan olishimiz kerak, har bir inson faqat taqdir qilingan hayotni yashaydi. Biz uning zimmasiga o'z tasavvurimiz, o'zimizga taqdir qilingan vazifalarni yuklab qo'yishga haqqimiz yo'q. Aksar hollarda jamiyatning turli jabhalarida odamlar o'rtasidagi kelishmovchilik mana shunday oddiy haqiqatni tushunmaslik oqibatida kelib chiqadi. Har bir inson tirik sayyora: uning o'z haqiqati, o'z zammini, o'rmonlari, daryo va ko'l, dengizlari bor. Uning o'ziga xos xarakteri, nimalarga qodirligini, biz undan kutishimiz mumkin bo'lgan vazifani tayinlash borasida aynan shu holni nazardan chetda qoldirmashimiz kerak. Tasavvur qiling: birini mukammal tushunadigan odamlar jamiyatida hayotning qanday birini bo'lishi mumkinligini?!

Badiiy adabiyotda biz bu holatni ancha murakkab ruhiy-psixologik manzarada ko'ramiz. Bizga taqdim qilingan badiiy asar namunasi bu alohida o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan iste'dod sohibining bizga g'oyibdan olib kelgan dunyosi. Biz bu dunyoni o'z holicha qabul qilishga majburmiz. U dunyo bizga qorong'u, biz ijodkor kashfiyotini o'z tushunchalarimiz o'lchovida o'lchashga haqqimiz yo'q. Taqdim

qilingan badiiy asar namunasi bizning mentalitetimiz, ruhiy-psixologik hayyotimiz, soddala til bilan aytganda es-hush, aql-zakovatimiz doirasida bizning ruhimizda aks etadi hamda ruhan tarjima qilinadi. Badiiy asarning so'zsiz tarjimasida deganda biz aynan shu holatni nazarda tutamiz.

Badiiy asar tahlili, talqini va tarjimasida asarning hamma qirralarini mukammal o'rgangan holda amalga olishirish zarur ekan, uni san'at namunasi sifatidagi vazifasini ko'zda tutgan holda inson psixologik dunyosining bir qismiga aylantirishning o'zi ham bir san'at.

### 3. Badiiy matn tushunish va aqliy faoliyat tizimi jarayonlari

Tushunish jarayoni natijasida bilim shakllanishini hisobga olgan holda yana ta'kidlash lozimki, **tushunish bilim emas**. Tushunish va bilim ikki alohida holat emas, balki bir butunlikdan iborat. B u boradagi xatolar asosan ularni o'zaro qiyoslash orqali paydo bo'ladi, shundan kelib chiqqan holda "San'at asari bilish ob'ekti" tipidagi mavzularga alohida e'tibor paydo bo'ladi. Bunday mavzular, umuman, germevtrikadan ayri holda yotadi, chunki ularni shakllantirishda ko'p hollarda germevtrik kirish yozishni unutadilar. Bunday kirish shuning uchun zarurki, bilish, ayniqsa, badiiy bilish, tushunishning darajasi va tushunish jarayonining xarakteridan kelib chiqadi. Bilish bilan tushunish xuddi egallash bilan o'zlashtirish o'zaro farqlanganday farqlanadi, bundan tashqari bilish xotirada saqlashga asoslanadi. Bilim miya faoliyati orqali harakatni qisqartirgan holda harakatdagi narsani aks ettiradi, tushunish esa, aksincha, harakatdagi ob'ekting barcha tomonlarini gamrab oladi. Shuning bilan bir qatorda xotirada saqlanayotgan bilim tushunishga ta'sir o'tkazadi, uning gorizontalarni kengaytiradi.

**Tushunish fikrlash emas.** Qaerdaki tushunish bilan chegaralanish imkoniyati bo'lsa, u erda fikrlash shart emas. Matn bilan ishlashda inson uchun germevtrik sharoitlar behisob, biroq fikrlash (qaerdaki ideal ob'ekt akslantirish vositasi bo'lganda) kam. Agar kommunikatsiyada uzilish yuz bermasa, tushunish engil ko'chadi, biroq fikrlash bu-azobli (jodiyotdir (ayniqsa, matn bilan "subbat" jarayonida). Shuning uchun individual inson matn retpisienti sifatida nazariy jihatdan kam fikrlaydi,

ko'prog tushunadi.

Fikrlash xuddi bilim kabi tushunishdan kelib chiqadi, keyin o'zaro faoliyatga kirishadi. Inson fikrlash faoliyatining har qanday shakli uchun tushunish fundamental jarayon hisoblanadi. Ko'pchilik holatlarda odamlar fikri tushunish orqali yaratadi, ayrim hollarda tushunish fikrlash orqali paydo bo'ladi. Shu sababli tushunilgan matni talqin (interpretatsiya) qilish imkoniyati mavjud va kengroq, shuningdek, interpretatsiya orqali tushunmaslikni bartaraf qilish mumkin: inson tushunishdan interpretatsiyaga qarab keladi, undan esa, yanada yaxshiroq tushunishga qarab boradi. Keyingi jarayonlar interpretatsiyani takomillashirishga xizmat qiladi, keyin yanada mukammal tushunishga va hokazo. Bir narsaning mohiyati boshqa narsaning mohiyatiga aylanadiki, bu hol matni tushunishda qo'llanganda tushunish darajasini chuqurlashtiradi.

**Tushunish va fikrlash birligi bu-tushunish va shakliy xulosalar birligi emas. Tushunish nafaqat ratsional jarayon, balki u hissiy-ratsional jarayon ham hisoblanadi.** Ixtiyor, istak sensor soha, uning tezlashuvi emotsiya — kechimmalar faoliyatining qaydiki, bu komponentlar qaydisiz hech qanday tushunish yuz bermaydi. Vaholanki, tushunish tushunchalarni hosil qilish imkoniyati, xolos. Aslida esa, tushunmaslik borligi o'zlashtirishning nonzariy shakli demakdir. Intuitsiyada tushunishning ko'plab bosqichlari paradoksal holatlar yaratadi. Ularni bartaraf qilish maqsadida alohida old bilim (idealistik fenomenologiya) yoki intuitiv talantga urg'u beriladi<sup>1</sup>.

**Tushunish ong emas.** Ong tushunishdan farqli ravishda borligini aks ettirish, taxmin qilish, boshqarish va munosabatlarni shakllantirish bilan farqlanadi. Ong bu-anglab etilgan borliq, ya'ni "men"ning "men emas"ga munosabati. Boshqa til bilan aytganda ob'ektiv borliqning sub'ektiv obraz, ya'ni psixik aksning oliy shakli sifatidagi ideal. Ongni tushunib etishning o'zi uni ong bilan bir xil hodisa emasligini ko'rsatadi. Binobarin, matnda aks etgan mazmunning o'zlashtirilishi ongni o'zlashtirish shaklida aks etadi. Tushunish bu ong emas ekan, ya'ni onglning bir shakldan ikkinchisiga o'tishi emas ekan, xalq tilidagi "men tushundim", "men angladim" shaklidagi birliklarning

teng ma'noda ishlatilishi ilmiy terminologiyada bir ekvivalent sifatida qo'llanmaydi.

Mohiyatan olib qaralganda germevntik sharoitni bozordagi baho talashish bilan qiyoslanishi mumkin: savdogarlar va xaridorlar baholash mexanizmini anglab etmaydi, biroq hammasi sharoitni tushunadi. Tushunish anglab etilgan holat ekanligi aniq, zotan refleksiya tanlangan interpretatsiyaning xarakterini egallab oladi. Biroq bu refleksiya va tushunish o'zaro munosabatlarining bir shakli, xolos. Ko'plab holatlarda esa, tushunish nafaqat onga teng bo'la olmaydi, balki unga muhtoj ham bo'ladi. Bizning ongimiz xotira hajmi shu darajada toriki, u hatto bir dona uzun egri ham yaxshi qamrab ololmaydi<sup>1</sup>. Vaholanki, shu narsani tushunish esa, ancha oson kechadi. Tushunib etish jarayonida ma'noni takomillashirish shu tartibda kechadiki, aytaylik kitobxon uchun 41-betdagi voqealar mundarijasi uning 1-40 — betlardagi matn mundarijasidan xabardor bo'lganligi uchun tushunari hisoblanadi. Biroq, bu degani, asarning shu qismidagi barcha ma'nosi anglab etildi, degani emas.

Tushunish bularning hammasidan yuqori va ulkan hodisa bo'lib, bu jarayon insoniylikning Yaratgan tomondan berilgan buyuk mo'jizasi. Aynan tushunish, insoning ruhiy borlig'ini Alloh yaratgan borliq bilan muvofiqdushuvining in'ikosini yaratadiki, biz aynan shu holat orqali borligini his qilamiz, tushunamiz, uni o'rganamiz, yangisini topamiz, yo'g'ini yaratamiz.

#### 4. Adabiy germevntikaning boshqa fanlar orasidagi o'zini

Adabiy germevntikaning predmeti aniq bo'lganidan keyin u boshqa hodisalardan ajratib olinadi va uning ilmiy fan sifatida o'zini va ahamiyati aniqlanadi.

Bu fanning ahamiyati muhim: uning predmeti — matni tushunib etish - ijtimoiy hayotda, shaxsiy hayotda, ta'limni tashkil qilishda jarayonida muhim rol o'ynaydi. Matni tushunish jarayoni keng shakllangan, bitoq kam o'rganilgan, chunki hamмага ma'lum hodisa sifatida bu fanning ilmiy qitralari ishlanmagan, o'zlashtirilmaganiki,

<sup>1</sup> Молчанова А.С. Эстетическая интуиция и развитие понятия о непосредственном знании.-В кн.: Принципы развития. — Саратов. 1972. стр.238.

<sup>1</sup> Чарлзшпингли Ш.Н. Проблема бессознательного в современной психологии.- Мюнхен. 1966. стр.39.

uning tegishli muammolari ayrimlar tomonidan e'tiborga olinmaydi, yoki boshqalari unga butunlay o'zga muammolarni tiqishtirishga intiladilar va uchinchi guruhdagilar esa, bunday muammolarni yo'qqa chiqarishga harakat qiladi. Shuning bilan bir qatorda matni tushunish – germenevtikaning predmeti sifatida borliqni matn orqali o'zlashtirishni ham tashkilloshiradiki, bu hol xulosa chiqarish, dunyoqarashlarni shakllantirish, sharoiti baholash, insonga o'z harakatlarni tavsiflash, bilim va munosabatlarni ishlab chiqish, kommunikatsiyaning barcha turlari – bola bilan mulqotdan tortib to madaniyat vositalarini nashr orqali etkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi hamda ular orqali aks etadi.

Germenevtika predmeti XX asrning 80-yillarida alohida ahamiyat kasb eta boshladi, zero ilmiy-texnika taraqqiyoti inson sub'ekti rolining o'rtishiga olib keldi. Buning natijasida ommaviy axborot vositalarida etkazilayotgan ma'ruza matnlarida aks etgan g'oyaviy kurashning minglab insonlar tomonidan tushunish yoki tushunmaslik orqali ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri bu holatga omil bo'ldi. Ilmiy-texnika inqilobi davrida tushunmaslik muammosi keng ahamiyat kasb etdi: tushunish kerak bo'lgan material hajmi ortdi, binobarin matnning tushunish zarur bo'lgan qirralari ko'paydi. Bunday sharoitning noma'lum, qorong'i tomonlari ham ochila bordi: ko'plab odamlar o'zlari uchun kerak bo'lgan tushunish yo'llarini tuta boshladilar, ya'ni tushunishda ijtimoiy garmoniya, tolerantlik tamoyillarini buzish hollari kuchaydi. Eng oddiy misol sifatida: "sen madaniy matni bunday tushunasan, men esa yo'q, ammo men o'z ishimni zo'r bilaman" tipidagi mulohazalarni qayd qilish holatlari kuchaydi. Ma'lumki, madaniyat asarlarini tushuna bilmaslik har qanday odamning o'z ishida salbiy ta'sir ko'rsatadi, avvalo texnika, savdo, maishiy xizmat sohalarida. Chunki bu sohalarda ko'plab odamlar bilan kommunikatsiyaga kirishish ularda kasb talabi. Kommunikativ faoliyatda sharoit refleksiyasi, ovozi va yozma nutqning turli tuman shakllarda aks etgan asar namunalarini bilish bunday kasb egalarining imkoniyatlarini oshiradi.

Shu bois adabiy germenevtikaning oxirgi maqsadi insoniyatga turli germenevtik sharoitda kommunikatsiyaga yordam berish – "til topishuv" yo'llarini o'rgatishdan iborat. Bu jumlagi nutq yoki boshqa tipdagi madaniyat yodgorliklarini resepsiyasida "qalb manzaralarini o'qish" va boshqa odamlarning kommunikativ faoliyatini tushunish hamda

insonni inson tomonidan tushuna olmaslikni bartaraf qilishdan iborat kommunikativ qirralarni mujassam qilsak, uning ahamiyati benazir ekanligi ma'lum bo'ladi.

Germenevtik faoliyatning pedagogik qirralari insonni kommunikativ refleksiyaga o'rgatishga qaratiladi, ya'ni germenevtik sharoitning ob'ektiv tomonlarini anglab etish ("U nimani etkazmoqchi?"), shuningdek, sharoitning sub'ektiv tomoniga ham munosabati shakllantirishi zarurligini ta'kidlaydi ("Men buni bilamanmi, agar blisam, qay darajada bilaman?").

Bunday holat natijasida germenevtik tadqiqotda belgilash lozimki, refleksiya qanday kechadi, qanday qilib tushunish matni to'g'ri, ob'ektiv talqin qilishga olib keladi, qanday qilib etkazilgan xabarining ob'ektiv va sub'ektiv (masalan, "Ahmad zo'r" degan gapning o'z va ko'chma ma'nosi yoki gapituvchining unga munosabati) qirralarini birlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Matni tushunib etishda mana shu tomonni birlashtira olish – chegaralarni birlashtira olish tushunish optimallarining variantlari zaruriy namunalarini yaratish kerak bo'ladi. Adabiy germenevtikaning bosh maqsadi mana shu sharoitni hammaga o'rgatishdan iborat.

Bu talabning ahamiyatini baholash mushkul, chunki "inson har qanday holatda ham ma'n bilan bevosita ish olib boradi, binobarin, real ob'ekt unga yoki oddiy, yoki tor ixtisoslikda berilgan"<sup>1</sup>. Inson faoliyatining eng ko'zga ko'ringan tomonlaridan biri matni tushuna olish va matni yaratish imkoniyatlari bo'lib, bu matn o'zga inson ichki dunyosini ochishga qaratilgan bo'ladi. Shu sababli matn nafaqat borliqning aksi, balki uning qismi hamdirki, bu, ayniqsa, ijtimoiy dolzarbligi bilan farqlanadi. Qachonki, til harakatdagi ong sifatida talqin qilinganda langue emas (ya'ni til munosabatlari sistemasi sifatida), balki langage – butun nutq faoliyati, boshqa til bilan aytganda, nutqni ishlab chiqarish va uni asarda qo'llash faoliyati nazarda tutiladi. Ya'ni verbal (tanlab olingan) matnlar: aks holati til sistemasi (langue), yoki tovushlar, so'zlarning qo'shilishi aktlariga (parole) emas, balki bu tizim qoidalariga muvofiq faqat nutq ishlab chiqarishga-inson faoliyatining kommunikatsiyaga yo'naltirilgan maqsadli va ongli faoliyatiga aytiladi.

<sup>1</sup> Дундаге Т.М. Уровень семиотической подготовки и функционирование информационной машины в обществе. – Вопросы философии, 1976. № 11. стр. 121.

Aynan matnda, til sistemasida emas, inson sub'ekti moddiylashadi. Qachonki, "til-sub'ektivlikning ob'ektivatori", deb aytganlarida hamda buni etimologik jihatdan isbotlashga uringanlarida uning isbotini doimo qadimgi matnlarga olib borib taqaydilar. Langue va langage orasidagi farqni ajrata bilimlik turli noto'g'ri nazariyalarni paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, inson borligini ob'ektiv aks etira olmaydi, chunki ong bu-til sistemasi. Shu sababli, matnlarni ob'ektiv tushunish imkoniyati yo'q.

Bu o'rinda matn tushunchasining o'zini keng va tor ma'noilarini hisobga olgan holda shakllantirib olish zarurati tug'iladi. Har qanday matn adabiy germevika uchun ahamiyatli, binobarin adabiy germevika fan sifatida faqat ajratib olingan matlar bilan shug'ullanadi. "Matn" so'zining eng keng tafsili shundan kelib chiqadiki, matn moddiy predmet bo'lib, uning genezisida inson sub'ektiv faoliyati ishtirok etgan holat, inson maqsadli faoliyatining mahsuloti sifatida qabul qilinadi. Tor ma'noda esa, matn-ishlab chiqarilgan nutq.

Keng ma'noda matn yaratish jarayoni o'zi ishlab chiqargan mahsulotda qotib qolgan sub'ekt sifatida olib qaraladi. Uning g'oyaviy, aniqrog'i badiiy mahsulotga aylanishida yuqoridagi narsalik belgilari ruhan talqin qilinadi. Shunday qilib, badiiy matn sub'ektivlikning ruhiy narsalikka o'tishi sifatida baholanadi. Bu tizimda ongning real narsalikka aylanishi inson sub'ektiv faoliyatining mahsuloti sifatidagi holat tarzida kuzatiladi. Matn talqinining bunday usullari uni tushunish jarayonida madaniyat namunalari ni butunicha tushunish, egallashga, o'zlashtirishga olib keladi. Yoki uning xilma xil namunalari ni (xususan, musavvirlik, me'morlik, badiiy matni) ayri-ayri holda tushunishni alohida-alohida qabul qilish holatini ko'zda tutadi. Bu hol adabiy germevikaning madaniy germevikaning bir ko'rinishiga aylantirib qo'yadi.

Ikkinchi xil munosabatda narsalik refleksiyaning natijasi sifatida qaraladi. Bunday holatda barcha germevitik faoliyat ongning birlamchiligiga asoslanadi. Badiiy matning haqiqiy mazmuni yoki mohiyati sub'ektiv reallik in'ikosi ekanligi haqidagi ta'rif bunday holatda butun borliqqa nisbatan qo'llanadi. Germevitik tadqiqotning bunday usuli

<sup>1</sup> Cassirer E. Philosophie der symbolischen Formen. B. I: Die Sprache.- Berlin. 1923. стр. 208.

talafvada Edmund Gussertl (1859-1938) g'oyalarga asoslanadi. Bunday qarashning eng muhim xatosi ayrim shaxsning hayot haqiqati haqidagi kuzatishlarini universalishtirishdan iborat. Bu hol bir xususiy xulosani ommaniyki qilib ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

Gussertlning o'zi ta'kidlaganidek, bunday kuzatishlarda inson ichki dunyosi tasvirlangan badiiy matnda ruhiy kechimmalar moddiylashirilgan bo'ladi. Keyinchalik bu metod Gussertlning "dunyoni inson hissiyotlarining moddiylashgan shakli" degan fikrga olib keldi. Gussertlning keyingi izdoshlari bu metodikani rivojlantirib, shunday xulosaga keldilarki, madaniyat yodgorliklari, xususan, badiiy matnlarni haqiqatgina idealistik nuqtai nazardan o'rganish mumkin. Shunday qilib badiiy matn yaratilishi va o'rganilishida zehn, uquv, farosatning "mutloq ustunligi" o'rnatildi. Dunyoni anglashning reflektiv asoslari inkor qilindi.

Germevitik faoliyatda matn fenomenologiyasi alohida metod sifatida faqat idealistik nuqtai nazardangina qo'llanishi mumkin. Binobarin, matn fenomenologiyasi real sharoitni inkor qiladi. Gussertl va uning tarafdorlari fikriga ko'ra hissiyot yoki ong taraqqiyoti real sharoitdan ayri holda yuz bershishi mumkin. Bu hol tarixda ma'lum muhitdan istisnoli holatda buyuk talantlarning paydo bo'lishi bilan ham izohlanadi.

Shuning bilan bir qatorda ma'lum holatlarda badiiy asarning matn imkoniyatlari individ yashab turgan real muhitga ham bog'liq. Hattoki, real matn qirralari insonni o'rab turgan muhitga nisbatan refleksiya tarzida ham shakllanadiki, ma'lum bir matn materialini real muhitdan kelib chiqqan holda korrelyasiya qilishga qaratilgan bo'ladi. Umumman olganda matn fenomenologiyasi metod sifatida muallif ongida matn yaratilishining bir usuli sifatida olib qaralmog'i lozim.

Adabiy germevitikada matn tugallangan (nihoyasiga etgan) material sifatida olib qaraladi va aynan shu xususiyati uni adabiyotshunoslik, adabiy tanqididan ajratib o'rganilishi uchun asos bo'ladi. Adabiy tanqid ma'lum bir asarning milliy madaniyat taraqqiyotida tutgan o'rini o'rganadi. Shuning uchun adabiy germevitikada, matni tushunish jarayoniga asoslangan holatda matndagi uzilishlarni o'rganish yoki to'ldirish zarurati tug'iladi. Har bir uzilish muallif niyati, maqsadining birilgini ta'minlaydi, shuning bilan bir qatorda asar g'oyaviy mazmuni ko'tarishda yordam beradigan fragment hisoblanadi. Hammaga ma'lumki, adabiyotshunoslik ham, adabiy germevika ham, ling-

vistika ham tushunish jarayonining turli tomonlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Adabiyotshunoslik tushunishning epifenomenlarini ijtimoiy holat sifatida olib qaraydi. Germenevtika esa, tushunish jarayoni va uni optimallashtirish holatlarini tahlil qilisa, lingvistik matni tushunishni tashkil qiladigan fragmentlarning shakli xususiyatlarini o'rganadi. Shu sababli adabiyotshunoslikning tadqiqot metodi matn "parcha"sini o'rganishni talab qiladi. Bunday parcha roman janridagi asardan kichik bo'lmastigi kerak. Lingvistika metodikasi esa, mana "parcha"dagi badiiy-tasviriy vositalarning tabiatini ochib berishga qaratilgan bo'ladi.

Germenevtika uchun butun borliq matndan iborat, shuningdek, borliqdagi har bir ob'ekt va sub'ekt ham erkin va yaxlit matni tashkil qiladi. Modomiki, har bir holat o'ziga xos tugal shakl va mazmunga ega ekan, demak u matn. Matnning bunday tavsifi uni universallashtiradi. Sillogizmida induksiya va deduksiya butun va qismlarini o'rgananidek, germenevtika matnning dinamik va statik holatlarini uning o'z qismlaridan kelib chiqib, ratsional va psixologik parametrlarda o'rganadi.

Germenevtika bilan shug'ullanuvchi filolog uchun adabiyotshunoslik va lingvistika imkoniyatlari noma'lum emas. Biroq u butun boshli matn bilan emas, balki uning parchasi bilan ishlaydi, uning g'oyaviy-mazmuniy birligini tashkil qiladigan parcha, epizodlari bilan shug'ullanadi. Bunda ma'no komponentlarining aloqasi va insonning o'rtacha mnemik (xotira) imkoniyatlariga muvofiq olingan parchadagi voqealar tizimi o'qilayotgan materialda boshdan oxiriga qadar voqealar tizimini yodda saqlashga mo'ljallangan bo'ladi, inson mana shu yodda saqlangan parcha orqali ma'lum germenevtik talqimga erisha olishi dardkor.

Filologik fanlar orasida germenevtika adabiyotshunoslik va lingvistika orasidagi joyni egallaydi. Agarda bu uch fan bo'yicha tadqiqot ishlarida alohida shug'ullanish mumkin bo'lsa-yu, biroq nazariy tadqiqotlarda muvaffaqiyatga erishishning optimal yo'llari topilmasa, unda tushunishning amaliy, pedagogik yoyilishini ta'minlash borasida faqatgina bu uch fanning ilmiy-amaliy imkoniyatlarini birlashtirgandagina natijaga erishish mumkin bo'ladi. Bu uch filologik fan bo'limlari o'ziga xos axborot jarayonlarini yaratadiki, ularda sub'ektiv reallik matn vositalari bilan etkaziladi, biroq matnda aks etgan

intellektning turli qirralarini ochib berish orqali amalga oshiriladi.

Xususan, germenevtika yoki adabiyotshunoslik emas, balki ayran adabiy tanqid matn doirasida badiiy to'qima, fantaziyaning darajasini aniqlab beradi. Biroq ulardagi fikr – g'oyaning korrelyatsiyasi aniq, real inson o'y-fikrlari, ruhiy kechimmalari bilan beriladi. Lingvistika bunday vositalarni til inventari sifatida qabul qiladi. Lingvistik tadqiqotda epizodda badiiy tasviriy vositalarning asar g'oyasini ochib beruvchi quril sifatidagi ahamiyati uni qiziqitmaydi. Xususan, lingvist yozadiki, "Navoiy" romanida Oybek ruhiy holat in'ikosini ochib berish uchun holat fe'llari, ravish, ravishdosh, otlarning turli kelishiklarda qo'llangan shakllari, sifat, hol hamda o'xshatish yuklamalari va hokazolardan foydalanadi.

Bunday aniq, ravshan ma'lumot o'quvchiga konkret matn mazmunini tushunishga yordam bermaydi. Vaholanki, adabiyotshunosning "Alisher Navoiy ijodiy merosi XV asr ensiklopediyasi" degan fikri kabi tushunarsiz bo'lib qoladi. Chunki o'quvchi bu frazadagi mazmunni tushuna olishi uchun Navoiy asarlarining matn mazmunini egallagan bo'lishi dardkor.

Adabiyotshunoslik ham, germenevtika ham, tishunoslik ham matni tushunishga mo'ljallangan fanlardir. Biroq bu tushunish ularning hammasini o'zaro uyushuvi asosida to'laqoni bo'lishi mumkin. Bundan tashqari germenevtikaning boshqa turlari ham mavjudligini hisobga olish zarur. Ular bevosita adabiy matni tushunishga asoslanmagan bo'lsa-da, ularning tushunish borasidagi metodi va texnikasi bilan hisoblashish zarur bo'ladi. Bularning birinchisi **semiotik germenevtika** – tushunishning barcha jarayonlarini insonning reflektiv qobiliyatini abstraktlashtirgan holda belgi shakllarini dekodirovat qilishga intiladi. Ikkinchisi **san'at turlari germenevtikasi** – adabiy germenevtikadan tushunish uchun tanlangan materialning xarakteri nuqtai nazaridan farqlanadi. Uchinchidan **istoriografik germenevtika** – tarixiy hujjatlar va guvohnomalarni o'rganishga qaratilgan. Unda ma'lum yoki noma'lum muallifarning asarlarida aks etgan nutq shakllari tadqiq qilinadi. Asosiy e'tibor bu yerda muallif sub'ektiv qaratiladi. To'rtinchidan **yuridik germenevtika** – og'zaki yoki yozma nutqdagi atayin yashirib qo'yilgan ma'noni aniqlash usullarini topish bilan shug'ullanadi. Beshinchidan **falsafiy germenevtika** – universal ontologiya va universal metodologiya vazifasini bajarishga intiladi.

So'nggisi adabiy germevenitkaga eng kam dohili bo'lgan fan bo'lib, ko'plab hollarda uning tarafdorlari matn tahlilini ontologik xususiyatlari bilan izohlashga harakat qiladilar. Binobarin ularda tanlangan matnlar faqatgina g'oyaviy maqsadlardagina o'rganiladi. Ya'ni "tinni tushunish" ularningcha "dunyoni tushunish" usuli bilan avtomatik ravishda almashib ketadi. Bu soha tadqiqotchilarining faolligi bunday tahlilga "metod" sifatida Freyding psixanalizini jalb qilganda yanada ortib ketadi, qachonki, inson sub'ektni individning o'ziga noma'lum turli manfur ishtiyog va istaklar uyasiga aylantirib qo'yilganda. (mas. Habermas 1973).

Ko'rinib turganidek, hozirgi filologik va nofilologik fanlar orasida germevenitka o'ziga xos o'ringa ega, shuningdek, o'z tadqiqot manbai va metodikasiga ega. Bu fan fanning hozirgi holati tasodifiy holat emas, chunki adabiy germevenitka bir necha asrdan buyon muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelmog'da.

### 5. Adabiy germevenitka tarixidan

Qadimda faqat adabiy germevenitka bor edi, xolos, biroq uning natijalari eng qadim zamonlardanog amaliy tishunoslik va matnshunoslik taroqiyotiga xizmat qila boshladi. Manuning sanskritda yozilgan qonunlaridayog so'roq qilinayotgan odam ko'rsatmalarining paralingvisitik belgilarini baholashda haqqoniylik kategoriyalari belgilanadi. Yevropa va Sharq antik adabiy an'alarida doimiy takrorlanadigan umumiy holat shundan iboratki, asarning ifoda vositalari nutqda aks etgan holda sub'ektiv shaxsning ichki dunyosiga yo'l ochadi, chunki insonning ruhi uning so'zida, nutqida namoyon bo'ladi. Qator xalqlar paremiologiyasi bizga maqollar orgali buni tasdiqlash imkonini beradi. Suqrot, Goratsiy, Platonlar ham o'z asarlarida insonni nutqiga qarab baholanishini aytib o'tganlar.

Hermeniya termini birinchi marta Essil va Platon tomonidan qo'llangan. Germevenit deb tushunishga yordam beradigan yoki tushunish hunarini o'rgatadigan odamni ayitishgan. Ta'kidlanishicha, "germevenit" so'zi Germes—Olimp xudolarining elchisi va ularning buyruqlarini ta'bir va talqin qiluvchi xudo nomidan kelib chiqqan. Bu borada antik

germevenitlarning shartli ham bor<sup>1</sup>.

"Qalb harakatlari" va nutqning ifoda vositalarining aloqadorligi haqidagi fikr hamda "ichki tajriba bayoni" imkoniyatlarini "oliy materya"ga o'kazishni falsafiy mashqlarga aylantirish xususida neoplatonchilarning fikrlari mavjud. Bu hol falsafiy germevenitkada verbal matnlarida "ichki ko'rishning nurlanishi" metodini yaratishga olib keldi. Sub'ektiv reallik xristianlikda "tafakkur shakli" sifatida qabul qilindi. Tushunilgan mazmunning etakchi komponenti deb ongning umuman taqdimot imkoniyati degan fikrlarga asoslanildi. Ongdan tashqari psixik qabul mazmundan ham yuqori holat deb baholandi, bular anglangan refleksiya orgali o'zlashtirilgan yoki hatto ratsional talqinning anglangan refleksiyaga bo'ysungan shakli deb hisoblangan. Tabiiyki, bir necha asrdan so'ng xristianlik ommaviylashgan davrda musiqiy matnlariga alohida e'tibor qarattildi, chunki musiqiy matn to'g'ridan to'g'ri nominativ belgilaridan holi matn sifatida verbal matndan engilroq mazmunning irratsionalistik shaklini tashkil qilishga yordam beradi (erdagi hayotdan voz kechish, mistik mazmun, diniy ekstaz).

Tushunish jarayonida doimo nonazariy intuitiv birlamchilik bor bo'lib, u diskursiv birlamchilik bilan dialektik birlikda bo'ladi. Antik germevenitkaga nisbatan o'rta asrlarda tushunilgan materiahing—rasm, musiqa, badiiy asar sintezining tan olinishi bir qadam olg'a bosish edi. Shu sababli diniy manbalarda ritorik va germevenitik qarashlar chuqurlashdi. Notiq Prokopi (gazlik) kartinalarni "badan a'zolari orgali qalb manzaralarini o'qish" tamoyili asosida tahlil qilgan. Filostrat Kichik (Vizantiya) qayd qiladiki, she'riyat va musavvirlik "ko'rinmas narsalarni ko'rnadigan" qilish imkoniyatiga ega.

Antik davrda ma'no va uni ifodalovchi vositalarning birligi haqidagi tasavvurlar xristianlikda mazmunning mutloq ustunligi haqidagi ibhonch bilan almashirildi. Xristianlik allomalarining biri bo'lgan Grigori Nisekiy ta'kidlaydiki, san'at asarida kartinaning turli ranglarini yoki matning "so'z bo'yog'larini" emas, balki "g'oyasini ko'rish" kerak. Germevenitkanning his qilingan shakllar orgali mazmunni egallash shaklidan voz kechish, ma'noni "to'g'ridan to'g'ri

<sup>1</sup> Geisener H. Zur Hermeneutik der Gesprochmen. — In: Sprechen — Horen — Vorstellen — Wuppertal. 1968.

ko'rish" oldidagi quvonch, ma'no va matn shakllarining muvofiqdigi tahtlidan tiyilish-interpretatsiya (talqin)dagi sub'ektivlik manba sifatida talqin qilish holati halgacha saqlanib kelmogda. Grigoriy Bibliyaning turli erkin talqinlarini yaratdi. Bu borada ayrim badiiy obrazlarni ma'lum bir voqea-hodisalarning izohlash vaqtida foydalandiki, ularni o'ylab topish cherkov bid'atlarini istisno qilish va muallif sub'ektivizmining uyushgan ijodini tashkil qilard edi. Grigoriy davridan boshlab xristianlik germenevtik faoliyatda g'aroyib ravishda matndan olingan barcha g'oyalard va matnga kiritilgan mantiqning mulqoq o'zgarishligi haqidagi tasavvurlar ustuvorlik qila boshladi.

"Mugaddas germenevtika" bir yarim mng yil davomida savodli odamlarni ilmiy matnlarni talqin qilishda, shuningdek, og'zaki va yozma nutq asarlarini tushunish texnikasini shakllantirishda chalg'itib keldi. Shu sababli filologiya va madaniyat taraqqiyoti uchun XVII-XIX asrlard oraliq'ida yaratilgan F. Volfgang (Fr/A/Wolf, 1979-1824) "Vorlesungen uber die Enzyklopedie der Altertumsweis-senschaft" nomli kitobi muhim rol o'ynadi. Volfgang asar asosiga qo'ygan "boshqaning fikrini u o'zi qanday tushunsa, shunday tushunish kerak" shaklidagi mantiqiy dialektikadan uzog bo'lsa-da, har holda uning bu asari ilmiy kitoblarni talqin qilishda ijobiy rol o'ynadi. A.Bekning ilmiy tadqiqotlarida adabiy germenevtika va filologiyaning vazifasi "inson ruhi orqali yaratilganmi bilish, ya'ni anglanganni bilish" deb hisoblandi. Bu erda "individual talqin" nutqda aks etgan sub'ektivlikka yo'naltirildi.

Volf va Beklarning yo'nalishlari hozirgi filologiyada ham qo'llanmogda. Bu yo'nalishning kamchiligi - ratsional interpretatsiyaning ustuvorligini tan olish, binobarin, tushunishni etarli baholay olmaslik, "yagona talqin"ga qat'iy ishonch, germenevtik sharoitda ongdan tashqari tushunish jarayonini (his qilishni) inkor qilish, germenevtik metodikada uzog vaqt yangi g'oyalarning mavjud emasligidan iborat. Unda matn xuddi ma'lumot sifatida qabul qilinadi, o'zgarayotgan ijtimoiy muhitning qismi sifatida emas. Filolog-interpretator "haqiqatni eng oxirida biladi" degan g'oyaga ishonch yaratuvchi -ijodkorning "haqiqiy qalb manzaralari" haqida bilishi zarur, degan tushuncha germenevtikani sub'ektivizmga yanada yaqinroq olib keladi. So'nggi fikrlarga turtki beradiganholalardan yana birkeyingi vaqtlarda filologlar orasida tarqalgan pozitivistik metodologiya bo'lib, unda tushunishni tabiiy fanlarning modellashitirish uchsullari orqali o'rganish mumkin

degan fikrlar. Bunda pozitivistlarning fikricha tushunish "materiya", "og'zaki", "jamlashitirish" kabi tushunchalarga muhtoj emas.

Bu xil nazariyalar fan metodologiyasiga singar ekan antipozitivistik germenevtikani pozitizmdan avvalroq keng ommaga singib ketishi uchun imkon yarardi. Xususan, F.Shleyernaxer (1768-1834), ob'ektiv - idealistik germenevtika asoschisi tushunishni xuddi "fikrlayotgan ruhning o'z-o'zini topishi", ya'ni "bir ruhning boshqasi bilan uchrashuvi" yoki "ikki ruh birlashuvi"ning matnda materiallashgan ong sifatida olinishi sifatida talqin qiladi germenevtikani. Germenevtik muhtabning yana bir namoyandasi Ast yozganidek, "hammasi yagona ruhdan tarqaydi va yana yagona ruhga birlashadi".

Ob'ektiv idealistik germenevtikaning bu iborasi ijtimoiy hodisa sifatida tushunish haqidagi tasavvurni afsonalashitar ekan, haii tushuncha va "tushunish", "ong" (ruh) termin sifatida umuman qo'llanmagan pozitiv germenevtikaning tadqiqot usuliga tamomila qarshi chiqadi. Bilimning shakllanishi pozitivismda "gapirish" termini bilan yuritilgan, gapirish tabiiy va ijtimoiy bilimlar in'ikosi uchun bir qo'llangan. Kategorial va umumiy tushunchalarning ishlab chiqarilmaganligi adabiy, falsafiy va boshqa turdagi germenevtikaning taraqqiyotiga to'sqinlik qildi.

Germenevtikaning yangilanishi uning taraqqiyotidagi ma'lum bir muddadda bilim shakllanishi borasidagi ob'ektiv-idealistik qarashlar taraqqiyotiga munosabat sifatida shakllandi. Gapirishning tabiiy - ilmiy metodlarini absolyutlashitirishga yo'l qo'ymaslik borasida qoidalar ilgari surildi. O'xshashliklarni assosiz mutloqlashitirish tabiiy - ilmiy va ijtimoiy bilimlarda ularni assosiz ravishda qarama-qarshi qo'yish bilan almashitirildi, bu dialektikani tan olishni istamagan idealistik maktablarning to'qnashuvidan kutiladigan hol edi. Shuning bilan bir qatorda nazariy pozitisiyalarning bunday to'qnashuvi germenevtika taraqqiyotiga xizmat qildi. Biroq qarama qarshi tomonlar baribir germenevtik sharoitning tiplashitirish kriteriyalarini ishlab chiqish borasida tabiiy xulosalarga kela olmadilar. Har ikki germenevtik maktab tarafdorlariga xos bo'lgan holat ularning o'z yo'nalishlarini universallashtirishga intilish, ya'ni hamma uchun va har qanday holarda qo'llashga intilishdan iborat edi. Bu hol ularga matn mazmunini ham, bu mazmunni o'zlashtirish sharoitini ham, o'zaro ob'ektiv va sub'ektiv munosabatlarda shakllanadigan germenevtik sharoitini ham,



boshqa matnlarda aks etadigan faqat insonga xos kategoriyalarni ishlab chiqishda ham yangi holatlarni sezish imkoniyatini bermadi.

Y. Drayzen tomonidan XIX asr o'rtalarida birinchi marta "izohlamog" va "tushunish" terminlari qarama-qarshi qo'yildi. Bu borada "gapirish" termini tabiiy fanlarga nisbatan, ikkinchisi esa, gumanitar fanlarga nisbatan qo'llanildi. Xuddi shu shaklda "his qilish" (empatiya) talqin etildi. Shunga muvofiq nazariy g'oyalari V. Diltey tomonidan ilgari surildi va sintezlashirildi. U o'zining qator tadqiqotlaridav shunday fikrni shakllantirdiki, "ruh haqida fan"da tushunish kechimga teng deb olinadi, shu sababli germevenika "tushunish psixologiyasi", ya'ni kechimmalarni tavsiflash metodi deb e'lon qilindi. Kechimmalar ifodada jo bo'lganligi sababli, germevenik tushunish o'ayotga intuitiv singishni amalga oshiradi, deb qayd qilindi.

Shu o'rinda Diltey e'tiboridan chekda qolmagan bir holat shuki, inson uchun o'z shaxsiy va begona kechimmalarni tushunish bir xil narsa emas, shu sababli turli germevenik metodlar taklif qilingan, xususan, introspeksiya va empatiya. Bu metodlarni mustahkam byuirlashtirgan holat shuki, tushunisho' "men sendagi men" shaklidan qabul qilishdan iboratki, unga ko'ra "ruh faqat u yaratganimgina tushunadi" shaklidagi holatdan iborat. Yub'ektiv dunyo "kechimmalarning bir qismi" deb e'lon qilindi, tushunish esa, borliqning o'zlashtirishigina deb emas. Hayotning ifodasi deb ta'riffandi.

Bu kabi yo'nalishlar germevenikada chuqur umumnazarly xatoliklarga asoslangan bo'lsa-da, ya'ni ular hali afsonaviy xayolot darajasida bo'lsa hamularda ma'lum darajada ratsional asos bor edi. Birinchidan, matn "sub'ektivlikning yozma fiksatsiyasi" deb qabul qilindi. Bu ta'rif ma'lum germevenik sharoitlarda badiiy matnlarga nisbatan qo'llash uchun to'g'ri keladi. V. Diltey bu ta'rifi tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi asosiga olgan holda universallashtirdi, biroq lirik adabiyot bo'yicha tadqiqotlarda bu nazariy fikrlar nihoyatda kuchli samara berdi. Ikkinchidan, adabiy germevenika uchun xos holat shuki, turli shakllardagi matnlar bo'yicha tushunish orqali individual bilishning shakllanishi turlicha kechadi. Agar men er gravitatsiyasi haqidagi matni tushunmasam ham barbitor gravitatsiya menga ta'sir qilaveradi; agar men Navoiyning "Hayrat ul abror" dostonining matnini tushunmasam, uning matnining hoyaviy-badiiy mazmunini menga zarur ta'sir o'tkazolmaydi. Agar har ikkala matni tushunsam, ya'ni

matniga bilimimni oshirsam, bu bilim har ikki holatda turlcha bo'ladi. Haricchi matn muallif uni shunday tuzganki, unga ko'ra mening fikrlash jarayonim matn mazmuniga nisbatangina qo'llanadi. Ikkinchi matn muallif matni faqat bo'lajak bilimning qismini dasturlovchi mazmun sifatidagina tuzgan emas, balki menga tanish bo'lgan fikrlar dasturi asnosida tuzgan.

Navoiy asari matnining mutolasi jarayonida o'quvchida jonli mavajada hissiyot, holat va munosabat uyg'onadi, ularning refleks-haygan munosabati o'quvchi shaxsiga ongga ta'sir qilmagan holda ko'chadi hamda faqatgina reflektiv tajribani o'xshash natijasi sifatida shakllanadi. "Kechimma" terminini qayd etilgandavrdan e'tiboran germevenik tajribada matn orqali nurlantilganongsiz yoki yarm ongsiz tajriba refleksiyaning his etilgan, holat va munosabatlari uchun qo'llana bo'shlandi.

Binobarin, matn interpretatsiyasida kechimmalar ongli ravishda reflekslashadi hamda matn haqidagi bilimning belgisiga aylanadi. Ular turli hisoniy vositalar orqali yoki so'z bilan aniq va batafsil ifodalaniishi mumkin, ya'ni xuddi ma'noli kechimmalar singari. Ma'lumki, kechimmaning "intuitivligi" uning ommalashtirishning yagona usuli emas; badiiy matn interpretatsiyasi izohning bir turi, shuning bilan bir qatorda u xuddi ximik yoki fizik faoliyat kabi filologik faoliyatning zaruratidir. Ilmiy matn reispientda (qabul qiluvchida) belgili kechimmalarni tug'dirishi mumkinki, ular ongli yoki ongsiz ravishda reflekslashadi. "Izohlangadigan" va "tushuniladigan" fanlar o'rtasidagi farqni absolyutlashitirish xatodir. Biroq aynan shu xato qarash mualliflari germevenik sharoitdan kelib chiqqan holda tushunish jarayonlarini tasniflash uchun asos yaratdilar, vaholanki, ularning o'zlarini bu tasnifni amalga oshirmadilar, chunki bunday tasnif tushunish muammosida metafizik universalizatsiya ususingi barbod qlar edi.

Ko'rinib turganidek, adabiy germevenikaning butun tarixi idealistik metafizik qarashlar ta'sirida o'tdi. Matn interpretatsiyasi metodikasi uchun xos bo'lgan topilmalar idealistik dunyoqarash tamoyillari sifatida mulloqlashtirildi. Madaniyatning faqat bir mahsuloti, voqelikning faqatgina bir in'ikosi va o'zlashtirish usuli bo'lgan verbal matnlar universal ontologiya qurish uchun murojaat qilinadigan so'nggi manzilga aylantirildi. Butun dunyoni matn sifatida (hatto belgi sifatida) qarash usuli idealizmida hozirga qadar davom etmoqda. Bu hol adabiy

germenevtikaning statusi bilan muvofiqlasha olmaydi, chunki individual ichki dunyo mahsulotini butun insoniyat va hattoki butun borliq uchun tatbiq qilish, uni universalashtrish ob'ektiv borliqning matnda aks etgan yangi ranglarini aniqlashga qarshilik qiladi. Binobarin, tushunishning ob'ektivligi hamda undan kelib chiqadigan bilimning ob'ektivligi insoniyat jamiyatining voqeligidagi o'z aksini topadi. Insonning ijtimoiy holati tushunish jarayonida ulkan mavqega ega, vaholanki, aynan individual va ijtimoiy mentalitet insonning dunyoqarashini belgilaydi. Mentalitet, dunyoqarash va boshqa ijtimoiy holatlar matn reitsipienti va talqinchining ijtimoiy pozitsiyasida birlashadilar. Alohida ta'kidlash lozimki, borliqni his qilishdagi nazariy tushunchalar dunyoni badiiy o'zlashtirishdan tubdan farq qiladi. Ayni vaqtda shunga e'tibor qarataildiki, tushunishni tashkillashtirishda ilmiylik va badiiylik birlashadi hamda ular yagona badiiy birlikka aylanadi.

Zamonaviy germenevtikada tushunishning ob'ektivligi haqida gapirilmaydi, biroq uning nisbiyligi ta'kidlanadi. Nisbiylikning absolyutlashirilishi tushunish sharoitining ko'pbosqichliligi bilan bog'liq. Bu holatning kelib chiqishiga solgan holatlar tor fikrlovchi odamlarning "har kim o'zicha tushunadi" yoki "begona ko'ngilni bilishning imkoni yo'q" qabildagi tushunchasidan kelib chiqadi.

Hattoki, dimiy falsafa uchun an'anaviy xarakterda bo'lgan "abadiy ruh" tushunchasi tarafdorlari germenevtik usulda pessimizmga asos bo'la oladi, agarda "begona ruh" bo'lsa-da uni hech kim o'z badanida his qilgan emas.

Inson (reitsipient) kechimalarining ma'lum dasturini shakllanish texnikasi Gusserl tomonidan "fenomenologik reduksiya" deb atalgan. Gusserlning terminini ham, uning interpretatsiyasi ham sirli, tushunarsiz xarakterga ega. Xususan, "fenomenologik reduksiya" ni amalga oshirish uchun "voqelikni qavs ichiga olish" kerak hamda "shunday voqelidagi yashash kerak" ki, toki "u shu dunyoni yaratasin

Va hokazo, undan tashqari bunga reitsipientning sub'ektiv holati ham ta'sir qiladi. Reitsipientning sub'ektiv holatidagi o'ziga xoslik olingan matn bilan dasturlanadi. Madaniyat namunalari matnlarining tahriri jarayonida bu hol nihoyatda keng qo'llanadi. Xususan, tegishli rolni bajarayotgan aktyor (agar u talantli va o'z kasbiga (roliga) nihoyatda berilgan bo'lsa) atrofdagi real tashqi muhitdan ajralib qoladi hamda matnda aks etgan dunyoda yashab yuradi.

Navoiyning yoshligiga oid rivoyatlar va esdaliklarda Fariddin Attor "Mantiq ul tayr" asari mutolaasi ta'sirida yosh Alishearning kuchli hissiyot girdobida yashaganligi haqida ma'lumotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bunday ruhiy qorong'ilik asarni o'zlashtiruvchida ehtiyoq psixologik holatlar natijachisida paydo bo'ladi. Unda o'quvchi uchun kitob bilan hayot orasidagi farq yo'qoladi. U ruhan va qalban anar voqealari girdobida yashaydi, o'zini yuz berayotgan hodisalarning jorli ishtirokchisi sifatida his qiladi. Eng muhimi voqealar rivojini o'zgartirishga, kimmidir qutqarishga, kimmidir esa jinoyatdan qaytarishga intiladi.

Ko'plab germenevtik sharoitlarda asarni qabul qilishning bunday shakli reitsipientning amaldag badiiylikni mavhumlashtrishi orqali sodir bo'ladi. Bunday "ramka" texnikasi o'tmish tajribaning reaktivatsiyasi natijasidir. E. Gusserlning o'limidan keyin ham uning asrlari va qarashlari keng tarqalgan holda idealistik fenomenologiya mualliflik hamkorligining yagona usuli sifatida hukm surib kelmoqdaki, u sub'ektiv reallikni tadqiq qilish borasida ancha jadalab ketgan.

Badiiy asar matni, matnda aks etgan g'oyaning milliy-ma'naviy qirralarini o'rganish jarayonida biz eng avvalo badiiy g'oya ijodi, badiiy kashfiyot qirralarini aniqlash masalasiga duch kelamiz.

Badiiy kashfiyot, umuman kashfiyot sohasida eng avvalo shuni nazarda tutish lozimki, inson ongi, zakovati, buyuk haqiqat nurlarini yorqin asosida tushunadi. Biroq o'sha haqiqatga eltuvchi, nur turli yo'l bilan namoyon bo'ladi. Xususan, materialistlar fikriga ko'ra ijod ko'p yillik mehnat va tajribalar hosili. Uning zamirida insonning asrlar osha yig'ilgan aqliy mehnati samarasi yotadi. Bu hol xuddi uzoqdagi ulkan va yorug' sayyoraning mavjudligi va yorug'ligini biz faqat uning sochib turgan nurlari miqdorini aniqlash orqali erishamiz. Binobarin, yangi kashfiyot yoxud yangi g'oya ham mana shu minglab asosatsiyalarning so'nggi nuqtasi bo'lib yaratiladi.

Idealistlar aksincha, o'sha nur sochayotgan yulduz nurlarga nisbatan birламchi ekanligini isbotlashga intiladilar. Shu holatga munosabat qo'ndirish samarasi va jarayon o'rtasidagi farqni yaratadi. Samara muhimligi uning ommaviyligi, jarayonning esa xususiyligi bilan bog'liq. Idealist, aniqrog'i, romantikni yorug' yulduzga eltuvchi yo'l qiziqitirmaydi. U balki yulduzga etib borishni ham o'ylamas. Uni faqat o'sha yulduzning mavjudligi qiziqitiradi, xolos. Va aynan shu mavjudlikka

qiziqish uning hayoti mazmuniga aylanadi.

Bizni qiziqtiradigan narsa esa, faqatgina shu yulduzning mavjudligiga emas, balki uning mavjudligi haqidagi tasavvur. Uning, ya'ni yulduzning qandayligi materialist, realist insonni qiziqtiradi. Idealist romantikni esa burch, joziba qandaydir buyuklikka, sirlilikka intilish nuqtai nazaridan qiziqtiradi. Ayrim odamlar bir umr siri holatlar izlaydilar. Uni hayotining mazmuniga aylantiradilar. Mana shu izlanish jarayonida, unga intilish jarayonida o'z'lari ham ruhan poklanib, saygallanib boradilar. Bunday yorug' ideal yulduz ularga inson shaklida namoyon bo'lishi ham mumkin. Bunga hayotida bir marta uchrashgan insonning kimligini bilmay turib sevib qoladigan inson misoliga yoshlarni yoki O'. Umarbekovning «Qiyomat qarzi» asaridagi chol obrazini namuna qilib keltirish mumkin.

Yuqoridagi holatlar badiiy kashfiyot yo'lidagi izlanishlarning turli qirralari har xilligini ko'rsatar ekan, manziling, maqsadning esa bittaligini tasdiqlaydi. Biroq bu manzilga eng yaqin va to'g'ri yo'lini ijodiy yorqin egasigina topa oladi.

## 6. Germenevtik tahlil va badiiy asar yorqini

Badiiy asar germenevtikasi, badiiy katarsis, asar tili va umuman badiiy adabiyot poetikasi tahlili hamda man germenevtikasini shakllantirish jarayonida taddiqotchi tomonidan unutiladigan eng muhim hodisa bu — yorqin. Yorqin man mazmunini tushunib etish, tushunilgan mazmun orqali badiiy tafakkur vositasida shu'jalantiradigan fikriy in'ikosdirki, aynan u orqali insoniyat jamiyatining erishgan barcha yutuqlari ongda nihoyatda qisqa soniyalarda yangi kashfiyot, yangi tafakkur dolg'alarini yaratadi.

Yorqin asar moddiy qobig'i — so'zlarning bosh yoki birlamchi ma'nosiga bo'yusummagan, ijod namunasining umumiy mazmunini turi shakllarda talqin qilish orqali erishiladigan germenevtik hodisa. Asar mazmuni yorqini turlicha qarashlar natijasi bo'lgani bois ko'p hollarda u adabiy - falsafiy oqimlar bilan birlashadi. Ya'ni, yorqin adabiy - falsafiy oqim quruli sifatida ijodiy metod, ijodkor uslubi orqali asarning umumiy mantiq - ma'nosi, g'oyasi zamiriga singdiriladi. Realistlar aniq, kundalik hayot muammolari haqida gapirsa, romantiklar orzu, xayol, tasavvur bilan tushuntiradi real manzaralarni. Ular reallikni

badiiy tafakkurda tasavvurga ko'chirib, uni qayta ishlovdan o'tkazib o'qovchiga taqdim qiladi.

Asar tili har ikki holatda ham umumiy lug'aviy qatlam doirasida qolishi mumkin. Biroq shoir, ijodkor bir xil hisoniy materialdan shunday man yaratadiki, unda so'zlar o'z ma'nolarida kelganda ham ularning ma'no qirralari butunlay boshqa - boshqa yorqini tashkil qiladi. Bu hol tekki, bo'liniy til, hissiyot bilan tushunib etiladi. Insonning milliy, individual, ilmiy mentaliteti shu vaqtda bosh o'ringa ko'tariladi, asar g'oyasini to'g'ri tushunishda etakchi rol o'ynaydi.

Aynan shu hol badiiy adabiyot namunasining turli talqinlariga sabab bo'ladi. Individual ijod namunasi individual munosabatlarni ham talab qiladi. Germenevtika, ya'ni badiiy asar matniga individual munosabat badiiy asar namunasini tushunishning variantligi, ko'p pog'onatligi demakdir, biroq har qanday holatda ham haqiqatning ob'ektivligini saqlab qolgan holatda. Demak, bu hol, ya'ni variantlik asar g'oyasini tushunish, his qilish, anglash, o'zlashtirish asosida yotgan yorqini ham variantli bo'lishini talab qiladi.

Yorqinning shakllanishida badiiy kashfiyot, ijodiylik muhim rol o'ynaydi. Badiiy kashfiyot, umuman kashfiyot sohasida eng avvalo shuni nazarda tutish lozimki, inson ongi, zakovati, buyuk haqiqat nurlarini yorqin asosida tushunar ekan, o'sha haqiqatga eltuvchi nur tahlil yo'l bilan namoyon bo'ladi. Xususan, materialistlar fikriga ko'ra ijod ko'p yillik mehnat va tajribalar orqali hosil bo'ladi, uning zamirida insonning asrlar osha yig'ilgan aqliy mehnati samarasi yotadi. Bu hol xuddi uzog'dagi ulkan va yorug' sayyoraning mavjudligi va yorug'ligini biz faqat uning sochib turgan nurlari miqdorini aniqlash orqaligina tushunib etganimiz kabi. Binobarin, yangi kashfiyot yoxud yangi g'oya ham mana shu minglab assotsiatsiyalarning so'nggi nuqtasi bo'lib yaratiladi.

Idealistlar aksincha, o'sha nur sochayotgan yulduz nurlarga nisbatan birlamchi ekanligini isbotlashga intiladilar. Shu holatga munosabat ijodning samarasi va jarayon o'rtasidagi farqni yaratadi. Samaralar muhtamligi uning ommaviyligi, jarayonning esa xususiyiligi bilan bog'liq. Idealist, aniqrog'i, romantikni yorug' yulduzga eltuvchi yo'l qiziq-timaydi. U balki yulduzga etib borishni ham o'ylamas. Uni faqat o'sha yulduzning mavjudligi qiziqtiradi xolos. Va aynan shu mavjudlikka intilish uning hayoti mazmuniga aylanadi.

Romantizmda bizni qiziqtiradigan narsa esa, faqatgina shu yulduzning mavjudligi emas, balki uning mavjudligi haqidagi tasavvur. Uning, ya'ni yulduzning gandayligi materialist, realist insonni qiziqtiradi. Idealist romantikni esa burch, joziba qandaydir buyuklikka, sirlihikka intilish nuqtai nazaridan qiziqtiradi. Bunday yorug', ideal yulduz ularga transformatsiya orqali inson shaklida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Yugoridagi holatlar badiiy kashfiyot yo'lidagi izlanishlarning turli qirralari har xilligini ko'rsatir ekan, manziling, maqsadning esa bitaligini tasdiqlaydi. Biroq bu manzilga eng yaqin va to'g'ri yo'lni ijodiy yorqin egasigina topa oladi. Asar matnini hazm qilgan, o'zlashtirgan holda badiiy tafakkurning germenevtik fantaziyasini yaratish olish o'quvchidan ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi.

Yorqin ulkan masofadagi shu'la sochib turgan yorug' yulduzni, ulkan kashfiyotni bir zabt bilan qamrab oluvchi ilohiy nur. Yorqin etapma-etap yo'l bosmaydi, aksincha, bir vaqtda barcha etaplarni bosib o'tadi. O'sha uzozqdagi yorug' yulduz va unga eltuvchi masofa lahzalik operatsiyalar natijasiga aylanadi. Uning zamirida olam jarayonlarining moddiyligi, tajriba va ko'nikmalar natijasi ekanligi, yana millionlab materialistik g'oyalarni isbotlovchi psixologik jarayonlar soniyalarning juda mayda ulushlarida sodir bo'ladi. Aynan shu jarayonlar tezligi hamma insonlarda ham bir xil kechmaydi. Shu hol insonlarni asosan ikki katta lagerga — talantli va odmi insonlarga ajratadi. Talantli odamlar mana shunday ilohiy tezlik jarayoni sohiblari hisoblanadi. Bunday odamlarni intragenlar guruhiga ham kiritish mumkin. Intragenlar ichki his-tuyg'ular bilan yashaydigan odamlar. Maqsad va his-tuyg'ularini ichki monolog orqali bildiradi, o'z orzularini yashiradi. Talant ko'pincha yosh avlod, yosh inson faoliyatida namoyon bo'ladi, bu vaqtda tajriba, uquv, bilim, zehni, idrok, ko'nikma ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Birinchi planga ko'tarilgan natija — yorug' yulduz — kashfiyot tasodifiy holat, tasodifiy ruh samarasi o'laroq paydo bo'ladi. Demak, kashfiyot — ruhiy yangilik tajriba, bilim, aql — ongning natijasi bo'lmajligi ham mumkin. Demak, uni — kashfiyotni yaratuvchi inson olis yorug' ruhni bevosita his qilishi ham mumkin. Biz uchun eng muhim holat shu kashfiyotni his qilish, idrok etish. Bu idroknii yuzaga chiqaradigan, yaratadigan yo'l yorqindir. Yorqin o'sha ulkan g'oya — yulduzning mavjudligini ko'rsatuvchi, unga etaklovchi iz-g'oya izidir. Germenevtik tarqiyotda ommaviy mentalitet muhim rol o'ynaydi.

Xususan, o'ra asrlarda Yevropada avval fan taraqqiyoti uchun amaliy zaruriyat tug'ildi. Yoki aniqrog'i amaliy ehtiyotlar, amaliy texnik vositalar, texnik taraqqiyot (par mashinalar, poezd, avtomobil, veloped, va boshqalar) qaysidir ma'noda insoniyat dunyoqarashi va fikrlash dunyosini butunlay yangi o'zanga burib yubordi. Binobarin, ular o'z navbatida qaysidir ma'noda tamomila tasavvurga sig'maydigan ilohiy kashfiyotlarga yo'l ochdi. Xuddi shu zaruriyat natijasida badiiy fanlar taraqqiyoti, aniq fanlar, aniq hisob-kitobga asoslangan fanlarning xususiy tomonlarini mukammal o'rganish ehtiyotlari tug'ildi.

Jamiyatning ruhiy — psixologik mentalitetdagi o'zgarishlar eng avvalo san'atda, xususan, badiiy adabiyotda o'z aksini topadi, binobarin, badiiy asar namunasi tabiati, ya'ni uning adabiy tur, janr, uslub (metod), mavzu, motiv, xarakter, yo'nalish kabi qator tashqi va ichki faktorlari asarning ma'lum g'oyaviy holat tashishi uchun yo'nalish belgilaydi. Badiiy asarning tashiyotgan g'oyasi uning yugoridagi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Biroq ularni to'g'ri tushunib olish uchun, masalaning mohiyatini to'g'ri belgilash uchun nafaqat ilodkor, balki bevosita o'quvchi ham badiiy yorqinning aynan shu me'yordandan, ya'ni badiiy ijodning germenevtik imkoniyatlari bilan bog'liq xususiyatlaridan xabardor bo'lishi zarur.

Angliya adabiyotining eng go'zal namunalaridan biri bo'lmish "Gamlet" tragediyasi Uyg'onish davri adabiyoti g'oyalari mavvofiq ehtuq insonparvarlikni, optimizmi targ'ib qilishi lozim: biroq asar syujetiga asos qilib olingan voqea rivoji qurbonlikni talab qiladi. Gamlet otasi qotilini aniqlaganidan keyin o'ch olishi kerak. Dushmanlar ayovsiz yo'q qilinishi darkor. Asarning janr xususiyatlari qurbonlikni talab qiladi.

Jannga har ikki tomon: qotil Klavdiy o'z xos ahli bilan, Gamlet adolat quroli bilan tayyorgarlik ko'radi. Gamlet dunyoda hukm surayotgan jaholatni engta olmasligini tushunadi. U o'zi tan olganidek, atrofidagi odamlardan ezigulik kutmaydi. O'sha vaqtda xristian dini peshvolari hali qudrati bo'lib, hokimiyatning barcha tizimida o'z hukmronligini o'tkazib turgan payt. Yevropa diniy mutaassiblik botqog'iga botib, inson shaxsi, uning orzu-istaklari, sha'ni erga qorilgan payt edi.

Shunga qaramasdan Gamlet (bu o'rinda muallif) insoniyat haqida ulug' fikrlar izhor qiladi: "Inson qanday buyuk zot! U o'zining imkoniyatlari, o'y-fikrlari va yaratuvchiligida naqadar cheksiz! Uning

g'aroyibot va mo'jizalari aniq! O'zining murakkab fahmi bilan farishtani eslatadi! U xuddi Xudo kabi borligini o'zgartira oladi! Borligining eng go'zal mavjudoti! Borliq mavjudotining eng a'loisi!" mana shu ulug' fikrlarni Gamlet tili bilan Shekspirning o'zi mansub bo'lgan muhiting in'ikosidir. Vaholanki, o'sha davr Angliya jamiyati ichki nizolardan jabrlanayotgan bo'lib, qirolik, aristokratiya xunrezlikka yuz tutgan, jifimoiy hayot, madaniyat va san'at chuqur tanazzulda edi. Inson insonga dushman, hamma bir-biridan o'ch olishga shaylangan zamonda inson qadri, uning ruhi, uning ilohiy borlig'ini tarannum etish uyg'onish davri adabiyotining eng asosiy vazifasi bo'lgan.

Asarda asosiy g'oya o'z davrining tarixiy kulliziyasini — ritsarlik qahramonlari va jinoyatkor qirolik hukumati orasidagi kurashni ochib berishga qaratilgan. Vaholanki, bu kolliziya faqat muallif bilan o'quvchining maxsus ichki yorqini vositasida yaratilishi mumkin.

Badiiy asar yorqini til lug'aviy qatlami semantikasidan tashqari-da bo'lishi ham mumkin. Bu borada lug'aviy qatlamdagi so'zlarning iste'mol imkoniyatlari, semantik maydonda tashiyotgan ma'nolariga muvofiq ikki kategoriyaga bo'linishini hisobga olmoq lozim.

Birinchi kategoriyani kambag'al so'zlar guruhlari tashkil qiladi, ya'ni muntazam harakatdagi so'zlar. Bunday so'zlar ko'p hollarda muntazam shakl va ma'noga ega bo'lmaydi, bu holatlar unda o'zgaruvchan bo'ladi. Xuddi jamiyatdagi nafqat tashqi dunyosi, balki ichki dunyosi ham kambag'al odamlar singari. Kambag'al odamlar turmush tarzini tez-tez o'zgartirib turadi, qat'iy fikr, vafodorlik, sadog'atdan birnuncha yiroq turadilar: turmush tarzining kambag'alligi ularning hayot shakllarini ham o'zgartirib turishga majbur qiladi. Binobarin, ularning yo'qotadigan narsalari yo'q. Shu bois doimiy harakatda bo'ladi. Yuki engli odam harakatchan va o'zgaruvchan bo'ladi. Aynan shu holat ma'lum bir jarayonda paydo bo'lgan, shakllangan so'zlarga ham xos.

Hali jamiyatda, tilda o'rinni topib ulgurmag'an so'z shakl va ma'nosini tez-tez o'zgartirib turishi mumkin. O'zgaruvchan so'zlarning ma'no qirralari ham kambag'al bo'ladi. Mana shunday so'zlarni kambag'al so'zlar deb ataymiz.

Ikkinchi kategoriyani boy so'zlar tashkil qiladi. Aytim so'zlarning ma'nosi ma'lum bir davr mobaynida keng darajada shakllanadi. Aynan shu holatda so'zning ma'no boyligi yuzaga keladi. Bunday so'zlar boy ma'noli so'zlar hisoblanadi. Davrlar mobaynida ularning ma'no

imkoniyatlari kengayishi mumkin, aslo kamaymaydi, shakli ham juz'iy fonetik o'zgarishlarni hisobga olmagan holda dashtabki variantini saqlab qoladi. Turkiy tillardagi «bobo», «momo» so'zlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Boboning ruscha papa, inglizcha faze, forschada padar hamda hoshaqa tillardagi shunga yaqin variantlari yoki momoning ruscha mama, inglizcha mame, forschada modar variantlari va hattoki, bobo-momoning o'zini ham bir so'zning fonetik varianti ekanligi hamda shu so'zdan yasalgan yana qator leksik-semantik vositalarning semantik-stilistik paradiqmalari fikrimizni tasdiqlaydi. «Yurt», «el», «ota», «ona», «vatan» kabi so'zlarni ham shu jumlag'a kiritish mumkin.

Aytim hollarda boy so'zlarning ham efemer — o'tkinchi ma'nolari shakllanib turadi. Efemer ma'nolar kengayib borib doimiy, mustaqil leksik-semantik kategoriyani hosil qilishi, mustaqil so'zga ham aylanishi mumkin. Masalan «kitob» so'zining «sinov», «tajriba» ma'nolari «hayot kitobi» jumlasini orqali shakllangan edi. Keyingi vaqtlarda yakka holda qo'llanilganda ham bu so'zning shu ma'nosini anglash mumkin bo'lib qoldi. Yoki «so'z» leksemasi avvalda «gap», «fikr», «mulohaza» ma'nolarini anglatgan. Hozirda sportda «jismoniy imkoniyat, g'alaba», lino-fanda «ruhiiy imkoniyat, ruhiiy ustunlik» va umuman jamiyatda inson «men»ligi ustunligining belgisi ma'nolarini anglatmoqda. Boy so'zlarning ma'no tarmoqlarini aniqlashda distributiv vaziyat shart emas, balki milliy, individual mentalitetning darajasi bilan bog'liq holda transformatsiya imkoniyatlarining o'zi kifoya.

Distributiv zaruriyatni inkor qilgan holda ma'no tugalligini ta'minlash boy so'zlarning keyinchalik simvol - ramz darajasiga ko'tarilishiga olib keladi. Simvolga aylangan so'zlar boy so'zlarning aynan o'zidir. Bu qatorga hatto kishi ismlari, hayvon laqablarini ham kiritish mumkin. Xususan, Prometei nomi va obrazi Yevropa adabiyoti, yunon mifologiyasi va yozma adabiyoti orqali ozodlik, insonparvarlik, hayotga va ezgulikka muhabbat, qalb harakatlari tasvirchisi timsoli sifatida shakllanib keldi. XIX asr Angliya adabiyotida Bayron, Shelli kabi shoirlar uning nomini ozodlik, erk timsoli, inson ruhiyatining ramzi sifatida ulug'lab, unga odalar bitgan. Shu bois Prometei nomini ilga olishning o'ziyoq inson ongida baxt, ozodlik, insoniylik yorqini uyg'otadi. Taqdir xudosi Fortuna, muhabbat xudosi Afroditalar haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Pushkinning qator she'rlarida ilhom parisi sifatida oq qanotli Pegas oti simvol darajasida ishtirok

etadi.

O'zbek adabiyotida Farhod, Majnun, Shirin va Layli obrazlari insoniy barkamollik, sadogat, ezgulik, va boshqa insoniy fazilatlar shuningdek, Ahriman esa yovuzlik timsoli sifatida timsoli sifatida asrlar osha xalq tili va dilidan tushmay keladi. Bu nomlarning tilga olinishi, zikr etilishining o'ziyovq inson dilida avloddan avlodga etib kelayotgan yuqoridagi xislatlar yorqinini uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida takrori istimo qilish vositasida asar matni va tilini mukammallashtiradi, o'tkirlashtiradi, o'quvchi ongi, zehni va simpatiya yaratadi, ko'p so'zli, qaytararli izohni istimo qiladi. Mana shu holatning o'zi man germevikasi shakllanishi uchun asos vazifasini o'taydi.

Yorqin boy so'zlar - simvollarning mavjudlik - qayd tarzi bo'lib, uning ko'rinishlarini birlashtiradi, ya'ni simvol - ramz yorqinning bir ko'rinishi. Yorqinning eng muhim, eng ulkan imkoniyati, vazifasi, yashash tarzi badiiy asarda ijodkor ay'tgan yoki ay'olmagan, biroq aytmoqchi bo'lgan gapini butun asarning yo'nalishi, moddiy qobig'i - so'zlarning ma'no imkoniyatlari orqali yoritishni tashkillashtirish iborat. Badiiy asar metodi, ijodiy yo'nalishi, u tashiyotgan g'oyani shakllantirish ham yorqinning vazifa turlaridan biri. Inson ongi xotirasida saqlanib kelayotgan materiallar yorqin vositasida bir vaqtning o'zida yagona g'oyaga uyushadi. Buning uchun ilk (old)tushuncha (pretrassudka) muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan shu ilk (old) tushunchalar yig'indisi inson xotira yorqini uchun material vazifasini o'taydi.

Iqtidorli insonlarda - talantlarda ilk (old)tushuncha bo'lmastigi ham mumkin. Ular ilohiy nur orqali voqea - hodisalarning taraqqiyoti va nihoyasi yorqiniga ega bo'la oladilar. Qolgan hamma holatlarda yorqin inson tafakkur kompyuterining xotirasi vositasida shakllanadi. Yorqin kategoriyasi xotiradan keng tushuncha, chunki xotira faqatgina o'ziga kiritilgan narsalarni beradi, shunda ham o'z holicha, hech qanday ishlovsiz. Yorqin esa vaziyat talabi bilan o'zidagi ma'lumotlarni soniyaning nihoyatda qisqa oraliqlarida analiz va sintezdan o'tkazadi, yangi, uning egasi talabiga muvofiq shaklga keltiradi. Bu shakl zamirida ong, aql imkoniyatlaridan tashqari hissiyot ham muhim o'rin tutadi. Texnik kompyuterda informatsiya shaklida yotgan argumentlar buyruq bilan chaqirtlsa, inson kompyuterida yorqin ilohiy yo'l bilan yaratiladi. Badiiy asarning ijodiy metodi muammosini hal qilishda yorqinning

o'rni beqiyos. Asarning kundalik moddiy tashvishlarga bog'liq muammosi yoki umidvor, xayolparast inson o'y-fikrlarining hosilasi asar matnida ko'zga chalimaydi. Buni maxsus tayyorgarlikka ega maxs farosati tajribasi yoki yorqin orqasida gavdalanirishi mumkin.

Romantizm insonni yuksaklikka chorlaydi. Uni xayollar og'ushiga, insoniyatga bo'lgan cheksiz muhabbat qa'riga g'arq qiladi. Unda sen, tug'ilish bilan o'lim o'rtasidagi masofani aniq ko'rasan. Senda boylik, dunyo tashvishlari, ikir - chikirlarga nisbatan munosabat yo'qoladi. Sen endi ijodiy, samoviy tuyg'ular domiga giriftor bo'lasan:

O'tar qancha yillar to'zoni,

Yulduzlar - ko'z yoshi samoni,

O'tar inson yaxshi - yomoni,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachug'da portlagan o'sha,

Iqboliga chorlagan o'sha.

Dunyoni tor aylagan o'sha,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

Ne deyorsan ey g'ayir inson?

G'iybatlaring qildi meni qon,

Sen ham bir kun o'tursan, inon,

Mehr qolur, muhabbat qolur.

(M u h a m m a d

Yusu)

She'rda shoir dunyo o'tkinchiligi vositasida umuminsoniy tuyg'ular yuksakligi, uning kundalik tashvishlardan ustunligi haqidagi individual g'oyasini she'riyat vositasida global mehr, muhabbatga chorlash bilan ifodalaymoqda. Global muhabbat bir yoki ikki inson o'rtasida emas, balki butun borliqning, insoniyatning muammosidir. Global muhabbat bor joyda urush, konflikt muammosi bo'lmaydi. Urush muammosi yo'q joyda etishmovchilik, kelishmovchilik yo'q. Demak, har qanday insonning baxti uchun etarli shart - sharoit mujassam. Vaholanki, badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi insoniyatga mukammal baxt yo'llarini ko'rsatishdan iborat. Bu yo'lchi yulduz g'oya badiiy asar zamirida badiiy yorqin bilan ochiladi.

Aristotel tomonidan kashf qilingan katarisis - inson ruhiyatining proklamishi esa mana shunday yo'lchi yulduz g'oyaning yorqin vositasida insoniyatda mavjudligi bilan bog'liq.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, badiiy asar yorqini uning

g'oyasini jamiyatga etkazishning vositasidir. Bu vosita asar matniiy imkoniyatlarining germenevnik sharoitida namoyon bo'ladi.

### 1.7. Badiiy matnii o'zlashtirish jarayonida ijodiy yorqin imkoniyatlari

Matn interpretatsiyasi o'zining qator lingvopoetik qirralari bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik va pragmatika ham interpretatsiyaning muhim realiyalarini tashkil qiladi. Bu ikki fan matnii tiling kom-munikativ, ya'ni badiiy nutqning uch shaxsdan biriga mo'ljallanganligi nuqtai nazaridan o'rganadi. Matn badiiy nutqning bir namunasi sifatida o'quvchilar ommasi, kitobxoniga qaratilganligi hamda muallif nutqning reallashirilgan hosilasi sifatida olib qaraladi.

Germenevnikada matnning bu kabi real aspektlari unchalik muhim emas. Unda eng muhimii matn orqali muallif ichki dunyosining yangi ranglari yaratilishi, vaholanki, fagatgina muallifningina emas, matn mutolasi orqali o'quvchining o'zida ham fonli bir shaklda hissiy borliq spektrlari paydo bo'lishi ham uning tadqiqot doirasi ichida bo'ladi.

Ijodiy yorqin egasi bo'lgan "shoir o'zining tasavvurga asoslangan dunyosida yashaydi. Uning uchun hayot haqiqati va tasavvur o'rtasidagi chegara yo'qoladi. Biz qator shoirlar hayotini o'rganish orqali bilimizki, ular o'z obrazlari dunyosida yashaydi, o'z she'rlarini xuddi tushda ko'rib turgandek yaratadilar hamda asarlarini ekstaz ilhom holatida yozadilar, bu holat ularni tamoman tashqi dunyodan, jamiyatdan ajratib qo'yadi. Ro'yodagi hayot ular uchun tush, tush esa, ro'yo kabidir"<sup>1</sup>.

Badiiy asar namunasining tabiati, ya'ni uning adabiy tur, janr, uslub (metod), mavzu, motiv, xarakter, yo'nalish kabi qator tashqi va ichki faktorlari asarning ma'lum g'oyaviy holat tashishi uchun yo'nalish belgilaydi. Badiiy asarning tashiyotgan g'oyasi uning yuqoridagi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Biroq ularni to'g'ri tushunib olish uchun, masalaning mohiyatini to'g'ri belgilash uchun nafaqat ijodkor, balki bevosita o'quvchi ham badiiy tiling aylan shu normativlardan, ya'ni asar mavzusi bilan bog'liq xususiyatlardan xabardor bo'lishi zarur. Bu borada G.O.Vinokurning fikrlari muhim o'rin tutadi: «Ada-

biiy asar nafaqat badiiy tiling ifodasi, balki tilda aks etgan o'y-fikr va hissiyotning ham ifodasidir»<sup>1</sup>.

Ma'lumki, badiiy adabiyot hayotni obrazli aks ettirishdan iborat, obrazlilik badiiy adabiyot yashash tarzining eng muhim sharti. Bino-barin, obrazlilik, badiiylik — badiiy adabiyotda hayotni bilish va aks ettirishning o'ziga xos usuli, vositasi, shaklidir. Bu holatlar badiiy asarda xarakterlar tasviri orqali ro'yobga chiqadi: badiiy adabiyot — xarakterlar yaratish san'ati hamdir. Xarakterlar esa, ma'lum bir janrda yozilgan konkret badiiy asarda til, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj orqali yaratiladi.

Badiiy asarda bosh mazmun muallif ifodalamoqchi va o'quvchiga etkazmoqchi bo'lgan g'oyani shakllantiradi. Adabiy asarning janr, til xususiyatlari hamda xarakterlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj va hokazolalar esa shu g'oyaga nisbatan shakl rolini o'ynaydilar. Yuqori sinviyadagi badiiy asar yaratish san'ati bu — g'oyani yorqin ifoda etadigan va uning o'quvchi zehnidagi engillik bilan tug'ilishiga sabab bo'ladigan shaklni topa bilish demakdir. Ifoda etilmogchi bo'lgan narsa(g'oya) badiiy asarning mazmuni orqali ifodalalanar ekan, barcha ifoda vositalari (til, xarakterlar, syujet, konflikt, kompozitsiya, peyzaj) shaklidir<sup>2</sup>.

Badiiy asar talqini jarayonida g'oya va shakl munosabati xususida aytilgan Izzat Sulton fikri hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan aksincha, keyingi vaqtlarda germenevika sohasining taraqqiyoti bilan uning ahamiyati yanada ortdi, desak adashmagan bo'lamiz. Ijodkor o'zi ifodalamoqchi bo'lgan g'oyani badiiy asarda xarakterlar yordamida yaratadi. Bu erda xarakterlar mazmunning shakli sifatida ta'riflanadi. Endi xarakterlarning badiiy asar tiliga nisbatan o'rinni tayin etib ko'rsak, ma'lum bo'ladi, badiiy asarda xarakterlar mazmunning tashqi ifodasi bo'lish bilan bir qatorda badiiy asarning (to'g'rirog'i, badiiy ifodaning) shaklliligidan uning mazmuniga aylanaadilar, chunki xarakterlar (ularning xulqi, o'ylari va harakatlari) adabiy asarda faqat til orqali tasvirlanishi mumkin. Demak, xarakterlar endi mazmun rolini, til esa xarakterlarga nisbatan shakl rolini o'ynaydi, ya'ni mavhum holatlar

<sup>1</sup> Винюур Г.О.О языке художественной литературы. -М.: Высшая школа. 1991. стр. 51

<sup>2</sup> Ивиг Султон. Дабийёт назарияси. —Т.: Ўқитувчи. 1986. 159-бет.

xarakter orqali reallashadi.

Shunday fikrni badiiy asarning har bir komponenti haqida ham aytish mumkin. Masalan, syujet ham badiiy asarda hayotni aks ettirish vositasi, ya'ni shaklidir. Ammo syujet ham faqat til orqali ifodalanadi. Demak, bu erda ham til – shakl (syujetni tashqi ifoda etuvchi vosita) sifaidan maydonga keladi. Ayni choqda til o'sha syujetning mohiyatini ifoda eta olishi zarur<sup>1</sup>.

Adabiy germenevtikaning badiiy til bilan bog'liq qirralari tadqiqi doirasida uning badiiy tafakkur shakllanishidagi imkoniyatlarini tahlil qilish ekanimiz shuni unutmashik lozimki, germenevtika asar matni sintezi orqali ijodkor etkazmoqchi bo'lgan g'oyaning poetik shakllanishi demakdir. Adabiy asar arxitektionikasi yoki aniqrog'i matn arxitektionikasini ma'lum uslublarda o'rganish ham adabiy germenevtikaning muhim tamoyillaridan biri. Yaxlit matning barcha tomonlarini mukammal o'rganish uchun eng avvalo uning arxitektionik parametrlarini ajratib olish lozim. Aynan shu parametrlar matning barcha poetik-estetik va falsafiy-g'oyaviy yoki boshqa tomonlarini qamrab oladi. Biz shu o'rinda matn arxitektionikasini quyidagi qismlarga bo'lib o'rganishni taklif qilamiz:

1. Poetik arxitektionika. Bunda badiiy matn qismlari kompozitsiyasining ma'noli uyushuvi nazarda tutiladi hamda ularni asarning bosh g'oyasiga nisbatan munosabati o'rganiladi.
  2. Lingvistik arxitektionikada esa badiiy matni tashkil etgan leksik-semantik, grammatik, fonetik va boshqa lingvopoetik hodisalarning asar g'oyasiga muvofiq original grammatik tuzilmalari hamda germenevtik sharoit yaratish imkoniyatlari tadqiq qilinadi.
  3. Mavzu arxitektionikasi asar qismlari mavzulari hamda ularning asar bosh mavzusi va g'oyasiga munosabatini belgilaydi.
- Quyida biz aniq bir mavzuda yaratilgan asarlar misolida aynan shu germenevtik sharoitning alohida tamoyillarini amaliy tahlildan o'tkazamiz.

## 1. 8. Badiiy matn germenevtik tahlilining munosabat kategoriyalari

Badiiy matnning germenevtik tahlili tadqiqot jarayonida muallif yoki o'quvchining borliqqa munosabati hamda so'z ma'nosi orqali yaslanadigan fikr mohiyatining transformatsiyasi darajasi va samaradorligi muqoi nazaridan ikki kategoriyaga bo'linishi mumkin:

1. Global germenevtika.
2. Individual germenevtika.

Global germenevtika insoniyat jamiyati uchun global hisoblangan, umuminsoniy jamiyat tomonidan qabul qilinadigan muammolarni, realiyalarni ijtimoiy muomalaga kiritadigan germenevtik sharoit demakdir.

Individual germenevtika esa, alohida, individual insonning o'z orzu-maqsadi, qalb harakatlari, o'y-xayoli, kundalik turmushi va tashvishlari bilan bog'liq germenevtik sharoit yaratadigan kategoriyadir.

Har qanday badiiy asar namunasi (agar u yuqori saviyada yaratilgan bo'lsa) ham individual, ham global germenevtik sharoitini shakllantirish hamda har ikki kategoriyada tushunish mumkin. Buning uchun reitsipendagi yorqin orqali shakllanadigan transformatsiya muhim rol o'ynaydi.

Sho'ning ikki misra she'rda aks etgan global va individual germenevtik sharoit tahlili bunga misol bo'la oladi.

Derazanning oldida bir tup

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

(H.Olimjon)

Global germenevtik sharoitning shakllanishida biz shu ikki misra orqali umuminsoniy g'oyalarga murojaat qilamiz. Ijodiy yorqin bizga misralarda lug'aviy birliklarning leksik-semantik paradigmatlari orqali badiiy-ijodiy fantaziya yaratish imkoniyatini beradi. Agar misrada qo'llangan so'zlarning lug'aviy ma'nolariga murojaat qilib oddiy diskursiv munosabati shakllantirsa, shoir o'z uyida o'tiribdi, uning hovlisidagi bir tup o'rik bahorda gullagan, uning gullaridan taralgan hid shamolda atrofga tarqaladi va shoir dimog'iga urilgan muattar gul hiddan ihomlangan holda shoir yuqoridagi misralarni qog'ozga tushirgan, degan fikr paydo bo'ladi.

Bu kabi oddiy semantik tahlilning mazmuni ratsional fikrlashning hosilasidan iborat. Biz bu ratsional fikrlashdan emosional fikrlashga –

<sup>1</sup> Iliy жoйiua: 163-6cr



sentimentga (hissiyotga) tomon o'tish jarayonida germevenvik sharoit yaratamiz.

Global germevenvik sharoitda deraza bino arxitekturasining qismi darajasidan chiqib, borliqni o'zlashtirish vositasiga aylanadi. Shuning bilan bir qatorda insonning eng muhim sezgi organlaridan biri sifatida olib qaraladi. Sezgida aks etgan avvalgi bino qismi ma'nosida uy shoirning vatani, hovli jamiyat, hovlidagi bahor yangi, ozod, baxiyor jamiyatning portloq, baxtli hayotiga, zamoniqa, kuniga ishora. Shoir bir tup o'rtkni ramziy ma'noda o'zi orzu qilgan baxtli jamiyat timsoli sifatida olib qaragan. Shoirning orzu daraxti oppoq gullar bilan o'ralgan, gullarning nafis hidi yangi, baxiyor jamiyatning, inson baxtining, umuminsoniy, aytilish mumkinki, global baxtning nishonasi, ramziy belgisi. Bu daraxtda orzu, maqsad, tilak, xohish, istakning hamma ko'rinishi gullagan. Bu gullar ertaga albatda meva beradi. Uning mevalari inson orzu kemasini yangi sarhadlarga olib chiqadi. Unda insonlar g'am, alam, qayg'u, ofat, kulfat, zulmatdan uzoqda yashaydilar. Umuminsoniy baxt – o'zaro kelishuvchilik, o'zaro ittifoqlik uning birlamchi va asosiy belgisi. Baxt mavhumlik emas, u orzu daraxtining gulidek real asosda namoyon bo'ladi.

Global germevenvika faqat er sayyorasini emas, balki butun borliqqa nisbatan g'oyalarni ifodalay ekan, eng avvalo, "tomchida quyosh aksiri" tushunchasiga asoslanadi. Ya'ni, bir oddiy holat, voqea-hodisa, predmet-detalda, uning bir holati, mavjudligining bir ko'rinishida butun borliq umumiylikning ulkan bir qirrasini topadi. Aytadilarki, borliq tamomila g'amoniyaga asoslangan ekan, har bir tomchi, nuqtada butun bir dunyoning, dunyodagi barcha hodisalarning aksini namoyon bo'ladi.

Individual germevenvika jamiyatning ayrim bir shaxsi, bu o'rinda lirik qahramon-shoirning o'z hissiyoti, orzu maqsadlariga muvofiq shakllanadi. E'tibor berib, derazaning oldidagi daraxt- orzu daraxti, bir inson-qahramonning o'z orzu-umidiga muvofiqlashgan. Daraxt shohidagi gullar-uning gullagan orzulari. Gullar mevaga aylanadi, ya'ni orzular amalga oshadi, meva beradi. Uning orzulari real muhitda u izlagan, ko'zlagan maqsadlarning haqiqatiga aylanadi. Bog'da, aniqrog'i, shoirni o'rab turgan jamiyatda gullagan o'rik daraxti uning shaxsiy individual baxti mevasi. Har bir gul uning bir orzusi, bir baxti nishonasi. Insonning orzu daraxti gullari romantik dunyoning hadsiz ummonlari kabi chek bilmaz baxt eshiklarini ochar ekan, dunyo muallif

mayolida yaxlit oqimga aylanadi va bu oqim o'rik gullari hidlarini yana boshqa gullar, o't-o'lanlar hidini mujassam qilgan sabo bilan butun borliqni qoplaydi, baxt dunyosini yaratadi.

Olamda baxt insonning o'z hayotidan ma'no-mohiyat, eng muhimi qimmat, qoniqish topishligidadir. Baxiyor insonga hayotning, borliqning har bir manzarasi go'zal ko'rinadi. Muntazam va mutasil baxt insonning o'z hayotidan roziligi demakdir.

Yuqoridagi har ikki germevenvik tahlil misra orqali insonda yorqin vositasida ochiladigan she'r germevenvik sharoitining bir tavsifi. Bu kabi tavsifni globallashtirish orqali umuminsoniy yoki individual insonning borliq va jamiyat haqidagi falsafasining ko'rinishi sifatida talqin qilish mumkin.

She'rning keyingi misralari germevenvik tavsifga e'tibor beraylik. Yuqorida o'rik gullashining o'ziyoq shoirida va o'quvchida baxt daraxti gullashi ramzi sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyingi misralarda bu baxtning poetik ranglari birma bir ochib berilmogda:

Novdalarni bezab g'unchalalar

Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda qurg'ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini.

Daraxtning har bir nuqtasi vatanning bir burchagi, bu burchaklar baxt va shodlik guliga burkangan. Dumak, vatan har bir inson baxti uchun birdek sharoit yaratadi. Gullagan vatan, bahorni qarshi olgan vatan barcha uchun birdek baxt oshyoni (tasavvur qiling, novdada gullar birdek tizilib turadi). g'uncha potensial baxt belgisi, u hali ochilganda gul tugadi, gullar esa, mevaga aylanadi. Bu mevalar inson baxtini kamolga etkazuvchi ozuqa.

"Bezab" so'zining semantik-stilistik xususiyatlari ham potensial g'oyani mujassam qilgan: bu vatanning vakillari komil inson, ular vatanni o'z salohiyati, bilimi, jasorati, mehrbon do'stligi, insonparvarligi bilan bezab turadi.

Keyingi misra yuqoridagi g'oyalarning tug'ilishiga ishora qiladi: tong bu – yorug'lik, go'zallik, komlilik, baxt tongi, barcha yaxshi narxalar tongda ro'yobga chiqadi. "Tug'ilmoq" – "hayot otini aytmog" – ularning o'rik gullari timsolida dunyoga kelganligiga ishora.

Ilk sahar – baxt tongida esgan shabboda baxt gulining totini butun dunyoga tarqatadi. Dunyo bo'ylab taralgan hid o'rik gulining totigina

emas, u gul hidi siymosidagi ezgulik toti-ramzi. Bu ramz global germeneytikada butun borliqni yangi rangga-ezgulik rangiga bo'yaydi. Global germeneytikaning shakllanish imkoniyatlari ilohiy falsafa mavzuida yozilgan asarlarda kengroq bo'ladi. Bu borada mumtoz adabiyotida hamd, na't va qasida janridagi asarlarning poetik imkoniyatlari beqiyos.

Boborahim Mashrab g'azallarida ilohiy va majoziy ishqning barcha poetik paradigmatalari qiziqarli germeneytik sharoit yaratish imkoniyatini shakllantiradi. Muallif o'zining "oldida" radifi g'azalida "yor" obrazi semantik, stilistik paradigmatalari g'azalning global germeneytik imkoniyatlarini yaratadi:

Har kishining bo'lsa dardi yig'lasun yor oldida,  
Qolmasun armon yurakda etsun izhor oldida.

Andalabi benavodek nolayu atfg'on ila  
Aylanib sayrab yururmen ayni gulzor oldida.

Mansuri Xalloydek ichib sharobi antahur,  
Charx urub yig'lab tururmen ushbu dan dor oldida.

Har kishi bir jur'ae no'sh aylasa bu bodadin,  
Ul qiyomatda qilur arzini jabbor oldida.

Telba Mashrab qilmag'il sirringni zohidg'a ayon,  
Ayrib-aytib yig'lag'aysen oshiqi zor oldida.<sup>1</sup>

G'azal matla'sida shoir "kishi", "yig'lamog" va "yor" istilohlarining paradigmatic munosabatlari orqali ilohiy va majoziy g'oyalarni omonimik uslubda o'rtaqa tashlagan. Ya'ni shu baytning o'zida ham global, ham individual germeneytik sharoit imkoniyatlari mavjud. "Har kishi" global germeneytikada bu - umuman insoniyat jamiyati, "yor" Alloh, yaratuvchi, "yig'lamog" so'zi nutq fe'li - "gapirmog", "g'am-alam izhori" ma'nosida. Har bir inson o'zligini til orqali bildiradi. Inson dardi bu-muhabbat: ham ilohiy, ham majoziy. Poetik yorqin bizga bu muhabbatning germeneytik sharoitda shakllangan g'ovaviy imkoniyatlarini ochib beradi.

"Armonning izhori" jumlasidagi ma'no "olanda insonning borligini bildirish, shunday bildirishki, iz qoldirish, buyuk faoliyat kechirish, mislsiz ishlarni amalga oshirish, kimligini tili va hunari orqali ko'rsatib berish", demakdir: "Qolmasin armon" jumlasining "tugal", "tamomila", "etuk" ma'nolari yor oldida o'zlikni tamoman, tugal, etuk namoyon qilishni ko'rsatish, demakdir. Tasavvuf lirikasida insonning yor oldida, yor ishqida samandarga aylanishi, tamomila kuyib, yorga birlashib ketishi tugallikning yana bir namunasi ekanligi bilan bog'liq.

Keyingi jumlaning "Yurakda borini uning oldida izhor etmoq" ma'nosida shakllanishi ham shunga ishora qiladi. Global yo'nalishda tamomila o'zlikning mohiyatini bag'ishlash, ya'ni "o'z"likdan kechish degani insonni olamning bir zarrasi ekanligidan ham muhimroq muammolar girdobida planetar voqealarning ishtirokchisiga aylantirib qo'yadi. "Yurakda borini izhor etish" o'zining kimligini nafaqat insoniyat jamiyati, balki butun borliq oldida, Allohning qudrati ostidagi makonda izhor qilish, namoyon qilish demakdir.

Mumtoz adabiyotning muhim xususiyatlaridan biri bu-o'ziga xos poetik timsollar vositasida fikr qisqaligi binobarida muhim g'oyalarni to'nda, ma'nodor misralarda aks ettirishdir. "Andalibi benavo" ham ibiq-Alloh ishq o'lovi domida kuygan odam timsoli aks etgan obraz. Bu timsolning nomlanishi orqali haq ishqida tugal yongan inson obrazi shakllanadi. Nolayu atfg'on ichki dard izhorining global, tugal namunasi.

Shoir bu misrada keyingi misradagi fikrni izohlash uchun o'zini va ruhiy holatining ramziy ma'nolarini kelma ket qo'llagan, keyingi misraning "gulzor", "aylamog", "sayramog" so'zlarining asossatsiyasi tamomila ilohiy g'oyalarning yangi turkumiga turki beradi. Xususan, "gulzor" Allohning va'da qilgan jannati - birinchi ma'noda, ikkinchi ma'noda insoniy baxtning, zamindagi baxtning hisoniy timsoli, qolaversa, qip-qizil gullarning (gulzor) olovga aylangan tandrki, shoir-bulbul (andalib) yoki baxtdan, yoki g'afldan olovxonada darvozasiida yonishga tayyor turibdi. U bu olov-ishq o'lovi vositasida jannidan voz kechadi, ruhga aylanadi. Uning qarshisida shundan so'ng jannat eshiklari ochiladi. Sayramog dil izhorining ramziy izohi.

Uchinchi baytda keltirilgan Mansuri Xalloy tasavvuf ilmining eng buyuk, eng tanikli siymolaridan biri. U poetik obraz sifatida klassik musulmon adabiyotining deyarli har bir sahifasida o'z aksini topgan. Tasavvuf adabiyotida uning nomini tilga olishning o'ziyoq murakkab

<sup>1</sup> Бобораҳим Машраб. Мехрибоний кайдасан. -Т.: Ф.Ф.Улом. 1990. 12-бети.

va minglab g'oyalalar, yangi fikrlar assoatsiyasini uyg'otish uchun turkib beradi. Bu borada tanqidi adabiyotshunos olimlarning tavsifi diqqatga sazovor: "Zero, eng zo'r mardlik, eng buyuk jasorat nafsni o'ldirib, ganoat dargohida halol yashashga ko'nikishdir. Insonning insoniyligi, ilohiy hozirlanadi. "To'libi ishq o'lay desang, Himmati Adham kerak", Mansuri Xalloy ta'limotida ham xuddi shu narsa bosh aqida edi: "Nafsing seni egarlab olishidan oldin sen uni egarlab ol", deb vasiyat qiladi u o'g'li Ahmadga dorga ositishi arafasida. Biroq Mansurning himmati Ibrohim himmatidan balandroq edi, chunki agar Ibrohim Adham toj-taxt, mol-davlatdan voz kechgan bo'lsa, Husayn Mansur haq yo'lida shirin jonidan kechdi - insonni ilohiy-lashtrigani, "men haqman" (ya'ni xudoman) degani uchun qozi-mullalar uni qo'l-oyoqlarini kesib, dorga osib o'ldirishga hukm etdilar. Aqlu tafakkur kuchi, ma'naviy qudratga zo'r'i etnagan notavon bandalar hamma zamonlarda ham ana shu tariqqa yo'l tutardilar: hikmat va donish ahlini qiyinat, jisman yo'q qilib, taskin topdilar, o'z bo'yilariga mos "haqiqat"lar bichib, osoyishta yashaydilar. Mansurning fojiali taqdiri, favqulodda jasorati g'oyalari Mashrabni qattiq hayajonga soladi. Shoir uni "shahidi ishq" deb algaydi, qayta-qayta o'zini unga qiyos etadi, havasi keladi va o'z umrining ham oxir-oqibatda Mansurnikiday yakunlanishini oldindan bashorat etganday bo'ladi....

Mansurning falsafiy ahkomi, mushohadasi, oriflik martabasi ham xiyala yuksak. U tasavvufning amaliy-axloqiy sulukini bosib o'tish (talab, ganoat, halollik, toat) bilan kifoyalannay, mantiq kuchiga tayangan ma'naviy kamolohning avji ilhomida vahdati vujud ta'limotini tahlil etarog: modomiki inson ruhi Mutlaq ilohiyotning bir qismi ekan va u tana-jism bilan kurashda tozalantib, to'lishib, yana asliga qaytar ekan, bir, ya'ni inson ham xudo (haq), degan fikrga kelib, buni el orasida baralla oshkor etadi. "Analhaq" - men haqman degan iboraning ma'nosi ham shu.

Ammo bu so'zning men rost aytyapman, men haqiqatman, degan ma'nolari ham mavjud. Bunda nima nazarda tutiladi? Gap shundaki, mazkur falsafaga ko'ra, inson jismi va moddiy dunyo bilan bog'liq jamiki narsa-ashyolar, jumladan dunyo boyliklari, ko'ringan hasham - qudratlarning hammasi yo'lg'on, o'tkinchi- "majoziy"dir, faqat Mutlaq iloh haqiqatdir. Shunday ekan, bu yo'lg'on dunyoga mehr qo'yish-nodonlik, aldanishdir. Inson faqat Mutlaq iloh haqiqatiga ishonishi, faqat

o'zlanga oshiq bo'lishi kerak. Bu yo'l g'oyat mushkul, qiyinchiliklar hali-halb, ammo bu yo'lida har qanday azob-izitrobgacha chidasa arziydi, chunki chin ma'nodagi ma'rifat yo'li, chinakam ishq shudir. Mashrab mazkur mustlak-e'tiqodga birubor imon keltirib, Mansuri Xalloy misoli mutlub-yor visoliga etishish dardida yonadi, yurak-bag'ri ezilib, qagqus qashbday alangali til bilan kuylaydi. Bu shunday ulkan dardki, u bir zum ham shoirni tinch qo'ymaydi, uning butun xayoli, vujudi shu yor zavqqa hillaq band. Mashrab nazariya eru ko'k, daraxtlar, daryolar - hamma mavjudot oshiq: Mansur osilgan dor, so'yilgan Nasimiyning et-suyaklari ham analhaq deb faryod chekadi. Sog'inchim dardi shunday zo'rki, deb yozadi Mashrab, daraxtlarni xoma, daryolarni siyoh, eru ko'kni klib sahlfasi qilib yozsam ham ado bo'lmaydi. Qanday toza tashbeh, kaynoniy nigoh gannrovi! Bu dard Mashrabga ba'zan huzur-halovat, cheksiz xayoliy nashidalar yakuni-ruhiiy parvozlar zavqu sururi, jazava holning shirin ilhom damlarini ato etadi, buning natijasi o'larog mo'jiza g'azallar, muxammasar yaratiladi: ba'zan u cheksiz alam-qayg'u u keltirib, shoiri analhaqni tirgiratib ko'zidan yoshini oqizadi<sup>1</sup>. Qisqa tahtilning o'ziyog ko'rsatib turibdiki, global gemenevika naqadar global muammolarni matn transformatsiyasi orqali yaratadi.

Misrardagi ikkinchi obraz musaffo ishq sharobi ham Mansuri Xalloy kabi o'zini fano daryosiga o'tgan insonlarning orzusi kabi abadiydir, abadiy musaffodir. Bu sharoibni tolgan inson uchun bid'atchilarning dori hech narsa emas. Qiyomat arzi, xalloq-jaborning oldidagi arz fanoga aylangan insonning jismu jasadidan kechishi orqasida orttiradigan yo'lg'iz bisoti. Biroq butlarning hammasi global gemenevika matn transformatsiyasi orqali global karakter kasb etgani holda ularning qatnashonlari oddiy zamin zarrasi xarakteridan chiqib, butun koimot fazoiy xarakterga ega bo'ladi. Binobarin, bir inson fanosi butun mavjudot fanosiga, dardiga aylanadi. Har bir insonning o'zi Aristotel illogizmndagi deduktiv metod nuqtai nazaridan kelib chiqib, mustaqil dunyoga aylanadi. Eng muhimi mana shu dunyolarning har biri o'zi yadonna geometrik chiziqda yotgan holda o'zaro o'xshash dunyolarni yaratadi. Global gemenevikaning asosida aynan mana shu hol yotadi. Mana va odam o'rtasidagi global birlik, borligning har bir zarrasi, miniatyuraning hamma uchun birddek ekanligi bilan bog'liq.

<sup>1</sup> Ислафиласофия Маширраб. Мехрибонини кайдласан.-Т.: Ф.Гулом. 1990. 6-7-Бетлар.

Global germevika shakllanish imkoniyatlari ijodkor yaratuvchiligi, novatorligi va uslubga ham bog'liq. Individual talant, ijodkorlik qobiliyati badiiy matnda germevitik sharoitning chegaralarini kengaytiradi. Misralar, jumlatlar zamiriga nafarat ulkan, balki ko'p holatlarda tamomila ijodiy, hali inson ongi qamrab olmagan borliq holatlarini yaratadi. Gyotening ta'kidlashicha, ijodkorning "yaratuvchiligida tabiatga ergashish" faoliyati uch bosqichda ro'y berishi mumkin.

Birinchi bosqich eng oddiy havaskorlik doirasida kechadi. Bunda havaskor qalamkash hali tabiatdan sira ajralolmagan, mustaqil ijod qilish darajasiga ko'tarila olmagan bo'ladi; tabiat ishini har qancha sinchiklab kuzatsa-da, uni aynan takrorlashdan nariga o'tmaydi; voqelik ko'rinishlarining xilma xil nusxalarinigina yarata oladi, xolos.

Ikkinchi xil bosqich qalamkashning san'at talablaridan unchalik voqif bo'lmagan holda mustaqil ijodga ko'chishi davrlarida yuz beradi. Ijodkorlik faoliyati bu bosqichga ko'tarilar ekan qalamkashda tabiatga so'zsiz ergashish havasi mutlaqo tugagan bo'ladi. Endi u tabiat ishini ma'qul ko'rmay, ko'pincha uni buzishga, o'z sub'ektiv xohishlari, istak va mayllari bo'yicha qayta qurishga intila boshlaydi. Qisqasi, ijodkorlik bunday paytda butkul muayyan manera hukmronligida qalam tebratishdan iborat bo'lib qoladiki, shunga ko'ra uni san'atkorlik deyin uchun hali vaqt erta.

San'at o'zining eng muqaddas narsasiga-badiiy obrazlar orqali aks ettirishi lozim bo'lgan "oliy haqiqat"ga erishmog'i uchun ijodkorlik faoliyati uchinchi – eng etuk bosqichga ko'tarila olishi kerak.

Uchinchi bosqichda asosiy hukmronlik uslubga o'tadi. Manera esa, o'z yo'nalishida unga bo'yunadi va faqat u talab etgan me'yor doirasidagina yuzaga chiqqa oladi. Bu bosqichdagi ijodkorlik garchand voqelikni aynan takrorlab berishdan iborat bo'lmasa-da, shu bilan birga uni tamoman unutilib yuborib "absolyut yangilik" ixtiro qilishni ham anglatmaydi.

Yozuvchi so'nggi bosqichda ham tabiatga ergashaveradi. Lekin uning bu ergashishi bevosita kuzatish natijalarini qayd etishdan iborat bo'lmay, voqelikdagi narsalar go'zalligi (yoki xunukligi) ni yanada mukammalroq, yanada yorqinroq his etladigan qilib poyomiga erkazish, tabiat qiyomiga keltirilgan tomolonlarni qiyomiga keltirish ishini

ham o'z ichiga oladi<sup>1</sup>.

Hayot haqqida ko'p qirrali. Bir xil muhitda har kim nisbatan har xil yashaydi, biri ikkinchisiga o'xshamas tajriba, his-tuyg'u ortirib borishi tabiiy. Yozuvchi yaratadigan tasvirlarda yuqoridagi omillar bilan birgalikda ana shu-xususiy hayot tajribalari, dunyog'arash, voqelikka munosabat, simpatiya-antipatiya, ideal, etik-estetik konsepsiyalarning ham muhri bo'ladi. Shunga ko'ra, uslub doimo o'ziga xoslik, individuallik hodisasi sifatida yuzaga chiqmog'i kerak. Uslubsizlik birinchi navbatda, talantsizlikni, qolaversa, yana mahoratsizlikni anglatadi. "Talab bu-san'atkorning o'zidir", degan aforizmning ma'nosi ham shunda<sup>2</sup>.

Badiiy ijodda yangi so'z aytish, ijodiy novatorlik san'at materialini kengaytirish, badiiy idrokning hali ochilmagan, uqib, bilib ulgurilmagan tomolonlarga kirib borish jarayonidir. Novatorlik yangilik kurtaklarini boshqalardan oldinroq ko'ra olish va badiiy ravishda aks ettirib bera olish qobiliyatidir. Bu jarayonda ijodkorning voqea-hodisalar mohiyatini chuqur idrok etishi, o'zi uchun qadrlil bo'lgan barcha narsalarga samimiyati, mehri, romantik ko'tarinkiligi muhim ahamiyatga ega. Novatorlik uchun katta ijodiy kuch, jo'shqin ilhom kerak.

Yuqoridagi qisqa germevitik sharoit tahlili asarni tushunishning muqaddar ulkan muammolari mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Biz quyida mana shu muammolarni ayrimlarini echimimi topishga intilamiz.

<sup>1</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилдик. 2-жилд. –Т.: Фан. 1979. 125-бет.  
<sup>2</sup> Адабиёт назарияси. 2-жилдик. 2-жилд. –Т.: Фан. 1979. 149-бет.

## II-BOB. GERMENEVTIKA VA POETIKA

### 2.1. Badiiy asarning germenevtik tahlili mezonlari

XIX asr oxirlarida alohida fan sifatida shakllana boshlagan germenevtika dastlab eramizning boshlarida Bibliya matnlari g'oyaviy rang-barangligini aniqlash uchun qo'llanilgan. Yangi davrga kelib uning bevosita adabiy matnlarni o'rganishiga jalb qilinishi ustida tajribalar o'tkazila boshlandi. Shleyermaxer, Shpet, uning ortidan Xirsh kabi olimlar germenevtik tadqiqotning nazariy me'yorlarini bevosita adabiy matnlarga nisbatan ishlab chiqdilar.

O'zbek adabiyotshunosligida bu metod XX asrning 90- yillaridan e'tiboran keng qo'llanila boshlandi. Germenevtik metodning dastlabki variantlari qadimiy matnlarni talqin qilishga qaratilgani bois bizda ham bu metoddan eski adabiyotning ma'naviy munosabatlarini aniqlash borasida foydalanildi. A. Erkinov Navoiyning "Xamsa" asari turli matnlarini o'rganish borasida germenevtik tadqiqot olib bordi. Keyinchalik (2010 yilda) falsafiy germenevtika borasida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi. Professor H. Boltaboev germenevtik metod haqidagi o'z mulohazalarini "Jahon adabiyoti" jurnalidagi maqolasida izhor qildi. Mavzu va mohiyatning beqiyos kengligi qarshisida bu tadqiqotlar ummondan tomchi ham emas. Zotan badiiy adabiyotni yangi usullarda o'rganish zaruriyati kun tartibida turgan dolzarb muammo ekan, germenevtik metodning taraqqiy topishi alohida e'tibor va diqqat talab qilishi tabiiydir.

Germenevtik tadqiqotlar doirasi avvalo matni ratsional o'rganishni qamrab olgan, uni tushunish, ya'ni aql bilan qamrab olishdan iborat edi. Demak, matn tushunilar ekan, uning barcha g'oyaviy yoki emotsional tomonlarini ilg'ab olish mumkin bo'lar ekan, demak matn tugallangan fikr, deb hisoblangan o'sha davrlarda. Keyinchalik bu xulosa "matn fenomenologiyasi" deb nom olgan Gusserl boshchiligidagi germenevtik oqim tarafdorlari tomonidan inkor qilindi. Ularning fikricha, matni hissiy tushunish germenevtikada ustunlik qilgani holda aqliy-materialistik tushunishga qarshi turadi. Aqliy tushunish borligini nisbiy anglab etgan vositalar yoki boshqacha qilib aytganda so'z vositasida ifodalangan dunyoni izohlashga qodir, xolos.

Borliqning, umuman Alloh tomonidan yaratilgan dunyoning nomu-

konmulligi ham shundaki, biz hali uning juda ko'p tomonlarini his qilgan holda anglab eta olmaymiz. Materialistlar anglamagan dunyoni ham ohmasliklari mumkin, biroq uni bizning ongimiz, umuman insoniyat mena'atlaridan tashqarida mavjud ekanligini inkor qilib bo'lmaydi.

Germenevtik sharoida aql bilan anglangan yoki galb bilan his qilingan borliq ayatiladi. Aqli etgan odam ong bilan ilg'angan voqea hodisalarini nomlaydi yoki aniqrog'i tilga kiritadi. Biroq galban his qilingan dunyo - borliq, voqea - hodisalarining hammasi ham nomlanmaydi. Ularni nomlash uchun ularni tushunish - insoniyat dunyosining ongiga kiritish kerak.

He qtlish darajasi turli odamlarda turlicha kechar ekan, uning darajasini kommunikatsiya orqali aniqlash mumkin. Kommunikatsiya bu - fakat axborot etkazishdan iborat emas, balki uning zamirida ulkan voqea- hodisalarini o'zaro tushunishning ulkan silsilasi yotadi. Kommunikatsiya bu - ikki odamning jonli mulogotidan tortib, ming yil avval yaratilgan kitob mulolaasi orqali muallifning o'quvchi bilan "qllashuvi"ni ham qamrab oladi. Binobarin, kommunikatsiyalarning shakli va turi cheksiz ekan, ikki yoki undan ortiq insonning matn orqali "qo'zlashuvi" ham germenevtik metodning cheksiz paradigmatlarini yaratadi.

Amerikalik olimlar, xususan, Xirsh va uning tarafdorlari matn qism-borini asosan ikki nuqtai: semiotik va arxeologik nazardan o'rganishni tavsiya qiladilar. Birinchisida so'zlarning hozirgi tilda mavjud ma'nolari tahtrok etsa, ikkinchisida so'zning eng birinchi ma'nosiga intilish borasida uning insoniyat ratsional fikrlashi borasidagi dinamikasi kuzatiladi. Masalan, hozirda "oqsogol" istilohi "mahalla fuqarolar yig'ini raisi" ma'nosida qo'llaniladi. O'zi aslida oqsogol deb o'zbeklarda yosh o'rgan, soch- sogoli oqargan, katta yoshdagi erkaklarni aytishar edi. Oqsogollar el - yurt boshida turib, to'y - hasham va boshqa marosimlarni boshqarganlar.

Bu so'zning arxeologik ma'nosi tahlilida uni forscha "mo'ysafd" so'zining kalka tarjimasiga mos kelishiga e'tibor qarataylik. Mo'ysafdlar aslida Mlar fir'avnlari saroyida davlat maslahatchisi sifatida faoliyat yuritibhgan. Davlat maslahatchisining fuqarolar oldidagi obro'sini ta'minlash maqsadida ularga soch - sogolini oqqa bo'yab yurish tavsiya qilingan. Bu istiloh lavozim nomi sifatida fors tiliga qabul qilingandan so'ng o'zgarishga uchraganligi tabiiy. Uning "maslahatchi", "marosim

boshqaruvchi" ma'nolari ham fors tilida saqlangan. Xuddi shu holda turkiy tillarga ham kirib kelgan.

Hozirda oqsoqol so'zi modallashgan holda umuman lavozim ma'nosini anglata boshladi. Bu so'zdagi "soqol" qismini ham o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lib, umuman oqsoqol deb, yoshi va jinsidan qat'iy nazar mahalla fuqarolar yig'ini raisiga nisbatan qo'llana boshlandi. Biroq antik davrdagi Misr fir'avnlari saroyidagi "maslahatchi", "ish boshqaruvchi" ma'nosi so'zning ma'no paradigmatlari zahirida mavjud.

Yana bir so'zning arxeologik ma'nosiga e'tibor qarataylik. Turkiy tillar va ularning shevalarida "bobo", "buva", «momo», "buvi", "ona", "oyi", "opa", "aba", "anna", "acha", "apa" shaklida yaqin qarindoshlikni anglatuvchi so'zlar mavjud. Bu so'zlar asrlar davomida turkiy tillarda deyarli bir ma'noda qo'llanib kelimmokda. Ularning barchasi yagona "bobo" so'zining ma'no va shakl paradigmatlari ekanligi haqida avval ham aytilgan. Ruscha papa, mama, inglizcha faze, maze, forscha padar, modar va hakazolar ham shu so'zning variantlaridir. Arab tilida "ota" - ona" ma'nosida volid so'zining qo'llanilishi "bobo" va "momo" so'zlarining xam yagona shakl va ma'nodan o'sib chiqqanligini bildiradi. So'zning birlamchi shakl va ma'nosini topishga intilish hamda uni topish orqali asar g'oyasini shakllantirish arxeologik metodning asosini tashkil qiladi.

Zamonaviy germenevtik metodning global va individual usullarining ajratilishi so'z, jumla va matn ma'nosini transformatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Transformatsiya matn qismlari (so'z, jumla, abzats) ning turli shakllarda bosh va yordamchi ma'nolarini kengaytirish yoki toraytirish hamda semantik-stilistik paradigmatlarini aniqlash orqali shakllantiriladi. Shoir yoki ijodkorning asarga kiritgan har bir so'z, jumla va matn transformatsiya qilinishi mumkin. Bu xuddi elektr tokining kuchlanish quvvatlarini pasidan yuqoriga yoki yuqoridan pastga tushirishini eslatadi. Bizga esa uning butun insoniyat taqdiri, jamiyat, binobarin, global muammolarni echish, kashf qilish imkoniyatlarini ochish darajasini aniqlash kerak. Bu borada biz global germenevtikaga yuz buramiz va matn transformatsiyasini ijod qilamiz. Binobarin, global germenevtika individual inson taqdirini globallashitirar ekan bir bo'lak sidiq voqelikni umum fazoviy voqelikka ko'chiradi. Bu borada Erning Kristi o'zining "Modernizm" deb nomlangan maqolasida shunday yozadi: "Poetziya voqelikka taqlid qilish emas yoki u voqelikning

tasviri ham emas, poetziya-o'z-o'zicha voqelikdir, voqelik bo'lganda ham amaldagi voqelikdan ortiqroq darajada voqelikdir. Unda jo'nlik paradigmasini bir chekkaga surib qo'yib, bizning ongimizning "voqelik" bilan mulohazaga kirishmog'iga yordam beradigan "himoya mexanizmi"ning katti-harakatini namoyish qilishga intilish tajassum topgandir. Yaxshi ana kitobxon shuurida portlaydigan sidiq voqelikdir".<sup>1</sup>

Global germenevtika mana shunday sidiq voqelikning portlashi orqali yuzaga keladigan ulkan samoviy voqelikdir. Endi yuqoridagi ma'nolarni global germenevtika tahliliga e'tibor beraylik. Yuqoridagi Hamid Olimjonidan olingan misolda

Derzanning oldida bir tup,

O'rik oppoq bo'lib gulladi.

Ma'nolardagi birinchi so'z deraza - butun voqelikni idrok qila oladigan insonning o'zi. Bir tup o'rik esa, uning butun orzu-istak, o'yi-xayoli, faal ramzi, o'rik gullari ularni kelajakda buyuk ishlarni bajarish orqali amalga oshishi uchun ishora.

Germenevtik transformatsiya adabiyotda badiiy tafakkur shakllanish jarayonining ajralmas qismi. Transformatsiya jarayoni lingvistik vositalarning ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq. Biroq, milliy mentalitet, insoniy mentalitet transformatsiya paradigmatik imkoniyatlarining muhtasili dinamikasini ta'minlaydi. Germenevtikaning maqsadi va vazifasi matni to'g'ri tushunish metodini yaratish. Har bir asar matni tugallangan voqelik - bu bir tomondan, ikkinchi tomondan bu ulkan samoviy voqelikning bir qismiki, yangi voqeliklarga yo'l ochadi. Matnda ham borliq, ham individual inson yotadi. Matni o'zlashtirish jarayonida uni to'g'ri tushunish uchun germenevtik metodning qonun-qoidalarni mukammal egallash zarur.

So'z gapda so'zligini yo'qotadi, binobarin, har bir asar, matn o'ziga son dunyo. Dvigatel o'zining ichki qonunlari bilan yashagani kabi matn ham o'z arxitektonikasi orqali borlig'ini namoyon qiladi. Asarning tugallangan matnida har bir so'z, har bir belgi umumiy g'oyaning mavliy qismi, uni olib tashlab ham, almashitirib ham bo'lmaydi. Hatto eng kichik matn bo'lmish aforizm va frazemalarning matni ham hattoki o'z arxitektonik butunligi bilan farqlanadi.

"Tomchida quyosh aksini" deganlaridek, har bir matn, o'rni kelssa har bir so'z transformatsiya orqali ulkan jittimoiy g'oyalarni yaratishga qodir. Lirikaning umumbashariy tabiati haqida Belinskiy shunday

yo'zadi: "Buyuk shoir o'zi haqida, o'z meni haqida gapirarkan, umun haqida - insoniyat haqida so'zlaydi, zotan insoniyatga xos hamma narsa uning tabiatida mavjuddir. Shuning uchun ham har bir kishi shoirning hasratida o'z hasratini, uning qalbida o'z qalbini topib oladi, uning qiyofasida esa faqat sho'irni emas, balki insonni, o'z bashariy bironlarini ko'radi".<sup>1</sup>

Germenevtika bu - vujud ichki vulqonlari natijasida toshga chiqayotgan qudrat silsilasining holatlari, qirralariga nom berish demakdir. Musiqqa - inson ruhiy, botiniy dunyosi holatlari, harakatlarining ovozi, sasi. Ovoz, sas notalarini nomlash she'r iyat, poetkaning vazifasidir. Germenevtika nom olgan elementlarning ma'no qirralarini ochish vositasida ikkinchi to'liq ichki bo'hronlar partiyasiga yo'l ochadi. Keyingisi yana keyingisiga yo'l beradi. Bu ruhiy kashfiyotlar tizimi cheksiz davom etaveradi. Biroq har bir partiya ruhiy to'liqlar inson tasavvur dunyosini, olamni ruhiy o'zlashtirish imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Binobarin, inson oldida dunyoning yangi ranglarini kashf qiladi.

Antik adabiyotdagi mitologik tafakkur o'rta asrlarda realistlik manzaralarida, yangi davrda esa romantizm va realistlik tasvir usulining chatishgan mezonlarini shakllantirdi. XIX asr adabiyotida bosh plan-ga ko'tarilgan hol bu - inson ichki dunyosining poetik tasviri edi. Inson ichki dunyosining individual qirralarini topish, uning yangi shtrixlarini kashf qilish, binobarin, ijtimoiy psixologiyaning yangi-yangi tamoyillarini shakllantirish badiiy adabiyot, badiiy tafakkurning faqatgina falsafiy - estetik hodisa holatini istisno qildi.

Kommunikatsiyaning kuchayishi yangi badiiy asarlar bilan birga, yangi adabiy qarashlarning ham o'zlashtirilishida hududiy to'siqlarni olib tashladi. Shu o'rinda texnologiya sohasidagi inqilobning ham o'rni va ahamiyati buyuk. Odamlar kompyuter, mobil aloqa vositalari orqali qisqa muddatlarda borliqning turli chekkasida yuz bergan, berayotgan yoki hattoki yuz berishi mumkin bo'lgan yangilikdan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib qoldilar.

Imkoniyatlarning kengayishi inson ongi, tafakkuri, badiiy-estetik qarashida ulkan o'zgarishlar yasadi. Natijada odamlar borliqqa, hayotga, jamiyatga tamomila yangi ko'z, yangi nigoh bilan qaray boshladilar. Avvallari inson mentalitetida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy faktor bosh rol o'ynagan bo'lsa, endilikda inson ichki dunyosi, individual psixologiya,

uning qalb manzaralarini o'rganish, shu orqali borliqning, jamiyatning yangi ranglarini kashf qilish muhimroq bo'lib qoldi. Badiiy asarning ham san'at namunasi, ham ijtimoiy - estetik ong namunasi sifatidagi imkoniyatidan foydalangan holda jamiyat psixologiyasining yangi ranglarini topish, yaratish va shakllantirish borasidagi imkoniyatlari germenevtikaning ahamiyatini oshirib yubordi. Badiiy matn tahlili orqali inson asarda aks etgan hayot manzarasini o'zi imkoniyati darajasida o'z mentalitetiga muvofiq shaklda qabul qilishi mumkin.

Yuqoridagilarning mujassami sifatida aytilish lozimki, germenevtika asar arxitektonikasi orqali o'z ichki qonuniyatlari bilan o'ziga xos dunyo, g'oya tashiyotgan matnni tushunish, uning g'oya spektrlarini aniqlaydigan metoddir.

## 2.2. Hayot haqiqati va ijodiy metod

Poetika real hayotni mavhumlashtirish mobaynida hayot haqiqatining ma'lum elementlarini o'zida mujassam qilib borishi zarur, aks holda u sun'iy bir matoga aylanadi hamda o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Badiiy adabiyot olamida eng muhim muammolardan biri bu tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning ma'lum makon va zamonda shakllanishini belgilash muammosi. Vaholanki, bundanda muhimroq'i taavirlangan voqea-hodisaning ma'lum sikl va maydondagi geometrik progressini anglab etish. Biz quyida badiiy asarni san'at sifatida inson borlig'idagi abstrakt kuch va qudratini hamda bu kuch - qudratning inson tarbiyasi uchun naqadar ahamiyatli nuqtalarini belgilashga harakat qilamiz. Buning uchun tasavvurda aks etadigan voqea-hodisalarning san'at namunasi sifatidagi o'zligini tushunib etishga intilamiz hamda buning barobarida ularning makon va zamondagi hissiy (sentimental) dunyosini tahlil qilamiz.

Sentimentalizm badiiy adabiyot san'ati, aniqrog'i umuman san'at dunyosining borlig'i, chunki san'at borligini faqatgina hissiyot, tasavvur bilan qabul qiladi, tasavvur bilan yaratadi, tasavvur bilan o'zgartiradi. Haq shunday ekan, san'at dunyosida inson tasavvur bilan yashaydi, tasavvurning negizi esa, hissiyot, borliqni hissiy anglab etishdir, bu holat esa - sentimentalizm.

Sentimentalizmning eng muhim fakti uning zaminida makon va zamoning yo'qolishi binobarida, dunyodagi mavjud ruhiy yoki biz

faqat tasavvuridagina yaratiladigan holatlarning abadiyligi va tengligini tushunishdan iborat. Borliqdagi voqea-hodisalar paradigmasi faqatgina san'atdan iboratdir. Hech qaysi inson yoki mavjudot o'zining qanday ishlarga qodir eanligini to'laqonli tushunib etmagan. Inson ruhidagi mutasil foylanishlar ham borliqning hali kashf etilmagan nuqtalaridan dalolat beradi. Sentimentalizm adabiyotida borliqni anglab etish germevenvik metodda amalga oshiriladi.

Badiiy asarda realistik manzaralarni to'g'ri baholay olish muhim o'rin tutadi. Jahon adabiyotshunosligida ijodiy metod orqali badiiy haqiqatni tushunib etish jarayonida tadqiqotchi har doim ham haqoniy yo'nalishni ilg'ab o'lmaydi. Ulug' rus yozuvchisi L. Tolstoy Shekspir asarlarini tahlil qilar ekan muallifning hayotiy haqiqat ifodasiga nisbatan hoyatda befarq munosabatda bo'lganlikda aytlaydi. Ayniqsa, «Qiro'l Lir» tragediyasidagi badiiy tasvir va hayot haqiqatining o'zaro nomutanosibligi uni hayratga soladi.

«Qiro'l Lir» drammasida ishtirok etuvchi shaxslar zohtiran chindan ham tevaraklarini qurshab olgan dunyo bilan ziddiyatga kirishadilar va unga qarshi kurash olib boradilar. Ammo ularning kurashi voqealarning tabiiy oqimidan va ishtirokchi shaxslar xarakteridan kelib chiqmaydi, balki mutlaqo muallifning ixtiyori bilan belgilanadi. Shuning uchun ham kitobxon tasavvurida voqealar xuddi hayotda, haqiqatdagi kabi taassurot qoldira olmaydi. Holbuki, bu san'atning asosiy shartini tashkil qiladi. Hokimiyatdan voz kechmoq uchun Lirning hech qanday asosi ham, bahonasi ham yo'q. Xuddi shuningdek, bir umr qizlari bilan birga yashab kelib, katta qizlarining gapiga ishonmoq va kenjasining rostgo'y gapiga ishonmaslik uchun uning farosati noqis bo'lishi kerak (uzoq yillar hokimiyatni boshqargan davlat arbobi sifatida Qiro'l Lirning bu kabi farosatsizligi odamni hayratga soladi). Holbuki, uning boshiga tushadigan hamma fojiani boshlang'ich nuqtasi ham shu erda.

Realistik asar voqealari bayonida muallifning hayotiy haqiqatdan kelib chiqqan holda syujet liniyasini yaratishi birinchi talab. Bu aksioma. Xuddi shuningdek, asarni o'qimishli (yoki dramatik asarni tomoshabin ehtirosini qo'zg'ata oladigan darajada ta'sirchan) qilish magasadida muallif hayotiy haqiqatning idrokka muvofiq holatlarini ehtirosli hissiyot bilan qorishiradi.

Tolstoy «Qiro'l Lir» drammasining ratsional tahlilini amalga oshirar ekan, unda muallif asar asosiga qo'ygan inson tabiatidagi ehtirosli

munosabat mavjud ekanligini unutadi. Ko'pincha ehtiros aql - farosaddan ustunlik qiladi. Inson hayotining eng muhim nuqtalarida kechirilmas katolarga yo'l qo'yadi. Ko'pincha bu hol ham boshga, aqlga emas, balki qalbgaga tayanib ish ko'rilganida yuz beradi.

Shekspir Qiro'l Lir obrazida mehribon, rahmdil ota siymosini yaratmoqchi edi. Buning uchun badiiy ijodning muhim vositasi badiiy to'qimadan unumli foydalanishga intildi. Asarda inson fojiasining ta'sirchan va qaqshatuvchi nuqtalarini topish uchun grotesk ham zarur edi. Badiiy to'qima har doim ham hayotiy haqiqat talabi bilan moslashavermaydi. Chunki badiiy ijodning ta'sirchanligi darajasi talabi shunga asoslanadi. Muallif kitobxon yoki tomoshabin ehtirosini qo'zg'atish, uning sezgi a'zolarida kuchli taassurot qoldirish uchun voqealarning fojieviy nuqtalarini ataylab bo'rtiradi: aqlli odamlarni ahmoqqa, jasurlarni qo'rqoqqa, mehribonlarni shafqatsizga aylantiradi.

Tolstoy o'z fikrini tasdiqlash uchun syujet epizodlarini qiyoslaydi: Lirning qizlariga va Glosterning o'g'illariga munosabati bir xil ekan, har ikkala munosabat ham atayin to'qib chiqarilganini va hodisalarning tabiiy voqeadan kelib chiqmaganini yanada kuchliroq his etishimizga imkon beradi. Asarning boshidan oxirigacha Lir keksa xizmatkori Kentni tanii olmaydi. Bu ham g'ayritabiiy. Uning ham atayin to'qilgani o'z - o'zidan ko'rinish turibdi.

Tadqiqotchi yana bir muhim nuqtada badiiy tafakkurning germevenvik imkoniyatlarini noto'g'ri baholaydi. Vaholanki, global germevenvikda voqealar tasodif emas, ular vaqt strekksining istalgan bo'g'inida yuz berishi yoki takrorlanishi mumkin. Badiiy adabiyotning umr boqiyiligi talablaridan yana biri ham aynan shu nuqtani topa bilishda yoki to'g'ri aniqlashda.<sup>1</sup>

Zotan muallif o'z asari syujeti orqali eng avvalo o'quvchi ehtirosini qo'zg'atish uchun tayyorlar ekan voqealarning tizimi bilan qiziqmaydi. Tolstoy yozadi: Shekspir dramalarida shaxslar zamon va makonga mutlaqo nomuvofiq tarzda yashaydilar, o'yaydilar, gapiradilar va harakat qiladilar. «Qiro'l Lir»ning voqealari Iso tavalludidan 800 yil avval sodir bo'lgan, holbuki, drama ishtirokchilari faqat o'rta asrlardagina bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitga solib qo'yilgan: dramada qirollar, gersoglar, janoblar, saroy ayonlari, dvoryanlar, fermerlar, zobitlar, askarlar, yuziga niqob tortgan risarlar va boshqalar harakat qiladi.<sup>2</sup>

Tolstoy Shekspir personajlari harakatidagi sun'iylikni qayd qilar



ekan, asosiy e'tiborni xarakterni yorqin ifodalashi mumkin bo'lgan individual ishga qaratadi. Uning nazarida Shekspir qahramonlarini individuallashtiradigan tili uning dramalarida aks etmagan.

U quyidagicha yozadi: "Har gal Shekspirning istalgan biror dramasi o'qiy boshlashim bilan, shu zahoti bir narsaga ishonch hosil qilardim: Shekspirda xarakterlar tasvirlarning asosiy, balki yagona vositasi bo'lmasa edi, "titi" yo'q bo'lar edi, ya'ni hech qaysi shaxs o'zining tili bilan so'zlanmas edi. Shekspirda bu yo'q. Shekspirda hech qaysi shaxs o'zining tilida gapirmaydi, balki hamma vaqt jimjimador, g'ayritabiiy til bilan, hech qachon o'zgaraydigan bir shekspirona til bilan gapiradi. Bunaqa tilda tasvirlangan shaxslarning hech qaysisi gapira olmas edigina emas, balki hech qachon hech qanday jonli odam gapirishi mumkin ham emasdi. Gapirganda hammalari mutlaqo bir tilda gapirishadi. Edgar o'zini jimlikka solib qanday ajirasa, masxaraboz ham xuddi shunday gapiradi. Bir odamning nutqini bemalol boshqa odamga olib bera ham bo'lavradi. Nutqiga qarab gapirayotgan odamning kim ekanligini sira ham bilib bo'lmaydi. Shekspirdagi shaxs gapiradigan tilda maboda farq bo'lsa, bu shaxslar o'rtasidagi farq emas, balki ular uchun gapiruvchi Shekspir nutqidagi uslubiy farqdir. Shunday qilib, dramada til xarakter yaratishning asosiy vositasidir, ammo Shekspirda ayнан ana shu jonli shaxslarning tili yo'q".<sup>3</sup>

Uyg'onish davri adabiyoti Yevropada klassitsizm adabiyoti uchun zamin hozirladi. Antik adabiyotdagi yuqori uslubdagi xarakter, til vositalari hamda buyuk insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari ifodasi ko'pincha asar personajlarining bir xil xakteri, binobarin bir xil nutq uslublarini talab qiladi.

Bizningcha Shekspir ham har qancha reallikka intilmasin shu an'anani chetlab o'ta olmagan. Shu bois uning qahramonlari ham klassik stildagi balandparvoz nutqda antik davr adabiyoti qahramonlariga ergashgan. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan O'rta asrlar Angliyasi uchun teatr yagona jonli nutq ommalashadigan joy bo'lgan. Balki shuning uchun muallif o'z asarlari tili bilan ommaga murojaat qilish orqali buyuk insonparvarlik g'oyalari yoki individual mentalitet namoyishiga intilgan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, Shekspir qahramonlarining tilidagi parallelizmi davr ruhi talabi bilan izohlash mumkin (xuddi antik adabiyot davri singari). Zolan, ayнан shunday asar, shunday ruh o'sha davr ommasining ehtiyojini, mentalitetini ifodalagan.

O'quvchi (tomoshabin) ayнан shunday nutqqa ehtiyoj sezgan. Tolstoy o'zi tan olganidek, "xarakter tasvirida Shekspiri zo'r mahorat egasi deb hisoblashning sababi shundaki, Shekspirda haqiqatan ham jihat bor - bu jihat Shekspirning tuyg'ular harakatini ifodalagan sahnalarini yaxshi tasvirlay bilishida ko'rinhadi".

Shekspir o'z qahramonlarini har qancha g'ayritabiiy vaziyatlarga solib qo'ymasin, ularni har qancha o'zlariga mos kelmaydigan tilda gapirishga majbur qilmasin, bu qahramonlar har qancha kuchsiz bo'lmasin, tuyg'ular harakati - ularning kattalashuvi, o'zgarishi, ko'pgina ziddiyatli tuyg'ularning bir-biriga qo'shilib ketishi ba'zi bir sahnalarda ko'pincha to'g'ri va kuchli ifodalanadi.

O'zi aktyor va zakovatli inson bo'lgan Shekspir nafaqat nutq bilan, balki xitoblar, xatti-harakatlar, so'zlarni takrorlash bilan ham ishtirokchi shaxslar qalbidagi tuyg'ular holatini va o'zgarishini ifodalay bilgan.

Shekspirda hamma narsa bo'rttirib berilgan - xatti - harakatlar bo'rttirilgan, ularning oqibati bo'rttirilgan, ishtirok etuvchi shaxslarning nutqi bo'rttirilgan. Bu va boshqa poetik vositalar Shekspirning davr va jamiyat ruhini to'g'ri belgilay olganini hamda asar g'oyasini o'quvchi kitobxon uchun yorqin va jozibador qilish uchun ko'pincha turli usullarga murojaat qilish orqali amalga oshirishini ko'rsatadi.

### 2.3. Poetik vositalarning badiiy g'oya shakllantirish imkoniyatlari

Badiiy tafakkur orqali borliq ranglarini uqish va o'qish usul va uslublari behisob. Bu borada Yevropa adabiyotshunoslarining tadqiqotlari o'tiborga sazovor. Badiiy g'oya yaratish jarayonida muallifning tip, xarakter va obrazning paradigmatic imkoniyatlaridan foydalanish mahorati germanevik sharoitini to'g'ri belgilash imkoniyatini yaratib, bu hodisa ko'plab tadqiqotlarning markazida turgan.

Jon Golsvorsning "Adabiyotda xarakter yaratish" deb nomlangan asarida germanevik sharoit vositasida adabiy obrazning individual qirralarini tushunish tamoyillari ko'rsatib berilgan. Asarda Shekspir, Herwantes, Dyuna asarlari misolida ijodkorning xarakter yaratish imkoniyatlari ochib berilar ekan tadqiqotchi, inson ichki va tashqi qiyofasini yaratishning poetik tamoyillarini shakllantirish borasida e'tiborli fikrlarini bildiradi. U yozadi: «Biografda (bu o'rinda ijodkor "biograf"

nomi bilan yuritilgan) bizni hammadan ortiq qoyil qoldirilgan narsa – uning g'ayratidir; u zo'r g'ayrat bilan tarix qo'rg'onlaridan juda katta qimmatga ega bo'lgan mayda - chuydalarni kavlab oladi. Bu mayda - chuydalar esa skeletga yopishtirilganda esa obraz yaratadi. Qahramonning qayta yaratilgan obrazi hamisha u yoki bu darajada biograf shaxsiyatining ranglariga bo'yalgan bo'ladi. Ammo biograf shaxsiyatining ranglari qahramonning tabiiy ranglarini qancha kam o'zgartirsa, erishilgan natija shuncha yuksak bo'ladi. Biografiyning vazifasi allagachon mavjud bo'lgan skeletga jism va qon ato qilishdir. Biograf o'z qahramonining oyog'ini maymoqroq qo'yishi, uni uch - to'rtta tishidan mahrum qilishi, umurtqasini sal egikroq qilib qo'yishi mumkin, biroq u qahramonning asosiy shakl - shamoyilini saqlab qolishga majbur. O'zining ishida u faktlardan tashkil topgan allanechuk ustunga tayanadi va uning bu ishi badiiy adabiyotda xarakter yaratishdan ko'ra tasviriy san'atdagi portret yaratishga yaqinroq turadi. Shunday qilib, biograf skeletni yorug' dunyoga olib chiqadi, uni aritib changlardan tozalaydi, derazasi shamolga qaragan ustaxonasiga qo'yadi. Shundan keyin uni muskul, go'sht, pay va teri bilan qoplashga kirishadi, bu ish bitiganidan keyin esa, o'zining estetik tuyg'usiga yoki odob tuyg'usiga tayanib uni kiyintiradi. Tabiiyki, estetik tuyg'u bilan odob tuyg'usi hamma vaqt ham aynan bir narsa bo'lavermaydi. Tikuvchi sifatidagi o'z xulosalarini u son - sanogsiz hujjatlardan yoxud bu hujjatlarning mavjud emasligidan keltirib chiqaradi va anglash qiyin emaski, uning xizmatida ong osti tuyg'usiga qaraganda ongliilik beqiyos darajada katta rol o'ynaydi. Biograf bilan romannavis o'rtasidagi ikkinchi muhim tafvut ayni ana shu holda ko'rinadi. Biograf boshidan oxirigacha qilayotgan ishini ongi bilan nazorat qilib boradi, romannavis (ya'ni romantik) ongli ravishda o'zini ong osti tuyg'usining chaqinlari ixtiyoriga topshiradi».

Sahna yozuvchilarni individual shaxslardan ko'ra ko'proq tiplar yaratishga da'vat qiladi. Ehtimolki, bu qoidadan eng favqulodda ishtisno - Folshtafdir. Bu ajoyib qariya, osiy banda biz uchun alohida olingan bir inson, xolos, biz uni inson tabiatining hech qaysi qirradi bilan bog'lamaymiz. Holbuki, Lirni o'ta jazavadorlik bilan, Otelloni rashk bilan, Gamletni esa xayolparastlik va dudmallik bilan bog'laymiz. Folshtaf ko'p jihatdan roman obraziga o'xshab ketadi. Shekspir uni yaratarkan, o'z ijod parisiga ulkan erk bergan va bu bilan yurakdan

lazzatlanagan, uning lazzati esa juz'iy o'zgarishlar bilan bizga ham o'tgan. Bu o'rinda u to'la ravishda ong osti tuyg'usiga bo'ysungan: yo'naluvchi fikr yo'q yoki u ko'zimizdan yashirin.

Gamletning tipikligi insonda shubha tug'diradi. Adabiy an'ana uchun u Don Kixotning ziddi deb hisoblanadi: biri xayolparast, ikkinchisi haqiqatda risar, biri - fikr odami, ikkinchisi - harakat kishisi. Ammo bunday qulay qarama-qarshi qo'yishni dramaning matni ko'tara olarmikan? Gamlet shunday bir obrazdirki, unda dramaturg xuddi romannavisga o'xshab o'zini devonavash bir tarzda introspektiv metod quchog'iga tashlaydi, u salkam to'laligicha ong osti tuyg'usiga tobe bo'ladi, u esa muallifni lahzalik kayfiyatini ifoda qilishga xizmat qiladi.

Biografik qissa poetikasi va mundariyasi xususida yozar ekan, Irving Stoun quyidagi misralarni qalamga oladi: Agar istiora yordamida fikrimizni bildirmoq istasak, bu jannning asarlari aysbergga o'xshagan tarzda qurilmog'i shart ya'ni uning o'ndan bir qismi adabiyot ummonining sahida, o'ndan to'qqiz qismi esa suv ostida bo'lmog'i kerak. Agar muallif qog'ozga tushirganiga qaraganda dilida o'n barobar ko'proq narsa bilmasa, uning kitobi bag'oyat bemaza bo'lib bo'lib chiqadi, negaki u qog'ozga tushirmay qoldirgan o'ndan to'qqiz qism yaxlit va bir butun asar yaratish imkoniyatini beradi, unga muayyan xushbo'y hid bag'ishlaydi. Ayni ilg'ab olish mumkin bo'lgan shu hid kitobxonning o'zini erkin va engil his qilishga majbur qildi. Irving Stoun ikkinchi bir o'rinda biografik qissa yozish tamoyillarini shakllantirarkan, quyidagilarni o'zi uchun qoida qilib belgilaydi:

1. Vogealar tasvirida dramatik ruhi kuchaytir.
2. Dialoglar ko'p bo'lsin.
3. Hamma ishtirokchi shaxslarni jonlantir.
4. Latifa va hazil – mutoyibadan keng foydalan.

Yana shu o'rinda o'zi uchun "Mangu xotin" kitobini yozish jarayonida 62 muddati talab ishlab chiqqanini yozadi. Yuqoridagi qoida hamda kitob yozish uchun belgilangan muddalar badiiy asarda muallif qo'llayotgan psixologik maneraning nazariy asoslarini yaratarkan, ikkinchi bir tomondan ularda o'quvchi anglashi zarur bo'lgan asar ifodasining skeletiga ishora ham mavjud. Agar realist vogealarni hikoya qilib bersa, modern san'atkor vogealarni qanday hikoya qilib berayotganini hikoya qilib beradi.<sup>2</sup> Modernizmdan keyingi davr san'atkori ortiq vogealarni hikoya qilmaydi, balki ulardan parchalar

keltiradi xolos.<sup>3</sup>

Yozuvchi yaratgan asar individual shaxs ichki dunyosining aksiy ekanligini ta'kidlar ekan Aleksandr Genis yozadi: "So'nggi yillarda o'qib chiqqanlarim orasida eng yaxshilarini ajratar ekanman, dastavval Kafka kundaliklarining to'la nashrini, Shvartsning "Telefon kitobi"ni eslayman, lekin ulardan ham avval Oleshaning "Vidolashuv kitobi" degan agnabiy asarini tilga olishni istar edim.

Unda adib syujetning mustahkam istehkomidan o'zini xolos etib, shunday bir erkni janr uchun yo'l ochadiki, bu janr poeziya bilan nasr o'rtasidagi, hujjat bilan to'qima, falsafa bilan avtobiografiya, aktuallik bilan manguilik o'rtasidagi chegaraga xotima berishga qodirdir. Bunday "qorshiq" adabiyot, zoddor arab arg'umog'iday qonining tozaligi bilan, begona narsa aralashmagani bilan ajralib turadi.

Uni na o'z so'zlarining bilan aytib berib bo'ladiki, na boshqa san'at tiliga ko'chirish mumkin. O'z qobig'iga o'raltib olgan so'z san'ati o'z bag'rida shunday bir noyob narsani asrab qoladiki, bu narsani qalbakiylashtirib bo'lmaydi. U dastxatga o'xshash betakror adib ovozidir. Hamma narsadan ham ko'ra bizga shu ovoq qadrli, bugun bizni ko'proq asarning noyobligi emas, balki ijodkor shaxsining noyobligi hayajonga soladi.<sup>4</sup>

Eng barkamol muxtasarlik, matnning eng oliy darajada ma'nodorligi- uslubiy vosita emas, konstruktiv usuldur. Bu g'arb hikmatlariga xos muxtasarlik emas - g'arb hikmatlarida ko'p so'zlar bilan mumkin bo'lgan fikrni kam so'zlar bilan aytishadi. Bu - yaponlarning tankasi va kokkusining muxtasarligidirki, unda olam haqidagi tasavvur berilmaydi, balki olamning o'zi yangidan yaratiladi-qo'yiladi. Mendelsham o'z zamomasi uchun hayron qolarlik darajadagi ziyiraklik bilan shunday yozgan edi: "Atomistik san'atning sevimli shakli bo'lmish tanka miniaturaday emas, unda ko'lam yo'q, chunki unda harakat yo'q. U dunyoga hech qanday munosabatda bo'lmaydi, chunki uning o'zi dunyodir". Sharq she'riyati vogelkni ko'z o'ngimida mana men degandek yaqqol ko'rsatib beradi va uni bir lahzada idrok etishga imkon beradi. Mohiyatan bu she'riyat zabonsiz ish tutishni o'rganib olgan.<sup>5</sup>

Sharq she'riyatida begona vogeliklar uchun ramziy narsalar yo'q. Tevarak atrofdagi buyumlardan olingan tabiiy taassurot istioralar ummoniga cho'mib yo'q bo'lib ketmaydi. Aksincha, buyuk shoirning

ingohi ostida yiriklashadi, uyushadi. Bir narsa boshqa narsa bilan inqogslanmaydi. Balki ular natyumortdagidek yonma-yon turadilar. Ularni sababiy - natijaviy aloqalar emas, assotsiativ aloqalar birlashtirib turadi, bu esa she'ruga "elpig'ich kabi ochilishga" imkon beradi. So'zlar yana qaytadan buyumga aylanib qoladi - she'rda bu buyumlar dekoratsiyaday xizmat qiladi. Istiora buyumni so'zga aylantirish, so'zni esa ramzga aylantirishdir. Ammo Sharq she'riyatida buyum so'zga aylantirilmaydi, u ham g'oya, ham istiora, ham ramz sifatida xizmat qiladi. Istioralar she'riyatda dunyoni bir - biriga bog'laydi. Buyumlar va tuyg'ular o'rtasida so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydigan aloqani faqat shunday belgilay olishi mumkin. Shoir tilga ko'chmagan narsa haqida gapirmaydi, balki ifodalab bo'lmaydigan narsani tilga olmay shunday qoldiradi-yu, faqat unga ishora qiladi, xolos.

Amerika sinologi Stiven Ouen G'arbda Sharq estetikasining eng yaxshi talqinchilaridan biri hisoblanadi. U yozadi: "Xitoy she'riyati derazaga o'xshaydi - olisdan qorong'i ko'rinadi, yaqindan esa yorishib ketadi. Xitoy she'riyatining qahramonlari- tovushlar va soyalaridir. Ular bizni shoirning "g'oyib bo'lgan manbasi" sari etaklaydilar."<sup>6</sup> O'z davrida Platon yo'qlikdan borliqqa o'tishni tug'diradigan hamma narsani ijod deb atagan edi. Ijod nafaqat borliqni yaratadi, tug'diradi, balki yangi borliqni yaratishni ham kashf qiladi.

Badiiy tafakkur yangi poetik ranglar orqali dunyoni kashf qilish, binobarin, yangi dunyoni yaratish demakdir. Biroq uni uqish va o'qish uchun xam alohida tayyorganlik zarur.

#### 2.4. Lirik asarlarda g'oyaning germenevik tavsifi

Badiiy matnning turli talqinlari orqali badiiy tafakkur qirralarini ochib berish va bu borada e'tiborga olinishi lozim bo'lgan matnning lingvopoetik qirralari adabiy germenevikani shakllantirishda muhim o'rin tutadi. So'z badiiy matnda g'oyaga aylanadi, aniqrog'i g'oya tushiydi. "So'zning lingvistik interpretatsiyasi asosida mazmun yotsa, so'zning pragmatik tafsiri asosiga ma'no qo'yiladiki, kommunikativ-pragmatik sharoit parametrlariga muvofiq hamda o'zaro tushunish darajalarida ma'no-mohiyat g'oyasi muhim rol o'ynaydi. Shu bois "gapda (bu o'rinda matn ma'nosida) so'z so'zligini yo'qotadi"-degan

mashhur metamorfoza yaratadi.<sup>1</sup>

Germenevtik tahlilda hisobga olinishi lozim bo'lgan holat shundan iboratki, biz dunyoni tili orqali, aniqrog'i so'z orqali qabul qilganimizda ratsional tushunishga erishamiz. Uni biz hissiyot orqali qabul qilganimizda qalb bilan sezamiz. Tushunmoq va sezmoq shu o'rinda dunyoni-borligini qabul qilishning turli usullari hisoblanadi.

Tushunib etish-eshitish, ko'rish, o'qish kabilar bilan bog'liq bo'lgani holda barcha tashqi sezgi organlari orqali qabul qilish ham tushunishning bir shakli hisoblanadi. His qilishda esa, tushunishdan farqli o'laroq insonning barcha ijtimoiy va biologik faktorlari g'atnashadi. Ichki tuyg'u, tajriba, qobiliyat, milliy, ijtimoiy mentalitet, bilim saviyasi va boshqa barcha biologik va ijtimoiy imkoniyatlar uning o'zlashtirish aspektlari ichida yotadi.

Xalq tilidagi oddiy so'zlar badiiy tilda mavzu va mohiyat, shuningdek, uslub va g'oya yo'nalishida motivlashadi. Badiiy asarning muvafqiyatini ta'minlashda motiv matnning original arxitektonikasiga asoslanadi. Motivlashmoq shundan iboratki, so'z mavzu, mohiyat, g'oya va uslub talabi natijasida yangi, ba'zi o'rinlarda o'zining birlamchi ma'nosiga mos kelmaydigan ko'chma ma'nolar kasb etishi yoki badiiyat talabi bilan shakl o'zgarishiga uchrashi demakdir. Motiv fransuzcha so'z bo'lib, «melodya», «xirgoyi» ma'nolarini anglatgan. Badiiy asar syujeti, mazmuni va g'oyasini anglab etishga xizmat qiladigan mayda detallar motiv vazifasini o'tagan.<sup>2</sup> Hozirda bu termin badiiy asar yaratilishi uchun asos bo'lgan g'oya yoki voqea-hodisalarning umumiy nomi sifatida qo'llanadi.

Lirik asarda so'zning motivlashuvi uning eng muhim poetik xususiyati hisoblanadi. Motivlashuv g'oya talabi bilan so'zning shaklida ham o'z aksini topishi mumkin. Xususan, ayrim ijtimoiy guruhlar ayrim so'zlarni turli shakl va ma'noda, o'z tabiatiga mos ravishda qo'llaydilar. Masalan, rus tilida dengizchilar «michman»ning ko'pligini «michman» deb emas (adabiy shakliga muvofiq ravishda), balki «michmana» deysihadi va bu shakl faqat dengizchilar tilidagina uchraydi. Shuningdek, mumtoz adabiyotda va hozirgi zamon she'riyatining aruz vaznlaridagi janrlarida «ko'z» o'tida «chashm», «ko'z yoshi» o'tida

«ashk», «soch» o'tida «zulf» va boshqalarning qo'llanishi ham poetik talab bilan badiiy motivlashish natijasidir.

So'zlardagi motivlashuv uning texnik va jonli ma'nolari o'rtasida ham paydo bo'ladi. Boshqa til bilan aytilganda badiiy tilda so'zlar doimo motivlashgan bo'ladi. Ya'ni, matn mazmunidan kelib chiqqan holda har bir so'z yangi, original ma'no, original shakl kasb etadi; matnning arxitektonik shakl paradigmatlari ham ma'noning kengayishiga yordam beradi. So'z shakli doimo motivlashish uchun mabda bo'la oladi. Masalan «keldingizmi» so'zini «keldingizmu» shaklida talaffuz qilish unga poetik-emosional bo'yov baxsh etadi.

Motivlashish bu — so'zning boshqa bir so'zga tobe bo'lishi demakdir. Badiiy asarda inson (u qaysi millat vakili yoki qanday vazifa egasi, umuman kim bo'lishidan qat'iy nazar) ruhiy olamining paradigmatlari ochib beriladi. Albatta, bu o'rinda ijodkor «men»i obrazlarga singib ketadi, asarda. Shu bois ko'p hollarda obrazlar ruhiy holati muallif ruhiy holati bilan tenglashtiriladi. Biroq bu hol badiiy asarning individuallashgan ratsional munosabatining natijasidir. Ijodkor qator obrazlar vositasida asar yaratlar ekan, ularga prototiplarning xususiyatlarini kiritmasdan iloji yo'q. Shu bois shoir «men»i chegaralanadi, u umumiyy, ko'pchilik olomon nutqining kuzatuvchisiga aylanan ekan, ularning turli-tuman qalb manzaralarini ochib berishi lozim bo'ladi.

Ijodkor obrazli, tasviriy til qo'llash jarayonida o'z fikrlarini o'xshatishlar, obrazlar bilan ifodalaydi, bu borada yangi, qandaydir niqobli til yaratadi, ya'ni o'zining «men»ida tug'ilgan fikrlarni tamomila boshqa-boshqa voqea-hodisa ifodasida shakllantiradi. Asarning badiiyligini ta'minlovchi vosita ham o'sha niqobli tildir. Uning zamiriga o'xshatish, qiyoslash, mubolag'a va shuningdek, iboraviylik ham kirib ketadi.

Asarda germenevtik sharoitning poetik shakllanishida yana muhim holatlardan biri obrazlilik, ya'ni badiiy obrazning til va badiiylik bilan bog'liq tomoni. Masalan, «bahor yig'layapti», «ko'ngil yig'layapti», «butul yig'layapti», «tanbur yig'layapti» kabi so'z birkimlarida «yig'lanmoq» so'zining ma'nosi obrazlarga mos ravishda tubdan o'zgarib boradi. Shuningdek, «shaffof suv» bilan «shaffof ko'z yoshi», «shaffof manzaralar» birkimlarida ham «shaffof» so'zi turli ma'nolarni anglatadi.

Badiiy til uyg'unlikni talab qiladi, aniqrog'i uyg'unlikni tasvirilaydi. Dunyodagi voqea - hodisalarning tengligi suv yuzasining tengligi bilan

<sup>1</sup> Андурова Э.С. Прагматика художественного слова.-Т.: 1988, стр. 17.

<sup>2</sup> Словарь литературоведческих терминов. — М.: 1974, стр.226-227.

o'lehanadi. Chunki suv yuzasi hech qachon past yoki baland bo'lishi mumkin emas. Aynan shu hol borliqdagi narsalarning tengligini ta'minlaydi. Binobarin, inson va uning ongidagi birlik va tenglikni ham shunga qiyoslash mumkin. Quruqlikdagi tog'lar, adirlar va o'rmonlar nisbiy holatda tenglikni buzadilar. Yana ma'lum muddat o'tganidan keyin qutblarda muzlar eriydi, suvga aylanadi. Bortliq, er usidagi barcha narsalar yana suv ostida tenglashadi. Bortliqning yumaloq holatdagi in'ikosi ham bunga isbot bo'la oladi. Badiiy falsafa yaratilishi uchun motiavlardan biri shu erda ochiladi. Jamiyatda irqiy yoki ijtimoiy diskriminatsiyani inkor qilish uchun asos-motiv mana shu tenglik g'oyasi zaminida yotadi.

G'oyani amalga oshirishga so'z birlamchi sabab bo'ldi. G'oya so'zda o'z shakliga kiradi, aloqa vositasi sifatida moddiylashdi. G'oya ko'p o'rinda xususiyligicha qoladi. Ratsional tushunishning germevistik imkoniyatlari so'z vositasida inson ongi bilan kommunikatsiyaga kirishadi.

Asarda g'oyani yuzaga chiqaruvchi til shakllarini izlash va topish ham muhim vazifa hisoblanadi. Xususan, insonparvarlik, vatanparvarlik, dunyoning foniyligi, tabiatga muhabbat kabi qator g'oyalar asarda g'oya tilining shakllari hisoblanadi. Shoir (ijodkor) g'oyani shakliga muvofiq tanlash jarayonida mazmun va shakl muvofiqdligiga intiladi. Ammo asarning muvaffaqiyati g'oya tilining qay darajada shakllanishi bilan bog'liq. Aynan shu hol g'oya tilining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bu o'rinda hisobga olinishi kerak bo'lgan yana bir holat bu — asar mazmunining g'oya tiliga munosabati. Aynan asar mazmuni g'oya tilini aniqlash, belgilashga xizmat qiladi. Aniqrog'i, g'oya tili asar mazmunidan kelib chiqadi. Badiiy asar o'zining qay shaklda yaratilgan bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum mazmunga ega bo'ladi, binobarin, g'oya tashiydi. Badiiy asarda til lug'aviy qatlamidagi so'zlar, ularning mavjud ma'no va shakllari ishtirok etadi. Shoir tilda yo'o'q so'z, voqea-hodisani yoki ma'noni chetdan keltirib tilga kiritmaydi. U o'sha mavjud hisoniy voqelikdan foydalanadi. Biroq, bu voqelik shoir (ijodkor), uning asari tilida o'ziga xos ohang, ritm va shakl bilan yangraydi.

Asar mavzusi tilida eng muhim holatlardan biri, shoirning o'zi aytmoqchi bo'lgan g'oya uchun ma'lum lirik — lisoniy muhit yaratga olish imkoniyatidir. Mana shunday muhit doirasida yaratilgan asarda o'quvchi etarli darajada tushunish hosil qiladi yoki aniqrog'i o'sha

tushunilarning sintezi orqali g'oya yaratadi. Germevistik sharoit yaratish uchun zarur bo'lgan fon realiyani hissiy-emosional tushunishda bosh o'rinni ko'tariladi. Muso Jalilida shunday misralar bor:

Mimo okon moix  
edva svetaet,  
letsya shumnyy potok  
Rabotnits — devchat,  
Veselaye pesny  
oni raspevayut,  
Budyat menya,  
okosilko stuchat!

Parchada «qizlar aytgan qo'shiq derazamni chertmoqda» (qizlarning o'zi emas, ularning quvnoq qo'shiq'i) degan mazmuni va shu mazmun ostida yotgan g'oyani tushunish uchun eng avvalo she'r matnida mehnaatkush qizlarning o'z farovon hayotidan rozi ekanligi, ijtimoiy mehnat natijasida ular o'z hayotini quvnoq o'tkazayotganliklari va aynan mana shu ularning quvnoq hayot qo'shiq'i shoirning qalbida quvnoq va baxtli hayot eshigini ochganligini tushunish kerak. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan esa qizlarning quvnoq qo'shiq'i uning qalbiga muhabbat va ezgulik urug'ini sochmoqda. Badiiy motiv nomorida shakllangan badiiy fon koloriti qizlarning bir qo'shiq'i vositasida o'lanishumal g'oya paradigma manzaralarini yaratmoqda. Yaqorida qisman qayd qilingan g'oya parchasi matndan olinadigan g'oyaning bir qismi xolos, agar matn talqini yanada kuchaytirsak, uni ma'no va mazmun imkoniyatlari orta boradi.

Bu borada Edgar Poning badiiy ijod haqidagi fikrlari muhim o'rinni tutadi: «Badiiy ijod uchun eng muhim ikki holatni qayd qilmoq lozim: birlarining birinchisi bu — mutakkaab assotsiatsiya va kombinatsiyalarning ma'lum bir salmog'i, ikkinchisi esa, singdira olish mahorati, ya'ni ko'zga ko'rinmas va noaniq holatlarni ongning ichki harakati orqali atrofideklarga singdira olish mahorati»<sup>2</sup>.

Badiiy asarda tasviriyy vositalar, so'zlarning ko'chma ma'noli qo'llanishi yozuvchining maqsadini, asarga olib kiritmoqchi bo'lgan

<sup>1</sup> Muso Джалил. Избранные произведения. — Казан: 1969. стр. 55.

<sup>2</sup> Кларинт Арнудов М. Психология литературного творчества. — М.: 1970. стр. 408.

g'oyasini o'quvchiga etkazib berishga xizmat qiladi.

Ana shunday so'zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g'oyasini o'quvchiga etkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchining munosabatini uyg'otadi. Buzir umuman adabiy asar g'oyasi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Adabiy asarda ishlatilayotgan so'zlarning bir xili betaraf holatda bo'lsa, ikkinchi bir xillari nutqqa ekspressivlik, emotsiya berish uchun xizmat qiladi. Albatta, neytral qimmatga ega bo'lgan so'zlar ham kontekst, maxsus intonatsiya yordamida nutqqa ekspressivlik kiritishi mumkin. Til (so'z) – har qanday faktning, har qanday fikrning ibosidir<sup>1</sup>

Badiiy asar tilida qo'llangan iboralar, fikrlar, g'oyalar qabul qilingan axborotlar fikr tahlili orqali o'rganish, sintez qilish ro'yobga chiqar ekan, xuddi shu holat o'quvchini borliqning yangi ranglarini, g'oyalarni, ma'no-mohiyatini anglashga chorlaydi. Shu orqali o'quvchi – inson borliqdan, borliq haqidagi tushunchasidan yangi holat, yangi belgi topadi, binobarin, dunyog'arashini – olam, dunyo, hayot, borliq mavjudligi haqidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Hayot - inson uchun sinov maydoni. Har bir kishi o'z hayoti davomida turli sharoitlarga tushadi, binobarin, turli sinovlarni boshidan kechiradi. «Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda», - degan ekan buyuk mutafakkir Abdurrahmon Jomiy. Kitob – hayot maktabi. Kitob mutolaasi insonni unga tanish-notanish siri olam domiga tortadi. Mutolaajarayonida kishi o'ziga tanish-notanish odamlar o'timishi, tarixi, hayoti, quvonchi, shodligi, baxti va albatta, fojiasi, g'am-alam, qayg'uli taqdiri bilan tanishadi.

Kitob mutolaasi, mutolaadan olingan taassurot tahlili murakkab jarayon. Badiiy asar tahlili jarayonida, aniqrog'i uning o'zlashtirilishi mobaynida asar tahlilining eng muhim bo'g'ini asar mo'ljallangan kitobxonning intellektual tayyorgarligi, ya'ni, kitobxon tomonidan badiiy asarni qamrab olish imkoniyatlari.

Bu o'rinda uning ilmiy-judiy mentaliteti, mas'uliyati, jodiy salohiyati, hayotiy tajribasi, badiiy asar yozilgan til xususiyatlaridan xabardorlik darajasi, badiiy asar yozilgan tilni egallab turgan millat mentaliteti, milliy qadriyatlaridan xabardorligi, umminsoniy qadriyatlar, falsafiy tafakkur qo'ida va g'oyalarni jodiy qabul qila olishi kabi murakkab

imkoniyatlar muhim rol o'ynaydi. Insoniyat psixologiyasining murakkab muammolarini o'rgangan Balzak "Insoniy komediya" asarida yozadi: (Votren haqida) U odamlarni ikki ishriyoq – ikki nafs boshqarishini angdigan- bular olinga muhabbat va lazzat ishriyoqi<sup>1</sup>.

Jahon adabiyotining tanikli namoyandalari xalq, millat psixologiyasini san'at va madaniyatga, binobarin, tilga munosabatini o'rganar ekanlar milliy mentalitet jamiyat birligining eng asosiy momenti ekanligini ta'kidlaganlar: "Men avom deganda yolg'iz oddiy xalqningina nazarda tutayotganim yo'q, balki vijdonsiz yoki ma'naviyatsiz, inson hayotining oliy masalalariga befarq qaraydigan ko'pchilik odamlarni nazarda tutmoqdaman. Bu odamlar (san'atni tushuna olmaydigan yoki soxta fikrlarni ustun deb biladigan) bir uyum toshlar ichidan birlilmlarni paypaslab topishga harakat qiluvchi ko'rlarga o'xshab ish tutadilar. Ko'rlar anchagacha sabr-toqat bilan har bir toshni paypaslab ko'rishadi va oxir pirovardida hamma toshlar qimmatbaho toshlardir, ayntqsa. Eng silliqdari asl javohirlardir, degan to'xtamdan boshqa hech qanday xulosaga kela olmaydilar"<sup>2</sup>.

Top'ning ulug'vorligi masofadan namoyon bo'ladi. Badiiy asarning qimmat va ahamiyati ham milliy hududni yorib chiqqanda aniqlanadi. Jahon adabiyoti durdonalari shuning uchun ham buyukki, ular deyarli harcha xalqlar tomonidan birday qabul qilingan. Shu bois Rudakiy, Hindaviy, Navoiy, Shekspir, Servantes, Pushkin, Gyote, R.Tagor, Dikens, Bayron kabi daho jodkorlar asarlari nafaqat geografik masofa, balki vaqt masofasi ortidan ham o'ziga xos ulug'vorlik kasb etgan.

Har qanday san'at asarining fazilatleri uchta xususiyat bilan belgilanadi:

1. Asarning mazmuni bilan: mazmun qanchalik salmoqli bo'lsa, uning odamlar hayoti uchun muhim bo'lsa, asar shuncha yuksak bo'ladi.
2. Tashqi go'zallik bilan: bunga san'at jinsiga mos keladigan mahorat orqali erishiladi. Masalan, dramatik san'atda mahorat deganimiz quruldirlardan: shaxslar xarakteriga mos keladigan aniq til, tabiiy va ayol choqda ta'sirchan tugul, sahnalarni to'g'ri taqsimlash, ta'virlanayotgan hamma narsada me'yor tuyg'usini to'g'ri tashkil

<sup>1</sup> Андре Морюа. Оное де Балзак. Жахон адиблари адабиёт хақида.-Т.: Миллият, 2010. 196-бет.

<sup>2</sup> Толстой А.Н. Шекспир ва драма ту'гундида// Жахон адиблари адабиёт хақида.-Т.: Миллият, 2010. 187-бет.

qilishdan tarkib topadi.

3. Samimiyyat bilan: ya'ni muallif tasvirlayotgan narsasini o'zi jonli tarzda his qila bilishi bilan. Agar muallif tasvirlanayotgan narsasini obdon his qilmagan ekan, uni qabul qilayotgan odamga muallif tuyg'usi yuqumaydi, u hech narsani his qila olmaydi<sup>1</sup>.

Badiiy til badiiy ijod mahsuli sifatida inson ongining hali ilg'an-magan qirralarini, ma'no va mohiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shoir(ijodkor)ning badiiy fantaziyasiga muvofiq ravishda yangi fikr, yangi holatni, umumiy qilib aytganda yangi g'oyani yaratadi. Yangi g'oya inson badiiy tafakkuri taraqqiyoti orqali badiiy adabiyotdan jamiyatga o'tadi, inson ruhiy malakasini hosil qiladi. Rubiy malaka ma'lum shakllarda ko'nikmaga aylanadi. Ko'nikma esa insonning dunyoga, jamiyatga munosabatini tubdan o'zgartiradi, uni yangi, tarbiyalangan insonga aylantiradi. Bu o'rinda eng muhim vosita badiiy asar mutolaasi, uning badiiy talqini hisoblanadi. Badiiy talqin esa germevtikaning badiiy tilga muvofiq mezonlari asosida yotadi.

## 2.5. Germevtik tahlil va adabiy tanqid

Jitimoiy hayot va adabiyotning o'zaro munosabatlari eng qadimgi davrlardan boshlab tadqiqot manbai bo'lib kelgan. Adabiyotshunoslik tarixida antik davrdan boshlab yaratilgan ishlarda badiiy asarning jamiyat va millat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatining darajasi haqidagi mavzu ijodkorlarni ham qiziqitirgan. Hayotiy hodisalarni kishilar estetik jihatdan ikki katta guruhga bo'lib baholaydilar. Bir xil hodisalar o'zlarining mazmuni bilan ulug'vor, olijanob hislar tug'diradilar. Ulug'vor hodisalarda mavjud fojia va drammatizm bizda bu voqealarning ishtirokchilariga chuqur ichki va tahsin uyg'otadi. Bu xil go'zal va mahobatli hodisalar hamda ularga mualliflarning munosabati dramada tragediya deb atalmish janrga material beradi.

Hayotda yana shunday hodisalar borki, ular ulug'vorlikdan mahrum, ularda xunuklik ustun. Bunday hodisalarning mujassami yoki yaratuvchisi bo'lgan kishilar bizda nafrat uyg'otadilar, bu nafrat ko'pincha bizning mana shunday kishilar ustidan kulishimizda o'z ifodasini

topadi. Ulug'vorlik tragediyaga material bersa, xunuklik asosiy quvuli kelgisi bo'lgan komediyani ro'yobga keltiradi.

Hayotda ulug'vorlik va xunuklik doimo ham yaxlit va bir-biridan uzoq holda yashamaydi. Aksincha, yaxshilik va yomonlikning, ulug'vorlik bilan baxkanaiklikning, go'zallik bilan xunuklikning yonma-yon yashashidan iboratdir. Yomonlik bilan yaxshilik ham, go'zallik bilan xunuklik ham hayotning o'zida doimo yorqin namoyon bo'la bormay, doimo ko'zga tashlana bormay, ba'zan xufyona, ba'zan yarim pishkon holda yashaydi. Bunday hayotiy holatlar o'zlarining haqqoniy to'kovi uchun alohida bir shaklni taqozo etadilar. Shu tarzda dramatik jihatning uchinchi janri (turi) drama maydonga keladi<sup>1</sup>.

Badiiy asarlarning ichki dunyosi haqida "Adabiyot nazariyasi" kitobida shunday fikrlar keltirilgan: "Poeziya - hayot dramasidir, degan edi N.G. Chernishevskiy. Bu - adabiyot hayotni undagi qarama-qarshi tendensiyalar kurashi orqali aks ettiradi degan so'z. Lirik she'riyat ham ana shu tamoyilga suyanib ish ko'radi. Qarama-qarshi tendensiyalar kurashi, hayotiy konfliktlar-lirik xarakter. Lirik mohiyat butun yorqinligi-yu teranligi bilan zuhur etadigan ajoyib maydondir".

"Hayot dramasi" turli adabiy janrlarda turlicha namoyon bo'ladi. Lirik asarlarda u zamon ogimining turfa-turfa xarakterlarini o'z ichiga olgan keng qamrovi, qudrati harakatida, urli dramatik asarlarda keskin, hariflangan xarakterlarning shiddati to'qnashuvidan iborat hayotiy ko'zlayalarda, lirik asarlarda esa, birmuncha o'ziga xos yusunda, ya'ni tuyg'ular kurashi, kechimmalar almashinuvi tarzida ko'zga tashlanadi. Komanda harakat, lirikada tuyg'ular taloshi. Dramada xarakterlarning oshkora olishuvi, lirikada ichki tug'yon... U erda voqealar dialektikasi, bu erda kechimmalar dialektikasi. Unda ko'proq tashqi drammatizm, himda ichki drammatizm?

Ob'ektiv voqealik turi janrlardagi asarlarda turlicha aks etadi. Dag kitobidagi o'zining "Norveg nasri-Yevropa modernizmi" maqolasida modern romani haqida quyidagilarni yozadi: "Bunday romanning mohiyatini o'zaro mustahkam bog'lanmagan uchta unsur tashkil qiladi. Muho-muhit, xarakter, harakatdir. Ba'zi adiblar muhitni tasvirlashda juda muhit, lekin xarakterlarni yaratishda yuzakiroq deb yoki buning

<sup>1</sup> Толстой Л.Н. Шекспир на драме гүҗриксиди // Жахон адитиблари адабиёт хақида. -Т.: Манавият. 2010 179-бет.

<sup>1</sup> Адабиёт нашриyesi. 2 жылдик. 2-жилд. -Т.: Фан. 1979. 300-бет.  
Шу жойда. 253-бет.

aksicha deb baholanishi mumkin. Yovqalar rivoji ham keskin, shiddatli yoxud sust, qotib qolgan deb atalishi mumkin. Agar ishonchli, xotirjam dunyoda yashasang, olam o'zgarmas, qotib qolgan bo'lsa va undagi hamma narsalar avvaldan boshlab qo'yilgan o'tmiga va vazifasiga ega bo'lsa, bu mutlaqo qonuniydir. Ishonchi bargaror dunyo deganimiz - agar tasvir qay bir darajada qahramonlar muhitiga, ularning o'tmishiga va xulq-atvoriga taalluqli bo'lsa, bu - ajdodlarimizning duxoba qoplangan uy anjomlari va devorlarga ilingan portretlari muhitidir. Bunday romanlarda ishtirokchilarning ichki ma'naviy dunyosi haqida hech narsa deyilmaydi, qahramonlar yozuvchi uchun mutlaqo muxtor bir dunyodir, ular o'z mohiyatini o'zlariga tushuntirib beradilar. Bunda yozuvchi ularga ko'maklashadi, xolos.

Hozirgi zamon modern romanida ob'ektiv yovqelikka muvofiq bo'lish talabi yo'q. Modern romanga haqiqoniylik talabini qo'llab bo'lmaydi. Lekin buning o'tmiga muhimlik talabi olg'a suriladi. Masalan, agar asarda kursi tilga olingan bo'lsa, demak bu "kursi" zimmasida asar qurilmasini tashkil qiluvchilik vazifasi mavjud, bu so'zning ma'nosi badiiy asarda atayin yaxlit bir narsa sifatida dunyoga chiqariladi.<sup>1</sup> Buning ma'nosi shuki, o'z-o'zicha alohida olganda muhit, harakat, xarakterlar mavjud bo'lishdan to'xtaydi. Endi shunday bir yaxlitlik yaratiladiki, uning aytim qismlari shu yaxlitlikning ichidagina ma'noqa ega bo'ladi va mabodo biron aytim unsur muvaffaqiyatsiz chiqsa, jamiki yaxlitlik parchalanib ketadi. Agar muhit tasviri muallifning ichki his-tuyg'ulari bilan nurlantirilmagani uchun tanqid qilinsa, unda xarakterlar ham ma'naviy mohiyatdan mahrum bo'lib qoladi, harakat cho'zilib ketgan bo'ladi, qahramonlar jozibasiz chiqadi va hokazo. Bu shuning uchun sodir bo'ladiki, bunday asarda hayot qotib qolgan ob'ektiv olamning manzarasi sifatida namoyon bo'lmaydi. Aksincha, u doimiy harakatda bo'ladi va buning sababi bunday asarda sub'ektiv narsaga qiziqish birinchi o'rinda turganida emas, balki harakatning mustaqil, o'z-o'zicha rivojlanib boradigan unsur emasligida, hayot mudom o'zgarib turgan sub'ektiv olam uzviy nisbatda olinganidagina namoyon bo'lishidadir. "Modern" asarlarining ko'pchiligi ana shunday "ma'nodor" yoxud "ahamiyatli"

<sup>1</sup> Сулстад Дар. Норвег наври-Европа модернизми // Жахон адиллари адабиёт хақида -Г.: Мавнавият. 2010. 375-376-бетлар.

prozadan iborat<sup>1</sup>.

Jon Golsuorsi o'zining "Adabiyot va hayot" nomi maqolasida modernizm romani haqida yozar ekan quyidagilarni qayd qiladi: "Hozir roman borasida ko'p tajribalar o'tkazilyapti. Ammo bu tajribalar qanchalar qiziqarli bo'lmasin, ularning ishtiroki portloq, deb aytib bo'lmaydi. Bu tajribalar oqibatida ba'zi bir yosh mualliflar romanni turfa sil hoqsalar omboriga aylantirib yubordi. Marsel Prustga o'xshaganlar romandan o'laviy hayot qonusini izlashyapti. Edgar Uollesda roman bir-biri bilan bog'lanmagan tuyg'ular quyuridan iborat bo'lib qoldi, yana qay bir yozuvchini aytasamiki, bilmadim, uning asari psixologik mikroanaliz bo'yicha yozilgan risolaga aylanib ketdi. Imomim komilki, o'ttiz yillar o'tganidan so'ng bu tajribalar butkul umit bo'lib ketadi va faqat xarakterlari bor, suyuq mavjud romanlarga yashab qoladi. Men yana shunga aminmanki, she'rlardan ham tushunib bo'lmaydigan qay bir tarzda bizning tuyg'ularimizga ta'sir qiladiganlariga yashab qoladi."<sup>2</sup>

Lirik asarlarda getmenevlik sharoitini shakllantirish uchun o'ziga ko's ruhiv chitvoy seziladi. Gegel yozadi: "... Lirik sho'ir o'z qalbi va ongida sho'irona shakllangan hamma narsani qo'shigida ifodalashga chitvoy sezadi. Shu munosabat bilan boy hayotning turfa jarayonlarida hamisha sho'ir bo'lib qolgan Gyoteni eslamoq, ayniqsa, joizdir. Bu jihatdan u eng mashhur insonlar safidan o'tin oladi. Qiziqish doirasi shu qadar xilma xil va beinhoqa keng bo'lgan kishi kam uchraydi, ammo shunga qaramasdan, u doimo ichki hayot kechiradi va uning qalbiga to'qolgan hamma narsa she'riy obrazlar shaklini oladi"<sup>3</sup>. Sho'irning taqdir hayoti, uning kundalik tushushda oshkor bo'lishdan ham ko'ra ko'proq yashitgin bo'lgan xususiyatlari, qalbi, uning ilmiy maullari va davomli tadqiqotlarning natijalari, barkamol amaliy aqlining tajribalari, o'z zamonidagi bir-biriga chitmashtib ketgan yovqa - hodisalaridan olib tussurotlari, har bir narsadan chiqargan xulosalari, yoshlikdagi jo'ldiq quvnoqigi va jasotati, etuk yoshdagi pshiq keksalikdagi shodon, hayotbaxsh domishmandligi, hamma-hammasi litik bayonlarga aylinadiki, Gyote his-tuyg'uga engil bir ishoga etishdan tortib, g'ulning

<sup>1</sup> Сулстад Дар. Норвег наври-Европа модернизми // Жахон адиллари адабиёт хақида -Г.: Мавнавият. 2010. 375-376-бетлар.

<sup>2</sup> Жан Голсуорен. Адабиёт ва хаёт// Жахон адиллари адабиёт хақида -Г.: Мавнавият. 2010. 72-бет.

<sup>3</sup> Гегель. Лекция по эстетике. Соч. Т. XIV. Кн. 3.-Москва: 1958. стр. 307.



og'ir, izitirobli g'alayonlarigacha ifoda etish bilan ulardan xalos bo'ladi. Germenevtik sharoit shakllanishida shoir ruhiy holatining tabiiyligi o'quvchi-kitobxon emotsional holati bilan mutanosibligining eng muhim sharti. O'quvchi shoir ruhiyatini o'ziga yuqitirar ekan, uning qalb manzaralarini botiniy zehn bilan ko'radi, uning kabi hayajon, ekstazni his qiladi, uning kabi shodlanadi, g'am-alam, qayg'uuga mubtalo bo'ladi. Binobarin, ruhan poklanish jarayoni aynan mana shu holatda yuz beradi. Ijtimoiy mentalitetning shakllanishda bu kabi individual, shaxsiy ruhiy poklanish eng muhim shartlardan biri. Toki, har bir inson global germenevtika organi ulug' insoniy qadriyatlarining, global qadriyatlarining nagadar muhimligini o'z badanida his qila olsin. Badiiy adabiyot, binobarin, she'riyatning eng muhim vazifasi mana shundan iborat.

Badiiy asar arxitektonikasi g'oyaviy nuqtalari portloq va yorqin manzaralarda shakllanishi uchun faqat g'oya muhimligi etarli emas. G'oyani yuzaga keltiradigan shakl, uslub, badiiy-tasviriy vositalarning ham o'ziga xos ahamiyati so'zsiz. "Shubha yo'qki, Stendal asarlarining uslubi zo'rtoq va ularda yarqiroq nafosat ko'p, biroq Stendal o'z personajlari yordamida faqat o'zininggina ichki dunyosini ochib beradi. Balzak esa, butun bir olam yaratadi va bu olam bir vaqtning o'zida ham uning davriga, ham boshqa hamma davrlarga taallulidir".

Asarda qahramonning taqdir yo'li panoramasini yaratish ijodkordan asar syujetini muvofiq shaklda shakllantirishini talab qiladi. Adabiy germenevtikada asarda aks etgan germenevtik sharoitni to'g'ri fahmlash asarni real tushunish uchun yo'l ochadi. Bu xususda Balzak asarlaridagi germenevtik sharoitni o'rganagan Andre Morua shunday yozadi: "Balzak o'zi yaratgan xarakterlarni sinchiklab o'rganadi, lekin o'z asarlarida ishtirok etuvchilar ustidan hukm chiqarmaydi. Balzak biladiki, agar Rogen surunkali tumov bo'lmaganida va dimog'idan badbo'y hid kelib turmaganida, vijdotsiz notarius bo'lmagan bo'lar edi. Bu xastalik Rogen xonimda eriga nisbatan engib bo'lmaydigan jirkanish tuyg'usini uyg'otadi. Shunda xotining nafatiga uchragan va uning xiyonatini ko'rgan notarius taskin topmoq maqsadida va yana o'ziga ishonch tuyg'usini qaytarmoq uchun buzug' xotindan o'ynash

totadi. Buning oqibatida u doimiy ravishda pulga multoqlik his qila boshlaydi, galloflik yo'lga qadam qo'yadi va oxir-oqibatda qochib ketadi. Kishini jirkanituvchi xastalik Rogening taqdirini hal qiladi."<sup>1</sup> Insoniyat jamiyati minglab tabiiy iplar bilan mustahkam bog'langan. Halar o'ltaviy munosabatlar, turli sinflar o'rtasidagi, savdogar bilan savdoru, qarz beruvchi bilan qarzdor o'rtasidagi munosabatlardir. Bu tabiiy aloqalar qonunlardan yuqori turadi. Dehqon tabiatiga ko'ra savdolashmasa bo'lmaydi. Xuddi shunga o'xshash bankir ham tabiatiga ko'ra turli tuman chayqovchiliklar yo'lga kirmasa bo'lmaydi. Dunyoda hukmronlik qiluvchi qonunlarni hisobga olmasang yashab bo'lmaydi. Ammo ma'naviyat qonunlari ham o'z navbatida "tabiiy aloqalar" sharafiga kiradi.

"Tabiiy aloqalarning" g'oyaga aylanishi va bu g'oyalarning insoniyat hayoti yoki ayrim insonlar taqdiridagi paradigmasi badiiy asarda bevosita ijodiy metod va badiiy tilning rang-barangligi bilan bog'langan bo'ladi. Germenevtika gumanitar fanlarning metodologik asosiga aylangan ekan, adabiyotshunoslikda metod yaratilishini, metod orqali badiiy tafakkurning individual jilolarini topishni tahlilga o'taylik.

Ijodkor badiiy materialni bayon qilish binobarida uning real sharoit, obraz (yoki qahramon), mavzu, ijtimoiy ahvol va badiiy tilga munosabatini shakllantirar ekan individual va milliy mentaliteti, ijtimoiy-shaxsiy pozitsiyasi, diniy-falsafiy qarashlari ustivorlik qiladi. Hunday ustivorlik badiiy asarda metodning shakllanishi uchun asos sohladi. Ijodiy metod ustivorligi adabiyotning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq.

Adabiyot tarixidagi rivoj tendensiyasi turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, bir adabiy hodisaning o'zi adabiyot tarixining turli bosqichlarida turlicha-ijobiy va salbiy rol o'ynashi mumkin, ya'ni adabiy hodisaning "qimmatini" tarixan konkretidir. Hukmron ideologiya din bo'lgan o'rta asrlar sharoitida insonni (faqat xudonigina emas), uning "bu dunyo"dagi zavq-shavqlarini madh etish insonning, ayniqsa, ayol kishining go'zalligini kuyilash—adabiyot mazmunining tarqatqiyotida o'lg'a tomon qo'yilgan katta qadam va adabiyotda gumanizmning tasdiq bo'layotganining dalili edi. Jahondagi hamma adabiyotlarga xos bo'lgan bu xususiyat O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida "dunyoviy adabiyot"

<sup>1</sup> Морья Андре. Оное де Балзак // Жахон адиблари адабиёт ҳақида. —Т.: Мабнавият. 2010. 194-бет.

<sup>1</sup> Морья Андре. Шы жойла. 210-211-бетлар.

deb atalmish ajoyib hodisani yuzaga keltirdi. O'ra asrlar sharoitida adabiyotda inson go'zalligining maqtalishi, hatto butun adabiyotda shu hodisaning hukmronligi ma'lum davrgacha ijobiy rol o'ynadi. Ammo XIX asrga va ayniqsa XX asrning boshlariga kelib, adabiyotning faqat inson go'zalligini madh etish bilan cheklanishi kamchilik sifatida tushunila boshlandi, chunki yangi davrda ijtimoiy muammolar juda katta kuch kasb etib, adabiyotda o'z aksini topishi zarur edi. Shuning uchun ham XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida avval Furqat, Muqimiy, keyinroq Anbar otin, Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ayniy kabi yozuvchilar adabiyotning "qoshu ko'zni maqtash"ga berilib ketishiga haqli ravishda qarshi chiqdilar<sup>1</sup>.

### III BOB. BADIIV TIL TAHLILINING GERMENEVTIK MEZONLARI

#### 3.1. Badiiy til san'atini tushunishning ijtimoiy mezonlari

San'at inson hayotining mazmunini. San'atsiz hayot vahshiylik, degan gap aksiyoma. Biroq san'atni egallash, uni eshitish, ko'rish va his qilish hamda undan zavqlanish barobarida uni tushunish, uni to'laqonli o'zlashtirish muammosi yotadi. San'atning zamirida oddiy insoniy madaniyat turadi. Madaniyat esa, insonlar va xalqlararo tolerantlikning tayanch nuqtasi. San'atni tushunish borasida inson hissiyotining oliy shakli-so'z vositasidagi yorqindan foydalanadi.

Badiiy adabiyot esa, so'z san'atidir. So'z til demakdir. Til esa turli shakllarda reallashadi:

\*inson tili,

\*hayvon tili,

\*o'simliklar tili.

Tilning bu shakllari undan foydalanuvchilardagi ijtimoiy muhitga munosabat vositasida variantlashadi.

Bu o'rinda biz ijtimoiy - siyosiy aloqa vositasi hisoblangan inson tili kususida fikr yuritar ekamiz, tilning etnik-geografik kategoriyalarini ham farqlanishimiz darkor:

\*milliy til,

\*davlat tili,

\*xalqaro til.

Milliy tilning o'zi ham turli shakllarda namoyon bo'ladi:

\*umumxalq tili,

\*adabiy til,

\*rasmiy til,

\*ilmiy - publisistik til,

\*klibobiy til,

\*so'zlashuv tili,

\*ko'cha tili,

\*mahalliy til,

\*turli tabaq va guruhlar tili,

\*badiiy til.

<sup>1</sup> Адабиёт назариси. 2 жилдик. 2-жилд. -Т.: 1979. 441-бет.

Qo'llanishi ko'lamli holatiga muvofiq:

\* qo'llanish doirasi chegaralangan til,  
\* qo'llanish doirasi chegaralanmagan til.

Tilning bu kabi klassifikatsiyalari serqirra va ular orasidagi bo'linish hozirda ham davom etmoqda. Biroq, biz bu o'rinda tilning har qanday shakllarini umumlashtira oladigan shakli haqida fikr yuritmoqchimiz: bu til - badiiy til, badiiy adabiyot tilidir.

Badiiy adabiyot tili umumlashtiruvchi xarakterga ega, chunki badiiy asar mavzu doirasida voqelik va personajlarning real in'ikosi jarayonida ijtimoiy hayotning har qanday sohasiga dahldor bo'la oladi. "Yozma adabiyot o'z taraqqiyotida son-sanog'siz avlodlarning kollektiv ijodi bo'lgan folkloridan donolikni, obraz yaratish sohasida to'plangan tajribalarni, til boyligini va xayol ufqlarining kengligini o'rgandi".<sup>1</sup>

Vaholanki, badiiy asar muallif shaxsi va obrazli lisoniy masshtab vositasida tilning har qanday ifoda uslubiga bevosita murojaat qilishi mumkin. Ilmiy, rasmiy, kitobiy, ommaviy, dialektal, chegaralangan va chegaralanmagan til uning ifoda aspektlari ichida bo'ladi. Shu bois badiiy adabiyot tili — badiiy til, badiiy adabiyotning o'zi kabi ommaviy xarakterga ega. Aynan mana shu ommaviylik badiiy adabiyot germinenitkasini ijtimoiy hodisaga aylantiradi (Biz badiiy ijodning ommaviy xakteri haqida quyida to'xtalamiz).

Badiiy asar mahni germinenitik tahlili jarayonida badiiy adabiyotning eng muhim atributlaridan biri uning badiyiligi, aniqrog'i, badiylikning inson tafakkuridagi falsafiy-estetik fantaziyaga munosabatini nazarda tutish lozim. Bu o'rinda badiylik "o'ziga xoslik", "isimlik", "ishlanganlik", "sayqallanganlik", "me'yorlanganlik" ma'nolariga yaqin va aynan shu hodisa san'at mavjudlik belgisining eng birinchi talabi. Bu ma'nolar badiiy adabiyot namunasi shakli va g'oyasi binobarida yuzaga chiqadi. Shakl va g'oya esa mantiq — bilishning o'ziga xos qirralari. Bilish — tafakkur faoliyati, tafakkurning bu faoliyati esa, tilda namoyon bo'ladi. Badiylik badiiy adabiyotda so'zda namoyon bo'ladigan alohida xususiyat sifatida uning tili ham demakdir. Badiylik bu — badiiy til.

Badiiy adabiyotning yana bir muhim xususiyati — uning individual ijod namunasi ekanligi. Badiiy adabiyotda eng muhim hodisa — indi-

vidualizm — ijodkorning o'z g'oyasi, uning o'z asari orqali insoniyatga aytmog'chi bo'lgan so'zi, gapidir. Gap, so'z - til badiiy asar namunasi bo'lg'i, uning mavjudlik holatidir. Bu tamoyil ijodning, asarning barcha mavjudlik kategoriyalarini qamrab oladi. Oltinchi mavjudligi g'oya ekan, g'oya so'z bilan ifodalanar, so'z esa, tilning namoyon bo'lish shakli ekan, ong, g'oya - til, so'z esa nutqdir. Badiiy asar esa, badiiy nutqning reallik kasb etgan varianti.

Til, umumxalq tili ongning mavjudlik holati. Har bir inson o'z ongini til orqali reallashtiradi. Til - bu o'rinda ongning reallik kalti. Nutq esa, tilning yozma, og'zaki, ichki tuyg'uda reallashgan shakli. So'z esa, nutqning, amaldagi tilning tovushda libosga ega bo'lgan ko'rinishi. Harning hammasi umumxalq tilda umumiy, ayrim ijodkorlarda xususiy, individual ko'rinishga ega. Individual ijod individual tili, aniqrog'i tilning yangi vositalarini talab qiladi. Individual til — ijodkorlik.

Badiiy asarda ijodkor ikki shaklda namoyon bo'ladi: yangi g'oya ijodkori yoki mavjud g'oyaning yangi shakli ijodkori sifatida. Birinchisida u daholikka da'vog'ar, ikkinchisida mavjud daholikning davomchisi. Badiiy ijod daholari yoki uning davomchilari o'z g'oyalari bilan hali bashariyat tasavvuri uqqlari ilg'amagan qirralarni kashf etishga intiladilar.

Borliqni bilish — anglanish me'yori hozirgi mutafakkirlarning tadqiqotlariga ko'ra 36 darajani tashkil etadi. Erdagi mavjudot shundan bor — yo'g'i 3 darajasini istifoda eta oladi. 0 dan 1 gacha o'simlik, 1 dan 2 gacha hayvonot, 2 dan 3 gacha insoniyat. Albatta, bularning o'zi ham cheksiz ichki bo'linishlarga ega. Shu bois bu shakldagi klassifikatsiya juda nisbiy xarakterga ega bo'lib, faqat materialistik ta'limot nuqtai nazardan talabga javob bera oladi. Vaholanki, ufologiya ilmidan borliqning mavjudlik holatini o'zaro tortishuv, muvozanat natijasi bilan belgilaydilar. Butun olam muvozanati ilmda gravitatsiya deb nomlangan. Gravitatsiya borliq birligining eng muhim holatki, u har borliqning mavjudlik in'ikosi haqida gap bo'lishi mumkin ham emasa. Qolaversa, gravitatsiya har bir mavjud nuqtaning borliqda o'z o'rol va ahamiyati borligining zaruriy sharti hisoblanadi. Binobarin, o'ala nuqtani istisno qilish borliqda muvozanatning buzilishiga olib keladi. Muvozanatning buzilishi esa, borliqning halokati demakdir. Germinenitika jamiyatdagi gravitatsiyaning mavjudlik holatini o'rganishga qaratilgan fan. U borliqning (Er sayyorasida) mavjud har

<sup>1</sup> А.Дубинер назарияси. 2-жилдлик. 2-жилдлик. -Т.: Фан. 1979. 45-бет.

bir voqea-hodisasing o'rni va rolini me'yorlashirishga qaratilgan ta'limot. Germenevtikaning predmeti va ta'limoti bu-tushunish nazariyasi, ya'ni olam va odam borlig'i va birligini tushunish muammosi. Tushunish bu-geometrik fikrlash demakdir. Vaholanki, Alloh tomondan yaratilgan har bir narsa va mavjudotning o'rni va ahamiyati borligini tushunish, uning mavjudligi bilan kelishish, o'zaro nifoq, ayniqsa, intiqomga o'rin yo'qligini tushunish va atrofdagilarga shu tushunilgan g'oyani etkazish haqidagi ta'limot. Bu borada O'rta asrlarda tasavvuf ta'limoti qator e'tiborga molik g'oyalarni ilgari surgan.

Badiiy adabiyot, binobarin, konkret badiiy asar badiiy g'oya, badiiy tafakkur soyasi ekanligini hisobga olgan holda g'oyaning real shaklini istisno qilib, biz bu kabi bo'linishlarni badiiy g'oya mavjudligining faqat bir shakli bilan bog'liq ekanligini e'tirof qilamiz. San'at yoki badiiy adabiyot borligining obrazli in'ikosi bo'lganligi bois bunday realistik moddiy jarayonlarni g'oyaga aylantiradi hamda ularning mavjudlik holatini obrazlarda inson tabiatiga mutanosib tasvirlaydi. Bunday tasvir individual ijodkorning o'z mentaliteti va dunyogarashi hamda xudo bergan talanti binobarin ijodga, borligining original ko'rinishiga aylanadi. Badiiy adabiyotda bu kabi hodisalar so'zning leksik-semantik yoki stilistik imkoniyatlari ichida yotadi. Germenevtika san'atning obrazli in'ikosini insoniyat borlig'i ijtimoiy gravitatsiyaning qonuniy ko'rinishlarini yaratishga qaratilgan ta'limot sifatida san'at vositasida borliq hodisalarining obrazli izohini uning barcha qonun-qoidalari doirasida tushunish, tushuntirish hamda uni his qilish metodlarini yaratadi.

Ijod individualligi badiiy g'oya individualligining asosida yotadi. Borliqning izohi behad, biroq bu hol undagi tinimsiz originallikning eng odmi holati xolos. Olam hodisalarining ichida abadiylikka faqat g'oyagina dahldor. Har qanday materiallik efemerlikka mahkum. Har qanday efemer hodisalar o'rtaasida qandaydir umumiy bog'lanish - deduksiya kuzatiladi.

Deduksiya bizni sillogizmga etaklaydi. Inson tafakkurining eng zait joyi uning mana shu sillogizmlar - inkorni inkor yoki sabab-natijalar domida qolganligidadir. Shu hol materializm, shu hol realizm.

Ijodning individualligi ko'p hollarda aynan shu qobiqni yoritib chiqishga intilgan daholar faoliyatining to'liqidir. Soya moddiy holat, to'liq esa, ichki tuyg'u, shaklsiz farosatga bo'yusnmas yorqin.

Yorqin kategoriyasi tabiat va jamiyat qonunlarini tushunish borasida inson mentalitetining mavjudlik holati. Inson nimalar bilandir tarix va kelajakni hozirgi holatga bog'lay olishi, ulardagi voqea-hodisalarni yolda saqlashi, tasavvur qilish va qayta ishlashi, eng muhimi ulardan o'ziga xos xulosa, tushunchalar yaratma olishi lozim. Unga bunday imkoniyatni taqdim qila oladigan hodisa yorqin bo'lib, insoniyat uning vositasida borliq va jamiyat mavjudlik kategoriyalari ustidan o'z tushunchalarini yaratma oladi. Har qanday yorqin insonda avvalo tasavvur orqali gavdalanadi. Tasavvur esa, obrazlar bilan ishlaydi. Aynan shu hodisa san'atni borliqning mavjudligini tushunishning eng muhim sharti sifatida tasdiqlaydi.

Mutafakkirlarning tafakkur yorqinlari nutqqa aylanganda, umuminsoniy borliq kashf etganda tafakkur durdonalari bo'laoladilar. Har bir tafakkur durdonasining mantiqqa egaligi uning sillogizm natijasi ekanligini tan olish demakdir. Agar g'oya inson tafakkuri doirasiga sig'masa, u yangilik, ijod. Har bir inson individual dunyo, uning borlig'i o'ziga xos zamin, uning o'z o'rmonlari, mamlakatlari, millat-xalqlari, ummon-tog'lari qo'yinki. Yer sayyorasidagi barcha mavjudliklar insonda uning mentalitetiga muvofiq u yoki bu darajada mavjud. Ha, shunday ekan, har bir inson o'ziga xos dunyo. Shu dunyoning adabiyotdagi in'ikosi ijod demakdir.

Germenevtik individualizm asar yashash tarzining eng muhim sharti. Borliqni individual kashf etgan yoki bilishning, tafakkurning individual holatini kashf etgan asargina uning muallifga shuhrat keltiradi, keyingi avlod uchun klassik namuna sifatida yashaydi. Shuhrat - mashhurlik, mashhurlik - tanliqi bo'limoq. Tanliqi inson - mavjud material, real qobiqni, g'oya - tafakkur yorqini bilan yoritib chiqqan odam. Bunday baxt talantlarga, salohiyatlariga nasib qilladi. Talant va salohiyat egalari daholar, daholar esa ijodkorlardir. Ijodkor yagona, individual ko'rinishga ega. G'oya - individual tafakkur yorqini. Ommada g'oya faqat materiallashadi, reallikning quliga aylanadi, ijodiylikni yo'qotadi. Shu bois ijod - g'oya - tafakkur oliy zaminini ko'rinishdir.

Zaminning oliy ko'rinishi uning o'zidan yiroqlashadi. To'garak jahonda hamma geometrik tomon samo, fazo - kosmos. Shu bois zaminidan uzoqlashgan, ko'tarilgan tafakkur, u qaysi tomonga qaratilgan bo'lmasin samoviy hisoblanadi.

Individual tafakkur yorqini samoviy, samoviylik - originallik, originallik - yangilik, yangilik - betakorlik, betakorlik - ijodiylik. Ijodiylik bilan individuallik bu tizimda birlashmoqda.

Yugorida ko'rib o'tilganidek, har qanday individuallik hozircha ijtimoiy tafakkur bilan bog'liq, chunki uning ma'no - mohiyati jamiyat tomonidan anglanishi kerak. Agar jamiyat undagi individualizmini angalay olmasa, bunday individualizm sohibi aqldan tashqari hisoblanadi, jamiyat uni qabul qilmaydi. Individuallik, ijodiylik faqat tilning o'ziga xos shakli bilangina jamiyatga tushunari bo'ladi. Biz bu erda tafakkurni, ongni borliqning reallik kaliti deb hisoblangan holda fikr yuritmoqdaminiz. Biroq, ta'kidlash lozimki, realizm ijodiylikka to'sqinlik qiladi. Individualizmi ijodiylik va hissiyot bilan bog'lash romantizm metodi talabalaridan biri (Angliya XIX asr romantizmi). Hissiyot aqlni, mantiqni, ratsionalizmi inkor qiladi. Borliq voqea - hodisalarni aql - idrok (hisob-kitob) yo'li bilan emas, balki ehtiros, hissiyot, qalb da'yati, yurak tuyg'usi bilan boshqarishni targ'ib qiladi. Bu o'rinda yurak, qalb, ko'ngil ong, aqlga qarshi qo'yiladi. Bu kategoriyalar tasavvurda namoyon bo'ladi, binobarin, tasavvur borliqning mavjudlik holati sifatida qayd qilinadi. Tasavvurda borliqning har qanday ko'rinishi muallif xohish-istagi bosimi ostida qayta ishlanishi mumkin. Ijodning mavjudligi talantli shaxslarda insoniyatga borliqning original ko'rinishlarini his qilish, tasavvurga kiritish imkoniyatni beradi. Aynan shu hodisa Belinskiyga "Shekspir asarlari insoniyatning aqlan bir-ikkii pog'ona yugori ko'tarilishiga vosita bo'lgan", deb tan olishi uchun asos bo'la oladi.

Badiiy tilning asar g'oyasiga muvofiq shakllanishi metodikasi jarayoni yugoridagi talablar asosida namoyon bo'ladi. Badiiy til realligi ko'p hollarda germanevika vositasida shakllanayotgan g'oyani qanday lingvistik va lingvopoetik vositalar bilan yaratilishining ta'minlanishini kuzatishdan iborat. So'zlarning ma'no xossalari, asar arxitektonikasiga muvofiq ravishda xoh alohida, xoh qurshov holatida bo'lsin ijodkorning ruhiy, botiniy qalbiy yoki ongli, aql - farosat faoliyatiga bo'yusinishi darkor. Bu hol asar janriga muvofiq turi darajada bo'ladi: she'r iyatda kichik va qisqa ko'lamda, eposda keng va batafsil, dramada keng, biroq davriy jihatdan oz muddat ichida tezlik bilan yuz beradigan voqealar tizimida. Aristotel sillogizm nazariyasida induktiv va deduktiv metodlar borliqda butun va qismlarning o'zaro gravitatsiyasini yaratar

ekan jamiyatda ham bir inson: u xoh katta yoki aqlli, kuchli, xoh kelik yoki aqlan, jismanan zaif bo'lsa ham o'z o'rniga ega bo'lishi hozirlik haqida aytgan edi. Badiiy adabiyot bunday odamlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni o'sha davr ijtimoiy psixologiyasidan kelib chiqib ijod qiladi. Insonparvarlik shaxsning har bir mavjudlik holatini uning shaxsiy mentalitetidan kelib chiqqan holda to'g'ri tushunishni, unga adekvat munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Asarda ijodkor aytmoqchi bo'lgan g'oya so'zlarning o'z va hattoki ko'chma ma'nolari hosilasi bo'lmashligi ham mumkin. Ijodkor yaratgan g'oya aforistik shaklda butun asar zaminida mujassam qilinadi. Asar g'oyasini o'quvchi - kitobxon uning syujetidan, obrazlar va voqealar dinamikasi, ularning psixologiyasi harakatidan izlashi lozim. Ko'pincha muallif o'zi aytmoqchi bo'lgan gap boshqa yoqda qolib, umuman boshqa mazmun, syujet, hatto g'oyani ham yaratishi mumkin. Bu ham, albatta, asar syujeti, qahramonlar psixologiyasi, voqealar rivojining muallifga bog'lanmagan holdagi taraqqiyotiga bog'liq. Bu tasodifiylik ong mahsuli idrok bilan belgilanadi. G'oya har doim va har qanday holatda bir umumiy qobiqqa ega. U asarning ko'lamida boshdan oxirigacha voqea - hodisa, harakat, so'z, obraz, badiiy - tasviriy vositalarning umumiy yoki xususiy in'ikoslarida yorqin vositasida sezilib turadi. Ijodkor g'oyani lingvistik vositalar semantikasi jarayonida emas, balki yorqin bilan e'kazadi o'quvchiga. Yorqin bizning nazarinizda shunday universal psixologik hodisaki, unda nafqat insoniyat jamiyati yoki mentalitetiga bog'liq hodisalar, balki umumborliq voqea-hodisalarning ham tasavvuriy aksi namoyon bo'ladi. Bu hodisa eng avvalo har insonning shaxsiy fazilatleri borasida, u dunyoga kelgan va yashab turgan ijtimoiy muhitning mentaliteti bilan ham bog'liq. Biz hech qachon bir sharoitdagi odamdan u shaxsiy tasavvuriga sig'dira olishi mumkin bo'lganidan ortiqroq narsa talab qila olmaymiz. Chunki u shunday yaratgan va faqat o'z muhitida munosib borliq. Biroq bunday mu'nti olamlar o'zaro birlashib, yaxlit jamiyatni borlig'ini tashkil qilar ekanlar hamda makon va zamonda mavjud ekanlar ular o'z mavjudligi darajasida borliq va insoniyatning ma'lum (o'z imkoniyatidan kelib chiqib) bilim va g'oyalar zapasini istifoda etadilar hamda har bir voqea-hodisaga shu pozitsiyadan turib shaxsiy munosabatini yaratadilar. Hamday psixologik jarayon hozirda nafqat insonlarda isbotlangan, balki hayvon va o'simlarga ham xos ekanligi aniqlangan.

Borliqdaga har bir mavjudlik miti olam ekan, uning mavjudligi mana shunday yorqini istifoda qilish orqali borliq qonuniyatlari va voqelkni bevosita ishtirokchisiga aylanishi uchun imkon yaratadi. Demak borliq, uning mavjudlik qonuniyatlari real va abadiy voqelk ekan, ularning yorqini ham abadiy, shuningdek, ularning inson psixologiyasida mentalitetiga munosib aks etishi ham real voqelk. San'atning ommaviyligi shartida eng muhim nuqta mana shu.

Endi mana shu o'rinda asar g'oyasini shakllantirishda hisobga olinishi zarur bo'lgan badiiy adabiyotning yana bir muhim xususiyati — ommaviylikka to'xtalib o'tish zarur.

Ommaviylik — badiiy asar mavjudlik funksiyasining, uning germe-nevtik sharoitida shakllanishining muhim sharti. Badiiy asar faqat keng omma tamonidan qabul qilingandagina adabiyot, san'at namunasi bo'la oladi. Omma — xalq asarni uch muhim xususiyatga tayangan holda qabul qiladi: birinchisida badiiyligi uchun, o'zining estetik ehtiyojini qondirish maqsadida, ikkinchisida alohida daho tamonidan yaratilgan individual ijod namunasi sifatida va nihoyat, uning yangi, inson uchun noma'lum bo'lgan, unga yangi dunyo sirlarini ochadigan badiiy g'oya tashganligi uchun. Bu o'rinda badiiylik va ijodiylik xuddi yagona degizga birlashgan daryolar kabi bir manzili va g'oyada-ommmaviylikda birlashadilar.

Bu uch xususiyat ommaga badiiy asarni reallashtirgan nutqning mavjudlik holati — so'z orqali etib boradi. So'z va uning ma'no xususiyatlari badiiy asar umumiy g'oyasining realligi kaliti sifatida ong bilan anglanib, tilga aylanadi. Badiiy asar g'oyasining lisoniy — til xususiyati aynan shu shaklda namoyon bo'ladi.

Ommaviylik badiiy asar g'oyasi tilidan tashqari, uning ifoda — shakli tiliga ham bog'liq. Asarning estetik ehtiyojga muvofiqlashuvi ayniqsa, she'rliy asarlarda yangi lingvopoetik material yaratishni yoki mavjud materialni yangi arxitektonikada — shakl va ma'noda istifoda etishni talab qiladi. Omma ijodkordan yangi asar, binobarin, yangi so'z kutadi. Bu o'rinda yangi so'z jumlasidagi "so'z" kalimasi "g'oya" ma'nosini anglatadi. Hozirgi vaqtda "so'z" kalimasining boshqa ma'nolari ham shakllanmoqda. Uning "kitob", "badiiy asar", "talimot" ma'nolaridan tashqari mabnuda "sportda g'alaba", "ustunlik", siyosatda "g'ayilik", "va'daga vafu qilish", ijtimoiy hayotda "menlik" kabi ma'nolarda qo'llanmoqda. (Bu borada yana yuqorida aytilgan boy va kambag'al

so'zlar guruhiga e'tibor berib). Inson mavjudligi borliqni tushinish, tushuntirish orqali namoyon bo'lar ekan, inson uni so'z bilan tushuntiradi, talqin va taqrir qiladi. Demak, borliq asosida so'z yotadi. Hattai borliqni bitta yagona "so'z" bilan izohlash mumkin.

Bu hol ommaviy holatda badiiy asar g'oyasining mavjudlik shakli so'z — til bilan bog'liq ekanligini isbotlamogda. Dunyoning asosida g'oya — so'z yotadi. Har qanday harakat, holat — reallik, reallik esa, g'oyaga ega, g'oya esa so'z bilan reallashadi, ya'ni ommalashadi. Bu har qanday harakat va holatning reallashgan qobig'idir. Harakat va holatning, voqea-hodisalarning rang-barangligi insoniyat lug'aviy imkoniyatlari ichida yotadi. Insoniyat ongi fahmlamagan voqea — hodisang hodisasidan tashqari hisoblanadi, ya'ni o'zining moddiy qobig'i — so'zga aylanamaydi. Demak, u til hodisasi emas. Badiiy ijod hayot rang — barangligini kashf etish jarayonida ko'p hollarda aynan mana shu anglamagan hodisalarni nomlaydi, yaratadi, insoniyatga taqdim qiladi. Tabiatdagi induktivlik, ya'ni markazga intilish, ko'p voqea — hodisalarni umumlashirishning eng muhim rolini ta'kidlaydi, ya'ni ularni so'zda — tilda reallashtiradi, umumlashiradi.

Ommaviylik so'z — tilning mana shu xususiyati bilan bog'liq. Aytilgan g'oya so'z — til — ommaviylik. Chunki badiiy asar shu shaklda insoniyat ommasiga etib boradi. O'tgan asarning boshlarida evropalik olimlar tovushlarning ham xuddi nur kabi rangorang belgilari bor ekanligini isbotlashdi. Vaholanki borliqning paydo bo'lishi asosida nur yotadi. Nur esa, turli ranglarda zohir bo'ladi. Demak, tovush rangli ekan, tovush asosida yaratilgan so'z, ohang, ularning negizi va hosilasida yotgan g'oya ham rangli bo'lishi kerak. Badiiy yorqin kuchi va qudrati omma shunday ranglar spektrining darajasi bilan belgilanadi.

Badiiy tilning badiiy adabiyot spetsifik xususiyatlariga munosabati yuzasidan olib borilgan qisqacha tahlil shuni ko'rsatadiki, badiiy asar shaxs ijodiyligi va asarda aks etgan ma'lum g'oyaning omma ongidagi yorqinidan iboratdir.

Yorqin individual insonda hissiyot va jamiyatda til — so'z vositasida reallashadi. Yorqinning reallik qobig'i adekvat ravishda his va tildir. Badiiy matnning germe-nevtik sharoitida yorqini uning til orqali o'zlashtirishiga asoslanadi. Badiiy asar muvaffaqiyati u yaratgan yorqinning rangorang tovlanishi va yorqin ranglari spektrining origi-nalligi bilan bog'liq. Xalqning asrlar mobaynida to'plagan boy hayotiy

tajribasi qisqa matnlarga-maqollarga, badiiy asarda umumiy g'oyani shakllantira oladigan aforizmlarga aylanadi va kelajak avlodga meros qilib goldiriladi. Maqollar xalqning dunyogarashi, milliy ma'naviyatini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Maqollarda inson turmush tarzi, orzu intilishlari uning hayotiy tajribasiga qiyosan aks etadi, shu bois maqol ratsional yoki sentimental bilishdan ko'ra ko'proq empirik bilishning samarasi sifatida baholanadi.

Badiiy tilning mukammal, teran, jozibador va naflis bo'lishi badiiy asar muvaffaqiyatining eng muhim garovi. Insoniyat badiiy asarini mana shu xususiyat garovi vositasida qabul qiladi, o'zlashtiradi, ommaviylashtiradi.

Badiiy adabiyot-badiiy asar badiiy tilda aks etgan poetik obrazli borliq sifatida olam haqidagi individual inson tasavvurini germenevtikada yorqin vositasida ommalashtirish demakdir. Jamiyatning har bir va-kili o'z mentaliteti va xudo bergan imkoniyatlaridan kelib chiqib, asar vositasida tabiat va jamiyadagi munosabatlarni taqdim qilingan obraz-larda ko'radi, eshitadi, his qiladi hamda ulardan xulosa, tushunchalar yaratadi. Oxir-oqibat o'zining ruhiy-psixologik dunyosini qayta yaratish binobarida jamiyatning to'laqoni a'zosi bo'lishga intiladi. Kataris-badiiy adabiyotda ijtimoiy tushunishning kaliti sifatida mana shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega.

### 3.2. Mumtoz badiiy tilni tushunishda adabiy tahlilning germenevtik mezonlari

Hazrat Navoiy badiiy asarini, uning ma'no-mohiyatini tushunishni, badiiy talqini she'rshunoslik, deb atagan ekan<sup>1</sup>. Biz ham shunga muvofiq ravishda she'rshunoslikni asar tilini tushunish, uning g'oyasini anglab etish, binobarin asar matni tahlili orqali yorqin bilan amalga oshiriladigan germenevtik sharoit deb hisoblaymiz. Tanlab olingan mahning badiiyligi, emotsionalligi, ta'sirchanligi, tasviriyligi ortida ijodkorning, u tegishli bo'lgan xalq va umuman insoniyatning fashohati, anglab etilgan yoki anglab etilmagan fashohati zamirida, minglab avlodlarning orzu-umidlari, tilaklari, estetik dunyosi, qalb manzaralari tasviri mujassam bo'ladi. Mana shularning hammasi germenevtikaning

badiiy tilga asoslangan matn imkoniyatlari zamirida o'rin topadi.

Badiiy til va uni o'rganish usullari ko'pdan beri munozaralarga asohib bo'lmog'da. Shu bois badiiy tilni o'rganish turlari va usullarini ishlab chiqish kundalik dolzarb muammolaridan biridir. Hozirga qadar badiiy asar tilini o'rganishning turli usullari ilgari surilgan. Ularga muvofiq asar tilini ayrimlar tishunoslik, boshqalar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishni taklif qiladilar. Akademik V.V.Vinogradov fashohatligida bir guruh olimlar badiiy asar tilini o'rganish masalasiga alohida bir soha sifatida qarashni taklif qilganlar. Biroq bu borada hali biron bir qat'iy fikrga kelingan emas. Hozirga qadar badiiy tilni o'rganishning yagona kriteriyalari ishlab chiqilgan emas.

Badiiy til insoniyat aloqa tizimining, estetik dunyogarashining alohida ko'rinishi sifatida alohida, ayricha o'rganilishi zarur.

bu borada yangi davr tishunosligida til va nutq hodisalarini farqlash haqidagi nazariyalarni ham e'tiborga olish lozim. Unga ko'ra til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisidir.

Nutq esa, tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, voqelanish shakli bo'lib, u bevosita kuzatishda berilgan moddiy qobiqqa ega bo'lgan hodisa. Ushbu nazariya tarafdorlari shu o'rinda til birliklarini nutqning u yoki bu ko'rinishida ishlatish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini cheklangan xususida me'yor kategoriyasini ham ilgari suradilar.

Badiiy asar nutq hodisasi sifatida qaralgani bois uning til xususiyatlari ham bevosita kuzatish predmeti hisoblanadi. Biroq biz ko'p hollarda badiiy nutqni badiiy tilning alohida namunasi ekanligini hisobga olmaymiz. Demak, badiiy nutqda badiiy tilning bir ko'rinishi namoyon bo'ladi, xolos.

Badiiy til esa, alohida ijodkorning o'z ichki imkoniyati sifatida kuzatishda berilmagan. Aniqrog'i, badiiy til — ijodiy potentsiya. Umum-sahq tili tishunoslik va adabiyotshunoslikning material vazifasini bajarar ekan, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har ikkala fan til mate-riallariga nazariy yondoshuvda aytricha pozitsiyani tanlaydilar. Xu-susan, tishunoslik tili materialning xususiy belgilarini aniqlaydi, muhasaba, grammatik, fonetik, leksik nuqtai nazaridan o'ziga xosligini tahlil qiladi; adabiyotshunoslik esa, shu material asosida yaratilgan

<sup>1</sup> Капант: Зайнулдин Махмуца Восифий. Бадиотке ул-вакост. -Т.: 1979. 126-бет.

matnning yaxlit shakllarini nomlaydi, masalan, roman, she'r, syujet, poetika kabi. Biroq amaliyotda har ikki fan til materialiga faqat bir xil munosabada bo'ladi: tilshunoslik matn qismlarining mantiq-ma'no qirralarini qayd qiladi, adabiyotshunoslik esa, shu matn ma'nosida aks etgan estetik go'zallikni qayd qiladi. Germenevtika esa, bu ikki fandan farqli ravishda matn arxitektonikasi orqali tovlanadigan badiiy talqin g'oyalari ni birlashtiradi.

Zamonaviy filologiya ilmidagi til va nutq hodisalarini alohida — alohida hodisa sifatida qaralayotgani bois, ularning tabiatidan kelib chiqqan holda shartli ravishda badiiy asarning ma'no (ichki, g'oya) va mavzu xususiyatlarini germenevtik sharoit sifatida, uning epos, lirika va drama shaklida mavjudligini nutq hodisasi sifatida baholash mumkin. Shu kabi xususiyatlar shakllaniriganda badiiy asar tili alohida hodisa ekanligi ma'lum bo'lib qoladi.

Tilshunoslikda so'zning ma'no tomonlarini o'rganish borasida ma'lum tajriba kuzatiladi. Xususan, sistem tilshunoslikda so'zning mazmun va ma'no tomonlari semalar bilan ajratiladi va semalar uch turga bo'linadi: 1) atash semalari (denotativ semalar); 2) ifoda tasvir, go'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar); 3) vazifa semalari (funktional semalar)<sup>1</sup>. Biroq bu holatda so'zning g'oya yaratish imkoniyatlari butunlay e'tibordan soqit qilinadi. Sistem tilshunoslarning nazarida so'z xuddi Mendeleev davriy sistemasidagi element, uning ma'holari (semalari) esa, elementlarning aktivlari sifatida qabul qilinadi. Aktivlarning o'zaro birika olish xususiyatlari ularning nazarida so'z ma'holarning barcha ifoda imkoniyatlarini qamrab oladi.

Aznaurova E.S. o'zining tadqiqotlarida shunday xulosaga keladiki, "agar semantika so'zning ma'nosini bildirsa, pragmatika uning so'zlovchisi maqsadi, so'zlanish sharoiti va maqsadi nutqning ta'sirchanligi samarasini ochib berishga intiladi... So'zning vazifa bajarish imkoniyatlari muallif maqsadiga bo'yusundirilganda so'z belgisining to'rt turi ajratiladi: yadro, periferiya, axborotli va pragmatik semalar"<sup>2</sup>. Aznaurova tadqiqotlarida lingvopragmatik kontekst muammosi ham nazarda tutilgan. Xususan, u yozadiki, "shunday qilib, lingvopragmatik

kontekst bu-nutq zanjirining bo'g'inidir. Unda faol birliklarning pragmatik mazmuni namoyon bo'lishi uchun kerakli verbal signallar muassam bo'ladi. Signallar sifatida so'zning ma'no — mazmuni pragmatik komponentining yoki okkazyional pragmatik ma'no shakllanishi jarayonida (ularning eksplitsit lisoniy reprezentatsiyasi holatida) kontekst o'zining kommunikativ — pragmatik parametrlarining o'zini aks ettiruvchi holatlar paydo bo'lishi mumkin.

Pragmatik axborot signallari o'zining verbal reprezentatsiyasidan tashqari ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda pragmatik kontekst ekstralingvistik faktorlarni: "sharoit holati", "fonli" yoki "madaniy mavzu" kabilarni ham o'z ichiga oladi. Bunday holatlarda kontekst fonli kommunikativ bilimning summasi (mag'zini) o'z ichiga olgan holda hamda ma'lumotning barcha bilvosita ko'rinishlarining kodini olish orqali, binobarin, ularni aql doirasi imkoniyatlari va matn til markelari yoki til signallaridan tashqaridagi presuppozitsiya bazasini ham muassam qiladi"<sup>1</sup>.

Yaqorida keltirilgan fikrlar mujassami barobarida shunday xulosaga ehtiyojli mumkin, badiiy asar tili alohida soha predmeti bo'la olar ekan, buning uchun quyidagilarni asos qilib keltirish mumkin:

1. Badiiy asar yaratilishi jarayoni individual ijod bilan bog'liq, yo'ni ijodkor talanti, shaxsiy qobiliyati, uning ijodiy g'oyasi va badiiy tafakkurining mevasi. Badiiy asar alohida inson ijodiy faoliyatining mevasi sifatida hali umumxalq tili, adabiy til doirasiga kimaydigan so'z va so'z ma'nosi orqali g'oyalarni ham qamrab oladi. Bu hol badiiy asar arxitektonikasi ijodiylikning eng muhim mezon sifatida belgilanishi lozim.

2. Yangi davr badiiy adabiyoti insoniyat jamiyatining ko'zgusi sifatida o'zining funksional doirasini tubdan o'zgartirgan. Uning mavjudligi faqatgina san'at namunasi sifatidagi funksiyasi badiiy adabiyot fonktsiyalaridan biriga aylanib qolgan, xolos. Yangi davr badiiy adabiyotida ilmiy-fantastik uslub bilan bog'liq qator janrlarning paydo bo'lishi uning jamiyat, ilm-fan va umuman mavjudlik funksiyalari doirasini g'oyat darajada o'zgartirib yubordi. Xususan, sarguzashtnoma, sayohatnoma asarlari geografiya, okeanologiya, zoologiya, botanika, filologiya bilan bog'liq kashfyotlarni o'zida mujassam qilgani holda

<sup>1</sup> Нематов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. 58-бет.

<sup>2</sup> Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. — Т.: 1998. стр. 29-34.

<sup>1</sup> Азнаурова Э.С. Прагматика художественного слова. — Т.: 1988. стр. 58.



nafaqat bu boradagi ma'lum ilmiy g'oyalar, nazariyalarni, balki hali ilgama noma'lum bo'lgan ko'plab gipotezalarni ham ijtimoiyga arenaga olib chiqdi.

Bu borada yana kosmonavtika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, maishiy, harbiy mavzudagi romanlarda ilgari surilgan g'oya va fikrlarni inobatga olsak, badiiy asarning ijtimoiy ong taraqqiyotidagi o'rni va roli naqadar ulkan ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. Qolaversa, hozirgi davrda jamiyatshunoslikka oid juda ko'p hodisalar ham badiiy asarda o'z aksini topmoqda.

Jamiyatning kriminal kuchlari psixologiyasini fosh qilish, ichki munosabatlarni yoritish, umuman olganda juda keng ijtimoiy munosabatlarning badiiy sharti badiiy asar, bevosita romanlarning san'at asari sifatidagi doirasini ijtimoiy arenaga olib chiqdi, binobarin ularning rolini globalashtrib yubordi.

Individual ijod namunasi sifatida yuqorida tilga olingan hodisalarni qamrab olgani holda badiiy asar hali jamiyat tafakkuri qamrab olmagan gemenevlik sharoitni yaratadi, binobarin, bu borada yangi, o'ziga xos tafakkur arxitektonikasi ijodkori bo'lib qoladi. Yangi tili, yangi hodisani, voqeani va umuman yangi badiiy tafakkurni ijod qilish, yaratish badiiy asar ijodkorining individual lisoniy imkoniyatlari doirasida yotadi.

Ijodkorning lisoniy imkoniyatlari jamiyatning boshqa a'zolari imkoniyatidagi tildan tubdan farq qiladi. U ijodkor sifatida jamiyat a'zolarining ongi va umuman hissiyot organlarida paydo bo'lishi mumkin bo'lmagan va hattoki, biz hali ularni biror-bir kategoriyaga kiritishimiz mumkin bo'lmagan noma'lumliklarini yaratadi. Ya'ni inson tafakkurida tub o'zgarish yasaydi. Jamiyat va ijodkor psixologiyasidagi mana shu differensiyani bartaraf qilish, asarning nafaqat ijodkoriga xos individual qirralari, balki kitobxonda ham yorqin orgali paydo bo'ladigan tafakkur fantaziyasini shakllantirish uchun gemenevlik sharoit tahlili tamoyillarini mukammal o'zlashtirish zarur.

3. Umumxalq tili biron – bir millat, xalq nomi va saviyasi bilan bog'liq. O'sha xalqning mentaliteti, ilmiylik saviyasi, jahonda turgan o'rni umumxalq tilining ichki va tashqi darajasini belgilaydi. Badiiy til milliy qobiqdan holi hodisa sifatida badiiy asarning umuminsoniyat mulki ekanligi bilan asoslanadi. Binobarin, badiiy adabiyot umuminsoniyat qadriyatlaridan biri sifatida baholanadi. Navoiy, Shekspir, Dante,

Pushkin, Servantes kabilarining dohiyona asarlari hududiy va milliy qobiqlarni tan olmaydi. Badiiy asar umuminsoniy qadriyatga aylanar ekan, unda ilgari surilgan g'oyalar, kashfiyotlar butun insoniyat mulki bo'lib qolar ekan, badiiy til ham biror bir xalq tili bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Badiiy asarning biror-bir xalq tilida, milliy tilda yaratilishi uning tashqi qobig'ini belgilaydi, xolos.

Bu kabi asoslarga muvofiq «badiiy adabiyot tili» degan hodisani alohida fan tarmog'i sifatida o'rganish zarurati tug'iladi. Shunga muvofiq uning o'ziga xos o'rganish ob'ekti, predmeti va maqsad-vazifalarini belgilash ham kun tartibidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Badiiy tilning o'rganilish ob'ekti kunimizga qadar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik sohasida yaratilgan badiiy va badiiy - publitsistik asarlar bo'lib, shuning bilan birga ularning til xususiyatlari va badiiy tildagi shaklida namoyon bo'lishidan iboratdir. Predmeti shu o'rganilish ob'ektida namoyon bo'lgan badiiy tili uning kriteriyalari asosida tadqiq qilish, o'rganish hisoblanadi.

Maqsad – vazifasi esa, badiiy tilning umumxalq tili, nafaqat til, balki til vositalari orgali unda ifoda etilgan g'oyalari vositasida dunyovqarashi va milliy mentalitetining oshuviga xizmat qilishining tadqiqidan iboratdir.

Har bir xalqning milliy mentaliteti uning madaniyati, madaniy mavqiyati, amiqrog'i, "o'zligining" saviyasi bilan bog'liq. Badiiy adabiyot madaniyatining bir ko'rinishi sifatida uning namoyon bo'lish usullaridan biri va binobarin, eng muhim usulidir. Zero har qanday madaniyat tilda namoyon bo'ladi, tilda o'zining moddiy qobig'ini topadi, reallashadi. Badiiy til madaniyat tashuvchi vosita sifatida milliy madaniyat, mentalitet bilan bog'liq. Mentalitet qanchalik yuqori darajada ekanligi badiiy asar tili orgali badiiy adabiyot asari saviyasini belgilaydi. Badiiy asarning falsafiy, ijtimoiy, ilmiy, siyosiy zaruriyatini ta'minlaydi. Har qanday badiiy asar umuminsoniy madaniyat mulki bo'lishi bilan bir qatorda u millatlar orasidagi madaniy, etnografik, diniy va boshqa ma'naviy belgilarni bir millatdan ikkinchi millatga o'zlashtirishida eng muhim vosita hamdir. Zero, har bir millat va har bir insonning madaniy mavqiyati uning tilida namoyon bo'ladi.

Biz yuqorida keltirilgan asoslar, bildirgan fikrlarni umumlashtirgan holda badiiy tafakkurning turli paradigmalari gemenevlikasini sintez

qilish borasida asar tilini o'rganishning quyidagi turlarini belgiladi. Unga muvofiq badiiy asar tili uch asosiy yo'nalishda shakllanadi:

1. Dekorativ til, ya'ni badiiy asar adabiy turi, janri, syujeti, mavzusi, vazni, hajmi va boshqa poetik tashqi shakliy belgilari bilan bog'liq til xususiyatlari.

2. Badiiy asar g'oyasi tili, ya'ni asar mazmuni, ijodiy metodga munosabati, adabiy uslub, ijimoiy-falsafiy oqimlarga aloqadorligi, ijodkorning badiiy tafakkur borasidagi fantaziyasi, umuman olganda asar tashiyotgan g'oyani ochib berishga mo'ljallangan lingvopoetik xususiyatlar.

3. Badiiy asar lingvopoetikasi, ya'ni yuqoridagi ikki taddiqot holatini lingvopoetik elementlar bilan ta'minlashga bog'liq til xususiyatlari.

Adabiyot predmetining spetsifikasining fikrlash mohiyati uning badiiy-tasviriy imkoniyatlaridan tashqarida emas. She'riyat, proza va dramaturgiya umumlashtirib olganda bir xil til materialidan foydalanadi. Biroq ularda voqelikni aks ettirish usuli ma'lum darajada farqlanadi ham.

Adabiy asarlarning insong ongi, shuurida o'rin topishi va shakllanishi ham turlicha: epos yoki epik asarlar mutolasi insonning ko'z tasavvurida jonlanadi. O'quvchi asar voqealari, monolog va dialoglar ijrochilarini ko'z o'ngida tasavvur qilish orqali asarni hazm qiladi.

Lirikada esa, inson qalbi tasavvurida hissiyot bilan uyg'onadi. Lirikada fikr sezgi orqasiga yashiringan bo'ladi. Lekin baribir lirik asar ham kishi ruhidagi drammatizmning miniatur ifodasidir.

Drama esa, bevosita jonli ijro orqali inson ko'z o'ngida tasvirni shakllantiradi. Dramaning qudrati hayotiy asoslardan biri – insonning hayotdan olgan o'z taassurot va saboqlarini boshqalarga ko'rsatmali usulda berishga intilishidir. Aristotel aytganidek, ko'rish orqali, ko'z orqali olingan taassurot eng boy, eng kuchli va eng chuqur taassurotdir. She'riyat tilning sohir musiqaviy vositalarini tanlaydiki, unda ulkan polifonik, sub'ektivlik, ritmi belgilovchi vositalar, vazn, original so'z, so'z shakli yasash imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Dramatik til esa, lakonizm, qisqalik, aforistik imkoniyatlar bilan boyitilgan, shuningdek, yordamchi elementlar-pauza, qisqartirish, imo-ishora, replika, remarka kabilar bilan to'la bo'ladi.

Badiiy-prozaik til ham o'ziga xos spetsifik imkoniyatlarga-o'z ichki leksik-grammatik qurilishi, o'ziga xos obrazli ifoda imkoniyatlari va

fonologiyadan xoliligi kabilar bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>.

Dekorativ til, ya'ni badiiy asar adabiy turi, janri, syujeti, mavzusi, vazni va boshqa shakliy belgilari bilan bog'liq til xususiyatlari haqida jiddiyda quyidagilarni e'tiborga olish lozim.

Ijodkor o'zi tomonidan tanlangan (yoki yig'ilgan) badiiy materialni qayta mavzuga tegishli ekanligiga qarab tining lug'aviy resurslaridan maqsadli foydalanadi. Qolaversa, u til materiallarini istifoda qilishda, asarning arxitektonikasi tuzishda g'oyaning qaysi mavzuga aloqadorligiga e'tibor qaratadi va shunga muvofiq material yig'adi. Mavzu va material hajmi, yo'nalishi hamda uning ahamiyati ijodkorga badiiy tur va janri tanlash bilan bog'liq imkoniyatni yaratadi.

Frosda ko'proq tavsifiylik muhim, xususan, romanda voqea-hodisalar batafsil sharhlanadi. Chunki uning janr xususiyati keng va katta mavzularni atrofficha tavsiflashni talab qiladi, shuning uchun ijodkor ko'p bosqichli tavsif yo'lini tanlaydi.

Qissada bu holat nisbatan torroq doirada amalga oshiriladi.

Hikoya esa, bir voqea-hodisaning ma'lum qirrasinigina yoritishga mo'ljallangan. Shu bois unda tezlashtirish, ya'ni voqea-hodisalarni so'ngiga, echimiga qarab tez yo'naltirish, umuman olganda harakat kuchli bo'ladi.

Lirikada ijodkor o'z ruhiy holatining bir ko'rinishini tavsif qilishi kerak. Buning uchun undan talab qilinadigan shakl tasviriylik, aniqrog'i, ruhiy holat tasviri. Undagi shu tasvirning originalligini ta'minlash shoirning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shuning uchun lirik asar mavzusida lirik qahramon (shoir)ning nimadan, qay yo'sunda ta'sirlanganligini hisobga olish muhim.

Ta'sirlanish ob'ekti go'zallik bo'lsa, insonga estetik ruh bag'ishlovchi naha so'zlar, aksincha, yovuzlik, xunuk holatdan ta'sirlanish bo'lsa, psixologik holatlarni keltirib chiqaruvchi vulgar so'zlardan foydalaniladi. Lirik asarlarda ham tarixiy, muhabbat, hayviy, sharhi hol, dialogik, sanali (kalendar) she'rlarda leksik-semantik vositalar o'ziga xos usulda tanlanadi. She'riy asarlarda vazn, qofiya, radif, she'r bandlari, eng muhimi ijodiy metod va adabiy yo'nalish kabii hodisalar ham badiiy tilning ma'lum qoidalari doirasida shakllanadi. Qo'llanadigan leksik -

<sup>1</sup> Варфоломеев И.Г. и др. Введение в литературоведение.-Т.: 2006, стр.53.

semantik vositalar vazn, mavzu, g'oya, maqsad talabidan kelib chiqib o'zgaragan shaklda qo'llanishi mumkin. Masalan, tarixiy mavzuga oid asarlarda arxaizm, istorizmlar (yoki so'zning arxaik shakllari), harbiy mavzuda jangovarlik ruhiy holatini beradigan so'z va so'z shakllari (buyruq ohangi), lirik mavzuda sentimental holatni shakllantiradigan psixofizologik fe'llar ko'proq qo'llanadi. Bu kabi holatlarni so'zlarning tovush va morfen tarkibiga ham tatbiq qilish mumkin.

Dramatik asarlarda asosan yuqoridagi ikki turdan kelib chiqqan holda uning mavzusiga, janriga qarab tavsifiy, epik til yoki ruhiy holatli til bayoni usuli qo'llanadi. Biroq bu adabiy turning o'ziga xos xususiyati, tabiati voqea – hodisalarni yakuniga qarab tezlashtirishdan iborat. Shu borada ijodkor bu turdagi asarlarda tarixiy, lirik, hayviy-satirik, falsafiy, harbiy – vatandarlik dramalarida mavzuga mos ravishda lisoniy muhit yaratadi, lug'aviy qatlam tizib boradi. Shunga qo'shimcha ravishda turning tabiatidan kelib chiqib, so'z va boshqa lisoniy birliklarda tabiatan harakatchanlik, tezlik, jangovarlik kayfiyatini singdiradi, toki voqea – hodisa tez, dramatik tarzda rivojlansin. Dramatik asarning faqat personajlar nutqidan iborat ekanligi ham voqea-hodisalar shartida muallif izohini istisno qiladi.

Umuman olganda, mavzu va materialga muvofiq badiiy asar tili, asar arxitektonikasi alohida shakllanadi. Binobarin, badiiy adabiyotning, uning alohida namunasi sifatida hisoblangan ma'lum bir asarning mavzu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tildagi o'z adabiy turi va mavzusiga muvofiq lug'aviy resurslarni istifoda qilish talab qilinadi. Bu borada unga asarning g'oyasi ham ko'mak beradi.

Badiiy asar g'oyasi tili, ya'ni asar mazmuni, ijodiy metodga munosabati, adabiy uslub, ijtimoiy-falsafiy oqimlarga aloqadorligi, ijodkorning badiiy tafakkur borasidagi fantaziyasi bilan bog'liq til xususiyatlari demakdir.

Yaratilgan badiiy asarda ijodkor o'zi aytmoqchi bo'lgan gap yoki fikrni tasviriy ifodalari vositasida obrazlar, voqealar, xatti – harakatlar orqali ko'rsatib beradi. Obrazlar tashqi va ichki dunyosi tasviri, tavsiffida ma'lum g'oyani ko'zda tutgan holda arxitektonika, fasad yaratadi, maqsadli leksik – semantik vositalarga murojaat qiladi. Badiiy asar orqali ijodkorning aytmoqchi bo'lgan gap, maqsadi asarning g'oyasi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, g'oyani epos tavsifi, lirika tasviriylik, drama esa, harakat bilan yoritadi.

G'oya badiiy asarda tayyor holda nutq shaklida bo'lmaydi. U til shaklida ijodkor (yoki o'quvchi) ning ongida paydo bo'ladi. Uni nutq holatiga keltirish ijodkoridan iste'dodni, o'quvchidan esa ma'lum tayyorgarlik, mentalitetni talab qiladi. Toki ijodkorning asarda ifodalalmog'chi bo'lgan g'oyasi o'quvchiga ma'lum tushunchalar tizimining yorqini orqali original lug'aviy vositalar bilan etib borsin. G'oya ongda til shaklida paydo bo'lar ekan, uni nutq holatiga keltirish jarayoni ijodkorning ijodiy fantaziyasi muvaffaqiyatining til vositalari bilan ta'minlanishiga bog'liq. Ya'ni ijodkor o'zi aytmoqchi bo'lgan gapni, original tushunchalarni ma'lum tayyorgarlikda bo'lgan yoki bo'lmagan o'quvchiga mo'ljallash jarayonida uning fahmiy fantaziyasi, mentalitetini e'tiborga olishi lozim. G'oya ijodining muhim xususiyatlaridan biri g'oyaga mos leksik – semantik resurslarini istifoda qilish. Ijodkor asar g'oyasini yaratish borasida shunday imkoniyatni hisobga olishi lozimki, asardan kutilgan yoki kutilayotgan g'oya o'quvchiga aniq, yaqqol, rangli, emosional ta'sirchan holatda etib borsin. Aynan shu hol badiiy asar tilini, qolaversa, badiiy asar germinenitkasining, uning katarsis nuqtai nazardan ta'sirchanligini va nihoyat asarni o'zining o'qimshiligi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Asarda g'oyani shakllantirish uni ijodkor tanlagan mavzuga uy'e'ntiligi masalasini ham talab qiladi. O'quvchiga bir mavzuni tavsiya qilgan holda boshqa g'oyaga muvofiq til resurslaridan foydalanish asar tilini, binobarin, undagi germinenitik sharoitni buzadi.

Yorqin leksik – semantik vositalardan holi o'laroq o'quvchi ongida ma'lum bir yo'nalish asosida o'y – fikrlar birligini ta'minlaydi, uni ma'lum tushunchalar doirasida mulohaza yuritishga chorlaydi. G'oya tilida ham xuddi mavzu tilida bo'lgani kabi tegishli parametrlar asar g'oyasini qat'iy bir mavzu ostida shakllanishini ta'minlaydi. Asar g'oyasi uning ijodiy metodi masalasini ham shakllantiradi. Xususan, romanlik asarlarda lirik hissiyot, realistlik asarlarda real turmush tashvishlari tasviri ustunlik qiladi.

Badiiy asar lingvopoetikasi, ya'ni yuqoridagi ikki tadqiqot holatini lingvistik elementlar bilan ta'minlashga bog'liq til xususiyatlari demakdir. Unga muvofiq yuqoridagi ikki tur asosida badiiy asar tilini o'rganishning xususiyatlari aniqlab olinganidan so'ng ma'lum bo'ladiki, mavzu va g'oya asarda ma'lum bir shakl (so'z shakli yoki so'zning tovush tarkibi, grammatik va leksik-semantik holati) ning ham original

istifoda qilinishini talab qiladi. Istifoda qilingan til shakllari milliy yoki individual til resurslari imkoniyatida yotadi.

Badiiy tilning tavsiya qilingan kriteriyalari asosida tadqiq qilinishi uning barcha xususiyatlarini gamrab oladi. Shu yo'nalishda o'rganilganda badiiy g'oya asarda qay darajada shakllanganini germe-nevtik jihatdan to'la ochib berish imkoni tug'iladi. Tilning tasviriy ifoda vositalari asarda o'ziga xos shaklda qo'llanishi ijodkorning individual uslubi hisoblanadi. G'oya til shaklida bo'ladi. O'quvchi bu tilni qanday gamrab oladi? Yoki qanday tushunadi? Tushunilishi davomida badiiy asar san'at namunasi sifatida o'quvchida kerakli emosional his-tuyg'u yoki psixofiziologik holat uyg'ota oladimi - yo'qmi? Shu holatni yasash uchun ijodkor qanday mavzu, g'oya, shaklni tanlashi va ularga muvofiq qanday til resurslaridan foydalanishi kerak? Asar arxitektonikasi qanday tuzilganda badiiy g'oyaning izchilligi muvaffaqiyatli bo'ladi? Xuddi shu holatlar so'zsiz badiiy asarning muvaffaqiyati zamirida yotadi.

Badiiy asar-individual ijod mevasi. Binobarin, ijodkor o'z lug'aviy boyligi doirasida asar arxitektonikasi tuzadi, asar tilini bezash, shakllantirish uchun yangi lingvopoetik vositalar yaratish mobaynida original badiiy - tasviriy vositalarga murojaat qiladi, tilning lug'aviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biz ko'pincha badiiy asar shaklini uning badiiy xususiyatlari bilan bog'laymiz. Bu to'g'ri, ammo bu hol masalaning bir tomoni xolos, chunki aynan badiiy asar mavzusini belgilashda undagi lingvistik xususiyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, mavzuga mos sharoit yaratish borasida muallif shu mavzu, holat, sharoitni yaratuvchi so'zlarni qo'llash bilan mavzu maydoni yaratadi. G'oya tili inson ongida mavjudligi bois u aksar hollarda tushuncha holatida namoyon bo'ladi. Shaki tili esa, yuqoridagi ikki turri kerakli til vositalari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Asarda so'zlarning adabiy shaklini istisnoli buzib ko'rsatish ijodkor-ga muallif yoki qahramonning individual qalb manzaralari, psixologik kechimmalari mundarijasini ochib berishga xizmat qiladi. Xususan, Angliya modernizm adabiyoti otasi J. Joysning «Ulyss» romanida qahramonlar monologiy bayon qilinar ekan, so'z, frazalar uzib qo'yiladi, gaplar tuntaroq, yarimta-yurimta shakllarda beriladi, ayrim bandlar faqat nuqtalar bilan berilgan. Bundan maqsad qahramon ongida yuz

berayotgan psixologik jarayonlarning aniq fotokopiyasini ta'minlash-dan iborat edi<sup>1</sup>.

Klassitsizm tragediyasining tili ko'tarinki bo'lsa ham, kitobiy emas; u elektroslarni yorqin, ammo tushunarli qilib tasvir etishga xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Badiiy asar tili shu xususiyatlarni hisobga olib, o'rganilganda bizning nazarinizda mukammal tahlildan o'tkazilgan bo'ladi. Zero, badiiy til nafaqat, badiiy asar, badiiy adabiyot tili, balki u badiiy adabiyotda mujassamlangan ijodiy fantaziyaning nutq libosidagi ifodasi hamdirki, usiz insoniyat ruhiy, intellektual taraqqiyoti haqida gap bo'lishi mumkin emas. Toki go'zallik dunyoni qutqarar ekan, badiiy tafakkur til orqali inson qalbi manzaralarining go'zal tasvirlarini yaratishi zarurligi eng dolzarb muammo. Biz esa, badiiy adabiyotda aks etgan qalb manzaralarining til kalitlarini o'quvchi oldida ochib berishimiz lozim. Badiiy matnii individual o'zlashtirish jarayonida germe-nevtika qalb manzaralarining shaffofligi, inson ruhiy olamning katarsisini ta'minlaydi.

### 3.3. Lirik asarlarda ruhiy - psixologik kechimmalarining germe-nevtik qirralari

Badiiy matnning germe-nevtik va lisoniy imkoniyatlari bir tomondan tabiiy ratsionalizm bilan bog'lansa, boshqa tomondan inson ruhiy-psixologik kechimmalarining samarasi o'laroq yuzga chiqadi. Ruhiy-psixologik kechimmalar shaxs hayoti, uning jamiyatdagi o'rni, men-taliteti kabi yana qator ijtimoiy-siyosiy faktorlar bilan bog'langan. Asar matni germe-nevtik tadqiqi davomida bu faktarlarni inobatga olmaslik uning mukammal tahlilini istisno qiladi. Biz quyida qator umumjahon shahratga ega ijodkorlar hayoti va ijodining o'zaro tutashgan qirralarini matn germe-nevtikasini oydinlashtirishdagi ahamiyati hamda individual va milliy yorqinning shakllanish imkoniyatlarini ko'rib o'tamiz.

Insoniyat yangi davri adabiyoti taraqqiyotida Yevropa romantizmi muhim o'rin tutadi. Angliya XIX asr boshlaridagi romantizm adabiyoti uch yirik yo'nalishda shakllangan. "Ko'1 maktabi oqimi"<sup>3</sup> nomini olgan

<sup>1</sup> Анисин Г.В., Михальская Н.П. История английской литературы. - Москва: 1974, стр. 381-388.

<sup>2</sup> Аудионтер назарияси. 2-жилдик. 2-жилд. -Т.: Фан. 1979. 403-бети.

leykislar va "London romaniklari" bilan bir vaqtda bu davr Angliya adabiyotining eng sara lirik asarlari Jorj Gordon Bayron va Persi Bishi Shelli boshchiligidagi isyonkor romantiklar tomonidan yaratilgan.

Isonkor romantiklar o'z asarlarida, she'rlarida eng avvalo, inson ruhiy dunyosi ozodligini tarannum qildilar. Ularning qator she'rlarida inson tabiat va jamiyatning eng oliy vakili sifatida erkin va ozod yashashga dahldor. Uning ruhiy-ma'naviy erkinligi borliqning yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Bayron ijodi insoniyat badiiy tafakkurining eng sara va noyob namunalardan biri hisoblanib, u yangi davr romantizm adabiyotining mukammal hodisasi sifatida maydonga chiqdi. Uning hayot yo'li qaysidir ma'noda Italiya va Gretsiyadagi mustaqillik va ozodlik kurashlari bilan bog'liq. Bayron shoir va ozodlik kurashchisi sifatida Pushkin ta'biri bilan aytganda «xayollar qiroli» edi. Binobarin uning ijodiy dunyosi hozirga qadar dolzarb va zamonaviyligi bilan ajralib turadi.

O'tgan asrda bayronshunoslik sohasida ma'lum ishlar amalga oshirildi. Dastlab rus shoirlari tarjimalari samarasi o'laroq, keyinchalik, milliy tarjima va adabiyotshunoslik namoyandalari imzosi bilan uning qator asarlari rus adabiyoti orgali o'zbek kitobxonining badiiy estetik dunyosiga shu'la soldi, asarlari turli darajadagi o'quv yurtlari darsliklariga kiritildi.

Bayron lirikasi o'zining insonparvarligi, chuqur badiiy-ijodiy kashfiyotlarga boyligi, inson ruhiy dunyosini go'zal hissiyotlar bilan tabiiyalashga qaratilganligi, qolaversa, qator umuminsoniy gadiyatlarga boyligi bilan bashariyat muhabbatini qozongan hamda kunimizga qadar e'tiborni jalb qiladi.

Ayniqsa, hozirgi kunda qachonki, o'zaro manfaatparastlik, zo'ravonlik urushlari avj olgan pallada Bayron gumanizmini, insonparvarlikni, ruhiy ozodlik g'oyalari tarannum etdi. Insoniyatning go'zal va ozod hayotga bo'lgan intilishi, orzusi amaliyotida uning asarlari ahamiyati alohida hayotiyiligi bilan ajralib turadi.

Bayron lirikasining leytmotiviga bo'lgan quyidagi misralar uning hayoti mazmuniga aylanganligi shubhasiz:

Abadiy kurashga chorlangan ruhim  
Gohida so'z bilan, goho yumushda.  
Ozodlik ruhining yovviga yo'l yo'q  
Zulm sarhadidan yuz o'girgan dil.

Jorj Gordon Bayron 1788 yilning 22 yanvarida tavallud topdi. U ota tomondan ham, onasi Ketrin Gordon tomondan ham Buyuk Britaniyaning keksa aristokratlari sulolasiga aloqador bo'lgan. Biroq shoirning tavalludi arafasida o'la anchayin kambag'allashgan va iqtisodiy inqirozga yuz tutgan edi. Bayronning ota-onasi qisqa turmushdan so'ng ajrashdilar, uning uch yoshligida o'lgan otasi unga yaqin qarindoshlari mas'ulotlari orgaligina ma'lum bo'lgan. Otasining avvalgi turmushidan dunyoga kelgan opasi Avgusta bilan shoirning do'stligi 1804 yildan boshlanadi va shoir umrining so'nggi kuniga qadar bu do'stlik ularni o'zaro insoniy muhabbat bilan bog'lab turgan.

O'n yoshiga qadar bo'lgan davrda Bayron Eberdin shahrida yashadi va grammatika maktabida o'qidi. Uchinchi sinfda ta'lim olayotgan vaqtda uning bobosi lord Uliyam Bayron vafot etadi. Bobosi bo'lajak shoirga lordlik tituli va uning otasiga tegishli hovli, Nyusted abbatligini meros qoldiradi. Bobosining xo'jaligi tashlandiq ahvolda bo'lgan, uni ta'mirlashga esa mablag' yo'q edi. Shuning uchun Bayronning onasi uni haraga beradi. O'zi esa shu yaqin atrofdagi Sautvella degan joyda yashay boshlaydi.

Bayronning hayotidagi bu o'zgarish uning ilk ijodida o'z aksini topdi. Ko'hna tarixga ega bo'lgan Nyusted unda mamakat tarixiga qiziqish uyg'otdi. Ayrim she'rlarida ajdodlarining zafari yurishlari haqidagi misralarda bu hol o'z aksini topdi («Nyusted abbatligidan ketish arafasida» she'rida). Ayni damda yosh Bayronni unvonli kishilar hayoti qiziqitiradi, vaholanki, shoir ularni sharoit qullari deb ataydi. («Erkin bolakay bo'lishni xohlayman» she'ri).

Shoirning bolalik va o'spirinlik yillarida uning baxtiga nafaqat oilaning kambag'alligi, balki uning tug'ma oqsoqligi ham so'ya solgan. Onasi uning aristokratlarga xos ta'lim – tarbiya olishi uchun muttasil hushvish bilan band bo'lgan. Qator muolajalar uning oqsoqligini yo'qota olmagan. To'g'ri, Bayronning o'zi turli mashqlar asnosida – suzish, o'tda o'tloqish, boks, qilichbozlik bilan majruhlikni engishga harakat qildi; u o'z davrining eng mohir sportchilari qatorida bo'lgan, ayniqsa, suzish horosida sezilarli yutuqlarga erishgan. Xusususan, Dardanella bo'g'ozida bir necha kilometrlik masofani birinchilardan bo'lib suzib o'ta olgan. O'sha vaqtda bunday jasoratga kamdan kam odam jur'at qila olgan («Neotos va Abidos orasidagi Dardanellani suzib o'tganimda yozilgan she'ri»).

1801 yilda Bayron tanqidi va boy oilalar bolalari o'qiydigan yopiq tipdagi Xarrou maktabiga o'qishga kiradi. Bu erda bolalar siyosiy va diplomatik vazifalarga tayyorlanar edi. Maktabda diniy mutassiblik va boy-badavlat odamlar oldida tobeklik ruhi hukmron edi. Bu va boshqa holatlar shoirida isyonkorlik ruhini uyg'otgan hamda uning Xorroudan yozgan maktablarida o'zining yorqin ifodasini topgan. U ko'p marta onasidan maktabni tark etish uchun ijozat so'ragan. Xatlarida uni maktabda asossiz kamsitib haqoratlayotganliklari, ayniqsa rektorning qarindoshlaridan bo'lgan maktab o'qituvchilaridan biri unga mutasill kambag'alligini eslatib turganligi haqida kuyunib yozadi: «Men hayotda o'zingga yo'l ocha olaman yoki halok bo'laman. Ko'pchilik o'z hayotini hech narsa yo'q erdan boshlaganlar va oxirida ulug' insonlarga aylanganlar. Nahotki men shuncha imkoniyatlarga ega bo'lib turib hech narsaga erisha olmayman. Yo'q, men o'zim uchun shuhrat cho'qqisiga yo'l ochaman, faqat orsizlik va haqorat bilan emas».

Maktabda Bayron o'ziga do'st-og'aynilar ortira oldi. Ular shoiridagi har qanday adolatsizlikka nisbatan kurashchanlik, jasurlik, gijiz odamlarning himoyasiga har doim tayyorlik ruhidan hayratlanganlar. Aynan shu do'stlik va o'zaro hamfikrlilik shoirning Xorroudagi hayotida qisqa shodlik lahzalarini yaratgan.

Bayron besh yoshidan boshlab kitob mutolasiga qizg'in kirishgan. «Men, -deb yozadi shoir, - ovqat mahali, tunda yotoqda, turli holatda muttasil o'qish bilan band bo'lganman». Mutolaa sababli u maktabda bilimdonligi, mulohazalarining o'kirligi bilan ajralib turgan. Bayron, ayniqsa, tarixiy asarlarni ko'proq o'qigan. 1807 yili u o'zi o'qigan kitoblarning ro'yxatini tuzganda unda tarix bo'yicha o'qigan kitoblar hajm va miqdor jihatidan birinchi o'rinda turgan.

Bayron o'zi o'qigan kitoblarning nafakat mazmunini o'zlashtirgan, balki ularning butun-butun boblarini yoddan aytib bera olgan. Uning xotirasi, shoirning birinchi biografi Tomas Murning guvohlik berishicha, yuqori saviyadagi o'zlashtiruvchanligi bilan ajralib turgan. Shu sababli Bayron o'z asarlarida o'tmish va zamonadosh mualliflarning asarlaridan katta-katta parchalarni yoddan bilgan. Ular shoirga qiyoslash, parodiya, muallif kinoyasi uchun xizmat qilgan. Bayron ruhiy-psixologik dunyoqarashining cheksiz imkoniyatlari uning lirikasini boyitgan, uni o'ziga xos uslubiy bo'yog bilan jonlantirgan.

Maktabda Bayronning aktyorlik qobiliyati ham namoyon bo'lgan:

she'rlarining birida shunday misralar bor:

Zalda xaloyiq hayajonda  
Men Zangi rolida Aloiza uzra  
Qarsak yangramogda ovoz imkonda  
Mason shuhratini men bossam zora.

Quturgan Lir qizlarin garg'ar:

Qichqirdim aqlan ajralib taxtdan.

O'zimcha orzum daryosi oqar

Garik buyukligi men bergan baxtdan.

Maktabda notiqlik san'ati va aktyorlik mahorati unga shuhrat keltirgan, biroq bu hol siyosiy faoliyat uchun mo'ljallangan yigitlarning obro'siga soya solar edi. «Mening Xarrouda yozgan ilk she'rlarim, Esxlining «Prometey» asaridan qilgan tarjimalarim (maktab rektori) tomonidan sovuq qarshi olindi. Hech kim meni she'r yozish mashbuqigacha past ketadi, deb o'ylamagan ekan», deb yozadi shoir.

1803 yil ta'til vaqtida 15 yoshli Bayron Meri Chavorin bilan uchrashda. Unga nisbatan shoirida uyg'ongan kuchli lirik va ruhiy hissiyot uning oxirigacha saqlangan. Ijodiy faoliyatining turli lahzalarida unga o'z she'rlarini bag'ishladi. Keyinroq bu buyuk sevgining yorqin notralari 1816 yilda yozilgan «Uyqu» dostonida o'z aksini topdi.

1805 yilda Bayron maktabni tamonlab Kembrij universitetiga o'qishga kiradi, uning yangi do'stlari paydo bo'ladi, ularning ko'plari uning oxirigacha bu do'stlikka sadogatda qoladi. Bu yillarda Bayron yoshlik gashini suradi, quvnoq va jo'shqin hayot kechiradi. Ko'p o'qiydi, yoshlikda olgan bilimlari, turli sohalarga oid kitoblardan yiqqan mulohazalari shoir shaxsini shakllantirish uchun xizmat qildi.

Xarrou maktabi, Kembrij universiteti saboqlari unda Angliya zodagonlariga xos faoliyatining bir qismiga aylandi. Asr voqealari zodagonlarga o'z bahosini berdi va Bayronda bu holga nisbatan salbiy munosabat shakllandi. U talabalik yillaridayog Angliyaning mustamlaka siyosatiga nisbatan qarshi chiqayotgan jamoat siyosat arboblari bilan hamfikr edi.

Bayron asri buyuk fransuz inqilobi (1789-1793) bayrog'i ostidagi jo'shqin voqealar girdobida boshlandi. Yosh Bayron vazminlik bilan voqealar mohiyatiga singa bordi. Biroq uning dunyoqarashidagi muammasi shu evolyusiyaga, ya'ni asrning dolzarb muammolariga nisbatan

ziyraklik, tarixiy va zamonaviylikni chog'ishira olish mahorati unga o'z zamonasidan turib kelajakning ravon yo'llarini ko'ra olish imkoniyatini yaratdi.

1809 yilda Bayron universitet ta'limini tamomlab, keyinchalik uning ruhiy-psixologik va ijodiy-badiiy shakllanishida muhim rol o'ynagan 2 yillik sayohatga otlandi. U Portugaliya, Ispaniya, Albaniya, Turkiya, Yunoniston kabi mamlakatlarda sayohatda bo'ldi.

Bu mamlakatlar uni tabiat go'zalliklari bilan hayratga soldi hamda o'tmish madaniyat yodgorliklari va shu tuproqda yashovchi xalq tarixiga munosabat uning ijodiy dunyosini kengaytirdi. Odamlar, ularning turmush tarzi, tili, urf-odatlari, kiyimi, qo'yingki, barcha - barcha o'ziga xosliklar shoirda kuchli qiziqish uyg'otgan. Uni bu mamlakatlardagi ijtimoiy muammolar ham hayratlantirgan: bir tomondan kambag'allik, boshqa tomondan aholining ayrim qatlamlari uchun cheklanmagan hokimiyat hamda hukumat va moliya arboblarning o'zboshimchaligi uni g'azabga solgan. Sayohat davomida Bayron o'zining qalb da'vatini anglab etdi, bu hol uni adolat va ozodlikning engilmas kurashchisiga aylantirdi. Binobarin, lirik she'riari qatorida ijodida yangi sahifa adolatsizlikka asoslangan siyosatni, o'zboshimchalik va zulmni fosh qiluvchi asarlari yaratildi.

Ikki yillik sayohati davomida Bayron o'zining keyingi ijodiy faoliyati uchun dasturlanmal bo'lib qolgan asarlarini yaratdi. Bular eng avvalo, «Chayld Garoldning ziyoratlari» dostoni, lirik she'riari bo'lib, ularning timsolida Bayron shoir-romantik sifatida gavdalandi.

Bayron Angliyaga 1811 yil yozining so'ngida qaytadi. Yo'l asnosida onasining qattiq kasalga chaliganini eshitadi, biroq vidolashishga ulgurmaydi. Keyinchalik Nyusted qal'asida tanholikda yashaydi, bu erdan yozgan xatlaridan ma'lumki, u odamlar orasida ko'rinishni xohlamagan. Shoir izirobi yana shu hol bilan chuqurlasha borganiki, onasining o'limidan ko'p o'tmasdan yaqin do'stidan ham ajraladi. Bunday og'ir damlarda unga g'am - qayg'uni unutilshga yordam bergan narsa «Chayld Garold ziyoratlari» dostonining dastlabki boblari ustida olib borgan ishlari bo'ldi.

Sayohatga chiqishdan avval Bayron parlamentda lordlik vazifasini egallagan edi. Biroq u hali o'zining parlamentdagi faoliyatini to'la tasavvur qila olmagan. sayohat taassurotlari va mulohazalari unda mamlakatdagi ijtimoiy muammolarga qiziqish uyg'otdi. Bundan

tasvuri uning Angliyaga qaytishi mamlakatdagi ludditlar qo'zg'oloni vaqtiga to'g'ri keldi. Qo'zg'olon Nottengemda - yirik to'quvchilik markazida boshlangan edi. (Ludditlar - Buyuk Britaniyada sanoat taraqqiyotiga qarshi ko'tarilgan ishchilarning birinchi stixiyali qo'zg'oloni qatnashchilari. Harakat o'z nomini afsonaviy master (usta) Ned Ludd, ya'ni birinchi to'quv stanokini buzgan to'quvchi nomidan olgan).

Yangi to'quv mashinalarining o'rnatilishi ko'plab kishilarning ishsiz qoldirdi, yoki aniqrog'i umuman ish hajmini kamaytirib yubordi. Haq-huquqidan mahrum qilingan, chorasiz qolgan ishchilar stanoklarni huza boshladilar. Hukumat stanok buzganlarni o'limga mahrum qilish to'g'risida qonun (Bill) ishlab chiqdi. Bayron o'zining birinchi nutqi uchun aynan Bill mavzusini tanladi. O'z chiqishidan avval u ahvol bilan to'la tanishib chiqish maqsadida o'sha joyga safar qildi. Nottengemning bosh hakami, lordlar palatasining a'zosi Xolland Bayron nutqining mazmunini belgilab berdi. Biroq o'z chiqishidan avval Bayron Xollandga xat yozadi va o'z nutqida to'quvchilar huquqini himoya qilishga abd qilganini bildiradi.

«Miford, deb yozadi, Bayron, - mening bilishimcha, insonga farovonlik keltiradigan sanoat taraqqiyotini qo'llab - quvvatlash mumkin. Biroq bunday taraqqiyot insonning o'zini qurbonlikka keltiradigan yo'l bilan amalga oshirilmaligi kerak. Kambag'allarning hayot tarzini ta'minlash - jamiyatning eng muhim vazifasidirki, bu hol bir qancha monopollistlarning texnika taraqqiyoti ortidan boyishidan ko'ra muhimroq. Ular ishchilarning mehnatini yo'qqa chiqarish evaziga texnika taraqqiyotiga erishmoqdalar. Men Billga qarshiman, chunki u ochiqdan ochiq adolatsizlik va bema'nilik asosiga qurilgan. Men bu baxtsiz odamlarning hayot tarzini o'z ko'zim bilan ko'rdim va buni a'vvalizatsiyaga erishgan mamlakat uchun sharmandalik deb hisoblayman. Men o'z zimning nutqimda aynan shular haqida gapiraman. Binobarin, bu fikr mening shaxsiy kuzatishlarim va qalb amrim mansulidir».

Bayronning parlament 1812 yil fevral oyida yig'ilishdagi nutqi va qator mulohazalardagi urinishlariga qaramay o'lim jazosi haqidagi Bill qonun kuchiga kiradi. Biroq Bayron chekinmadi shu yilning 2 martida o'z nutqini «Stanok buzuvcilariga qarshi qo'llangan Bill avvorlariga olib»ini chop ettirish bilan davom ettirdi.

«Chayld Garold»ning dastlabki qo'shiqlari 1812 yil 10 martda

dunyo yuzini ko'rdi va tez orada shoirga shuhrat keltirdi. Asar qayta-qayta nashr qilina boshlandi, shu asnoda uning muallifi el ko'ziga tashlandi. Bayron tez-tez yuqori tabaqa vakillari orasida, adabiy doiralarda gatanasha boshladi. Yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar, amaldor va siyosatchilar bilan bo'lgan tanishuvlar, ayollar orasidagi obro'si uning boshini aylantirib qo'ydi, biroq u har qanday holatda ham Buyuk Britaniya oddiy xalqining og'ir hayot sharoitlari, qiyin turmushi haqidagi qayg'u-urushlarini yoddan chiqarmadi.

1812 yil 21 aprelda Bayron Irlandiyadagi xalq ahvoli haqida parlamentda nutq so'zlaydi. Irlandiya tarixi va hozirgi xalq ahvolini yaxshi o'rganagan Bayron o'z nutqida Irlandiyada katolik va protestantlarning o'zaro dushmanligi tufayli yuzaga kelgan keskin ahvol Angliya hukumati tomonidan o'z manfaatlari yo'lida qo'llab-quvvatlanayotganligini tanqid qilib chiqdi. 1798 yilda Irlandiya xalqining ozodlik uchun kurashi bostirilganidan so'ng Angliya tomonidan ishlab chiqilgan Uniyaga muvofiq Irland parlamentini tarqatib yuborilgan bo'lib, buning evaziga uning ayrim deputatlari Angliya parlamentiga vakil sifatida kiritilgan edi. Shunday qilib «Buyuk Britaniya Irlandiya parlamenti, Konstitutsiyasi va ozodligini yutib yubordi», - deb yozadi Bayron.

Bayronning parlamentdagi faoliyati nihoyatda qisqa bo'ldi: 1813 yilda uning so'nggi uchinchi nutqi tinglangan bo'lib, u ham demokratik harakatlar veteranlarining petitsiyasi himoyasiga bag'ishlangan edi. Bayronning o'zi yozganidek, bu nutq uchun u qattiq haqoratlar eshiddi. Tez orada Bayron tushunib etdiki, u parlamentda yolg'iz va hukumat siyosatini fosh qiluvchi nutqlari hech qanday natija bermayvapti. Parlamentdagi debatlarni u «parlament komediyalari» deb atadi. Angliya hukumati siyosatini u bir tomondan oddiy mamlakat fuqarosi, o'zga tomondan yuqori ma'lumotli intelligent, o'zining xalqaro sayohatlaridan olgan taassurotlari orqali ma'lum dunyoqarashga ega bo'lgan tajribali inson sifatida sintez qilib chiqdi. Bu mulohazalar uning she'rlarida talanti, mentaliteti va u mansub bo'lgan xalq ruhi bilan mujassamlashgan holda badiiy tafakkurning yorqin sahifalarini yaratdi.

Shoirning parlamentdagi nutqlari omma e'tiborini qo'zg'atdi, satirik she'rlari ulkan auditoriya yig'ildi. Uning satirik she'rlari ulkan muxlislar auditoriyasiga ega ediki, ularning katta qismi shoirning jasoratiga hayrat bilan berganlar. Aynan shu she'rlar hukumatni

harosinmaga solib qo'ydi va qirolik oilasining g'azabini qo'zg'atdi. 1813 yilda e'ton qilingan «Vals» dostonida shoir yuqori tabaqa vakillarining munofiqlikka asoslangan hayotini masxara qildi, xalqqa qarshi qaratilgan hukumat siyosatini qoraladi. Qachonki, korchalonlar, qirolik oilasi zamonaviy valsa aylanib o'ynash bilan band bo'lganida oddiy xalq ochlikdan o'lmoqda, xalqqa qarshi shafqatsiz qonunlar ehtiqlanmoqda, asossiz urushlar o'yab topilmoqda. Bu borada uning «Mnev'r la'nalari» satirasi mashhur edi. Unda Bayron Angliya va Yunoniston hukumati vakillarini Yunonistonning tarixiy yodgorliklarini talon-taraj qilganliklari uchun qoraladi.

Bu davrda yaratilgan siyosiy she'rlar orasida Napoleonga bag'ishlangan qismi alohida o'rin tutadi. Ularda Bayronning Napoleonga munosabati ziddiyatli edi, biroq u bir fikrni qattiq himoya qildiki, Fransiyaga qarshi urush davomida Angliya o'z xalqiga katta zarar etkazdi.

O'zining siyosiy va satirik she'rlarida shoir o'z vatandoshlari nomidan fikr bildirtdiki, aynan ular vatan, xalq manfaati uchun qayg'urar edilar. Uning nomiga bildirilgan ayblovlar, go'yoki u vatan xoini sifatidagi ayblovlar Bayronning siyosiy dushmanlari hiyla-nayranglaridan boshqa narsa emas edi.

1815 yilning yanvarida Bayron boy aristokratlar oilasidan bo'lgan Annabella Milbenk ismli ayolga uylanadi. Bu muvaqqat nikoh Bayronga juda ko'p tashvishlar keltirdi. Oradan bir yil o'tgach, Adi ismli qizi tug'ilishi bilan xotini Bayrondan ajrashadi. Annabell Milbenkning oilasi Bayronning siyosiy erkinligini, uning chiqishlarini yoqtirmas edi, shu sababli ajralish bo'yicha hujjatlar nihoyatda tezlik bilan tayyorlanadi. Aynan shu hol jamiyatta kuchli mish-mishlarga sabab bo'ladi. Bundan foydalangan hokimiyat vakillari turli gazetalarda Bayronning xulqiga oid g'iybarlarni nashr qila boshlaydilar.

«Champion» gazetasida Bayronning roziligisiz uning «Alvido» nomli she'ri e'ton qilinadi. Unda shoir o'z xotiniga murojaat qilib ajralish sabablarini bilmogchi bo'ladi. Noshirlar she'rga izoh berish jarayonida uning siyosiy faoliyatini baholashda «shaxsiy axloqi va oilaviy burchiga sadogat» masalalariga munosabatini ham inobatga olinishi zarurligiga ishora qiladilar. Shu maqola orqali gazeta shoirning ijodiy va ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan siyosiy karakterdagi munozaralarga yo'l ochib berdi. Bu jarayon borgan sari



kuchayib bordi va nihoyat 1816 yilning 25 aprelda shoir Angliyadan bosh olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. Keyingi taqdiri bu ketish vatanni bir umrga tark etish ekanligini ko'rsatdi.

Bayron Shveysariyadan qo'nim topdi, bu erda unga Jeneva ko'li yonidagi Diodati villasi vatan vazifasini o'tadi. Albatta, shoir o'z vatani va oilasi bilan bo'lgan ayrtildan qat'iy qayg'u urdi. Yaqinlariga yozgan xatlarida achinarli ahvoliini bayon qildi. Taqdirning ayanchli sahiralari varaqlanayotganiga qararnasdan Bayronda bu mamlakatga nisbatan kuchli qiziqish uyg'onadi. Aynan Shveysariyada u barcha ko'rganlarini singlisi uchun maxsus tutilgan kundalik dafarida, yozgan xatlarida taassurotlariga singdirishga harakat qiladi. Barcha ko'rganlarini odamlar, ularning turmushlari, tabiat hodisalari, tarixiy joylar, hodisalar bu xatlarda tasvirlashga intildi. Keyinchalik bu bitiklar uning «Shilton asiri», «Chayld Garoldning uchinchi qo'shiqlarida va «Manfred» asarlarida o'z aksini topdi.

Bayronning Shveysariyadagi hayotida muhim voqealardan biri uning vatandoshi Persi Bishi Shelli (1792-1822) bilan uchrashuvi bo'ldi. Bu ikki Angliya buyuk shoirlari—Bayron va Shellining nomi jahon adabiyotida doimo yonma yon tilga olinadi. Ularning har ikkisi reaksiyaga qarshi ayovsiz kurash olib borgan, korruptsiya va hokimiyat organlaridagi munofiklikka nisbatan kurash yo'lidan borganlar, har ikkisi ham ozodlik va adolat g'oyalarihimoya qilganlar. Shu erda har ikki shoirning do'stligiga asos qo'yildi, keyinchalik bu do'stlik Italiyada yanada mustahkamlandi. Bu erga Shelli o'z vatanida Bayron kabi sig'may qolganda g'am-alamlardan butunlay qutilishga kelgan edi. Bayron Shveysariyada qisqa vaqt—1816 yilning oktyabriga qadar bo'lib, keyin Italiyaga chiqib ketdi. Aynan Shveysariyada yashagan davrida u qator muhim asarlarini yaratadi.

Bayron tarjimai holini kuzatish uning badiiy—estetik dunyosining, binobarin, she'rlari orqali ifodalamoqchi bo'lgan qalb manzaralarining ayrim shtrixlarini topishga imkon beradi. Shoir murakkab bir zamonda hayot kechirdi. Biroq ruhiy-ma'naviy quvvatining yuksakligi, engilmas jasorati uni barcha holatlarda insoniylikni chuqur sevgan qalb haroratlariini saqlab qolishiga yordam berdi. Lirik asarlarining mavzu, mazmun hamda germeneytik qirralari tahlili shuni ko'rsatadiki, Bayron shoir va ozodlik kurashchisi sifatida davr ruhidan ilhom olgan, davr bilan hamnafas bo'lgan, vaholanki, zamoning qiynoqlari, zamoning

nomuvofiqi orqali paydo bo'lgan ruhiy-ma'naviy azoblar uni toblagan, qalbini g'oyaviy dunyosini boyitgan.

XIX asr o'talarida Angliya adabiyotida qator ayol ijodkorlar avlodi oshib chiqdi. Opa-singil Brontelar, Jorj Eliot, Elizabet Gaskell shular jumladan. Ularning ichida Charlotta Bronte hayoti va ijodi jahon adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning «O'quvchi», «Jen Eyr» kabi romanlari jahonning qator tillariga tarjima qilingan.

Sharlotta Brontening «Jen Eyr» asari Angliya XIX asr o'talaridagi hayotiy hayotning real manzaralarini yaratgan bo'lsa-da asar realistik germeneytik sharoitning ikkinchi bir qirasi XVIII asr Angliya ma'rifatchilik adabiyotiga uyg'unlashib ketadi. Zotan, adiba o'z romanida nafaqat inson fojiali taqdirining baxtga aylanishidagi real qitmoiy ruhni, balki bunday baxtga erishish jarayonida insonning o'zidan talab qilinadigan individual sifatarni ham ko'rsatib bera olgan. Jen Eyr talantli, san'at va adabiyotni tez va mukammal his qiladigan talantli sohibasigina emas, balki tirishqoq, mehnatkash, sabr-barobarli, eng muhimi atrofdagilarni to'g'ri tushunadigan, mehribon, g'amxo'r inson ham edi. Shu bois unga qancha zulm o'tkazganliklariga qararnasdan momosining farzandlarini og'ir kunlarda tashlab qo'yimadi, ularni yordam qo'lini cho'zdi. Ayniqsa, o'zining orzusiga erishib o'gay opa-singillarini topganida ular bilan o'z baxtini bo'lishishga shoshildi.

Sevgan kishisi mister Rochester nogiron bo'lib, kimsasiz og'ir ahvolda qolganida ham uni tashlab ketmadi, muhabbatiga sodiq qoldi. Unga farzandlar tug'ib berdi, uni baxtli insonga aylantirdi, jamiyatga qaytardi. Aynan mana shu fazilatlar uni yuqori tabaga vakillari orasiga kirishi uchun pillapoya vazifasini o'tadi.

Har bir inson, o'quvchi Jen Eyr qissasi bilan oshno bo'lar ekan, unda baxt kaliti topish usullaridan birini o'rgangandek his qiladi o'zini. Chunki bu kitob ayol baxti kaliti sabr-toqat va baxtli hayot uchun kurashda, undan-da muhimrog'i esa, pokkiza insoniy tuyg'ular, o'zaro muhabbat va samimiy munosabatlarda ekanligini jonli misolda ko'rsatib bera olgan.

Angliya adabiyotidan olingan ijodkor va asar germeneytik sharoitni o'rganilishi uchun olingan misollar ijtimoiy ruhiy-psixologik kehinmalarining badiiy tafakkurning samarati taqdimida o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligini ko'rsatadi. Bayron asarlarida engilmas ruh, ruhiy munofiklik bo'lgan muttasil intilish uning lirikasida leytmotiv bo'lgan

hamda o'quvchi badiiy-estetik dunyosining kataris orqali tovlanishiga imkon yaratgan.

Agar Bayron biografiyasi va asarlarining komparativ tadqiqi lirikasi germenevtikasining shakllantirishdagi ruhiy-psixologik kechimalarning kurashchanlik qirralarini ochib bergan bo'lsa, Sharlotta Brontening "Jen Eyrt" romanida esa, aksincha, inson individual fazilatlarining real muhitdagi baxti kaliti individualizm bilan birlashganligini tasvirlangan.

Badiiy matn germenevtik tadqiqi real ijtimoiy muhit va individual shaxsning ruhiy-psixologik kechimalari bilan chambarchas bog'liq.

### 3.4.. Jahon adabiyotida ma'rifatparvarlik asarlari g'oyasining germenevtik tahlili

Biz yuqorida germenevtikaning badiiy til bilan bog'liq qirralari tadqiqi doirasida uning badiiy tafakkur shakllanishidagi imkoniyatlarini tahlil qildik. Germenevtik sharoitda asar matni arxitektonikasining sintezi orqali ijodkor etkazmoqchi bo'lgan g'oya turli poetik usullarda shakllanadi. Quyida biz aniq bir mavzuda yaratilgan asarlar misolida aynan shu germenevtik sharoitni tahlildan o'tkazamiz.

Jahon adabiyotining o'ziga xos qirralarini qamrab olgan ma'rifatchilik adabiyoti asos-e'tibori bilan yangi-kapitalistik davr shaxsining individual psixologik obrazini yaratishga qaratilgan edi. XVII asr oxirlarida aristokrat feodallar avvalda avlodlar osha hukm surib kelayotgan an'analarni buza boshladilar. Avvallari har bir mustaqil aristokrat o'z mulkini kichik bir davlat sifatida tasavvur qilgan. Unda yashovchi har bir kishining ijtimoiy-moddiy ahvolidan qat'iy nazar uning moddiy ta'minoti, xavfsizligi, ijtimoiy ehtiyojini ta'minlashni o'z majburiyati deb bilgan. U egallab turgan hududdagi dehqon, hunarmand, qarol uning shaxsiy mulki, binobarin, fuqarosi, uning ta'minotiga muhtoj shaxs hisoblangan. Feodal ularning xavfsizligi, moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan bo'lsa, uning qaramog'idagi qarol, dehqon, hunarmand, chorakor va boshqa shaxslar uning uchun mehnat qilish, moddiy va ishlab chiqarish boyliklarini yaratishi lozim edi.

Bunday sharoitda feodal va uning fuqarolari o'rtasida ishlab chiqarish munosabatlari, mahsulotlari, uy-joy, mol-mulk, mehnatga haq

to'lash kabi o'zaro munosabattar yo'lga qo'yilmagan edi. Feodal shaxs o'zi xizmatidagi insonlarning hammasiga shaxsiy mulk sifatida qarol edi. Uning mulkidagi xizmatchi qarollar unga ham farzand, ham shaxsiy mulk sifatida baholangan.

XVII-XVIII asrlarda yuz yillardan beri hukm surib kelayotgan bunday munosabattar barham topa boshladi. Buning sabablari eng avvalo, feodal-aristokratlar orasidagi buzilish, eski an'analardan voz kechish, ular orasida o'z mol-mulkini ortiqcha sarflash, ichki va tashqi nizolar natijasida kambag'allashuv, binobarin, ular hukmronlik qilayotgan hududda tirikchilik bilan mashg'ul odamlarning moddiy ahvoli og'irlashgani bilan ham bog'liq.

Mamlakatda aholining zichlashuvi natijasida feodal-zodagonlar hududlari chegaradosh bo'lib qoldi. Har ikki hududdagi odamlar o'zaro mulqot tufayli joylardagi sharoitlardan xabardor bo'lishlari imkoniyati tug'ildi. Xizmatchi qarollar o'rtasidagi kommunikatsiya ularning bir hududdan ikkinchisiga yoki norozilik kuchaygan hollarda shaharga ko'chib ketishi uchun yo'l ochdi. Mamlakatdagi dehqonlar qo'zg'olonlari mana shunday tub siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Eng muhimi, shaharga kelgan xizmatchi-qarol, dehqon ish izlab hunarmand-ishbiarmon, hozirgi til bilan aytganda biznesmenlarning zavod-fabrikalariga erkin ishchi bo'lib yollanganlar. Yoki o'zlari ham turli ishlab chiqarish usullari: kosiblik, to'quvchilik, puzandalik va hokazo korxonalarini tashkilotlashishga uringanlar. Shu asosda feodalizm munosabattarining emirilishi kapitalistik ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratdi, yoki aksincha. Har ikki holatda ham jamiyatda yangi—kapitalistik munosabattarining shakllanishini aks ettira oladigan yangi zamon kishisi shakllana boshladi.

XVIII asr Angliyada bu jarayon boshqa Yevropa mamlakatlaridagi holatga nisbatan zamon va ruhiy-psixologik, siyosiy-ijtimoiy paradigmalari bilan farqlanadi.

Binobarin, inson ruhiy-psixologik, ijtimoiy-estetik qarashlarini yanaham qaratilgan dastlabki asarlardan biri bo'lmish Daniel Defoning "Robinson Kruzoning sarguzashtlari" asarida yangi davr kishisining ichki va tashqi dunyosi yangi-kapitalizm davri kishisi obrazi orqali ochib berildi. Robinsonning kimsasiz oroldagi hayoti, u olib borgan ishlar, uning ruhiy dunyosi psixologik manzaralari yangi davr kishisini yaratgan jamiyat a'zolari uchun panorama edi. Ular bu o'rinda yangi

davr kishisi ganday yashashi kerak, degan savolga xuddi Robinzon Kruzodek mehnatsevar, ishchan, halol, to'g'riso'z, pok niyatli, sof qalbli, vijdoni, xudojo'y, o'rmi kelsa o'z manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan yaratuvchan, izlanuvchan, irodali, tirishqoq, umuman olganda, jamiki insoniy fazilatlarini o'zida mujassam qilgan odam bo'lishi kerak, deb javob berganlar.

Defoning bu asari nazariyotchi olimlarning ilmiy musohabatlari, mavhum g'oyalari, xayoliy iboralardan farqli o'laroq yangi davr kishisining o'zini bor bo'yi-bastii, ichki va tashqi dunyosi bilan ko'rsatib berdi.

Ma'rifatchilikning asosida yotgan ratsionalizm har bir masalaga faqat va faqat aql, ong nuqtai nazaridan yondashuvni talab qiladi. Ongli yondashuv manfaati yondashuvning o'zi demakdir. Inson ong orqali o'z manfaatini himoya qiladi. Biroq shaxsiy manfaat ijtimoiy manfaat bilan, tabiiyki, global manfaat bilan har doim ham mos kelavermaydi. Global manfaat, ijtimoiy manfaat insondan qurbonlik talab qiladi. O'z manfaatini qurbon qilib, jamiyat manfaati bilan yashash har qanday odamning ham imkoniyati darajasida emas. O'z manfaatini qurbon qilish aqli odamning ishi emas. Ammo aqli odam o'z manfaati uchun ijtimoiy faoliyat olib borar va moddiy boyliklar yaratar ekan o'zi sezmagana holda jamiyat va umuman insoniyat manfaati uchun ham xizmat qiladi. Uning ichki va tashqi dunyosi mana shu manfaat yo'lidagi xizmatni qanday ado etishi bilan baholanadi. Shu vaqfga qadar yaratilgan didaktik asarlar ma'rifatparvar odamlarning mana shu ichki va tashqi dunyosining cheksiz qirralarini yoritishga, ularni omma e'tiboriga havola qilishga qaratilgan edi. Bunday ishlar eng avvalo ma'rifatparvarlik, ya'ni aholini o'qimishli qilish binobarida amalga oshirilishga mo'ljallangan edi. Shu bois ma'rifatparvarlikning ikkinchi muhim qirradi savodxonlik masalasi bo'lgan. O'qimishli inson jamiyat hodisalariga ongli yondoshadi. Tarixiy, milliy-etnik, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkur asosida tabiat va jamiyat hodisalarini ongli baholaydi, deb hisoblangan. Ilm-fan taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotining eng muhim bo'g'ini sifatida tan olingan. Kishi o'qish-o'rganish orqaligina jamiyatning etuk a'zosi-ga aylanishi bashorat qilingan.

Badiiy adabiyotning, ijtimoiy-siyosiy, didaktik, estetik, ma'naviyat va boshqa sohalaridagi barcha adabiyotlarning asosida aynan mana shu yangi davr kishisini ichki va tashqi dunyosini ochib berish, uning

faoliyatiga doir cheksiz belgi va g'oyalarni kelajak avlodga kitob orqali taqdim qilib berishga qaratilgan.

Fan olish lozimki, inson nafaqat ongli shaxs, balki u tabiiy mavjudot hamdir: ya'ni u bir tomondan ong, aql sohbi sifatida farishtalarga, nur olamiga yaqin tursa, jussasi, jismoniy ehtiyojari bilan hayvonot olamiga yaqin turadi. Xuddi hayvonlardek sevinadi, sevadi, xafa bo'ladi, achinadi, g'am-g'ussa yoki shodlikka to'ladi, umuman, qator psixofiziologik jarayonlarni boshidan kechiradi.

Psixofiziologik jarayonlar inson hayotining asosiy mazmuniga aylangan hollarda inson romantik, sentimentalist bo'lib qoladi. Romantikasiz inson hayoti quruq, rangsiz, jozibasiz, turli ruhiy imkoniyatlardan mahrum bir tadrjiiy mavjudlikka aylanadi. Inson xuddi hayvondek faqat o'z shaxs, nafsini qondirish uchungina dunyoga kelgandek tutadi o'zini. Ratsionalizmga asoslangan ma'rifatparvarlik realizmining ikkinchi qirradi mana shunday mazmunsiz hayotga mahkum insonlar obrazini yaratishga qaratilgan edi. Shu bois bu tipdagi adabiyot uzoq yashamadi. Iyaz orada odamlar o'z baxti faqatgina boylik, manfaatdorlik, xashamat va farovonlik bilangina chegaralangan emastligini tushunib eiddilar.

XVIII asr oxiridayoq inson ruhiy dunyosining yangi qirralarini izlashga qaratilgan sentimentalizm adabiyoti yuzaga keldi. Aqli odamlar jamiyati boy va to'kin bo'lishi mumkin, biroq baxtli bo'la olmaydi. Odamning baxtli bo'lishi uchun uni hissiyot dunyosiga olib kirish kerak bo'lib qoldi: toki odamlar baxt nima ekanligini his qilishlar. Azob, mashhaqqat, kulfat, jabr-zulm, nochorlik, etishmovchilik insonni ruhan toblaydi. Inson ruhan etuk bo'lishi uchun, go'zallik va farovonlikning qadriga etishi uchun aynan yuqoridagi ijtimoiy-ruhiy kategoriyalarni boshdan kechirishi kerak edi. Romantik va sentimental asarlarining g'oyaviy xususiyatlari insonga orzudagi baxtni va'da qilgan ekan, bu holatni aslo yoddan chiqarmaydi.

Ma'rifatparvarlik asarlarining shakl, mazmun va g'oyaviy xususiyatlari tahtli shuni ko'rsatadiki, hayot qahramoni bunday asarlarda koinatlik hayot domiga cho'mngan inson sifatida shu moment, shu davr taahvishi bilan yashaydi. Romantik insonni esa, kelajak baxti - hatto orzudagi baxt, ushalmas orzu bo'lsa ham hayotining mazmuniga aylanadi hamdv u ushalmas orzularni da'vati bilan sayohatga oltanadi.

Jahon adabiyotshunosligi taraqqiyotida sayohatnoma va sarгуzasht-noma janrida yaratilgan asarlar muhim o'rin tutadi. Gomer doston-

laridagi qahramonlar sayohatlari, sarguzashtlari hamda Sharq xalqlari dostonlari, mifologik asarlari tarkibida ham bu janr elementlari hal qiliuvchi ahamiyatga ega.

O'zbek mumtoz adabiyotining shoh asari hisoblanmish «Xamsa», xususidan, «Sab' ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» dostonlarida bir tomondan qahramonlik elementlari ustunlik qilsa, ikkinchi tomondan ularning syujet chizig'ida sayohat va sarguzasht janridagi qissa va hikoyatlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Keyingi vaqtlarda qator tadqiqotlarda G'arbiy Yevropa, xususan, Angliya adabiyotidagi bu janrdan yaratilgan asarlarni o'zbek adabiyotidagi turdosh asarlarga qiyoslab o'rganishga e'tibor qaratilmog'da. Jahonshumul shuhratga ega bo'lgan Daniel Defoning «Robinzon Kruzoy» va Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» asarlari tahlili asnosida XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining ma'lum qirralarini aniqlash mumkin.

Ma'rifatparvarlik adabiyotining asosiy g'oyasi insoniylik jamiyatini ta'lim – tarbiya, insonning individual xususiyatlarini ommaga singdirish orqali jamiyatni mukammal qilishni targ'ib qilgan. Ma'rifatparvarlar, asosan, qomusiy bilim egalari bo'lib, insonning ma'naviy tarbiyasini jamiyatning eng muhim vazifasi hisoblaganlar. Ma'naviy tarbiya zami-rida nafqat insonni o'qimishli, ziyoli qilish, balki sabr – toqat, chidam, saxsiylik, vafodorlik, mehribonlik, oqibat, oqko'ngillilik va umuman barcha insoniy fazilatlarini inson tabiatiga joylash va shu taxtilda jamiyat to'kinligini ta'minlash eng muhim vazifa hisoblangan. Ularning dunyoqarashiga muvofiq ozodlik, tenglik, birodarlik yuqoridagi fazilatlar natijasi o'laroq yuzaga keladi.

Yevropa ma'rifatparvarlari olim, faylasuf, yozuvchi va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritganlar. Ularning ichida Fransiyada Monteske, Didro, Volter, Russo, Germaniyada Shiller va Gyote, Angliyada Defo, Svift, Filding, Lokk kabilarning nomini tilga olish mumkin.

Angliya ma'rifatparvarlik adabiyoti buyuk yozuvchilar avlodini etishtirib chiqardi. Ularning ijodiy faoliyati uch davrga bo'lib o'rganiladi: ilk, etuk va so'nggi ma'rifatlik davriga.

Ilk ma'rifatparvarlik adabiyoti XVIII asrning 40-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng tanikli namoyandalari Defo va Svift hisoblanadi.

Yetuk ma'rifatparvarlik esa, shu asrning 40-50- yillaridagi adabiyot

bilan belgilanadi. Uning eng yirik namoyandalari Richardson, Filding, Smollett.

So'nggi ma'rifatparvarlik adabiyoti g'oyalari (XVIII asrning 60-90-yillari) Siern va Goldsmit asarlarida o'z ifodasini topgan.

Yevropa adabiyotidagi ma'rifatparvarlik asarlari aksar hollarda sayohatnoma va sarguzashtnoma janrida namoyon bo'lgan. Binobarin, ayman sayohatnoma uzog va noma'lum o'lkalarga Yevropa ma'rifati va madaniyati g'oyalarni etkazishning eng samarali vositasi hisoblangan. Jahon adabiyotida sayohatnoma janrining yirik rus adabiyotshunoslari tomondan aniqlangan atributlari mavjud. Ularning ichida sayohatnoma asarlarining quyidagi turlari kuzatiladi:

- 1) tarixiy, real sayohatlar asosida yaratilgan sayohatnoma asarlar;
- 2) badiiy to'qima asosida yaratilgan sayohatnomalar

Sayohatnoma asarlar real adabiy muhitda: 1) yo'l kundaligi (ayman sayohat kuzatuv xulosalari sifatida); 2) dostonning tarkibiga kiritilgan qo'shimcha syujet; 4) ocherk; 5) erkin hikoya janrlarida shakllanishi mumkin.

XVIII asr Yevropa adabiyotida yaratilgan sayohatnomalar o'zlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarni mujassam qilganliklari bilan ajralib turadilar. Xususan, Daniel Defoning 1719-21 yillarda nashr qilingan «Robinzon Kruzoy sayohatlari» asari yangi jamiyat kishisini tarbiyalashning ko'rgazmali panoramasidan iborat bo'lgan. Yozuvchi asarda o'z qahramonini jamiyattan tamomila ajratgan holda alohida ovozidagi yaratuvchilik faoliyatini ko'rsatib beradi. Bu o'rinda u yangi muhitda inson o'z ongi, aqli farosati, sabr – matonati, e'tiqodi, irodasi va yana qator insoniy fazilatlariga tayangan holda baxti jamiyat yaratishi mumkin, deb hisoblaydi. Ma'rifatchilar inson kamolotida tarbiya rolini beqiyos oshirib ko'rsatish binobarida uning shaxsiy fazilatlarini unutmaydilar. Aqlli inson odamiylik, ezigulik, insonparvarlik, g'amxo'rlik, oliyomallik, kamtarlik, mehnatsevarlik, poklik, halollik va chuqur diniy e'tiqod bilan yashaydi. Bunday fazilatlar inson xarakteriga ta'lim va tarbiya vositasida jo'qilinadi. Dabdabali hayot, shuhrat, yuzaki ohir, razlilik va qimirlilik, hasad kabi illatlar ilmu urfondan bexabar odamlarning ishi. Bunday odamlar tirikligida ochlik, muhtojlik, beohirlikka g'irfor bo'lsalar, narigi dunyoda jahannam azobiga duchor bo'ladilar.

Ma'rifatparvarlik adabiyotining g'oyasi inson tarbiyasi vositasida

barkamol jamiyatni yaratish uchun aynan mana shu tamoyilga amal qilishdan iborat bo'lgan. Biroq ma'rifatchilar inson xarakteridagi muttasil o'zgarishlarni, tarbiyaning har doim ham insonga samarali ta'sir qila olmasligini, insonlarda tug'ma taqdir tamoyili ham borligini, eng muhimi, hissiyot-qalb harakatini hisobga olmaganlar. Real sharoit taqozosi bilan yuzaga keladigan inson psixofiziologik holati ularning kuzatuv doirasidan chetda qolgan. Shu bois gator ma'rifatparvarlik asarlari ko'p hollarda insoniyat jamiyatining boshlang'ich fazasida turgan odamlar, toki ularning ongi va xarakteri hali jamiyatning ilatlari bilan old tushuncha (pretrassuska) vositasida bulg'annamagan joylarda qalamga olinadi. Aynan shu o'rinda Uilyam Bleykning «Bokiratik qo'shiqlari» va «Tajriba qo'shiqlari» to'plamlarini yodga olish muhim.

XVIII asr G'arbiy Yevropa adabiyotida yaratilgan sayohatnomalar asosan: a) sarguzasht – fantastika asosiga qurilgan badiiy sayohatnomalar; b) epistoloyar roman – sayohatnomalar janrida yaratildi. Bunday asarlarda asosiy urg'u evropalik sayyohlarning uzoq, chekka va qolq o'lkalardagi xalqqa ilmu ma'rifat etkazishi, ularning zulmatga to'la hayotiga zarracha bo'lsa - da nur olib kirishini tasvirlaydilar. Asar qahramonlari deyarli hamma o'rinda ijobiy fazilatlar sohibi sifatida gavdalangani. Ularning qolq o'lkalarda insonlar ongining taraqqiy topishi yo'lida ko'rsatgan xizmatlari hamda bu jarayonda yuz bergan sarguzashtlari bayon qilinadi.

O'zbek adabiyotida sayohatnoma va sarguzashtnoma janrida alohida asarlar XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yaratila boshlandi. Unga qadar bunday janr elementlari mumtoz adabiyot namunalari yordamchi syujet sifatida namoyon bo'lgan. Navoiy «Xamsa» asari tarkibidagi «Farhod va Shirin», «Sab'ai sayyor» dostonlarida sayohat va sarguzashtlar katta o'rin tutadi. Biroq bu mavzularga bag'ishlangan alohida asarning dastlabki ijodkori Muqimiy bo'lib, u o'z «Sayohatnoma»lari bilan o'zbek adabiyotida yangi janrga asos soldi. Uning izdoshlari Furgat, Zavqiy va Ibrat kabilar sayohatnoma an'analari davom ettirgan holda she'riy ocherk janrining taraqqiy topishiga xizmat qildilar. Bu asarlar she'riy usulda, barmoq vaznida yaratilib, muallif safar taassurotlarining qiziqarli bayonidan iborat bo'lgan. Ularda muallif asosan joylardagi odamlar hayoti, turmushi, ularning urf-odatlari, o'zaro munosabatlari va psixologiyasini chetdan turib kuzatayotgan sayyoh sifatida gavdalangani. Asarning o'qimishli bo'lishi,

ilmini jozibali qilish maqsadida mualliflar satirik hajviyot usulidan ham keng foydalanganlar.

Safar ocherki tipidagi sayohatnomalar XIX asrning oxirida «Turkiston viloyati gazetisi»da ko'plab uchraydi. Ularda Mirzo Buxoriyning Peterburg, Toshmuhammad Isamuhamedovning Parijga qilgan sayohat taassurotlari, shuningdek, Sattorxon Abdug'afforovning «Sayohatnoma»si, Furgat «Ahvolot»i, toshkentlik Orifko janning «Sayohatnoma»lari chop etilgan bo'lib, ular asosan sayohatchi tomondan dunyoning yirik madaniy markazlarida olgan taassurotlari hamda ularning Turkiston o'lkasidagi hayotga qiyosiga bag'ishlangan. Bu kabi ocherklar real marshrutlar bo'yicha olib borilgan kuzatish esdaliklari hisoblanadi. Ularning jumlasiga 1910 yilda e'lon qilingan S.Aziziyning «Moskva va Peterburg sayohati xotiralari», M.Behbudiyning «Sayohat kotiralari», Avloniyning «Afg'on sayohati», Cho'iponning «Yo'l esdaliklari» kabi asarlarni kiritish mumkin. Chet o'lkalarga qilingan sayohatlar, taassurot va xotiralar asnosida yaratilgan ocherklar va boshqa asarlarning eng muhim qirralari ularning o'sha o'lkalarda ko'rgan va bilgan sivilizatsiya natijalari hayratlaridan iborat. O'z vatanlarida zulumatda qolgan xalqning og'ir turmushidan afsus chekadilar. Xalq, yurt boshida turgan noqobil insonlarning antigumanistik, millat manfaatiga zid qilmishlarini qoralaydilar hamda yorug'likka chiqish yo'lini ilmda, ta'lim va tarbiyada deb hisoblaydilar. Bu turkum asarlarda asosiy e'tibor vatandoshlarimizning o'zlari borgan va ko'rgan joylardagi safar taassurotlari asosida Turkistondagi ta'lim va tarbiya tizimini o'zgartirishga nisbatan bildirgan fikrlari, qolaversa, vatan va millat ravnaqi uchun qayg'urgan inson sifatidagi mulohazalari keltirilgan. Turkiston zaminida yaratilgan asarlar Yevropa sayohatnomalaridan farqli ravishda chetdan vatan uchun, xalq uchun yangilik, ilmu urfon va madaniyat namunalari keltirishga qaratilgan.

Ma'rifatparvarlik asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Yevropa sayohatnomalari uzoq va qolq o'lkalarga qilingan sayohatda joylarga yevropaliklar tomondan keltirilgan sivilizatsiya namunalari haqida hikoya qilinsa, o'zbek ma'rifatparvarlari aksincha, taraqqiy topgan o'lkalardagi madaniyat va ilm-fan natijalarini o'z yurtda joriy qilinishini targ'ib qilganlar.

Har ikki holatda ham ma'rifatparvarlik asarlari g'oyalari xalq uchun millat taraqqiyoti uchun ijobiy rol o'ynagan. Ijtimoiy hayot tasviriga

bag'ishlangan adabiy asar sifatida ma'lum bir estetik ahamiyatga ega bo'lgan. Bunday asarlarning keng tarqalishi va o'qimishi bo'lishi ularning soddaga, ravon va jozibali tilga insho qilinganligi bilan izohlanadi.

### 3.5. Sharq adabiyotida erkin she'r va badiiy til

Yangi davrda Sharq va G'arb adabiyotining qator qirralari umumlashib keldi. Kommunikatsiyaning kuchaygani bois adabiy aloqalar umuminsoniy xarakterga ega bo'lib qoldi. Madaniyat va adabiyot namunalari Er yuzining barcha nuqtalarida deyarli teng vaqt oralig'ida istilohga kiritila boshlandi. Yuqorida Yevropa adabiyoti namunalarida germevenvik sharoitining shakllanishi tahlil qilingan bo'lsa, Sharq adabiyotida bu jarayonning mislsiz imkoniyatlari mavjudligi hech kimga sir emas.

Musulmon sharqi adabiyoti ko'p tomonlari bilan, xususan, ko'hnaligi va romantik o'ziga xosligi bilan jahon adabiyotida ayri o'rin egallaydi. Bu adabiyotning asosiy adabiy turi she'rriyat — lirika bo'lgan. Uzoq asrlar davomida aruz nafaqat sharq lirikasida, balki eposda ham hukmronlik qildi.

Renessans davrida Yevropada zamonaviy adabiyotning shakllanishi XIX — XX asrlarda jahon adabiyotining juda ko'p qirralarini umumiydastirdi. Bu hol butun sharq xalqlari, shu jumladan aruz vatani hisoblangan arab mamlakatlarida ham yangi shakl, yangi mazmundagi adabiyotning vujudga kelishi uchun turki bo'ldi.

XX asr insoniyat tarixida buyuk o'zgarishlar yasadi. Uning shiddatli urushlari (ikki jahon urushi), iqtisodiy integratsiyasi, ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlari hamda eng muhimi ulkan texnikaviy — industrial qurilish yagona butun jahon umuminsoniy hayot tarzini, san'at, madaniyat birligini yaratdiki, undan hech bir xalq, hech bir millat cheklanmadi.

Misr arab she'rriyati umumarab adabiyotining bir uzviy bo'lagi sifatida qaysidir bir tomonlari bilan Osiyo yaqin sharqi adabiyotiga, hududiy belgilari bilan esa Afrika adabiyotiga dahtdor. Misr adabiyoti XX asrda boshqa sharq musulmon adabiyotlari kabi ulkan o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Aytish mumkinki, Misr adabiyoti arab mamlakatlari adabiyoti ichida birinchilardan bo'lib Yevropaga yuz tutdi. XX asr

boshlarida yuzaga kelgan «Yangi she'r» harakati, uning g'oyaviy - shakliy xususiyatlarini tahlil qilish ham aynan shu holdan darak beradi. Bu harakat natijasida Misr adabiyotida yangi adabiy oqimlar, xususan, «Devon», «Apollon» kabi adabiy maktablar tashkil topdi.

XX asr Misr adabiyotida yuzaga kelgan «Yangi she'r» yoki «Erkin she'r» harakatida asosiy urg'u dekorativ arxitektonikasi erkin vazndan iborat lirikaga berildi. Ya'ni she'rlar erkin vaznda yozildi. Erkin she'rning eng muhim badiiy, g'oyaviy va til xususiyatlari aruz qobig'lariga o'rta qolgan an'anaviy qasidabozlik, shaklbozlik yoki an'anaviy mavzubo'zlikdan tubdan farq qiladigan yangi asarlar bitishdan iborat bo'ldi. Yangi, erkin she'r mavjud ijtimoiy — siyosiy muhitni, zamon bashariyati psixologiyasida yuz bergan o'zgarishlarni, yangiliklarni ochiq, aniq, ravshan hamda eng muhimi yaqqol aks ettira oladi.

Badiiy adabiyotning, she'rriyatning eng muhim quroli tasviriylik bo'lgani holda ta'kidlash lozimki, tasviriylikdan ham muhim bo'lgan holat bu - quroldan qanday foydalanishda, she'rda qo'llanadigan arxitektonika samaradorligini ta'minlay olishdan iboratdir. Kimdir eski usulda, eski qobiqda siyqasi chiqqan so'z va uslublar takrori bilan, boshqalar esa, yangi, chagnuq, kishi etiborini jalb qiluvchi so'z va shakllar bilan foydalanadi. Badiiy adabiyot ijodiyligining original germevenvik mezonni ham aynan shunda ko'rinadi. Shoir (ijokkor) o'zining yangi uslub, yangi so'zi, yangi fikri bilan yangi g'oya, yangi dunyovqarash yaratadi, insonning tashqi olamni bilishida, uni ongli qabul qilishida — gneseologiyada, uning mantiqini anglab etishida — logikada yangilik yaratadi. Buning uchun u asar arxitektonikasida til xususiyatlarini shakllantirish uchun turli ijodiy metod, badiiy — tasviriy vositalardan foydalanadi. «Yangi she'r» harakati asar arxitektonikasini o'zgartirish orqali yangi mazmun, yangi g'oya va umuman yangi germevenvik munosabatlarga asos solganligi bilan Misr adabiyotida tub burilish yasadi.

Misr yangi — erkin she'r harakatining shakllanishi va taraqqiy topishida taraqqiyparvar shoirlar qatorida Amal Dunqul ijodining muhim ahamiyatini alohida qayd qilish zarur. Amal Dunqul XX asr Misr adabiyotining tanikli namoyandasi, erkin she'r harakatining faol a'zolaridan biri. U o'z ijodiy faoliyatini davomida «Zarqa al — Yamama» (1969), «Bo'lib o'tgan voqegaga sharh» (1971), «Oyning qatl qilinishi»

(1974), «Bo'lajak ahb» (1975), «Murosaga kelma» (1979), «8 - raqamli xona varaqlari» (1981), «To'la asarlar to'plami» (1985) kitoblarini e'ton qildi. She'rlarining mavzular ko'lamini keng, xususan, falsafiy, ijtimoiy – siyosiy, tinchlik, vatansparvarlik, muhabbat, shahar hayoti va o'lim mavzulariga murojaat qilgan.

Badiiy vositalarning, ayniqsa, poeziya tilining juda nozikligi va yorqinligi, "nuktadonlik". Ya'ni chiroyli fikrni yorqin va nozie shaklda ifoda eta bilish – G'arb va ayniqsa, Sharq poeziyasidagi romantik tafakkurning eng muhim talablari va yutuqlaridandir<sup>1</sup>.

She'rlarning originalligi tahli borasida shoirning germeneytik sharoitda badiiy tildan foydalanish mahorati xususida xulosa chiqarish mumkin. Amal Dungal o'z fikrini ifodalash jarayonida asar tilida tushuncha va g'oyani umumlashtirishga erisha olgan.

Mana o'tiribman umidsiz bunda

Varaq - varaq bo'lib uziladi

taqvimdan untrim.

Uzilgan bu varaqlar

Xoitra ko'lida suzib yuradi.

Bu misralarda dunyo foniyiligi, uning o'tkinchiligi g'oyasi vaqt me'yori – taqvim bilan berilgan. Taqvim uziladi, yiritiladi, binobarin, yo'q bo'ladi, demak inson umri ham taqvim kabi ko'rinmas varaqlardan iborat. Varaqlar chegaralangan. Demak, hech narsa abadiy emas, degan g'oya varaq tushunchasiga singdirilgan.

Boshqa bir o'rinda shoir vaqt o'lchovini tabiiy hodisa tushunchasi bilan ifodalaydi. Yomg'ir dunyoni, insonni, uning qalbini yuvadi, yomg'ir o'tkinchi, ammo sadoqat abadiy. Boshqacha aytganda yana o'sha vaqt tushunchasi, uning o'tkinchiligi yomg'ir bilan berilgan bo'lsa, abadiylik esa vafo g'oyasi bilan ifoda topmoqda.

Yomg'ir yog'adi,

Yomg'ir tinadi.

Yomg'ir yog'adi,

Yomg'ir tinadi.

Lekin qalbin seni

Hamon kutadi.

Vaqt tushunchasining fano, o'tkinchilik g'oyasi bilan

uyg'unlashuviga Amal Dungalning yana quyidagi misralarini misol qilish mumkin:

Katta shahardagi odamlar go'yo vaqt singari

To'xtamaydilar,

Kechikmaydilar,

Chalg'imag'dilar

Mexanizmlar, mexanizmlar, mexanizmlar.

Bu misralarda shoir falsafiy mavzudan chetga chiqib ijtimoiy muammo – inson va kundalik hayot muammosiga qo'l urgan. Odamlar tirikchilik tashvishida temir soatning millariga bo'yunadilar va o'zlarining mexanizmiga aylanib qoladilar, inson – bu mexanizm, degan g'oya singdirilgan she'rga.

Qator she'rlarida shoir ijtimoiy, kundalik turmush tashvishi tushunchasini dunyo o'tkinchiligi tushunchasi bilan qorishtirgani holda baxt va baxtsizlik g'oyasini topishga intiladi:

Do'stim! Qalbin to'lgan dardu alamga

Tong ham oldi, siypanadi bu subhidam maxzun yuzimni

Rizqim izlab shahardan chiqdim,

Qanoat suviga botirib rizqu ro'zimni.

Cho'rtakda chaqa bilan tushdan so'ng qaytdim.

Yo'l ustida choyimni ichib

Yamattirdim poyabzalimni.

Nard o'ynadim, goh men, gohida do'stim iring'tradi tosh

Bir soat o'ynaymiz yoki undan ko'p,

O'n marta o'ynaymiz yoki yigirma.

Kuldim do'stim aylagan ahmoqlar haqidagi afsonadan

Semiz tilanchining ko'zidagi yoshidan.

Yoki boshqa misralarda Amal Dungal vatansparvarlik g'oyasini obraz holati bilan, obraz tili bilan in'ikos ettiradi. Tiriklik uni doimo ozodlikka undaydi. Inson borki, u ozod, erkin yashash istagi bilan yonadi. Fagatgina o'lim uni mahv etishi mumkin. Qullar ozodligi uchun kurashgan Spartak tildan shoir shu misralarni bitadi:

Erta tongda xocho'ga mixlanganman men.

E'voh, boshlarimni eggandir o'lim,

Chunki tiriklikda uni hech egmagandim.

Vatansparvarlik, vatan ozodligi inson, ruh ozodligi bilan hamohang.

Faqat ruhan ozodlikni his qilgan odamgina vatan ozodligi baxtini his

<sup>1</sup> Духобитер назарияси. 2-жилдик. 2-жилд. –Т.: 1979. 408-бет.

qila oladi.

Ona—Vatanni sevish, uning go'zalliklarini original o'xshatishlar bilan kuyilash ham vatamparvarlikning bir belgisi. Vatandagi har bir holat she'r misralarida, so'zlarida jaranglaydi, o'ziga xos sado beradi. Ziyonati nutq, go'zal so'z o'yinlari inson ruhida vatan go'zalligining yangi, hali o'quvchi ko'zi bilan ilg'annagan, fahmi bilan anglab etilmagan qirralarini ochib beradi. Shoir o'z tasavvuridagi vatanni tasvirlar ekan, she'r zamiriga ona tuproqqa nisbatan chuqur muhabbat hissisini singdiradi, o'quvchida ona tuproq bilan shu tuproqda yashovchi inson ona bilan farzand kabi bir jism ekanligi haqidagi hissiyotni mukammallashtiradi.

Erta tongda keng dalalar osha borardim,

Menga o'rgatganlar, bu — ona Mistr.

Har tomonga sochilgan urug'dek,

U bizga etkazib berdi:

otamni,

uyimizni,

o'choq'imizni,

parrandalarni

va mevalarni,

hattoki oyni.

U qumg'onimiz to'ldirgan suvdir,

Tungi subhatlarda ichgan choyimiz,

U fasllar almashuvi,

U limondir hamda tunlar men qidirgan onam ko'kragi,

U go'shiqlar kuylaydigan go'zal quticha.

U mendirman,

Men esa udir.

Amal Dunqul she'rilarining badiiyati haqida uning go'zal va betakror o'xshatishlari bilan fikr yuritish mumkin. Ona Vatanni undagi butun jonli va jonsiz narsalar bilan qiyoslash borasida shoir shunday xulosaga keladiki, aytilgan narsalarning hammasi uning o'zi, ya'ni shu tuproq farzandi bo'lgan inson, bas, shunday ekan, Mistr, ya'ni ona vatan bu — shoir, insonning o'zi demakdir.

Badiiy tilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu — sarkazm, oksyumoron orgali bir fikrni ifodalash orqasida umuman boshqa fikrni nazarda tutish. Yoki biror — bir g'oyani kinoya orgali ifodalash. Amal Dunqulning quyidagi she'rda vatamparvarlik, ozodlik g'oyalari

oksyumoron orgali beriladi:

Osilgan isyonchiga tashlang nazarni

Sizlar ham ertaga undek bo'lasiz!

Xotinlarni quching bu erda — yo'l o'rtasida

Sizlar ham shu erda halok bo'lasiz.

Vidolashmay xotinimni tashlab keldim men,

Agar sizlar uning qo'liga

qoldirgan go'dagimni ko'rsangiz

Tiz cho'kishni o'rgating unga!

Tiz cho'kishni o'rgating so'zsizi!

Baxtli olam haqida orzu qilmanglar,

Chunki o'lgan qiro'l ortidan

Albatta, keladi yangi bir qiro'l.

O'lgan isyonkorlar ortidan esa

Befoydadir hech g'am chekmanglar,

Behudaga ko'z yosh to'kmanglar.

Amal Dunqul ijodining ma'lum qirralarini XX asar o'zbek adabiyoti namunalari bilan qiyoslash mumkin. Yuqoridagi misollarda erkin she'r yoki aniqrog'i erkin vazn shoiriga badiiy - tasviriy vositalarni erkin qo'llash orgali asar arxitektikasining original tizimida germanevitika, etuk g'oya tilini yaratishga xizmat qilganini ko'rdik.

Badiiy epitetlar («qumg'onimiz to'ldirgan suv», «ichgan choyimiz», «qilg'ab», «go'zal quticha», «limon») o'zlarining originalligi bilan o'quvchida emotsionallik hosil qila oladi, shoir g'oyasining ta'sirchanligini oshiradi.

Erkin vazndagi bu imkoniyatlarni G'afur G'ulom, Hamid Olimjon asarlari misolida tahlil qilinganda yuqoridagi ekspressivlikning ta'sirchanligini qiyoslash orgali aniqlash mumkin bo'ladi. Xususan, vatan — ona, xalq - ota epitetli birikmasining o'zini ham G'ofur G'ulom ta'sirchanlikni oshirish uchun sifatlayapti.

Sen etim emassan,

Tinchlan jigaram.

Quyoshdek mehribon

Vataning - onang.

Zaminiday vazminu

mehnatkash,

mushfiq



Istagan narsangni tayyorlaguvchi

xalq bor- otang bor.

Vatanni onaga qiyoslash yoki xalqni otaga o'xshatishlar doimiy epitetlar, ammo «quyoshday mehribon», «zaminiday vazmin» kabi epitetlar o'zlarining yangi, emotsionalligi bilan ajralib turadi. Bu erda G'afur G'ulom insonparvarlik g'oyasini vatan, xalq tushunchalariga mahorat bilan singdira olgan.

Hamid Olimjon o'zining erkin vaznda yozilgan «Baxtlar vodiysi» she'rida vatanparvarlik g'oyasini, ona Vatanni tabiat, borliq tushunchalari bilan uyg'unlashtirish orqali ifodalaydi.

Ufqimizning xirslarini

o'ziga tortgan,

Yelkasiga tarix bilmas

g'alaba ortgan

Ulug' yo'lda toliqmasdan

tez kelayotgan

baxmal qirlar,

keng bo'shliqlar,

paxtazor erlar

ko'm - ko'k.

Yugorida G'afur G'ulom vatanni «ona», xalqni «ota» ma'nolarida aytgan bo'lsa, Hamid Olimjon bu she'rdagi «vatan», «xalq» tushunchalarini yaxlitlashgan. Keltirilgan barcha epitetlarni vatan uchun ham, shu vatanning fuqarolari uchun ham teng ma'noda qo'llash mumkin. Aynan shu hol doimiy epitetni badiiy epitetga aylantira olgan va asarning muvaffaqiyatini ta'minlagan. Erkin vatan, epitetlar iste'molidagi gradatsiya she'r arxitektonikasining mukammal germe-nevrik semantik tovlanishi uchun imkoniyat yaratgan.

Keltirilgan qisqa tahlil shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida Mistr adabiyotida yuzaga kelgan «erkin she'r» harakati she'riyatda aruzdan farqli o'laroq erkin vaznda she'r yozishga asoslangan. Erkin she'r harakatining faol ishtirokchilaridan biri Amal Dunsqul o'zining erkin vazndagi asarlarida badiiy matn germe-nevrikasini mukammal o'zlashtirgan holda badiiy til imkoniyatlaridan foydalanib, yuksak g'oyaviy, badiiy etuk asarlar yaratgan. Shoirning badiiy til imkoniyatlaridan ijodiy foydalana olish mahorati, g'oya tili bilan shakl tilini uyg'unlashtira olishi she'rining badiiy qimmatini oshirgan.

Amal Dunsqul lirikasining, badiiy tilning ma'lum qirralari XX asr o'zbek she'riyatida uyg'un keladi. Uning she'rilarida vatan, ona-yurt tushunchasi realistik manzaralarda, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi erkin vaznda sara asarlar yaratgan shoirlar vatan manzaralarini tasvirlashda romantik tasvir orqali yangi, original so'zlar va original tushuncha, g'oyalarga topa olishga erishgan.

Badiiy asar umumbashariy, umuminsoniy g'oyalari ifodalalar ekan, uning yaratilish jarayoni hududiy, milliy belgilaridan farqli o'laroq bir xil kechadi. Inson o'z g'oyasini shakllantirishda badiiy - tasviriy vositalardan har qanday sharoitda bir xil foydalanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, badiiy asarning ommaviylik xususiyati millat va mamlakat taallamaydi.

## IV BOB. MUMTOZ BADIYAT VA GERMENEVTIKA

### 4.1. Mumtoz she'riyatda badiyat va badiiy til

#### muammolariga doir

O'zbek mumtoz she'riyati, umuman, badiiy adabiyotning butun go'zalligi, nafosati uning badiyiligidagina mavjud, real voqelikni o'ziga xos idrok etish usulida. Navoiy ta'biri bilan aytganda, dunyoni mehr ushlab turadi. Quyoshning erga mehri-muhabbati bo'lmaganda edi, u er yuzini yoritmas, nur sochmagan bo'lur edi va binobarin, erdagi tirik mavjudot zulmat va sovuqda halokatga mahkum bo'lur edi. Demak, ishq-muhabbat, mehr hayotning asosini tashkil qiladi.

She'riyatda olam va odam go'zalligi, nafosatini tarannum etish eng muhim vazifa hisoblanadi. Aynan shu vazifa ifrosida she'riyatda turli ijodiy falsafiy tushuncha va misralar badiylik in'ikosida shakllanadi. Pushkinda shunday misralar uchraydi:

Qorong'u tunlar aro bahor,

boq'lar unsizligida

Gulning ishqida kuyilaydi bulbul.

Biroq eshitmaydi, tushummayin jim

Ishq kuyi ostida tebranadi jim.

She'riyat o'zining bezaklari-she'riy san'atlarsiz o'z qimmatini, go'zalligini yo'qotadi, hissiz so'zlar zanjiridagina iborat bo'lib qoladi. She'rni tushunmoq, his qilmoq uchun uning badiyatini mukammal tahlildan o'tkazmoq, badiyatini anglab etmoq lozim. Buning uchun adabiyotda badiylikni yaratishga xizmat qiladigan lug'aviy vositalar, ularning semantik-stilistik xususiyatlari alohida tadqiqot manbai sifatida olib qaralishi zarur. Zero, M. Fuller to'g'ri ta'kidlaganidek, «Poeziya-so'zlar musiqasidan iboratdir.

She'riyat-go'zal olam, u qo'fiya, turoq, vazn kabi she'r o'lchovlari, tashbeh, mubolag'a, tazod, talme'h kabi badiiy san'atlar va arxitektonik elementlardan tarkib topgan murakkab imorat, turli ranglardan iborat bo'lgan manzaraviy rasm. Leonardo da Vinchi ta'kidlaganidek, «Rassomlik-poeziya, uni ko'radilar; she'riyat esa rassomlik, uni eshitadilar».<sup>1</sup>

Kishilik jamiyati bor ekan, inson go'zallikka intilar ekan badiyat,

san'at ham bo'ladi. She'riyatga jon baxsh etadigan hodisa—til, so'z. Uning bezaklari, kiyimi - badiiy san'atlar yoki poetika. Uni g'oyaga aylantirish esa germenevtika.

So'z g'ishtlari mantiqning a'lo ranglari bilan bo'yalb, so'z san'atining arxitektori, me'mori-shoir tomonidan farosat bilan ijodiy usulda o'z o'rninga qo'yilisa, muhosham va yarqiroq she'riyat binosi vujudga keladi. Ana shundaygina bu muhosham so'z koshonasi ham salobatli, ham dilbar hamda adabiy qulamas bo'ladi.

Asrlar mobaynida yashab kelgan yombidek zalvorli, pishiq va to'laqonli so'zlar — ona, ota-bobolar, er, daraxt, tog', vodiy kabi so'zlardir. Ular astoydil aytiladigan, tillarning tub-tubidan chiqadigan e'lon so'zlardir. Bularning har biri cho'ponga ham, hukumat a'zosi-ga ham bab-baravar tushunari. Ularning har biri natfaqat bizning aql-idrokimizni harakatga keltiradi, balki tuyg'ularimizni ham go'zg'atadi, qalbharada xotiralar to'iqimini hosil qiladi, tasavvurlarimiz va sezgilarimizni jumbushga keltiradi. Ularning har biri zamirida hech narsa bilan almashtrib bo'lmaydigan shunday mangu narsalar yotadiki, bu narsalarsiz yashab bo'lmaydi<sup>1</sup>.

Mumtoz o'zbek adabiyotining qator namoyandalari, ayniqsa, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy kabilar she'riyatidagi go'zallik, nafosat, umrboqiylikning siri nimada? Avvalam bor, ular she'riyatining xalq diliga, ruhiga mosligi, qolaversa, ular she'riyatining go'zal, o'xshatishlar, bejirim so'z o'yinlari, musiqiylikka boyligidadir.

«Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, er va suv bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samaratsini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir» deb yozadi Abdulla Qahhor<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy «Majolis un nafois» asarida 450 dan ortiq shoirning hayoti va ijodiy dunyosi hamda, badiiy mahorati haqida fikr yuritlar ekan, ularning san'atini so'zdan qay darajada foydalana olishiga qarab baholaydi.

Akademik Alibek Rustamovning fikricha, she'r zavq, hayajonning natijasi bo'lib, u shaxsning ruhiy olami bilan o'quvchini tanishtiradi,

<sup>1</sup> Херман Хессе. "Нон" сўзи ҳақида // Жаҳон адиблари алабинёр ҳақида. —Т.: Миллавиёт. 2010. 34-бет

<sup>2</sup> Абдулла. Қаххор ҳикоятлари. —Тошкент: 1990. 155-бет.

o'shno qiladi. O'quvchida shavq-zavq uyg'otadi. Zavqni qo'zg'atuvchi asosiy omil badiiyatdir<sup>3</sup>.

Badiiyatning o'zi nima?

Izohli lug'atda «badiiy» so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

-Vogelkni nafs san'at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi, tasvirluvchi.

-Yuksak estetik talabalariga javob beradigan.

-Baland did va mahorat bilan bajarilgan, go'zal, nozik.

Badiiyat-bu asarning arxitektonikasi, tashqi dunyosi, uning libosi. Asar qanchalar badiiy jihatdan etuk, barkamol va go'zal bo'lsa, u shunchalar kishiga tez va kuchli ta'sir ko'rsatadi, uni hayajonga soladi, unda kuchli ehtiroslar qo'zg'aydi. Bu erda yana inson psixologiyasi, ya'ni ruhiyati, muammosi ham bor. Masalan, kishi go'zal manzarani ko'rsa zavqlanadi, qalbi, vujudi shodlikka to'ladi, shu bilan birga u o'z dilida go'zal hislar quyilganini, ruhiyatida ko'tarinkilik yuz berganini sezadi. Ohangdor so'zlar, chuqur ma'nolar bilan bezatilgan she'r kishini o'ylandiradi, mushohada yuritmoqqa chorlaydi, lirik nafosatning sehrli olamiga g'arq etadi, zavqlantiradi, binobarin, uni ruhan va qalban go'zallikka o'shno qiladi. Badiiy asarning estetik va ilmiy jihatdan mustahkamligi uning qator shakliy belgilari bilan bog'liq. Xususidan, asar janri, unga muvofiq bayt, vazn, qofiya va yana qator poetik xususiyatlar lirik asar muvaffaqiyatining asosiy belgilaridan hisoblanadi.

Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida g'azal baytlari, masnaviy she'rlar, bayt usuli yagona fikr tugalligini umumlashtirishga qaratilgan. G'azal yoki masnaviylarda vazn va qofiya talabi natijasida baytlarda mazmunlari aytim hollarda ayri tushadigan gap va jumalalar qo'llanadi. Bu holat asarda getmenevtik sharoitning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Baytdagi turli mazmun tashuvchi mistralar talqini asarning yoki uning qismining umumiy mazmuni shakllantiradigan yagona g'oyaning ma'lum qitrasini ochishga yordam beradi. Bu hol turli mazmundagi baytlardan iborat parokanda g'azallarda ham kuzatiladi. Bundan olimadigan yana bir muhim konstatatsiya shundan iboratki, mumtoz adabiyot namunalari g'azal va masnaviylarda kuzatiladigan turli mazmundagi baytlar asosiy g'oya ostida birlashadigan turli g'oyalarni tashir ekan asar arxitektonikasi orqali uning ma'n imkoniyatlarini

<sup>1</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадиий махорати. -Т.: 1979. 59-60-Бетлар.

sohbatlarga xizmat qiladi.

Badiiy asar tarbiya ta'sirchanligining o'rtishiga va ma'rifiy ahamiyatining yaxshi o'zlashtirilishiga yordam beradi. Asardagi tarbiyaviylik o'quvchining ma'rifatga bo'lgan intilishini va badiiyatning ta'sirchanligini oshiradi. Ma'rifiylik o'z navbatida badiiy asarning tarbiyaviy va badiiy tomonlarini mustahkamlaydi<sup>4</sup>.

Asarning tarbiyaviy va ma'rifiy tomoni uning ma'nosini (mazmunini), badiiy jihati esa, suvratini (shaklini) tashkil qiladi. Surat-tashqi ko'rinish, ma'no-mohiyat, asos. Asarning barcha adabiy vositalari, til va usulbi asarning suvratini tashkil etadi. Fikr esa ma'nodir<sup>5</sup>.

Avuz ming yillar davomida o'zbek mumtoz adabiyotining shaklan va mazmunan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelgan. Hozirgi adabiyotimizda ham aruz mustaqil O'zbekistonning dilrabo taronalarini, zamonadoshimiz qalbidagi nozik va murakkab tuyg'ularni shaffof manzarolarda aks ettirish ishiga munosib xizmat qilib kelmoqda.

Mumtoz adabiyotda badiiy - tasviriy vositalar, ya'ni she'riy san'atlar ma'naviy va lafziyga bo'linadi. Atoulloh Husayniy bu haqda shunday yozadi: «San'atlarining 1-nav'i zotiy go'zalliklardurkim, dilbarlarning tabiiy husni yanglig'dur va 2 - nav'i oriziy go'zalliklardurkim, alardagi ko'rsatma bezaklari singaridur. 1-nav'ining bayonini balog'at ilmi derlar, 2-nav'in balog'atqa tobi' derlar. Biri maoniy ilmi va ikkinchi bayon ilmidir»<sup>6</sup>. «Badoyi'us san'oyi'» asarida muallif ma'naviy san'atlar guruhiga tashbeh, mubolag'a, talme, tajohuli orif, lutf, istiora, tamail, taffi, tadotuk, takrir, husni ta'vil, laffu nashr kabi san'atlarini kiritgan. Shoirlarda san'atlardan foydalanish, ularni qo'llash usuli turlicha bo'ladi. Bu adibning mahorati, iste'dodining qay darjadaligiga bog'liqdir.

Navoiyning fikricha, elga biron asarni manzur qilish uchun kishi bir iste'dodini, qobiliyatini sarflashi lozim. Yuksak badiiylik bilan yaratilgan asargina jamiyat uchun manfaatli bo'ladi.

Navoiy asarlarida badiiy adabiyotga nisbatan yuqori talablar qo'yish, shu fikr bayon etish kabi fikrlarni ko'p uchratamiz. Mutafakkir olimning bu talablari o'z davrida juda muhim ahamiyat kasb etgan,

<sup>1</sup> Рустамов А. Навоийнинг бадиий махорати. -Т.: 1979. 72-Бет.

<sup>2</sup> Рустамов А. Шу асар. 35-Бет.

<sup>3</sup> Абулдух Хусайний. Бадоийеу-с-саънойетъ. -Т.: 1981. 34-Бет.

ijodkorlarni rostgo'ylik va haqiqatga undagan:

So'zda Navoiy ne desang, chin degil

Rost navo nag'mag'a rahmat degil. (Hayrat ul-abror)

Ma'lumki, har bir g'azalning o'z shakli va ma'naviy arxitektonikasi bor, binobarin, bir-biriga ulanib ketgan baytlar orasida ko'rinmas mantiqiy zanjir mavjud. Asarda u yoki bu obraz ichki kechimalari haqida so'z boradi, yor go'zalligi tavsiflanadi, tasvirlanadi, qiyovlanadi. Obrazning ruhiy kechimalari, o'y-fikrlarini misralarda mahorat bilan aks ettirish shoiridan katta mahorat talab qiladi. She'riyat-hissiyot mahsuli. U sufiylikning sano vaqtdagi holati kabi chin galbdan quyilib keladi. Tasavvufda ikki xil sayohatdan bahs yuritilgan. Biri — vujud sayohati, ikkinchisi — halb sayohati. Bular moddiy va ma'naviy sayohat ham deyilgan<sup>1</sup>.

Boborahim Mashrab lirikasi o'zbek mumtoz adabiyotida yuksak badiiylik va badiiy iste'dod namunasi hisoblanadi. Uning she'rlarida kishini hayajonning yuqori holatiga chiqaruvchi holatlar ko'p. Misralarda ma'no, so'z jilosi odamda tez ehtiros uyg'otadi. Ularni o'qib turib kishi o'z ruhiyatida ma'lum darajada jilolanish, mavjlanishni tuyadi. Oshiq ko'nglining dardu hasratlari, iztiroblari, uning soddaligi, samimiyligi badiiy obrazda "mengä", ya'ni shoirga (she'riyatda ko'pincha badiiy obraz «men»i tagida shoirning o'zi bo'lardi) bo'lgan munosabatini shakllantiradi, o'quvchi va shoirni birlashtiradi:

Ohi dilimga zohido, masjиду minbaring kuyar-

Qoelmasang emdi olibon tasbehu darbaring kuyar.

Boz ruku' sajdada g'ayrati shahmorang qoqib

Men borur emi ko'zlash, ey Jabroil, paring kuyar.<sup>27</sup>

Mashrab g'azallarida turli-tuman badiiy-tasviriy vositalar qo'llangan. Uning g'azaliyotida eng ko'p uchraydigan san'at tashbeh bo'lib, tashbeh yoki o'xshatishni qo'llashdan maqsad tasvirlanayotganing sifa yoki vazifasini gavshanlashtirish, o'kirilashitirish va shu bilan o'quvchi yoki tinglovchining hissiini uyg'otishdir:

Olimlar o'xshatishda leksik-grammatik vositalarning qo'llanilishiga qarab tashbehni ikki turga bo'ladi: 1. Bevosita tashbeh; 2. Vositali

tashbeh.

Bevosita tashbehta bir narsa ikkinchi narsaga o'xshatishning leksik (go'z o'xshatishlar: kabi yanglig', monand, xuddi), grammatik (dek, day) vositalarida to'g'ridan to'g'ri o'xshatiladi.

Za'harondek sarg'ayib qoldim firoqing cho'lida<sup>8</sup>

Yoki:

Jamoling'a samandar kabi o't pirohan ettim<sup>9</sup>.

Vositali tashbehta bir narsani ikkinchi narsaga o'xshatish uchun biror narsa vosita qilib olinadi. Masalan, nurlilik, nafislik, go'zallik va shu kabilar.

Orzang ochilgan gul, sochlaring erur sunbul.<sup>10</sup>

Yoki:

Falokka go'l uzotib shamsi anvomi olib bo'lmas.<sup>11</sup>

Birinchi misolda yuz dumaloqligi va yorug'ligi misolida o'zga, ikkinchisida ofobga, ya'ni yor balandda, inson imkoniyatidan tashqari ekanligi, yoruqligi, nurliligi vositasida ham shams (quyosh) ga o'xshatilmogda.

Mashrab lirikasida asosiy o'rin g'azal janridagi asarlarga berilgan bo'lishi bilan bir qatorda uning ko'plab she'rlarini go'shiq, maktab, elg'iyaga ham o'xshatish mumkin: ularning muhim xususiyati mazmunidagi asosiy g'oyaning ulug'vorligidir, zero, shoir o'sha g'oyaga ulabostan madhiyabozlik qilmaydi va ilhom otashida yonib, o'z predmeti bilan talashib tortishmaydi, balki mutloq bir hukmron maqomida turib, uni bus-butun va atrofficha ocha boradi, oddiy, ammo qulay qo'fiya va ohang vositasida yorqin, yangroq so'z va obrazlar bilan o'ziga xos she'rona fikrni his tuyg'ularning yuksak parvozini, bor narsani bag'riga oluvchi mushohada ko'lami va joziba kuchini namoyish eta boradi.

Sharq she'riyatida eng ko'p qo'llanilgan san'atlardan yana biri talmechdir. Talmech arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ko'z qirini tashlash, demakdir. Badiiy asarda biror voqea, hodisa, she'r yoki maqollarning o'zini zikr etmasdan unga ishora qilish talmech san'ati hisoblanadi.

Talmech she'riyatda lirik qahramonning ruhiy holatini, uning ichki

<sup>1</sup> Уша жойда. 50-бет.

<sup>2</sup> Уша жойда 97-бет.

<sup>3</sup> Уша жойда. 40-бет.

<sup>4</sup> Уша жойда 197-бет.

<sup>1</sup> Хаккул Иброхим. Моҳиятта толиб ошик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2010 йил 13 август. 33-сон.

<sup>2</sup> Mashrab. Мехрибоним кайласан. -Т.: 1999. 50-бет

kechimmalarini, ma'naviy olamini asar muallifi yoki qahramonlari nomiga ishora qilish orgali ifodalashda, mazmuni kengaytirishda asar badiiyatini oshirish imkonini beradi. Talmeh shoiridan tilning ma'no xususiyatlariga e'tibor berishni, xususan, qo'llangan qahramon nomiga xos xarakter yaratishni, qo'llashni talab qiladi. Talmeh to'rt turga bo'linadi:

1. Ochiq talmeh. Bunda afsona yoki asarning qahramoni sinvol, ramz sifatida tilga olinib, asardagi holat qiyos orgali umumlashtiriladi va tipiklashtiriladi. Lutfiy bir g'azalida Hazrati Hizr bilan bog'liq rivoyatni o'zining yor bilan munosabatiga tabiiq qilishga intiladi. Rivoyatni eslatish uchun Hizr suvi ma'nosida talmeh qo'llaydi:

Mangu yashar kimki ko'rsa sizni bir  
Vah ne Hizri chashmai hayvonisiz?<sup>1</sup>

Yana bir g'azalida Lutfiy o'zi bilan yor o'rtasidagi munosabatni mashhur dunyoviy muhabbatimso'llari nomini eslash bilan ta'rifi namoqda:

Shakar dudog'indin manga hasrat tegar anjoq  
Shirin magar ul bo'ldi-yu, Farhod zamon men?<sup>2</sup>

Ogahiy she'rriyatida mashhur badiiy obrazlarga (Majnun, Farhod, Layli, Shirin, Uzro) ishora qilish orgali ochiq talmeh san'ati hosil qilish hollari ham ko'plab uchraydi. Shoir bu nomlarga ishora qilish orgali lirik qahramonning ruhiy holatini batafsil bayon qilib o'tirmaydi. Balki, uning in'ikosi bir so'z, bir ism doirasida ma'lum bo'lishiga ishora qiladi. Bu bilan o'z ichki kechimmalari, samimiy muhabbati va sadoqatini aks ettiradi:

Shirin dahaning shavqida, ey sho'xi diloro, rahm etki necha yil  
Farhod kabi qazdirur ko'ngluma davron g'am tog'in yolg'uz?<sup>3</sup>

1. Yashirin talmeh. Talmehning bu turida ishora etilayotgan asar qahramonlarining ismi emas, balki uning laqabi aytib o'tiladi. Xususan, mumtoz lirikada bu borada eng keng tarqalgan usul Iso payg'ambar bilan bog'liq rivoyat. Bu rivoyatda shoir ishora qilish borasida yor visoli uning uchun xuddi jon kabi muhim ekanligini o'quvchiga bir laqab — Masih orgali tushuntiradi. Boburda bu borada shunday misralar uchraydi:

Masih anfosi yanglig' jon berur farsuda jismimg'a  
Sabo kelursa nogah hajr aro ul yor payg'omin<sup>1</sup>15  
2. Konkret talmeh. Bu san'atning asosiy xususiyati shundan iboratki, uning tarkibiy shaxsning nomi qo'llanadi. Shoir o'z ustozini, uning badiiy mehorati, ijodining ahamiyatini tavsiflab o'tirmaydi, balki unga ishora qilish orgali to'nda-lakonizm usulida o'z niyatini namoyish qiladi.

Ogahiy kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,  
Bahra gar yo'qtur Navoiyning navosindin senga?<sup>16</sup>

3. Murakkab talmeh. Ikki turga bo'linadi: murakkab va tarkibli talmeh. Agar asar tarkibida birdan ortiq nomga ishora etilsa, murakkab talmeh, bir necha nomga ishora bir baytda, bir asarda tizilsa, tarkibli talmehni hosil qiladi. Talmehning bu turi yuqoridagilardan farqli ravishda faqatgina lirik qahramonning ruhiy holatini emas, balki uning ijtimoiy holatini, jamiyadagi holatini tasvirlashga xizmat qiladi. Tarkibidagi shu holatga oid misollarga qiyoslaydi, qiyosni analitik shaklda amalga oshiradi:

Isbq aro Farhod ila Majnunna hargiz etmadi,  
Munchakim etdi falakdin dard ila mehnat senga?<sup>17</sup>

4. Tarkibli talmehda g'azal yoki bayt tarkibiga singdirilgan har bir afsona yoki tarixiy shaxs nomi ma'lum bir mazmun bilan rivojlaniriladi, o'zaro bog'lanadi:

Ey muallo borgahing arsh a'zam bo'ldi tut  
Xilvati xosing aro Jabrail mahram bo'ldi tut.  
Joh ila xashmat aro topg'il aningdek rubakim,  
Har qulung Iskandaru har chokaring Jam bo'ldi tut.  
Ofarinashg'a Sulaymondek topib hukming nufuz  
Tobiu farmonu amring jumla olan bo'ldi tut.  
Arsai olang'a sig'may lashkaring kasvat aro  
Har biri oning shijoat ichra Rustam bo'ldi tut.  
Xashmating ovozasini xayli malak ichra tushub  
Bir sano xoning sening Isoyu Maryam bo'ldi tut.  
Ilmi hikmatda o'tub haddin kamoli donishing  
Yuz Falotun ajz ila oldingda mu'zam bo'ldi tut.

<sup>1</sup> Lutfiy. Devon. T. 1965. 119-ber.

<sup>2</sup> Уша жойда. 183-бер.

<sup>3</sup> Отасий. Асарлар. VI жилдик. II жилд. 88-бер.

<sup>1</sup> Ушбек адабиёти. 4 жилдик. 3-жилд. T. 1959. 26-бер.

<sup>16</sup> Отасий. Асарлар. VI жилдик. I жилд. 69-бер.

<sup>17</sup> Уша жойда I жилд. 59-бер.

Yer yuzining naqdyu osida Qorun molli ham  
Jam o'lub sarto qadam ganjingga munzam bo'ldi tut  
Muddati umrung ziyoda Hizr umrdin bo'lub  
Har kuni bu umrning Navro'z bo'yram bo'ldi tut<sup>1</sup>

Asarning badiiyati, unda qo'llanilgan badiiy - tasviriy vositalar, san'atlar uning tashqi tomonining jozibadorligini ta'minlagan. Asarning mohiyat-ma'nosi uning ma'lum bir maqsad-g'oyani qay tarzda aks ettira olganligida. Bu borada ijodiy iste'dod, tilning lug'aviy imkoniyatlari ortida aks she'r arxitektonikasi shoiriga ma'lum ijtimoiy-lisoiy doirada o'z g'oyasining original misralarda in'ikos ettira olish imkoniyatini beradi. Binobarin, shoir o'z dahosi orqali til, ong va ijtimoiy dunyogarashning yangi eshigini so'z kaliti orqali ochadi. So'z kalitining tutqichi-badiiyligidir. Badiiylilik esa, olam va odam go'zalligining his qilish, in'ikos etishning yagona etimoni-mehvaridir. Mumtoz adabiyotda badiiylilki konkret ijodkor va uning ayrim asarlari misolida tahlil qilish, uning germenevrik qirralarini ochib berish asar matni arxitektonikasining ifoda imkoniyatlarining paradigmatlarini o'zlashtirishda muhim omil bo'ladi.

#### 4.2. Z.M.Bobur asarlarida lingvopoetika masalalari

##### 1) Bobur lirikasidan bir ruboiy tahlili

Biz qanchalar o'zimizni anglaganimiz sari, shunchalar tarix tomon intilaveramiz. Tarix pardasi ortidagi buyuk siymolar, o'zlarining nuratshon faoliyatlarini bilan yo'limizni yoritib turadilar. Zotan, bizning kimligimizni o'shalar belgilib bergan va biz ular talqinida dunyo yuzini ko'ramiz.

Mana shunday ulug' siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdiki, o'zining jonbaxsh g'azallari, jahonshumul «Boburynoma» asaridan tashqari, qator ilmiy asarlari bilan ham olamga tanildi. Angliya Hindiston, Vengriya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarda uning ijodiy dunyosi keng ko'lamda o'rganildi va o'rganilmogda.

Bobur tahlilkali hayoti davomida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida bo'ldi. Xalq tilini, madaniyatini, o'simlik va hayvonot olamini o'rgandi. g'alaba nashidasini surdi, mag'lubiyat azobini tortdi. Uning

ijodiy merosida hayotning mana shunday ikir - chikirlari o'z ifodasini topdi. Bu bir xususiyat. Ikkinchisi uning shoh avlodi sifatida dunyoviy ilmlardan chuqur ma'lumot olganligi va o'zining talant va qobilyati bilan ularni tahlil qila bilishi orqasida kelajak uchun nodir ilmiy manbalar qoldirganligi. Biz uning lirikasini germenevrik yoki arxitektonik nuqtai nazaridan ham mantigan, ham shaklan o'rganiganimizda undagi mana shu iste'dod va achchiq hayot tajribasi naqadar uyg'unlashganligining shohidi bo'lamiz. Yana muhimi, shu uyg'unlikni ifodaga keltirgan shoir asarlarida tilning qudrati. Misol tariqasida uning bir ruboiysini tahlil qilamiz:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,

Har kimki jafok qilsa, jafok topqusidir,

Yaxshi kishi yomonlig' ko'magay harqiz

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

Shu bir ruboiyda Bobur eski o'zbek tili imkoniyatlaridan mukammallik bilan foydalangan holda ulkan badiiy g'oyani tashiy oladigan ruboiy yaratishga erishgan.

E'tibor bering, ruboiy arxitektonikasi markazida ikki tip ustida so'z boradi, birinchisi vafodor, yaxshi; ikkinchisi jafokor, yomon. Birinchi va ikkinchi misralarda xislat egalari xislatining uyg'unligi uning javobi, ya'ni:

Vafo - vafodor,

Jafokor - jafokor.

Bu yerda badiiy mahorat shundaki, inson o'zining xislati kabi abstraktlashiriladi va ikki mavhum xislat bilan barobarlashadi, bir nom ostidagi sinonimiyani (ma'nodoshlikni) hosil qiladi. To'rtlikning nehinchi misrasida antiteza inkor yuklamasi (-ma) bilan beriladi, shoir xususiyatni (yomonlikni) doimo nisbiylashtirishga intilganligi oshiq ko'rinish turadi va aytadiki, «yaxshi kishi yomonlig' ko'magay harqiz», ya'ni yaxshi - yaxshi, biroq sen yomon bo'lma, yaxshi bo'l. Bunda «yaxshilik» bilan «yomonlik» antitezasi dunyodagi barcha jahlbiy va salbiy fazilatlarning umumiy timsohi sifatida gavalanadi. Bu "yaxshi" so'zining ortida fazilat, saxovat, mehr, jasorat, himmat, qo'yinlik, boriki insoniy fazilatlar mujassam bo'lsa, bir "yomon" so'zi ham dunyo-dunyo ijtimoiy kategoriyalar mujassamiga aylangan.

Ruboiyning butun mantiqi, falsafasi uning so'nggi satrida ochilyapti: Yomon bu - yomon - jazo.

<sup>1</sup> Уша жойда. I-жилд. 118-сёр.

Shoir o'z salbiy xususiyatli qahramonini harchand yomonlikdan asramasin, ilojini qila olmadi va uni jazoladi.

Ruboiy g'oyasining sxematik mantiqi shunday:

Vafo - vafo jafo - jafo

(yaxshi) (yaxshi) (yomon) (yomon)

Yaxshi - yomon Yomon - jazo.

Butun munozara shu to'rt so'z (vafo, jafo, yaxshi, yomon) vositasida yagona falsafa — jazo bilan xulosalangan.

Shu shaklda ruboiyning janr arxitektonikasi inson ma'naviy dunyosining shunday nozik sirlarini kashf etadiki, bu kashfiyot badiiyati o'tkir til vositasida jarangdor yangraydi.

## 2) «Boburnoma»da joy nomlari germenevtikasi

Bobur adabiy merosi matn xususiyatlari tahlili borasida uning asar poetikasini shakllantirish jarayonida qo'llagan usullari tadqiqi muhim rol o'ynaydi. «Boburnoma» asari bir tomondan tarixiy-memuar asar bo'lsa, ikkinchi tomondan unda qator adabiy-badiiy ma'lumotlar mujassam qilinganligi bilan ahamiyatlidir. Asar matnini shakllantirish, unda adabiy-badiiy ma'lumotlarning berilish usuli o'ziga xos. Shoir asar matnini shakllantirish jarayonida Sarguzashtnoma janridagi tarixiy — memuar asar sifatida «Boburnoma» ning (Bobur Z.M., Boburnoma. —T.: 1989. Misollar shu nashrdan olingan) Markaziy Osiyo toponimikasiga qo'shgan hissasi beqiyos.

Asarda keltirilgan toponimik ma'lumotlar uning germenevtik g'oyasini mukammallashirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bobur qiziqish saviyasining kengligi asar toponimikasi ahamiyatini yanada oshiradi. Asardagi kishi nomlari, sifat (rang nomlari) bilan, «bog'» so'zi gal'a, navohi kent, -zor, -iston, -pur, -sti, -iya, dara, g'or, o'lang, rabot kabi qo'shimcha va so'zlar bilan o'simlik va hayvon nomlari bilan, narsa, daryo, ko'l, ariq nomlari bilan va qo'shma otlar bilan yasalgan joy nomlari uchraydi. Ba'zan joylar qabila nomlari bilan ham yuritiladi (masalan chakrak eli — Chakrak 32-bet).

Bobur joy nomlarini keltirish bilan birga ularning ta'rifi, joy nomining qanday paydo bo'lganini ta'riflab o'tadi. Bu ishini u bevosita hikoya ichida, voguealar davomida bajaradiki, asarning tarixiy va ilmiy ahamiyati, binobarin, uning badiiyati zo'rayadi.

Hodarvish dashti haqida yozadi:

Xo'jand bilan Kondibodom o'rtasida bir dasht tushuptur, Hodar-

vishg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta el borur. Marg'imong'akim, sharg'qdur, hamisha mundin el borur. Xo'jandg'akim g'arbidur doim mundin el kelur. Tund ellari bor. Derlarkim, bir necha darvish bu badiyada tund elga yo'lquub, bir-birlarini topolmay, «Ho darvish, ho darvish» dey-dey halok bo'lupturlar, andin bu badiyani Hodarvish derlar (7-bet).

Biz bu ta'rif vositasida «Hodarvish» joy nomini undov (ho) va shaxs oti (darvish) dan yasalganini bilib olamiz.

2. Qo'shma so'zli joy nomlari «ot-fe'l» sxemasida uchraydi: Sayxun daryosining yogasida, Takasekretku degan erda, bu jihatdin ul mavzu bu nomg'a mavsumdurki, tog' domanasi jihatdin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul erdin taka sekrigandur (10-bet).

3. Bobur joy nomlari ta'rifga har taraflama yondoshadi. Terminning paydo bo'lishiga asos bo'lgan hodisalarga ham to'xtaladi. Joy nomiga to'la ta'rif berishga intiladi: Ba'zi derlarkim, bu o'lanning oti koni obgir ekandur. Vale tarixlarda Konigil biturlar (46-bet). Yoki: Bahorlar salhosi va shahri va bomi va tomi xo'b sabz bo'lur uchun Shahrisabz ham derlar (47-bet).

4. Joy nomlarining eski variantlarini keltiradi va yangisiga solishtirib, uning paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan voguealarga bog'lab qaysi tildan olinganini ko'rsatadi: Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar. Qarshi mo'g'ulcha ayur, go'rxonani mo'g'ul tili bila qarshi derlar (47-bet).

5. Joy nomlarini bir-biriga solishtiradi, qiyoslaydi, joy nomi ma'nosiga izoh kirradi: g'ayri Hindustonni Xuroson der, nechukkim, arab g'ayri arabni Ajam der (117-bet).

6. Biror hududda yashovchi aholining ayrim tovushlarni talaffuziga-tilning dialektik xususiyatlariga asosan kelib chiqqan joy nomini agratib ko'rsatadi: Ba'zi mahal kof o'rning'a g'ayn talaffuz qilurlar, bu jihatdin g'olb bu viloyatni lamg'on deburlar (121-bet).

7. Qo'shma so'zli joy nomlarini har bir komponentini alohida-alohida ta'riflaydi. Qo'shib qo'llanishiga asos bo'lgan hodisani ko'rsatadi: Qo'ychi va cho'pon gohi gala va ramani bu yo'l va tani bilan indurur uchun bu yo'lni Go'spandiyor der emishlar. Yo'lni afg'on tili birla llyor demishlar (134-bet).

8. Joy nomining paydo bo'lishiga asos bo'lgan predmetga e'tibor qaratadi, predmetning joylashgan o'rmini ko'rsatadi. Uning o'sha er

tilidagi nomi va ona tilidagi tarjimasini beradi: «Fini xotiy derlar darvozani pul. Bu darvozaning chiqishida bir flining suratini mujassam qilibturlar..... Bu jihattin Xotiy pul derlar» (313-bet).

9. Joylarning tabiati, yog'ingarchilik ko'p yoki oz bo'lishiga ishora qilingan joy nomlarini ko'rsatadi: «To'qquz rud ushbu tog'din chiqar, bu tog'din hargiz qor o'ksumas. Bu jihattin Ko'hi Safid derlar». (121-bet).

10. Hukmdorlarning tug'ilgan joylarini va ularning qabrlari joylashgan erlarni keltirib, joy nomiga bog'laydi: «Sulton Mahmudning, gabri g'aznining mahallotidurki, sulton gabri anda uchun Ravza derlar» (126-bet).

«Boburnoma» da 921 ta joy nomlarini uchratish mumkin. Ular mamlakat, viloyat, shahar nomlari; kentlar, navohlar. Tuzlar(maydonlar), bog' nomlari, tog'liklar, qishloqlar, boidiyalar, dashtlar, cho'llar, dara nomlari, o'tanlar, bandlar, ko'tallar, rudlar, qo'rg'onlar va hokazo hududiy birliklarga nomlari ostida guruhlanishi mumkin.

Joy nomlarining yuqoridagi hududiy bo'linishi hamda nomlar evolusiyasini kuzatish milliy til, milliy adabiyot hamda tarixning hali ma'lum bo'lmagan qirralarini o'rganish uchun material beradi. «Boburnoma» da aks etgan joy nomlari ta'rif asar badiiyati yuksaltirishi bilan bir qatorda uning arxitektonikasi orqali ifoda imkoniyatlarini ham oshiradi.

#### 4.3. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodiy merosining badiiy-poetik tahlili

XIX asr o'zbek mumtoz adabiyoti o'zining muhim badiiy — estetik hamda ijodiy — poetik xususiyatlari bilan o'zidan avvalgi adabiyotdan farqlanadi. Binobarin, bu davrda o'zbek adabiyoti va adabiy tili ma'lum yangiliklar, imkoniyatlar kasb etdi. Aytish kerakki, to XIX asrga qadar bo'lgan davr adabiyoti bevosita Navoiyning kuchli ta'siri ostida shakllandi (Ayrim istisnolarni hisobga olmaganida). Biroq XIX asrga kelib o'zbek mumtoz adabiyotiga Fuzuliy ijodiyoti, fors — tojik adabiyotining ta'siri kuchaydi.

Qo'qon adabiy muhiti ijod qilgan qator shoirlar bevosita Fuzuliy asarlari, uning tili xususiyatlari ta'siri ostida she'rlar yozdilar. Bu hol XIX asr birinchi yarmi o'zbek adabiyotining ba'zi poetik xususiyatlarida

qator o'zgarishlar yasadi. Biz quyida mana shu o'zgarishlarning ayrim qirralarini, ularning badiiy matn germevenik va arxitektonik hamda poetik til taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini aniqlashga intilamiz.

##### 1) Amiriy asarlarida tili va uslub masalasi

Shoir Amirsaid Muhammad Umarxon — Amiriy 1787 yilda Qo'qonda dunyoga keldi, 1810 yilda xon qilib ko'tarildi. U davlat rahbari sifatida ijtimoiy — siyosiy ishlar bilan bir qatorda badiiy — ijodiy faoliyati jamiyatda o'zbek tili va adabiyotini takomillashtirishda muhim manba bo'la oladigan go'zal she'rlar yaratdi.

Amiriy o'zbek va fors — tojik tillarida ijod qilib, kattagina lirik devon meros qoldirgan. Uning she'rlarida o'zbek, fors-tojik va qardosh o'zaroqon mumtoz adabiyoti an'analari eng go'zal xususiyatlari aks etgan.

Shoir devoni g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, ruboiy janridagi lirik she'rlarni o'z ichiga oladi. Devon debocha bilan boshlanadi. Amiriyning turli davrlarda ko'chirilgan 26 ta qo'lyozma devoni hisobga olingan. Bu qo'lyozma devonlar Sankt Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida Amiriyning 17 ta qo'lyozma devoni saqlanadi. Bundan tashqari shu institut fondida shoirning litografik usulda chop etilgan devon va buyuzlari ham bor. Bular Toshkentda 1888, 1898, 1901, 1905, 1907, 1910 yillarda chop etilgan va Istanbulda 1881 yildan 1887 yilga qadar 8 marotaba qayta nashr etilgan asarlardir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi «Fan» nashriyotida 1972 yilda mo'tabar qo'lyozma va litografik devonlar asosida Amiriyning devoni kirill yozuvida chop etildi. Devon debocha bilan ochilib, unda 216 g'azal, 6 muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq hamda shoirning Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Jomiy, Bedil, Kamol va Zalliy g'azallariga bog'lab yozilgan muxammas janridagi she'rlari muqassam qilingan (Amiriy. Devon. —T.: Fan. 1972.; Misollar shu nuqtdan olingan).

Amiriy o'z asarlarida turli mavzularni istifoda etadi, buning natijasi o'laroq shoir tavsiflayotgan holat yoki xususiyat qator joy nomlari bilan bog'lanadi. Asar arxitektonikasida shoir ruhiy holatining in'ikosi sifatida aks etgan bunday lirik etyudlarni tushunish natijada ruhiy-psixologik, balki geografik, siyosiy-ijtimoiy masalalarga bog'liq ekanligi



asar matnini tushunishda uning mundarijasida o'rin topgan toponimlar bilan bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Ayrim hollarda toponimlar g'azal mazmuniga muvofiq ravishda germanevik jarayonda ishtirok etadi, o'ziga xos ma'no anglatadi:

Bosh olib hajringda sayri Sabzavor aylay (274).

Sabzavor "o'tloq", "joy nomi" ma'nolari bilan asar mazmun doirasini, uning tushunilishidagi semantik paradigmani kengaytirish uchun qo'llagan.

Shoir qator toponimlarni bir she'rda asar semantikasini shakllantirish uchun juftlab qo'llaydi:

Gurjiston, Farangiston, Rum,

Farg'ona, Turkiston, Hindiston (242).

Yoki: Nahovandu Xrosonu Iroqu Sifahon (59).

Shoir bir necha joy nomlarini bir asar, bir baytning ichida qo'llaydi: Mulki Turon (207), Chinu Xito(207), Bengalo (207), Kashmir (207) va boshqalar.

Amiriy she'rlarida o'g'uz lahja belgilari ko'plab uchraydi. Qator so'zlarning shakl xususiyatlari turk, ozarbayjon, turkman tillariga xos fonetik, morfologik xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Xususan, ko'randa (ko'rganda ma'nosida 55), o'lmisham (bo'lganman 38), xizra verding (xizrga berding 31), istaram (istayman 27), qararib (qorayib 275), oshig bo'lan (oshiq bo'lgan 203), yig'laram (yig'layman 189) kabilarda bu hol aniq kuzatiladi. Shuningdek, ayrim so'zlar o'g'uz-qipchoq lahjalari tillarining lug'at qatlamiga mansubligi bilan ajralib turadi. Bular qatoriga al (qo'l 51), injitib (xafa qilmoq 78), kuchak (kichik 59), buzruk (katta 59), qavlama (quvlama 49), cho'x: cho'q (o'ta, zo'r), inonmoq (ishonmoq 267), o'sonmoq(uyalmoq), benzaldim (o'xshatdim) kabilarni kiritish mumkin. Ayrim so'zlarning fonetik tarkibi arxaik shaklga ega: yidi (hidi 183). Shoir asarlarining lug'at tarkibiga nuqtaning og'zaki shakliga xos qo'pol so'zlarni (varvarizmlarni) ham kiritgan:

O'zgalat husnini tamosho aylasam chiqsun ko'zum 293.

Qo'fiyalarda o'zbekcha so'zlardan keng foydalanadi, badiiy asar tilini yangi lug'aviy elementlar hisobiga boyitadi: bo'ydoshimudur 303, kokul 218, chopovul 218, podoshingiz 88, qoqimung 316, qalammasun 179, qo'zg'almasun 207, itgali 274, ketgali 274, etgali 274, kengashingiz 83, chbin 198, ishonmaydur 267, inonmaydur 267, o'sanmaydur 267.

Kadillar qo'llashda ham originallikka erishadi: cho'x 46, o'tirgudek 112, suchuk 113, kirpuk 114, qorvu qirmiz 86, qo'zg'almasun 207, kokul 150, dasta-dasta 218.

Amiriy real adabiy – iloniy muhida so'zlarning shakl va ma'no xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. Zid ma'noli so'zlarni juftlab qo'llash orqali tazod san'atini yaratadi, asar tilini jilolantiradi:

1. Men kibi dahr ichra yo'q - boridin aytilmasun 196.
2. Bir chuchuk so'z bidim, achchig'i kelsa ul gul 95.
3. Baski har nodon uringan ishi dono aylamas 909.
4. Jahon sovuqlig'ida bor issiqlik,  
Ne uchunkim kelur qishdin keyin yoz 85.

O'xshatish – tashbehtar qo'llash borasida XIX asr o'zbek tilining leksik – semantik imkoniyatlaridan mukammal foydalanadi. Shuningdek, yangi o'xshatishlar yaratishga erishadi:

Xolni chibingga o'xshatadi:

Labi ustida xoli xush shakar uzra chibin taxsin 198.

Kengash so'zini maqsad, fikr ma'nosida qo'llab yangi tushuncha hosil qilishga erishadi:

Men jon nisor etim, vale sizning nedir kengoshingiz 83.

Boshqa o'rinda shu so'zdan o'xshatish uchun muvaffaqiyatli foydalanadi:

Boshin egib bir-biriga kengashdi ikki qoshingiz 83.

Forscha izofali birikma qo'llab o'xshatishni kuchaytiradi:

Yidi vasilindin menga yuz dog'i xirmondur nasib,

To qoshing yoyini yangi oyining qurboniman 183.

O'xshatishlar qo'llash jarayonida etnik nomlarni semantik muomalaga kiritadi:

Ko'zlari ishq ahlining dinin taro'j ettilar

Hech kim topmas omon ul turklar yag'mosidan (210).

O'zlashma so'zni o'z qatlamdagi so'zlar bilan almashtirib yangi o'xshatish, binobarin, yangi tushuncha hosil qiladi:

Kuygan yurakning sho'rini ashkim fuzun etar,

Andoqqi tuz suyi bila bo'lg'ay kabob talx (45).

Shoir badiiy san'aplar qo'llash borasida o'zbek tilining lug'aviy imkoniyatlaridan muvaffaqiyatli foydalanadi. Fikrni lo'nda, jozibali ifodalash uchun turli antitezalar yasaydi:

Xoh o'ltursun ko'ziyu xoh tirguzsun labi  
Mehribon derlar ani, nomehribon derlar ani (138).

Yoki  
Sebi g'abg'ablar firoqida bhidek sarg'arib (74).

Jumlasida olma (seb)ning rangi bilan bihi rangini solishtirish orqali lirik gahramon holatini sharhlash uchun yangi lug'at, yangi o'xshatish, yangi tushuncha hosil qilmogda.

So'zlarni yangi, original ma'noda qo'llash bilan ularning semantik – stilistik doirasini kengaytiradi:

Nozanimlar va'dasin yolg'on bilurlar puxta el  
Va'dai xom ila bizni badgumon qilmog nedur (72).

Yuqoridagi qisqacha tahlil shuni ko'rsatadiki, XIX asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan shoir Amiriy o'z davri badiiy tilining lug'aviy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda yuqori saviyadagi badiiy asarlar yaratishga erishgan. So'zlarning semantik – stilistik imkoniyatlarini kengaytirib, badiiy san'atlar orqali yangi tushuncha, yangi mazmun ijod qilgan. Badiiy tilning leksik – semantik taraqqiyoti uchun hissa qo'shgan.

## 2) Nodira asarlarida badiiy til bo'yicha mulohazalar

Mohlaroyim Nodiradan bizga qadar uchta devon etib kelgan. Ularda shoiraning Komila, Nodira va Maknuna taxalluslari bilan yozilgan o'zbek va tojik tillaridagi lirik asarlari jamlangan. Shoir o'zbekcha devoniga yozgan debochasida Navoiy, Fuzuliy, Amiriy devonlari qatori saroydagi xattot ayollar ishtirokida o'zi ham devon tuzganligi haqida ma'lumot bersa-da, haligacha shoir hayotligida ko'chirilgan yoki uning o'z dastxatidan iborat bo'lgan asarlar topilganicha yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida Nodiraning XIX asrning ikkinchi yarmida ko'chirilgan to'la bo'lmagan bir devoni (inv.4182), fors-tojik tilidagi Maknuna taxallusli devoni (inv.7766), Qo'lyozmalar instituti fondidan olingan yana bir devoni (inv.3113) saqlanadi.

1988 yilda shoiraning Komila taxallusi bilan yozilgan yangi devoni topilgach, shoir o'z yig'irib yozilgan yangi ma'lumotlar aniqlandi. Devon tekshirilganda unga shoiraning o'zbek tilidagi she'rari to'laigicha Komila taxallusi bilan kiritilganligi aniqlandi. Shunday qilib, Nodiraning bugungacha aniqlangan o'zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari o'n besh ming misrani tashkil qilmogda.

Nodiraning o'zbekcha devonlari shoiraning kattagina debochasi bilan ochiladi. Ularda shoiraning g'azal, muxammas, musaddas, mumman, tarkibband, tarjiband va firoqnomma kabi adabiy janrlarda yozilgan asarlari jamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining «Fan» nashriyatida 1993 yilda shoiraning o'zbekcha iborat bayozi chop etildi (Nodira. Bayoz. –T.: Fan, 1993. Misollar shu nashrdan olingan bo'lib, raqam kitob sahifasini bildiradi).

Nodira asarlari tovush tizimi o'rganilganda ko'p hollarda singarmo-nuzning buzilganligini kuzatish mumkin. Ko'ngil, ko'cha, ko'shk kabi so'zlar jo'nalish kelishigining -g'a, -qa shakli bilan turiladi. Aksincha, tufroq, qosh so'zlari bu kelishikning yumshoq -ga, -ka shakllarini olgan. Avrim o'rinlarda tanglay va labial garmoniyaning saqlangan o'rinlarini ham kuzatish mumkin. masalan, ko'zlari, yig'ladi, uchurgandek, oyog'iga, elga, ko'zunga, ko'nglum, kelako'r, o'ldug'um, yuzlugum kabi so'z shakllarida bu hol kuzatiladi.

Nodira asarlari tilining eng xarakterli xususiyati bu – zamon-doshlarida bo'lgani kabi ko'p hollarda so'z va so'z shakllarining g'arbiy turkiy tillarga xos variantlari qo'llanganligidir. Xususan, jo'nalish kelishigi – a(ya) bilan ifodalanadi: jahona, mug'a, ko'zguya, dog'a kabilarda. Qolaversa, berdi-verdi, bunday-bo'yla, yo'q-yo'x, ko'p ma'nosida cho'x qo'llanishi bu fikrlarni tasdiqlaydi.

Nodira badiiy adabiyot tiliga qator yangi so'zlarni olib kirdi: beparda, sangdil (toshbag'ir), tanob, chaspon(yassa), osori muhabbat (muhabbat yodgorligi), burut, miyno(vino), tugma, magas, abrash, xarposh(toshbaqa), yovar va boshqalar. U o'z asarlarida eski o'zbek tilidagi sinonimik birliklardan mahorat bilan foydalanadi: al -qo'l, o'q -paykon, yuz – sad, maslahat –kengash, tufrog' - turob, kiprik-mijgon kabi.

Shoir asarlari tilida original o'xshatishlar ko'p uchraydi. O'xshatishlar uchun xalq jonli tilidan hamma uchun tushunarli bulgan lug'aviy vositalar tanlaydi:

Ne maxfida shahdu shakar yalanding  
Ki, bir – biriga chospondurlar ikki lab. 26.

Yoki  
Ko'zlarim yig'ladi zulfingni ko'rib  
Ki yog'in boisidur tiyra bulut. 98.

Tazod san'ati hosil qilish uchun zid ma'noli so'zlardan unumli foydalanadi

Yor uchun ag'yor dardind tortamen,  
Ko'rmadim bir yorni ag'yorsiz.

Yoki

Qizil qondur sirishkim, za'farondur chehrai zardim,  
Meni kim ko'rsa farq etmas, xazon birla bahorimdin. 76.

O'sshatishlar yaratish borasida tarixiy shaxslarga ishora qilish ikki san'at hosil qilishga erishadi:

Ko'zdagi mijgonlarini kilki Behzod aylagach. 98.

Nodira tilning lug'at qatlamini shakllantirishda ham o'ziga xoslikka intiladi. Asarlarida til lug'at tarkibining ma'lum bir mavzu guruhiga kiruvchi terminlarni keltiradi. Bu hol unga asar arxitektikasi orqali ma'lum ijtimoiy ruhi shakllantirishga yordam bergan. Masalan: burut, miyno, sanjob, chaspon, pirohan, olma, jigar, mug', foxta, bulbul, mor, qish, bahor, turra, soch, mug'lon, xorposh, o'q, paykon, kilik, ko'zgu kabilar.

Nodira zullisonayn shoira sifatida fors-tojikcha she'rlar yozdi. Ikki tilli ijod shoiraga ayrim fors – tojikcha lug'aviy birliklarni o'zbekcha she'rlariga olib kirishiga imkon berdi. Ayrim hollarda o'zbekcha so'zlar vositasida forsiy izofa yaratadi: tani log'ari, moyili ag'yor, mo'yi miyon, xoqoni Xito, xalifai Rum, gulshani g'am va boshqalar. Radif va qofiyalarni shakllantirishda turkiy so'zlarga murojaat qiladi. Xususan, keldi, o'lay, meni, ayru, o'rgilay, naylay, etnak, kerak, kengash, yo'x kabildan qofiya va radif sifatida asarlarida keng foydalaniladi.

Sinonimik qatorlar yaratishda ham o'z va o'zlashma qatlarga oid so'zlarga murojaat qiladi:

Hajr ichra firoq shiddatidin

Yo'q nolayu sad hazor faryod 87.

Nodira asarlari til xususiyatlarini kuzatish orqali shunday xulosaga kelish mumkin: shoira o'z asarlari badiiy saviyasini oshirish maqsadida o'zbek tilidagi lug'aviy birliklarning semantik-stilistik xususiyatlaridan mahorat bilan foydalandi. O'zbek badiiy adabiyoti tilini yangi so'z va iboralar hisobiga boyitdi, uning arxitektolik ifoda imkoniyatlarini shakllantirish borasida o'z asarlarining germelevik istifodasi variantlarini kengayitirdi.

### 3) Uvaysiy she'riyatida o'g'uz lahja belgilari

Jahon olin Uvaysiy XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan iste'dodli shoiradir. Uvaysiyning 1857-1858 yillar orasida Muhammadshoh Yunusxon tomonidan ko'chirilgan devoni O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida inv. 1837 – sh raqami ostida saqlanadi. Devonga shoiraning 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba va «Karbalomna» yoki Shahzoda Hasan va shahzoda Husayn» dostoni hamda «Vog'oti Muhammad Alixon» nomli asarlari kiritilgan. Uvaysiyning hamma asarlari o'zbek tilida bo'lib, shuningdek, devondagi asarlar orasida Navoiyning 9, Fuzuliyning 3 va Amiriyning 5 g'azaliga muxammaslar mavjud.

Uvaysiyning 1960 yillarda topilgan boshqa 3 ta devonida g'azal, muxammas, musaddas, musamman, murabba, mustazod, masnaviy, ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlar jamlangan bo'lib, ular o'n ming mirdan ortiqrog' she'rni tashkil qiladi. Uvaysiy she'riyatida g'arbiy turk tillari, xususan, Fuzuliy asarlari tilining kuchli ta'siri sezilib turadi. Uning asarlarida quyidagi o'g'uzcha so'zlar uchraydi: achmadug'im, qovlamnoqliq, o'ksutma, bulbuli banalayim, banga, bilman, ayturam, bo'imsham, nachuk, ela, yo'qtur, dog' o'idi, cho'x, sak o'lub, qitan, nolun va boshqalar.

Uvaysiy devonida shevaga xos so'zlar ham uchraydi: shatta urdi, ketti mag'rib, himmat qo'rin belga tang'ib kirdim muhabbat yo'lig'a va boshqalar. Bu erda shatta tez va aniq harakat, tang'imog' esa, bog'lamoq ma'nosini anglatadi.

Uvaysiy o'z she'rlarida so'zlarning arxitektolik imkoniyatlaridan mukammal foydalanib, yangi jumla, original tashbeh, eng muhimi original germelevik assotsiatsiya yaratadi. Binobarin, yangi tushunchalarga asos soladi. Masalan, «Bilang meni jononima, dehqoni muhabbat» jumlasida forsiy izofadagi dehqoni muhabbat jumlasini o'zining turli ma'no silsilalari bilan inson tushunchalari dunyosini kengayitiradi. Bu kabi original assotsiatsiyalar murakkab lisoniy vositalar bilan ta'minlanib, so'z o'yini orqali ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Shoira she'rlarida maqol va hikmatli so'zlarning salmog'i asar ma'no tashish imkoniyatlarini kengayitirgan. Ma'lumki, hikmatli so'zni g'azal tarkibiga singdirish alohida badiiy mahoratni talab qiladi. Toki

ijodkor uni qayta ishlovdan o'tkazadi, unga yangi ma'no yukini ortadi, shakl va ma'no arxitektonikasini mukammallashtirgan holda taqdim qiladi:

Til agar mazkurlig'da o'lsa, nodonlig' bu dam,  
Karvon yo'ldin adashgay mohi tobondin judo.

Mumtoz adabiyotda fikr mazmundorligini oshirishga xizmat qiluvchi badiiy tasviriy vositalar ichida takrorning o'rni muhim. Hatto eramizdan oddingi uchminginchi yillarda ham (Misr she'rlarida) misra boshidagi so'z takrori mavjud bo'lib, u eng muhim tushunchani ta'kidlar edi, misralar esa qo'fiyasiz edi yoki so'z takrori yo refren bilan tugallanardi<sup>1</sup>. Boshlang'ich so'z takrori so'zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko'rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmi mustahkamlaydi, misradorlik va banddorlik orqali kelib chiqadigan parallelizm esa she'riy shaklning xarakterli tomonidir<sup>2</sup>.

Uvaysiy ayrim g'azallarda ramziy timsollarni qo'llab, uni takrir san'ati bilan bezaydi, ma'no paradigmalarning yangi ranglarini topadi:

Tog' hamun sohibi Farhod, Majnun do'stlar,  
Majnuni Farhod, Shirin tog' hamun do'stlar.

So'zlarni juftlab qo'llash bilan qator san'atlar vositasida asar tilini shakllantirar ekan, leksik-semantik arxitektonika ma'noning ekspressiv, jarangdor, inson hissiyot dunyosining yangi jilolarini ochganligi bilan farqlanadi. Vaholanki germenevtik sharoit imkoniyatlari kengayadi:

Kunduzum – tun, ko'kragin – xun, qomatim – nun do'stlar,  
Dahr-dun, hech kimu iqboli va jun do'stlar.

Uvaysiy g'azallarida Xo'qand, O'rtepa, Ko'han, Murg' yo'li, Arab, Ajam kabi joy nomlari Xojai Ahror, Qozixonum, Qozogoyim kabi kishi nomlarining uchrashi asarlarida geografik ifoda xolatlari kengligidan dalolat beradi. Qolaversa, shoiraning fikrlash, emosional bayon zonalari milliy-hududiy qobiqlardan chiqib umuminsoniy ahamiyatga dohli ekanligini bildiradi.

Shoira she'rlarning arxitektonik qirralarini tuzar ekan, radif va qo'fiyalarning leksik-semantik originalligini ta'minlashga intilgan. Vaholanki, bunday originallik o'tugum, ayru, dog' o'ldi kabi radiflar, kurashqa, quyashqa, qarashqa, ashqa, qoshqa, oshqa kabi jonli til lug'at

ta'kidlagi so'zlar va so'z shakllarida namoyon bo'lgani holda shoira ruhli holatning istisnoli, boshqalardan farqli manzaralarini aks etishi uchun zamin yaratgan. Badiiy adabiyotda asar originalligi leksik-semantik vositalarning yangi, tesha tegmagan, o'ynoqi bo'lganligi bilan baholanadi. Avvalda qo'llanilmagan yoki kam qo'llanilgan so'zlarga murojaat qilish hamda ularning leksik-semantik imkoniyatlari bilan yangi germenevtik muhit yaratish Uvaysiy lirikasida g'azallarining arxitektonik imkoniyatlarini kengaytirgan. Bu jumlagi yastanibdur, tomnoq, nola, qabz, qayv va boshqalarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Jahon otin Uvaysiy she'riyati poetik qirralari germenevtik tahlili XIX asr o'zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan, uni yangi shakl va mazmun bilan boyishga, badiiy tilning lug'aviy imkoniyatlarini kengayishiga xizmat qilgan.

#### 4.4. Ogahiy lirikasida g'oyaviy motiv va badiiy –lisoniy tahlil germenevtikasi

Muhammadrizo Ogahiy o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan yorqin siymolardan biridir. Shoir ijodining xarakterli xususiyatlaridan biri - lirik asarlarining eng muhim g'oyaviy motivlarini tashkil etgan mavjud ijtimoiy muhitga nisbatan isyon, undan zorlanish motivlarining insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda berilishi.

O'rta asrlarning bo'g'iq- Ogahiyga zamondosh muhitida riyokor, aldanchi va mustahid hukmdorlarning ideologiyasiga aylangan din har qanday ozod va ilg'or fikr hamda harakatni bo'g'ishga xizmat qilar edi. Din muntazam ravishda hukmron sinflarning manfaatini himoya qilgan, holbuki, din peshvolarning aksari solqin va ikkiyuzlamachi bo'lib, ularning fatvosi esa qonun kuchiga ega edi. Ogahiy mana shunday muhitda xalqni ma'rifatga chorladi, katta jasorat ko'rsatgani holda ilm-ma'rifatni targ'ib qildi:

Ilm andoq ganji nafe'dur bani odamg'akim  
Kimda ul bo'lsa, iki olam bo'lur obod anga  
Kasbi ilm etmay kishi gar qolisa mahzi jahli aro  
Ikki olam obro'si bo'lg'usi bartbod anga.  
(Ogahiy. Asarlar. 1-jild. Toshkent. 1971-bet).

Shoir g'azallarida shaxs hayoti bilan bog'liq bo'lgan masalalaridan

<sup>1</sup> Литература древнего Востока. – Москва: 1971. стр. 34.

<sup>2</sup> Длабегет назарияси. 2-жилдик. –Т.: 1979. 389-бет.

torib, davrning muhim ijtimoiy masalalari hamda falsafiy fikrlari aks etgan. ularda mavjud jamiyada johli, fosiq odamlar davlatmand bo'lganligi uchun izzat-hurmata bo'lib, aqli, dono, halol mehnati bilan kun ko'ruvchi odamlar xorilikda yashaganliklari afsus bilan qayd qilinadi:

Odamlar uldur bu jahon ahli aro

Qaysi hayvonning esa siymu zari

Kirmagay zarisiz kishilik sonig'a

Sa'diy o'lsun fazl aro yo Anvari. II jild. 66-bet.

Ogahiy hay'iy asarlar yaratish borasida Navoiy va Munis an'analari davom ettiradi. Munisning "Ro'za" g'azali ta'sirida "Ro'zi aylab mani base diltang" misrasi bilan boshlanadigan g'azalini yaratadi. Bu g'azal Ogahiyning uslub va til jihatidan eng soddada va ravon yozilgan asarlaridan biri bo'lib, uni o'qiganda o'quvchi ko'z o'ngida ko'zlari nursiz, rangi sarg'aygan, bukchayib xayolga tolgan kasalmand bir kishi paydo bo'ladi. Bu g'azal xalq qo'shiqlarini eslatadi, unda so'zlashuv tiliga mansub qator so'z va iboralar mavjud, bu hol, ayniqsa, she'rning qofiyasida yordim namoyon bo'ladi.

Davrning ijtimoiy bo'ronlari yaqqol aks etgan "Qish" radifli g'azalida Ogahiy mehnatkash xalqning, og'ir ahvoli, yuqori tabaqalari, hokim sinfi, boylar, savdogarlarining munofiqligi va shafqatsiz ekanligini, insoniy fazilatlaridan mahrum jamiyatdagi bir-biriga zid hayotni tasvirlaydi. Odamlarning yashash tarzi va qiyofasini ochib berish uchun shoir turli adabiy-lisoiy vositalardan: qahraton qish, qaqshatqich sovuq kabildardan o'rinni foydalanadi va ishonarli manzaralar yaratishga erishadi:

Ne bilursan kechalar faqr ahlidin ne o'tkanin,

Bistari zarin uza ey kin qilursan xob qish.

Ulgado holiq'a rahm ekim, sovuqdin har kecha.

To sahar afg'on chekib ashkin to'kar yig'lab qish.

Ey g'ani, boge'il yalbig'lar holiq'a bu shukr uchun

Kim kiyarsan tuv-batu qoqim ila sinjob qish.

Ogahiyning surati xoliq'a boqkim ayladi

Ashki har yondin oqib ruxsotin astarlob qish. I jild, 239-bet.

Shoir moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadigan, biroq o'zi hamisha muhtojlikda, qashshoqlikda yashaydigan, mehnatining rag'batini ko'rmaydigan, umri azobda o'tib borayotgan xalqning g'am-qayg'usini

ifodalaydi. Mehnatsiz talon-taroj yo'li bilan boylik ortirib, umrini ayshu-ishratda o'tkazayotganlarga o'z nafratini yo'llaydi:

Tarab bazmi aro bekorlar doim qilib ishrat

Hamisha xizmat ahli mubtalodur ranju mehnatda.

Alarkim behunardur dam-badam xil'at kiyib qat-qat

Hunar ahli vale muhtojdur, bir ko'hna kisvatg'a. II jild, 33-bet.

Ogahiy juda og'ir, mushkul zamonda yashadi. Bir tomonda xonlar, beklar o'rtasidagi betinim nizo, qon to'kish va tashvishlar, bir tomonda zaminidor, davlatmandlarning zulmi, boshqa bir tomonda bu zulmlarga sabr-toqat bilan chidashga, mo'minlikka chaqiruvchi shayx ulamolalar va hokozo. Shoir zolim shohlarni, talonchi boylarni, fosiq, muttaham din peshvolarini fosh etish, tanqid qilish bilangina cheklamadi, xalqqa qilingan jabr-zulmni hech narsa bilan oqlab bo'lmastigini aytdi:

Zulm ila etkurgan zoring raiyat ko'ngliga

Bir jarohardurki, butmas hech bir malham ila. I jild, 84-bet.

Ogahiy boshqa bir turkum she'rilarida bahor manzaralarini ajoyib mahorat va shodlik, rubiy ko'tarinkiilik va ehtiros bilan chizadi, kuylaydi, ularni sevinch, real hayotga bo'lgan muhabbati bilan qorishitirib beradi. Shu orqali insonni tabiat go'zalliklaridan ilhomlanishga, shodlik va nafosatga intilishga chaqiradi, da'vat etadi. Ogahiy tabiat ko'rinishlari, mavsum manzaralarini tasvirlash orqali inson taqdirini, zamon olamlarini, o'zining yurak dardlarini ifodalaydi. Bahor fasli, bahorgi shahar va sahroni olqishlagan shoir bir g'azalini quyidagi satrlar bilan yakunlaydi:

Firoq ichra dema so'z Ogahiyg'a shahrul sahrudin,

Kim anduhi g'amin daf' aylamas ham shahrul, ham sahrul. I jild,

84-bet

Ogahiy insofi-nomusli, ozod hayotni kuylaydi, inson diti hamda hayotini bezaydigan tabiat go'zalliklarini tarannum etadi, inson qadri, ehtirol, unga bo'lgan sevgi va sadoqati orqali insonning baxt-sadodatini ardoqlaydi. Binobarin, u bir tomondan jamiyatdagi ayrim noqonuniy illarlardan nafratlansa, ikkinchi tomondan tabiat, tabiat fasllari, manzaral, bog'u bo'stonlar, navro'zni olqishlab shunday g'azallar bitadiki, ularda tabiat manzaralarining sirli musiqasi, har qanday insonning ham ko'ziga chalinavermaydigan nazokatu latofati sehri misralarda ufuirib turadi:

O'yla etkurdi jahong'a ziyratu oro bahor  
Kim bori er yuzi etti jannat- ul ma'vo bahor.

Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab bahor

Qildi sahrig'a tarovat o'z gacha paydo bahor.

Toza jon etkurdi sarto-sar rayohin jismig'a

Jon fzo el esturub har yon masih aso bahor. 1 jild, 177-bet.

Ogahiy lirikasi hayotiy, real manzaralarga boy. Unda insonparvarlik vatannparvarlik g'oyalari bilan, inson taqdiri muammolari bilan, yomonlikdan nafratlanish, oliyanoblikni ulug'lash bilan uyg'unlashib ketgan. O'zining she'rilarida real insoniy hissiyotlarni, ruhiy kechimmalarni, shodlik va g'ayg'u, dil iztirobi va intilishlarini ifodalaydi.

Taassuf bilan ta'kidlash lozimki, ijtimoiy muhit har doim ham shoir qalb kechimmalari ijobiyligining saqlanib qolishini ta'minlay olmagan. Binobarin, shoir asarlarining ma'lum qismida yolg'izlik, ijtimoiy muhitdan nolish, mahzun kayfiyatga chorlovchi misralar uchraydi. Shoir shaxsiy kechimmalari, shaxsiy hayotiga oid holatlarni ham yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.

Olloqulixon davlatida miroblik vazifasida xizmat qilgan Ogahiy xizmat vazifasi doirasida xalq hayotini o'rganadi, uning og'ir ahvolini yanada teranroq ang'lay boshlaydi.

Shoir psixologiyasidagi demokratizm, xalqparvarlik xon boshliq saroy ahllari bilan shoir o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'lishiga olib keladi. Bu hol, albatta, shoirni ruhiy qiynoqqa soladi, azoblaydi. Natijada u saroyni tark etadi:

Necha umrlar qilding ahli shohga xizmat

Tark etib ani emdi, faqr eliga xizmat qil. 1 jild, 322-bet.

Umrlarning oxirlarida shoirning ahvoli yanada og'irlashadi. U muhtojlikdan, yolg'izlikdan va qarilik azoblaridan zorlanadi. Umr yo'ldoshidan ayritilgan damlarida g'am-alamga to'la misralarni yaratadi:

Qo'ying yig'layki ushbu kun sevar yorimdin ayritildim

Muruvtatig', muhabbatig' vafodorimdin ayritildim

Bahori vasi aro bir andalibi xush navo erdim

Etib hijron xazoni toza gulzorimdin ayritildim

Qarilig' chog'ida quvvat ketib aftoda bo'lg'anda

Juvon davlat, falak qudrat, madadkorimdan ayritildim

Mani motam tunida Ogahiydek yolg'uz, ey ahbob

Qo'ying yig'layki ushbu kun sevar yorimdin ayritildim. 1 jild,

368-bet.

Yana:

Hugun ey do'stlar xolim xarob o'lg'onga yig'larman

Ki, ya'ni dardi dog'im behisob o'lg'ong'a yig'larman. 1 jild,

170-bet.

Yana:

Etib vasiingga bo'ldi barcha olam shod, man goldim

Dame bo'lmay firoqing bandidin ozod, man goldim. 1 jild, 359-bet.

Kabi misralar ham shoir kayfiyati, ichki kechimmalarining in'ikosi hisoblanadi.

Ogahiy lirikasida etakchi motivlaridan biri ishq-muhabbat. Bu motiv nafaqat ko'hna, balki an'anaviy, ayni vaqtda zamonaviy hamda betakror manzaralarga ega. Har bir davr ijodkori bu mavzuga murojaat qilish jarayonida unda o'z davriga xos hissiyotlarni, muhabbat manzaralarini yangi hisoniy vositalar, yangi tushunchalar vositasida tasvirlaydi. An'anaviy obrazlarga yangi ma'no, yangi mohiyat baxsh etadi. Ogahiy lirikasida muhabbat mavzusining in'ikosi ham bu imkoniyatdan istisno emas.

Ogahiyning bu mavzuga bag'ishlangan asarlari markazida lirik qahramon oshiq-shoirning o'zi va uning mahubasi turadi. Shoir – oshiq oddiy insonlarga xos fikr va xayol egasi sifatida boy ruhiy olam bilan yashaydi. Shoirning- oshiqning ruhiy holatini va ma'shuganing sifatlarini tasvirlash uchun go'zal va obrazli badiiy-hisoniy vositalardan foydalanadi:

Yuz ochib kelgan bu tun bazmimg'a dilbarmu ekan,

Yo shabi qadr ichra tuqgan mahi anvormu ekan.

Yuzda la'limu ekan bergan manga jon lazzatin

Yo'qsa jannat guistoni ichra kavsarmu ekan.

Ogahiy nazm aylagan so'zduzumu la'li vasfida

Yo cheklig'an rishtag'a serob gavharmu ekan. II jild, 10-bet.

Shoir o'z holi zori bayonida dialog usulidan ham muvaffaqiyat bilan foydalanadi:

Dedim ul sho'xg'a: ishqingda xasta jonu zorimdur,

Dedi: oning davosi no'sh la'li shahd borimdur.

Dedim: timmay chekar ko'nglum dami ohu fig'on, ey gul

Dedi: ul andalibi zoru besabru qarorimdur.

Dedim: har dam neindur Ogahiyg'a lutf-ehsoning

Dedi: bori g'ami ishqim chekarda ustivorimdur. 1 jild, 169-bet.

Ogahiy olijanob, vafodor yor obrazini yaratadi. Uni tavsiflaydi, ko'klariga ko'taradi, unga sig'inadi. Shuningdek, ayrim she'rlarida aldanchi, bevafo yor obrazi ham ishtirok etadi. Bunday aldanchi va bevafo yorga shoirning munosabati juda murakkab: u go'zal, nazokatli, o'ynoqi va jozibali. Shuning uchun uni sevmasdan bo'lmaydi. U yurakni yondiradi, sergak ongni lol qiladi, hissiyot tizginini o'z qo'liga oladi. Shu bilan birga u yolg'onchi va hiylakor. U o'zining yolg'onchi va hiylakorligi bilan g'ururlanadi: so'zda sodiq, vafodor, biroq amalda aldanchi, bevafo. Tunlarni ag'yor quchog'ida o'tkazadi, may ichadi, ays'h qiladi. Natijada, shoir qanchalar go'zal bo'lmasin bunday mahubadan voz kechadi:

Vahki mandin yoshirun yor o'zgararga yor ekan

Kechalar xilvat aro bazmi nihoni bor ekan

Oshkoro til uchi birla bo'lub moyil munga

Ko'ngli mayli o'zga elga yoshurun bisyor ekan.

Yor topnishlar raqibu muddaiylar olida

Ogahiy, emdi senga ul kuy aro ne bor ekan. I jild, 396-bet.

Ogahiy lirikasidan ag'yor obrazi ham keng o'rin olgan. Stankor ma'shuga oshiqni qiy'nash, azoblash maqsadida ag'yor bilan hamsuhbat bo'ladi, unga nozli tabassumlar hadya qiladi. Bu holatni ko'rgan oshiq hasrat o'tida yonadi, betoqatlanadi:

Yo'q ajab betoqat o'lsam o'z-gacha, ey do'stlar

Kim bu dam yorim erur ag'yorg'a yor o'z-gacha. II jild, 50-bet.

Sevish-sevishni saodat deb bilgan oshiq sevikli yor xayoli bilan yashaydi, undan muruvvat istaydi, ag'yor visoliga talpinib, meni husni jamolingdan mahrum qilma, deb iltijo qiladi:

Xilvati vasing aro ag'yorni mahram qilib,

Aylama mahrum husni bemisolingdin meni. II jild, 64-bet.

Ogahiyning lirik merosi orasida ruboiy, tuyuq va qit'alaridan iborat to'rtliklar ham muhim o'rin tutadi. Shoir ruboiylari davrining eng muhim masalalari yuzasidan hukm chiqaradi, ezgulik va yaxshilikni ulug'laydi, yomonlik va jabr-zulmni qoralaydi.

Ogahiy bir ruboiysida Navoiyga xos motivlarni takrorlaydi: birinchi misrada tikanni parvarish qilgan bilan gulga aylamastligini, ikkinchi misrada zog'ni tarbiya qilgan bilan undan bulbul chiqmasligini mu-shohada orqali ifodalaydi. Keyingi ikki misrada yuqoridagilardan chiqargan xulosasini umumlashtiradi: yomon kishiga ming marta yaxshilik

qilinsa ham, unda yaxshilik niyati paydo bo'lmaydi:

Qilmoq bilan parvarish tikan gul bo'lmas.

Ham tarbiyat ila zog' bulbul bo'lmas.

Gar asli yomong'a yaxshiliq ming qilsang

Yaxshiliq oning niyati bilkul bo'lmas. II jild, 277-bet.

Ogahiy ruboiylari mukammal falsafiy tahlilning mevalaridir. Ruboiylar o'zlarining mavzu xususiyatlaridan qat'iy nazar etuk, teran hikmatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shoir sevgi sadogati mavzuidagi bir ruboiysida bevafo kishi oshiq degan nomga loyiq emas, chunki uning yorsiz kechalarda chekkan hijron azobi yolg'on, degan fikrni ifodalaydi:

Har kishiki tariqi ishq aro sodiq emas,

Oshiqlik oningdin kishiga loyiq emas

Har nechaki cheksa tunu kun ohu fig'on

Bilgiki, jamoli yorga oshiq emas. II jild, 281-bet.

Ogahiy tuyuqlarida ham o'ziga xos poetik mahoratni ko'rish mumkin. Shoir so'zlarining shakli va ma'no xususiyatlaridan mukammal foydalanган holda o'zbek badiiy nutqining go'zal namunalarini yaratishga erishgan.

Chehrasining garchi muhriq nori bor,

Bergusi doim niholi nori bor.

Sig'mag'ung bazmi aro et, muddaiy,

Termulub turma bu erda, nari bor. II jild, 290-bet.

Shoir qit'alarida teran falsafiy fikrlar aks etgan. Ularning bosh il'ovasi didaktika, ya'ni inson tarbiyasi. Qit'alarda qanoat, yaxshilik, adolatparvarlik va ilm ulug'lanadi, baxlilik, pastkashlik kabi salbiy odatlar qoralanadi.

Ogahiy bir qit'asida «Sevmaganga suykalma» degan xalq ta'biridan foydalanadi, chin sevgida zo'rlik yoki zo'ravonlik emas, balki ikki sevishgan ko'ngilning o'zaro mayli bo'lishi zarurligini uqitadi:

Ey ko'ngul kimsakim seni sevmas,

Qoch, oning tegrasiga aylanna

Ki nasihat qilurda o'tkanlar

Dedilar: sevmaganga suykanna. II jild, 266-bet.

Shoir yana bir qit'asida «Mehmon otangdan ulug'» degan xalq ta'birini misralar zamiriga singdirib, agar sening uyingga mehmon kelsa, unga uyingning to'ridan joy ber. Mayli u senga hoh do'st, hoh dushman

bo'lsa ham, deydi:

Agar mehmon senga o'lsa muyassar

Agar joning uyin joy et muqarrar

Chu mehmon do'stingdur, xoh dushman

Ochiq yuzlikni-yu izzatni qil fan. 11 jild, 266-bet.

Ogahiy lirikasining katta qismini muxammas, musaddas, musaman, mustahzod, tarij'band, masnaviy janrlarida yaratilgan she'rlar tashkil qiladi. Bunday asarlarida ham shoir o'z davrining xarakterini, inson va uning qismati, samimiy muhabbat va ezgulikni tarannum etadi. Shoir lirikasida umuminsoniy tuyg'ular barq uradi, lirik qahramon hayot go'zalliklari, visol lazzatidan mast bo'ladi.

Zamon adolatsizliklari, turmush qiyinchiliklari, hayot ziddiyatlari shoirni vaqti-vaqti bilan umidsizlik kayfiyatlariga berilishiga majbur qiladi. Bunday o'kinchi holatlar oz-bo'lsada Ogahiy ijodining ma'lum qismini tashkil qiladi. Biroq shoir lirikasining asosini, insonparvarlik, kelajakka umid, umuman, umidbaxsh orzular, hayotga muhabbat, sevinch, shodlikni tarannum etgan misralar tashkil qiladi. Bularning hammasi shoir lirikasining arxitektonik qirralarini tashkil qilgan badiiy — lisoniy vositalardan mukammal foydalanilgan misralarda o'zining yorqin aksini topgan.

Ogahiy lirik merosi yuzasidan olib borilgan germenevitik tahlili badiiy matnda shoir ruhiy olami, qalb manzaralari parpdigmalari naqadar rang-barang va mazmundor ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy hayot manzaralari tabiat manzaralari bilan uyg'unlashganda shoir insoniyat dunyosining sehrli manzaralarini badiiy matnda so'z ma'nosi ustiga yuklaydi.

## V BOB. MUHAMMAD SHABONIY IJODIY MEROSINING GERMENEVTIK TAHLILI

Temuriylardan keyin qariyb yuz yil hukm surgan shayboniylar sulolasiga asos solgan Muhammad Shaboniyning siyosiy faoliyati ozmi-ko'pmi o'rganilgan bo'lsa-da, lekin uning adabiy-ijodiy merosi uzoq vaqtlar e'tibordan chetda qolib keldi.

Muhammad Shaboniy o'z davrida sohibi devon shoir sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan. Uning lirik merosi g'azal, qasida, ruboiy, tuyuq, muammo va boshqa janrdagi she'rlardan iborat. Bundan tashqari Shaboniy til ilmi va islom qonunshunosligiga oid risolalar tuzganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Shaboniy devoni O'zbekistonda kam o'rganilgan, shu bois shoirning ijodiy olami hamda lirik merosining o'zbek poetik tili, badiiy tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissasini aniqlash borasida asarlarining poetik — germenevitik va lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaboniy o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tiliga yangi, xalqchil ruh olib kirgan. Alisher Navoiy ijodiy merosining salmog'i qanchalik ulkan va ahamiyatli bo'lmasin shuni qayd qilish lozimki, Navoiy song tili bilan adabiy til o'rtasida ma'lum darajada bo'shliq yaratdi. Uning asarlarida nihoyatda keng qo'llangan arabcha, forschacha so'z, so'z shakllari va klishe'lar adabiy tili sun'iy lashtirib yubordi. Binobarin, badiiy adabiyot tili ko'p hollarda omma uchun tushunarsiz bo'lib qoldi. Navoiyning lisoniy an'analari uzoq vaqt o'zbek mumtoz adabiyotida ustunlik qildi. Biroq XVI asrning boshlaridayoq Bobur, Muhammad Ho'lti va Shaboniy kabi ijodkorlar asarlarida xalqchilikka moyillik sezila boshlangan edi.

Shaboniy lirik merosining o'zbek mumtoz adabiyoti adabiy tili taraqqiyoti borasidagi o'rni va ahamiyatini belgilashda shu tamoyillarga moslanish kerak.

### 5.1. Shaboniy asarlarining matn va lisoniy manbalari

Shaboniy ijodiy merosining matn xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, shoir o'z asarlarida lirik holatni tashqi ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bog'lashga intilgan, holbuki, she'rlari xuddi kuzatilayotgan ijtimoiy-tarixiy voqealarni izohlab berayotgandek tuyuladi. Shoir asarlarini



tushunishning muhim halqasi sifatida uni o'rab turgan ijtimoiy muhit ishtirok etar ekan, yuqorida biz Bayron lirikasining o'tashin inqilobiy ildizlarini ijtimoiy muhit ta'siridagi ruhiy-psixologik kechimmalar bilan bog'lagan edik. Shu bois Shaboniy asarlari poetikasi tahlili avvalida shoir tug'ilib o'sgan va yashab voyzaga etgan muhitning qisqacha etnik-lisoniy tahlili lirik asarlar yaratilishiga turki bergan holat va sabablar, asarlarning g'oyaviy arxitektonikasi, matn xususiyatlari, asarlarda falsafiy-estetik, individual badiiy tafakkur qirralarini anglashga, badiiy ruh ildizlarini topishga xizmat qiladi.

XV asrning ikkinchi yarmida Dashti Qirchoq markazida chingiziy shahzoda Abulxayrxon boshchiligida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tuzildi. Bu davlatning ildizlarini chingiziylik zamonida shakllangan Oltin O'rda davridan qidirish lozim, chunki o'zbeklar davlati Oltin O'rda davlatining, aniqrog'i, uning sharqiy qismi hisoblangan Ko'k O'rda davlatida vujudga keldi.

Botuxonning qarindosh-urug'lari Oltin O'rda davlati butun-butun viloyatlarini ulus qilib olganlar. No'g'oy butun Qoradengiz bo'yining g'arbiy uluslarini idora qilgan. Shaybonxon esa, Dashti Qirchoqning sharqiy qismini boshqargan<sup>1</sup>.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining chegaralari shimolda Turagacha, janubda Xorazmning g'arbiy qismi bilan Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimigacha etib borgan. Sharqiy chegara Sabron (yoki Savron) dan o'tar, g'arbda esa Tobol yoki Yoyiq (Ural) daryolari chegara edi. Bu davlat hozirgi Qozog'iston, G'arbiy Sibirning katta qismini va Xorazmning shimoliy-g'arbiy qismini o'z ichiga olgan. Hozirgi Qozog'iston erlarida, Sirdaryoning o'rta oqimida biz o'rganayotgan davrda Yas-ton, O'tror, Sig'noq, Sabron, Arquq, O'zgard, Oqqo'rg'on va boshqa yirik shaharlar bo'lgan. Bu shaharlar juda qadim zamonlardan to XVIII asrgacha Dashti Qirchoq va Movarounnahrning ko'chmanchi va o'troq aholisi uchun savdo markazi bo'lib kelgan. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxon haqida Bartold shunday ma'lumot beradi: «Abulxayr-o'zbeklar hukmdori va shu xalqning qudrati davlatiga asos solgan. U 1412 yilda tug'ilgan, 1428 yilda Turada xon qilib ko'tarilgan. Jo'chi avlodining boshqa xon va beklarining ustidan qozongan g'alabalardan so'ng unga Dashti Qirchoqning katta qismi tobe

bo'ldi. 1430-1431 yillarda u Xorazmning Urganchga qadar bo'lgan qismini egallab oldi. 1447 yilda Abulxayrxon Sig'noq, Arquq, Oqqo'rg'on va O'zgard qal'alarini egallagan holda Sirdaryoning quyi va o'rta qismida mustahkam o'rnatib oldi. 1451-1452 yilda Abulxayrxon Samarqandga Abusaid Mirzoning chaqirig'i bilan keldi. U 1460-61 yillarda u Abusaid Mirzoga qarshi kurashayotgan Muhammad Jo'qiga yordam berdi. 1457 yilda Abulxayrxon qudratiga qalmlar tomonidan kuchli zarba berildi. 1465-1466 yilda o'zbeklar orasida bo'linish yuz berdi. Natijada Dashti Qirchoqning o'z egalari bo'linish qozoqlar o'zbeklarining boshqa xalqlaridan ajralib chiqdilar. Abulxayrxon 1468-sichqon yilida o'ldirildi<sup>2</sup>». Shu o'rinda yana bir muhim hol aniqlikni talab qiladi, bu o'zbek etnomining kelib chiqishi haqida. O'zbek etnomini haqida Abulg'oz Bahodirxon shunday ma'lumot beradi: To'qag'uxxon o'lganidan so'ng o'n uch yoshida O'zbekxon xon bo'ldi. Taqii elni ota-bobosining dasturi bilan zabt qildi. Har kimning martabasina loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. El-ulusni dini islomg'a kirguzdi. Harcha xalq ul sohibi davlatning sababindin sharafti islomg'a musharraf bo'ldilar. Andin so'ng barcha Jo'chi elini O'zbek eli tedilar. To'qiyomang'acha aytdusi tururlar<sup>2</sup>.

Oltin O'rda davlati qudrati eng kuchaygan davr — O'zbekxon zamoni edi<sup>3</sup>. O'zbekxon baland bo'yli, xushsuratli, xushgomatli, kelishgan, inqil va jasur bo'lgan. Uning zamonida Oltin O'rda davlatining har tomonlama rivojlanishi atrofdagi qo'shni turkiy xalqlar e'tiborini tortgan. O'zbekxon zamonida Oltin O'rda mo'g'ullarining bosqinchilik yurishlari davom etgan. G'arb, shimol, janubda katta-katta hududlar ishg'ol qilingan. Biz Abulg'oziy ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, O'zbekxonning islom dinini qabul qilishi uning davlatchiligi yo'lida muhim rol o'ynadi. XV asrning birinchi yarmigacha butun volgabo'yi xalqlariga yagona, yaxlit xalq sifatida qaralgan. Oltin O'rda davlati qulaganidan so'ng davlat ayrim qism va bo'laklarga bo'linishi bilan o'z mustaqilligini yo'qotdi. Natijada o'zbeklar ham o'ziga xos kichik bir bo'lak yoki qismining egalatiga aylandi. O'zbek so'zi keyingi davrda Kossiyaning janubida umuman ishlatilmay qoldi va faqatgina Turkis-

<sup>1</sup> Греков Б.Д. Якубовский А.Ю. Олтин Ўрда ва унинг қулаши.—Т.:1956. 88-бети.

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения.—М.: 1964.2-том.2-часть.стр.489-490.

<sup>2</sup> Абдулқозий. Шажаърай турк.—Т.:1992. 108-бети.

<sup>3</sup> Олтин Ўрда ва унинг қулаши. 224-бети.

tonga ko'chib kelgan qabilalardagina saqlanib qoldi<sup>1</sup>.

«Tarixi arba' ulus» da (Ulug'bek) O'zbekxon o'zbek eliga podshoh bo'ldi, deyiladi. So'ngra 720/1320 yilda Sayyid O'ning sa'y-harakatlari bilan Dasthi Qirchoq aholisi musulmon dinini qabul qildilar. Islom dinini qabul qilganlarni o'zbeklar, qabul qilmaganlarni esa qalmlqlar (qolmoq fe'lidan) deb atay boshladilar<sup>2</sup>.

H. Vamberida bu borada qiziqarli ma'lumot mavjud: O'zbek so'zining tub ma'nosi «o'z-o'ziga beki», «xo'jayin», «mustaqil». Ayabo, bu so'z qadimgi mojorlarda ham martaba, unvon ma'nosida uchraydi va shu ma'noda 1450 yilga mansub hujjatlarda qayd etilgan<sup>3</sup>.

Mana shunday qilib, Hamdulloh Qazvininining «Tarixi go'zida» asarida ta'kidlangan «mamlakati o'zbek» keyingiroq davrda bo'linib, parchalanib ketdi va bevosita mamlakatning bo'linishi bilan davlatning ham ma'lum bir qismlarida boshqa-boshqa qabila yoki urug'larning hukumati o'rnatildi.

O'zbek so'zining yagona bir xalq nomini anglatish doirasi cheklangan bo'lydi. Bartold yuqorida Turkistonga ko'chib kelgan o'zbeklar xususida yoza turib, Sirdaryoning shimolida shakllangan kuchli o'zbeklar davlatini va uning XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Movaroun-nahrga bostirib kirishi va bu erda shayboniyalar davlatiga asos solinganligini nazarda tutadi. Bu o'rinda «shayboniy» termini izohga muhtoj. Ma'lumki, Shaybonxon Botuxxonning ukasi. Ismining to'g'ri o'qilishi Shibon, P.Peloning ma'lumotiga ko'ra Sibon. Musulmon adabiyoti bu ismini Shaybonga aylantirdi. «Shaybon» termini arab qabilalaridan birining nomi, ammo Shibon bilan Shaybonning o'rtasida hech qanday umumiylik yo'q<sup>4</sup>. Shaybonxon Dasthi Qirchoqning sharqiy qismini boshqargan<sup>5</sup>. Botuxxon unga martidigi, jasurligi va oqiligi uchun o'z davlatining eng yaxshi qismlarini ajratib bergan. Shu xududda, aytim istisnolarni hisobga olmaganda, uning avlodi uzluksiz ravishda

avlodina-avlod hukmronlik qilib keldi<sup>1</sup>.

Tarixiy asarlarda shayboniy Abulxayrxon shajarasi deyarli bir-biridan farq qilmagan holda keltiriladi. XV asrning birinchi yarmida Dasthi Qirchoqda bo'lib turgan muttasil feodal urushlar hammani bezor qiladi. Shundan so'ng O'zbek ulusining mo'tabar beklari pok nasabli ehtijiziy shahzoda Abulxayrxonni xonlik mansabiga loyiq ko'rdilar. Olacha bahodir va uning aytmog'ining mo'tabar odamlari yordamida Abulxayrxon bir dasta jangovar yigitlarini to'pladi-da o'z ulusiga keldi. Bu erda qiyot, mang'it, do'tmon, qushchi, o'toji, nayman, uqarash-nayman, to'boi, toymas, jot, xitoy, uyg'ur, qarluq, ushun, qarlovut, ichan, tumen-ming, tang'ur, qo'ng'itot va boshqa qabilalarning boshliqlari uni xon deb e'lon qildilar<sup>2</sup>.

Abulxayrxon tez orada Dasthi Qirchoqning katta qismida o'z hukmronligini o'rnatdi. Tarixiy asarlarning guvohlik berishicha, u adolati shoh bo'lgan. Bu xususida «Sharafnoma shohiy» asarida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: «Abulxayrxon Xorazmni Shohruhdan tortib olgan, Xorazmda adolat bilan shohlik qilgan. Husayn Xorazmiy (o'sha vafqda Xorazmda yashagan) uning fazilatlarini va nasabini o'rganib, bir turkly gasida, bir necha bayt bitgan. Baytlar:

Shaybonxonning nasli, Chingizxon urug'i,

Kichik yoshdin ulug'larning ulug'i,

Ko'ngillar rohati, jonlar fitug'i,

Shabiston saodatining chirog'i<sup>3</sup>.

Yana shu asarda ta'kidlanishicha, Abulxayrxon Dasthi Qirchoqda 40 yil hukmronlik qilgan<sup>4</sup>. Mana shunday qilib, shimoli Turada, janubi Xorazm va Sirdaryoning o'ng sohilida, g'arbi Volga daruosining so'l qirg'oqlari, sharqi Ili daruosiga qadar bo'lgan ulkan hududda Abulx-

<sup>1</sup> Karant: Muxammad Solih. Shayboniynoma, chig'atoycha matn. Prof. Melikovning nashri. СПб.: 1967. Mexkonnoyma Buxoro. —T.: U'zFA. Sharqshunoslik instituti. Inva. 1414; Vinoyi. Shayboniynoma. —T.: U'zFA kutubxonasi. Inva. 844. Abu'lqosim Bahodurxon. Sharafnoma turk. —T.: Chulpon. 1992; Xafizi Tanihi Buxariy. Sharafnoma in shaxi. Faksimiliga rukonisi. D88. perevod s persidskogo. Ч.1-М.: 1983.

<sup>2</sup> Axmedov B. U'zbek ulusi. —T.: 1992. 38-bet.

<sup>3</sup> Xafizi Tanihi Buxariy. Sharafnoma in shaxi. Faksimiliga rukonisi. D88. perevod s persidskogo. Ч.1-М.: 1983. стр. 28а.

<sup>4</sup> Xafizi Tanihi Buxariy. Sharafnoma in shaxi. Faksimiliga rukonisi. D88. perevod s persidskogo. Ч.1-М.: 1983. стр. 28б.

<sup>1</sup> Бартоль Сочинения. 5-том стр.143.  
<sup>2</sup> Ахмедов Б. У'збек улуси. —Т.: 1992. 13-бет.  
<sup>3</sup> Карант: Ахмедов Б. У'збек улуси. —Т.: 1992. 11-бек  
<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1968. 2-том. 2-часть стр. 545.  
<sup>5</sup> Греков В.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение.-Москва-Ленинград: 1950. стр.. 88.

ayrxon hukmronligida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topdi. Bu hududda yashagan turkiy xalqlar va ularning lisoniy-adabiy hayoti haqida Bartold quyidagicha yozadi: «Hozirgi vaqtda tasdiqlangani, hali mo'g'ul imperiyasi vujudga kelmasdan burun turklarning qadimgi, musulmon dunyosidagi adabiy markazi Koshg'ardan tashqari Xorazmda va Sirdaryoning quyi oqimida ikkinchi adabiy markazi bo'lgan.

Bu oblast mo'g'ullar davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aynigsa, Oltin O'rda xonligi davrida gullab yashagan va ayvish mumkiniki, Oltin O'rda adabiy muhiti o'zidan keyinroq davrda shakllangan chig'atoy davlati adabiy – madaniy hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan»<sup>1</sup>. Shuningdek, Bartold Ibn Battuta asarlariga tayanagan holda, O'zbekxon saroyida hamma erda odamlar turkiy tilda gaplashganligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, XIII-XIV asrlarda Oltin O'rda va Xorazmda yaratilganligi isbotlangan «Qisasi Rabg'o'ziy», «Xusrav va Shirin», «Guliston bit-turkiy», «Muhabbatnoma», «Tafsir» kabi asarlarning tili O'rta Osiyo turkiysi, binobarin, eski o'zbek tilidan kam farq qiladi. Qolaversa, Abulxayrxon, Shayboniyxon kabi hukmdorlar saroyida xizmat qilgan qator ijodkorlar asarlarining tili sof eski o'zbek tilida bo'lganligi ko'chmanchi o'zbeklar davlatida adabiy til eski o'zbek tili bo'lganligidan dalolat beradi. Xususan, ijodiy faoliyati keyingiroq davrda aniqlangan va devoni Hindistonda topilgan Hofiz Xorazmiy she'rlari tili o'zining sodda va ravonligi bilan eski o'zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini aks ettiradi va kishini hayratga soladi. Eng muhimi, uning asarlarida bevosita Dashti Qipchoq toponimi uchraydi:

Chashmai ko'zim biki yo'qdur safotlig' chashmasi,

Har nechakim, Dashti Qipchoq ichra xush xaylog' bor.<sup>2</sup>

Undan-da qiziq holat shundaki, XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan joyi Ibrohim Sulton davrida Sherozda bo'lgan Hofiz Xorazmiyning shu davrga qadar hech erda tilga olinmagan va tazkiralarda qayd qilmagan ijodining yorqin belgilari, izlari XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoq va Movarounnahr hududlarida yashagan Shaboniy asarlarida uchrashidir. Mashhur «Shayboniyнома» asari muallifi Muhammad Solih asarining tili ham o'zining sodda, ravon va o'ynog'illigi bilan eski o'zbek tilining poetik imkoniyatlarini

o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shayboniylar sulolasidan chiqqan ijodkorlar asarlarining tili ham XV asrning ikkinchi yarmida shakllangan ko'chmanchi o'zbeklar davlati va uning ayrim lisoniy xususiyatlari haqida xulosa chiqarishimiz uchun imkoniyat yaratadi. Bu o'rinda oldda turgan eng muhim vazifa ko'chmanchi o'zbeklar davlatining etnik tarkibini tahlil qilishdan iboratdir. Albatta, qo'limizdagi mavjud manbalarga tayanagan holda bu haqda aniq bir fikr ayvish unchalik to'g'ri bo'lmas, biroq bu davlat tartxi va ijimoiy-siyosiy, harbiy hayoti bitilgan asarlar vositasida bu mavzuga oid ayrim chizgilar solish masalasi kun tartibida turgan dolzarb muammodir. Zotan, bu muammoni hal etmasdan yoki bu xususda qisman bo'lsa-da fikr bildirmasdan turib, Shaboniy asarlari tili, umuman uning badiiy-poetik olami, ijodiy dunyosi, asarlari g'oyasi va germevnikasi haqida fikr bildirish g'oyat nisbiy hosila bo'lar edi.

Ma'lumki, Turkistonning XIII asrdan keyingi siyosiy-etnik bo'linishida mo'g'ul hukmdorligi muhim rol o'ynadi. Chingizxon o'zining hayotlik davridayoq Sirdaryo va Amudaryo oralig'ining Xorazmga qadar bo'lgan qismini ikkinchi o'g'li Chig'atoyga bergan, Xorazmni esa, Sirdaryoning o'ng qirg'og'i, Dashti Qipchoq erlari bilan to'shimolga va g'arbg'a mo'g'ul orlarning tuyog'i etgunga qadar bo'lgan erlarni ulug' o'g'li Jo'chixon va uning avlodiga bergan edi.

Jo'chixon ulusidagi siyosiy ahvol va uning keyinchalik o'zbek ulusiga aylanganligi haqida yuqorida aytildi. Bu o'rinda chig'atoy istiholi ham ma'lum bir izohga muhtoj. Chig'atoy termini Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon nomidan ibtido olib, unga otasi tomonidan hadya qilingan hududda yashovchi xalqlarga nisbatan qo'llanilgan. Agar XIV asrda chig'atoy termini ostida to'rt qabila-bartos, jaloir, gavlchin va orlatlar tushunilgan bo'lsa, XV asrda bu termin keng ma'noda tushunila boshlandi. Chig'atoy deb Movarounnahrning o'sha vaqtdagi aholisini atay boshladilar<sup>1</sup>. Mana shunday qilib, Sirdaryoning o'ng va so'l sohilida yashagan deyarli bir etnik tarkibga kirgan xalqlarning biri jo'chi ulusini, ikkinchi yarmi chig'atoy ulusini tashkil qildilar. Bartold Mahmud Koshg'ariyda turkiy xalqlarning ikki guruhga-shimoliy va janubiyga hamda har bir guruhda o'ntadan qabilaga

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Сочинения. – М.: 1963-1968. 5-том. Стр.607.

<sup>2</sup> Хофиз Хоразмий. Девон. – Т.: 1981. 166-Бет.

<sup>1</sup> Мусоновский А. Ю. К вопросу об этногенезисе узбекского народа. – Т.: Фан. 1941. стр. 11.

bo'linishini ta'kidlaydi. Har bir guruhdagi qabilalar g'arbdan sharqqa qarab joylashuvi bo'yicha sanab o'tiladi.

Shimoliy guruh: pechenek, qipchoq, o'g'iz, yemek, bashing'urt, basmil, qay, yabaqu, tatar, qirg'iz.

Janubiy guruh: chigil, tuxsi, yag'mo, ig'roq, charuq, jumul, uyg'ur, tang'ut, qitan, tabg'ach.<sup>1</sup>

XII-XIII asrlardagi musulmon tarixchilari qangli va qipchoq so'zlarini bir ma'nodagi so'z tartiqasida qo'llaydilar.<sup>2</sup> Ma'lumki, qangli-qipchoqlar va volgabo'yi tatarlari - boshqirtlar o'zbeklarning etnik tarkibida muhim rol o'ynaydi.<sup>3</sup> A.Yakubovskiyning ta'kidlashicha, XI asrda Sirdaryoning o'ng qirg'oqlarida o'g'izlar yashagan.<sup>4</sup> O'rxun turklari bilan o'g'izlarning bir xalq ekanligi Radlov tomonidan isbotlangan.<sup>5</sup> Turkiy qavmlarning geografik joylashuvi haqida Bartold umumlashgan holda Volgadan to Xitoy chegaralariga qadar g'arbdan sharqqa tomon bir tartibda o'g'izlar, qartluqlar, to'qqiz o'g'izlar yana shuningdek, tur-gashlarning qoldiqlari, tuxsi va az hamda Issiqko'lining shimoliy tomonida chigillar va yag'mo xalqi yashagan, deb yozadi.<sup>6</sup>

XIII-XIV asrlarda shakllangan Oltin O'rda davlati turkiy xalqlarning etnik-geografik joylashuvida muhim rol o'ynadi. Mo'g'ullar turkiy tilda so'zlashadigan va islom dinini qabul qilgan yangi ko'chmanchi xalqlarning tashkil topishiga kuchi ta'sir ko'rsatdilar. Shu tarzda tatar, no'g'oy va o'zbek xalqlari shakllandi.<sup>7</sup> Ammo ruslar Oltin O'rda aholisining davlat tili mo'g'ul tili bo'lganda ham va qachonki, butun mam-lakat turkiylashganidan so'ng ham ularni tatarlar deb atashda davom etdilar.<sup>8</sup> Yana Radlov ham har zamonda o'zbeklarni va umuman turkiy tilda so'zlashuvchi butun O'rta Osiyo aholisini tatarlar deb atar edi. Keyingi davrda, qachonki, Oltin O'rda davlati parchalanib ketganidan so'ng XV asrning boshlarida ko'chmanchi o'zbeklar davlati shakllan-

ganiga qadar bo'lgan davrda ham o'zbek so'zi qavm nomi va geografik nom sifatida mavjud edi. Xususan, V.Tizengauzenda Xorazm — mam-lakati o'zbek deb ataladi.<sup>1</sup>

Biz yuqorida Dashti Qipchoq hududlarida yashagan turkiy qavmlar orasida mo'g'ul istilosidan keyingi davrda shakllangan millatlar haqida yuritgan edik. Ma'lumki, mo'g'ullar ham turk dunyosining bir bo'lagi. Mo'g'ul o'zini yoki tilini turkdan tamomila ayri hisoblamaydi. Bartold bu xususda, xitoy va musulmon tarixchilari mo'g'ullar bilan turklar orasidagi etnik farqni kam his qilganlar, deb ta'kidlaydi.<sup>2</sup> Yana Rashiddin, qadimgi vaqtda mo'g'ullarning o'zlarini ham cho'lda yashovchi turkiy xalqlarning bir bo'lagi bo'lgan xolos, deb yozadi.<sup>3</sup> Bartold ming'itar va no'g'aylar ulusini o'zbeklar tarkibidagi ikki eng muhim qabila tarzida sanab o'tadi.<sup>4</sup>

Ko'chmanchi o'zbeklar chig'atoylarga nisbatan Eron shahar mandaniyatidan ancha kam ta'sirlanganliklari bilan farqlanadi. Ko'chmanchi hayot tarzini saqlab qolganliklari bilan farqlanadi. Ko'chmanchi o'zbeklar qo'shinalarda uyg'ur, mo'jor va qipchoqlarning jangovar guruhlari bo'lgan.<sup>5</sup> Ro'zbehon Isfahoniy o'zining «Mehmomonai Nuhoro» asarida: o'zbeklarga uchta xalq kiradi. Ularning birinchisi shayboniyga tegishi bo'lgan qabilalar, ya'ni shayboniyar, ikkinchisi qozoqlar va uchinchisi mang'itlardir, deb ta'kidlaydi. Bu o'rinda shayboniyar haqidagi ma'lumot «Shayboniyoma» asarida ham uchraydi. Xuddi shu asarda Muhammad Shaboniy armiyasining etnik tarkibi haqida:

Eliming ko'ri shabonilig' erdi, deb yoziladi.<sup>6</sup>  
Ertadin o'ziga sonlig' erdi, deb yoziladi.<sup>7</sup>

Mana shunday qilib, XV asrning 30-yillaridan boshlab Sirdaryoning o'ng sohillarida siyosiy hokimiyat o'zbeklar — ko'chmanchi o'zbek-larda, Sirdaryoning chap qirg'og'idan to Hindistonga qadar bo'lgan

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.205.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.271.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 2-том. 1-часть Стр.271.

<sup>4</sup> Якубовский А.Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. —Т.: Фан 1941. стр.8.

<sup>5</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.204.

<sup>6</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.435.

<sup>7</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.143.

<sup>8</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.271.

<sup>1</sup> Тизенгаузен В. Сборник материалов относящихся к истории Золотой Орды. —М.: 1941 1-том, стр.93.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.427.

<sup>3</sup> Дюниэров Х. Узбек халқининг шажара ва шевадари. —Т.: Фан. 1968. 20-бет.

<sup>4</sup> Бартольд В.В. Сочинения. —М.: 1963-1968. 5-том. Стр.556.

<sup>5</sup> Ахмедов Б. Узбек улуси. —Т.: 1992. 14-бет.

<sup>6</sup> Мухаммад Солих. Шайбонийнома. чигатойча матн. Проф. Мелиоранский ишқир.-СПб.: 1967. 207-бет.

hudud temuriylar qo'liga bo'lgan. Temuriylarning etnik tarkibi va ijtimoiy-siyosiy tuzumi haqida Bartold yozadiki, Temur tomonidan tashkil qilingan davlat turk-mo'g'ul davlatchiligining unsurlarini musulmon va asosan fors madaniyati bilan qorishiq holdagi o'ziga xos mujassamligidan iborat edi.<sup>1</sup> Temur o'zini turk ekanligini alohida ta'kidlagani holda, ota tomonidan ajdodlarini Chingizxon ajdodlariga olib borib taqagan. Temuriylar tarixini yaratishga jazm qilgan Mirzo Ulug'bek ham o'zining «To'rt ulusi tarixi» kitobida turk dunyosining tarkibiy qismi sifatida mo'g'ul ulusining etnik tarkibiga ko'proq urg'u beradi. Biz yuqorida turk va mo'g'ul qavmlarining Dashti Qipchoq va Movarounnahrda mo'g'ul istilosidan keyingi o'zaro munosabatlari haqida fikr bildirgan edik. Aytish mumkinki, ko'chmanchi o'zbeklar davlati nafqat turk dunyosining, balki mo'g'ul urug'i va qavmlarini ham o'zida mujassamlashirgan o'ziga xos bir davlat tuzumi edi. Shahoniy – Abulxayron nabirasi, Temuriylar davlatining bosqichisi o'zini turk his qilgan va shunday ham edi.<sup>2</sup> Muhammad Shaboniy yurishlarini bevosita badiiy uslubda tasvirlagan va uning tarixini aks ettirgan «Shayboniyнома» asarida u «Qiblai silsilai olami turk» deb ataladi.<sup>3</sup>

1465-1466 yillarda o'zbeklar orasida bo'limish yuz berdi. Dashti Qipchoqda yashovchi hokimiyatsiz qolgan chingiziyilarning avlodi hisoblanish qozoqlar o'zbeklarning boshqa qismlaridan ajralib chiqdilar va Olmaota atrofida hokimiyat tuzgan Mo'g'uliston xoniga bori sig'indilar. Abulg'oziy qozoqlar haqida yoza turib, «qozoq podshohlarining otalari Jo'chixon bin Chingizxonning o'n uchlanchi o'g'li To'qay Temurxon naslidan turur», deb yozadi.<sup>4</sup>

Qozoqlar dastlabki vaqtlarda o'zbek-qozoq deb ataldi. Bartold bu haqda: «O'zbeklarning ichidan qozoqlar ajralib chiqdilar. Ular XV asrda O'zbek xoni Abulxaytning hukmronligi ostidan qutulib hozirda bir millatni tashkil qildilar. Aslida ular (o'zbeklar va qozoqlar) tili va odatlari tamoman bir bo'lgan xalqlardir. «Qipchoq» so'zi dastlab o'zbek elining tashkil topishida muhim rol o'ynagan bo'lsa, endilikda o'zbek va qozoqlarda aytim urug' va joy nomi sifatida saqlanib qoldi xolos»,

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Сочинения. — М.: 1963-1968. 2-том. 2-часть. Стр. 27.

<sup>2</sup> Бартольд В. В. Сочинения. — М.: 1963-1968. 5-том. Стр. 183.

<sup>3</sup> Мухаммад Солих. Шайбонийнома. чигатойча матн. Проф. Мелиоранский наشري.-СПб.: 1967. 285-бет.

<sup>4</sup> Абулғозий Баҳолурухон. Шажаваи турк. — Т.: Чўлпон. 1992. 104а-бет.

deb yozadi.<sup>1</sup> Qipchoq urug'i haqida Abulg'oziy «Shajarai turk» asarida turkning nomini ko'targan besh urug'dan biri sifatida uyg'ur, qiniqli, qalach va qarluqlar gatorida sanab o'tadi.<sup>2</sup> Ko'chmanchi o'zbeklar davlati XV asrning 50-yillarida Emba, Ural, va Volga daryolari oralig'idagi cho'larda yurgan ellarni birkitirgan holda qudratli siyosiy-harbiy kuchga aylandi. Yuqorida bu davlatning etnik tarkibida muhim rol o'ynagan qipchoq, mang'it (no'g'oy) va qozoqlar haqida gapirildi. Bundan tashqari o'zbeklar davlatida Volga bo'ylarida istiqomat qiladigan tatarlarning ham katta-katta guruhlari bor edi. Tatarlarning mo'g'ullar bilan bir xil ekanligi haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Xususan, Bartold bir o'rinda Xitoy imperatori 1161 yilda manifest chiqardi. Unda mo'g'ullar ustiga, Mangu dada ustiga borayotganini aytdi, deb yozadi. Bartoldning fikriga qaraganda tatar so'zi dadadan kelib chiqqan.<sup>3</sup>

Endi bevosita ko'chmanchi o'zbeklar davlatining etnik-lisoniy ahvoli haqidagi masalani yoritish xususiga to'xtalsak, bu borada qator tarixiy asarlarda keltirilgan qabila va qavm nomlari haqidagi ma'lumotlarga tayanildi. Mas'ud ibn Usmun Ko'histoniyning «Tarixi Abulxayrxoniy» asarida Abulxayrxonni xonlikka ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynagan qabilalar va ularning boshliqlari nomma nom sanab o'tiladi. Bu qabilalar o'tizga yaqin bo'lib, eng yiriklari burkut, jot, do'tmon, iyjon, yonqojor, qoqboyl, qorliq, kenagas, qiyot, qo'ng'itrot, qushchi, qudog'ay, qurlovut, mang'it, masit, muluj, nayman, nukus, toymas, tang'ut, tuboyi, tuman-ming, uyg'ur, uyshun, o'tarchi, chimboylar sanab o'tiladi.

Muhammad Shaboniyning harbiy yurishlarini bevosita poetik panofimasi yaratgan «Shayboniyнома» asarida quyidagi qabila nomlarini keltiriladi, ular nafqat Dashti Qipchoq aholisining etnik tarkibini, balki Shaboniy armiyasining etnik ahvoli haqidagi muqammal axborotni ham o'zida mujassamlaydi. Bu qabilalar quyidagilar: do'tmon, qozoq, o'zbek, o'g'lot, qo'ng'itrot, arg'un, turkman, manqit, qalmoq, turk, shaboniy, nayman, qushchi, jaloir, qorliq, sulduz, nukuz, tamo, tatar, adku, sog'it, ushun, mo'g'ul. Xuddi shu davrda yaratilgan Hinoiyning «Shayboniyнома» asarida ham asosan yuqoridagi qabila

<sup>1</sup> Бартольд В. В. Сочинения. — М.: 1963-1968. 5-том. Стр. 463.

<sup>2</sup> Абулғозий Баҳолурухон. Шажаваи турк. — Т.: Чўлпон. 1992. 42а-бет.

<sup>3</sup> Бартольд В. В. Сочинения. — М.: 1963-1968. 3-том. Стр. 447.

nomlari uchraydi.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining etnik tarkibini Movarounnahr hududidagi turkiy qavmlarga nisbatan qiyosiy o'rganishda Abulg'oziyning «Shajarai turk» asari benihoya ahamiyatli. Abulg'oziy o'z asarida eng qadimgi zamonlardan boshlab, to XVII asrga qadar bo'lgan turk dunyosining etnik tarkibi xususida mulohaza yuritib quyidagi qabila nomlarini keltiradi: mo'g'ul, qipchoq, uyg'ur, tatar, qirg'iz, qiyot, qayon, qurlas, qalmoq, tikrin, makrin, qiniqli, qalach, qorlug', tumat, nayman, qarayt, unqut, xitoy, turqaq, arlat, suldas, do'tmon, o'q-lan, bayovut, jaloir, tayjut, barlos, dug'lat. Shu o'rinda yana Shaboniy asarlarida uchrovcchi etnonimlar ham ko'chmanchi o'zbeklar davlatining, binobarin, Shaboniy davlatining etnik tarkibi xususida xulosa chiqarishimizga yordam beradi. Ular quyidagilar: nayman(187b), o'zbek(164b), ar(142a), barlos(33a), arab(20a), mo'g'ul(22a), turk(36b), hind(47b), qiyot(47b), yag'mo(54a), as(55b), sayoq(77a), chigil(92b), tatar(119a), o'rus(183a).

Muhammad Shaboniy o'z ajdodlarini hamma o'rinda Chingizxon ondan boshlab sanaydi va devonda uch o'rinda o'zining chingiziy shahzoda ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlati mo'g'ullar - Chingizxon avlodlari hukmronlik qilgan hududda tashkil topdi, shuning uchun aytilish mumkinki, uzoq vaqt davomida o'zbeklarni mo'g'ul qavmiga qo'shish odat edi. O'zbekxon ham mo'g'ul qavmning vakili bo'lgan. Bu xususda yana XVII asr yodgorligi «Shajarai tarokima» asarida shunday ma'lumot uchraydi: Ul vaqtda (XIII-XIV asrlarda) o'zbekni mo'g'ul derlar erdi<sup>1</sup>.

Muhammad Shaboniy asarlarida uchrovcchi ayrim qabila nomlari xususida Bartold asarlariga murojaat qilish o'riniidir. Bartold Saxa (yoqutlarning qavm nomi), sagay (Enasoy turklarining nomlanishi) va sayoq (qora-qirg'iz qavmlaridan biri) etnonimlaridagi tovushlar o'xshashligi haqida fikr yuritib, ularning kelib chiqishi ham bir qavmdan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Oltoy turklari va yuqori Enasoydagi turklarining hayotda o'z davlati bo'lmagan va ular qalmlar davlati tarkibida hayot kechirishgan. Oltoy turklari hatto o'z milliy respublikasini shakllantirgandan so'ng ham aslida qalmlarga tegishli bo'lgan o'uyot nomini

xalq nomi sifatida qabul qilishgan.<sup>1</sup> Va nihoyat o'zbek davlatchiligining Turkistondagi XIX asr etnik tarkibini yoritib berishga xizmat qiluvchi asarlardan biri Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy» asaridir. Muallif o'z asarida o'zbek tilining 92 urug' va qabilalaridan so'zlar va izohlar keltirganini yozadi<sup>2</sup>.

O'zbek urug'larining avval 32 keyin 92 ta bo'lganligi haqidagi ma'lumot Bartold asarlarida ham uchraydi.<sup>3</sup>

Aristov turkiy xalqlarning shakllanishida asosiy rol o'ynagan eng qadimgi qabilalardan 12 tasini ajratib ko'rsatadi. Bular: qangli, qipchoq, do'lat, olchin, arg'in, nayman, kirey, qirg'iz, saxa(yoqut), tele, turk(tukyu), qorliq.<sup>4</sup>

Keyingi davrlarda o'zbek xalqining shajara va shevalari ustida tadqiqot ishlarni olib borgan X.Doniyorov XIX asr yodgorliklari asosida 92 o'zbek urug'ini sanab o'tadi.<sup>5</sup> Boshqa bir o'rinda o'z kuzatishlari asosida 300 dan ortiq o'zbek urug'larini nomini keltiradi.<sup>6</sup> Shu o'rinda aytilish mumkinki, yuqorida keltirib o'tilgan Ko'chmanchi o'zbeklar davlatidagi qabila va urug'lar nomlarining deyarli hammasi keyingi davrlarga oid asarlarda uchraydi.

Umuman olganda, Ko'chmanchi o'zbeklar davlati Dashi Qipchoq va Movarounnahrda turkiy xalqlarning o'ziga xos siyosiy-etnik birligini tashkil qilgan. Yuqoridagi tartixiy asarlarda keltirilgan ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, har ikkala hududda yashagan xalqlar deyarli bir xil etnik tarkibni tashkil qilganlar.

Biz shuning uchun XVI asrda shakllangan Shayboniylar davlati davrida bu hududda muhim etnik-lisoniy o'zgarish ro'y bermadi, faqatgina siyosiy hokimiyat bir suloladan ikkinchi sulola qo'lga o'tdi holos, deb hisoblashimiz uchun to'la asos bor.

Muhammad Shaboniy 1451-1510 yillarda yashab o'tdi. Uning hayoti, siyosiy-harbiy va ijtimoiy faoliyati hamda fojiali taqdiri borasida

<sup>1</sup> Бартольд В.В. Сочинения. -М.: 1963-1968. 5-том. Стр.191.

<sup>2</sup> Шайх Сулаймон Бухорий. Луг'ати чиг'атой ва турки усмоний. - Стамбул. 1298к(1882-1883). 71-бет.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения. -М.: 1963-1968. 5-том. Стр.465.

<sup>4</sup> Аристов Н.А. Заметки об этническом составе торжских племен и народностей, и описания об их численности. -СПб.: 1897.стр.465.

<sup>5</sup> Донiyorov X. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. -Т.: 1968. 74-75-бетлар.

<sup>6</sup> Шу асар: 76-80-бетлар.

<sup>1</sup> Абулғозий. Шажаъраи тароқима. -Т.: 1994. 45-бет.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Сочинения. -М.: 1963-1968. 5-том. Стр.268.

manbalarda etarli ma'lumotlar bor.

Mo'tabar manbalarda Shaboniyning 4 ta kitob yaratganligi haqida ishonchli ma'lumotlar etib kelgan. Ammo tarix chig'irig'idan o'tib kunningizga etib kelgan asarlari 2 ta bo'lib, bular uning «Bahr ul-xudo» gasidasi hamda anchayin salmoqli lirik devonidir.

Muhammad Shaboniy lirik merosining majmuasi bo'lmish «Devoni Shaboniy» shoirning hayotlik davrida tartibga keltirila boshlangan. Biroq uning fojiali o'limidan so'ng oxiriga etkazilmasdan tashlab qo'yilgan. Shaboniy devonining poetik xususiyatlari haqida dastlab Muhammad Solih, Bobur, Binoiy, Hofiz Tanish Buxoriy, keyingiroq davrda Ahmad Zaki Validiy To'g'on kabilar munozarali fikrlar bildirganlar.

## 5.2. Shaboniy lirikasi poetikasi

O'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tili eng gullab yashagan davrda yashab ijod qilgan Muhammad Shaboniyning o'zbek milliy tarixi, mumtoz adabiyot va adabiy tili taraqqiyotida o'ziga xos o'rni bor. Shaboniy shoh – shoir sifatida davlat ishlarini badiiy ijod bilan qo'shib olib bordi. Uning o'ziga xos ijodiy iste'dodi, talanti, badiiy til materiallaridan foydalanish mahorati, o'z davrda qator fanlardan keng va chuqur bilim olganligi, hayotiy tajribasi, qolaversa, mehnatsevarligi, tirishqoqligi mana shu imkoniyatdan unumli foydalana olishi uchun sharoit yaraldi.

Asrimiz boshlarida Zakiy Validiy To'g'on Shaboniyning Turkiyada saqlanayotgan devoni, devon mundarijasi, asarlarining ayrim badiiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni maqola tarzida "Yangi Turkiston" jurnalida e'lon qiladi. 1948 yilda e'lon qilingan "Navoiy zamondoshlari" to'plamiga ham Shaboniyning asarlari kiritilgan.

Shoir ijodini o'rganish bo'yicha Turkiyada ham ma'lum ishlar amalga oshirildi. 1989 yili turkiyalik olim Yaqub Qoraso'y Shaboniy devoni bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Uning dissertatsiya ishi devon matnini o'rganishdan iborat bo'ldi hamda dissertatsiya ishiga shoir devoni-ning lotin yozuviga o'girtirilgan nusxasini ilova qildi. Olim devonning ayrim fonetik va morfologik xususiyatlarini o'rganib chiqdi. O'z ishiga Shaboniy hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqidagi ma'lumotlarni ham kiritdi. Yaqub Qoraso'y, keyinchalik, Shaboniy devoniga oid barcha tadqiqotlarini monografiya tarzida e'lon qildi.

Muhammad Shaboniy devonining qo'lyozma nusxasi Istanbul To'pqopi saroyi muzeyi Ahmad III kutubxonasida 2436 raqami ostida qayd qilingan.

Muhammad Shaboniy devoni 7 tavid, 10 na't, 306 g'azal, 8 mansur parcha, 1 murassa'noma, 27 ruboiy, 12 tuyuq, 5 tarix, 1 musarra bayt, 48 muammoni o'z ichiga oladi. Devoning 31a-b sahifasidagi 44-g'azal 40a-b sahifasida 80-g'azal tarzida takrorlanadi.

Muhammad Shaboniy devoni hozirga qadar keng aspektdagi adabiy germanevrik va lingvopoetik tadqiqotlar ob'ekti qilib olingan emas. Muhammad Shaboniy devonining badiiy, lingvopoetik tahlili, shuningdek devon bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mavzusi, mohiyati, yo'nalishi va ko'lami Shaboniy lirikasida adabiy germanevrik va poetik til mezonlarining yangi imkoniyatlarini o'rganishga ehtiyoj bor, deb kulosa chiqarish uchun imkoniyat yaratadi.

Shoironing o'ziga xos ijodiy mahorati va asarlarining yuqori saviyasi haqida qator ilmiy – tarixiy asarlarda ma'lumotlar etib kelgan bo'lishiga qarag'ansadan totalitar tuzumga asoslangan jamiyatda uzoq vaqtlar uning ijodiga bir yoqlama munosabatda bo'lindi. Shoironing ijodiy merosi kamsitildi, uning ijodiy mahoratiga shubha bildirildi, asarlarida aks etgan badiiy tafakkurning originalligi tan olimadi.

Muhammad Shaboniy devoni adabiy an'analar asosida tuzilgan yirik adabiy majmua. Unda shoironing g'azal, qasida, ruboiy, tuyuq va muammo kabi janrlarda yozgan she'rlari mujassam qilingan. Devon mundarijasi va asarlarining badiiy arxitektonikasi, poetik tahlili shoir ijodiy merosining o'zbek milliy adabiyoti va badiiy til taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini belgilashga xizmat qiladi.

Muhammad Shaboniy lirik merosi badiiy tahlili, uning badiiy til yaratish mahorati va imkoniyatlari germanevrikasi kuzatilganda shoir bu vazifani o'ziga xos mahorat bilan ado etganligining guvohi bo'lamlar. Shaboniy o'z asarlarida yangi uslub, yangi badiiy shakl yaratadi. Uning aruz doirasida yozilgan she'rlari XVI asr o'zbek mumtoz adabiyotida tub burilish yasagan, deb aytilish noto'g'ri bo'lur edi. Vaholanki, shoir o'z davrining farzandi sifatida bunday imkoniyatni moddiylashtirgan olmadi. Shu sababli uning she'rlari sharq adabiyoti an'anasiga muvofiq XV – XVI asrlarda keng qo'llangan adabiy qoliplar va badiiy til xususiyatlarini aks ettirdi.

Badiiy ijod, badiiy asar originalligining mezoni shoironing mavjud

poetik-lisoiy vositalarni asarda ziyonati nutq shaklida berish borasida yangi uslub yaratishi bilan chegaralanmaydi. Shoir o'z asarida inson ongining hali ochilmagan ufqlarini kashf qilishi kerak. Shaboniy o'z she'rlarida bunga ma'lum darajada erisha oldi, yangi tushuncha, yangi g'oyalar yaratdi. Shoirga bunday imkoniyatni taqdim qilgan tili materiallaridan unumli foydalandi.

«Devoni Shaboniy» dagi g'azallar arxitektonikasini hajm nuqtai nazaridan kuzatish shoirning stabililikka intilganini ko'rsatadi. Shaboniy o'z g'azallarida kompozitsion butunlikni ta'minlashga intilgan. Baytlarning mantiqan bog'lanishi, syujetlik shoirning shaxsiy kuzatishlari ruhiy ahvoli taqozosi bilan yuzaga kelgan hol. Shaboniy sharq poeziyasi doirasidan chetga chiqishga intiladi, g'azal kompozitsiyasiga individual yondoshishga harakat qiladi. Natijada uning g'azallarida o'tmi-o'tmi bilan butunlay mavzudan uzozqlashish hollari uchrab turadi. Masalan, yor vasfi, hijron azobidan noliyotgan shoir birdaniga g'azalni harbiy voqealarga ulab ketadi yoki aksincha.

Masalan: Menga javr qilding, ey bag'ri toshim  
Ko'ngulni saqlamay diltoq ichinda.

Muxolif Vaxshni qishlab tururda  
Turush bermay turur turmoq ichinda. 12a.

Shaboniy g'azallarining asosiy tiplari ta'rifiy, tavsifiy, madh va shari holdan iborat. Shoir yorning (ma'shuganing) go'zalligi, yuzi, qaddi, sochini ta'rifiy va binobarin, lirik qahramonning (o'zining) holini bayon qiladi, ta'rif va tavsifiy yor timsolida uyg'unlashtirishga, uni madh etishga, manduhning barcha tashqi va ichki fazilatlarini ko'rsatishga intiladi. Shoir g'azallarida shu nuqtai nazaridan zamon-doshlarining g'azallari bilan umumiylik kuzatilsa-da, ammo ta'rif va tavsifida hech bo'lmaganda bita so'z, yoki so'z shakli original, birgina detal individual qo'llangan bo'ladi.

Shaboniy g'azallarining mavzui rang-barang. Albatta, u o'z salaf-larda kuyilari kelingan mavzulardan uzozqlashib keta olmadi, amma ularga yondoshuvda originalligi bilan ajralib turadi. Ishq mavzusi boshqa ijodkorlarda bo'lgani kabi Shaboniy lirikasida ham etakchi mavzu. Yana yor va diyor taronasi, mehr-mulhabbat, vafo va jaf, ixtilof va iztirib, ishonch va imon motivlari ham g'azallarining kompozitsion qurilishida faol ishtirok etadi. Shaboniy ham Navoiy va uning salaf-lari kabi majoziy ishqni haqiqiy ishqga (ishqi haqiqiy)ga birlashtirishga

harakat qiladi. Yorni keng ma'nodagi yor ma'nosida qo'llaydi:

Bu Shaboniy ko'ngilini har necha taftish etar  
Yordin o'zga yo'qturur ko'nglida bir zarra huzur. 39a.

G'azallar mundarijasi muhabbat yoki firq, furqat va hijron azobidan molish bilan cheklanib qolmaydi, shoir o'z holi-zorini bayon qilish borasida inson va tabiat falsafasiga qo'l uradi. Hayotning, tumshuning munatqini izlaydi, inson ibtidosi va intihosi haqida fikr yuritadi:

Ey Xuroson ahli, Shabon bir avuch tuproq edi  
Kimga Haq qilsa inoyat xonu ham sulton bo'lur. 42b.

Shaboniy o'z g'azallarining mavzu qirralarini boyitish jarayonida she'rlarida peyzaj tasviri, yurtga, vatanga muhabbat tuyg'ularida bo'rtilib ko'rsatadi. Ayniqsa, Samarqand, Turkiston, Hirot va boshqa joy-larga berilgan ta'rif, joylardagi iqlim va sharoitlarning o'zaro qiyosi shoirning an'anaviy mavzular qobig'ini yoritib chiqishga intilganidan dalolat beradi.<sup>1</sup> Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, devondagi ko'pgina g'azal-lar shoir umrining so'nggi yillarida yozilgan. Shaboniy, albatta, o'zini hayotdan erta ko'z yumishini, fojiali halok bo'lishini bilmagan, ammo hayotning achchiq-chuchugini totgan, ancha-muncha issiq-sovuqni bo'shidan o'tkazgan kishi sifatida atrofda ilgarga, o'g'illariga, jivanlari va hshkarto'shilariga pand-nasihat tarzida didakatik g'azallar yozgan. Muhammad Solih «Shayboniyнома» da ta'kidlashicha, u so'z zamol va bilimdon bo'lganligidan ko'p vaqt nuq irodat qilganida yigitlar, hatto, ko'zlariga yosh olganlar: shoir ularning ko'ngliga ta'sir qila oladigan so'z va iboralar topa bilgan. Devon tematik arxitektonikasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, shoir va shoh Shaboniy o'tmi-o'tmi bilan o'z nasihatlarini, mulohazalarini poetik uslubda ifodalagan. Ta'kidlash lozimki, bu unga yigitlarning ruhini ko'tarishda, qo'shimning intizomini saqlash-da qo'l kelgan bo'lsa kerak. Xusususan, 1501 yildagi Samarqand gamali haqida yozadi: «Samarqandni qabab turganda, safar oyining boshida, bu mahalda lashkar ichida shurb bisyor bo'ldi, deb aytilar. Ers, so'z qo'lining namozguzor yigitlarini yuborib, sharob xumlarini buzdurdim. Ul kecha yotoq yigitlari bilan o'lturganda bu g'azalni ayttim» 50a.

Shaboniy devoni yaxlit lirik to'plan sifatida avvalidan oxiriga qadar ijodkor ruhiy holatining badiiy in'ikosi sifatida shakllangan. G'azallar va

<sup>1</sup> Турк саройидатъ нодинр асарл// У'абекистон адаби'ети сан'ятл// 1991 йил 20 декабрь сони.



boshqa lirik asarlar arxitektonikasini shakllantirishda shoir vaqti — vaqti bilan o'zining asar yozilayotgan vaqtdagi tarixiy voqealarga shaxsiy munosabati yoki ularning umumiy obzori keliradiki, bu unga she'rni omma — o'quvchi tomondan engil va to'g'ri o'zlashtirishi uchun zarur badiiy-psixologik arxitektonika yaratishga xizmat qiladi.

Shoir she'rning arxitektonik imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida qator san'atlardan unumli foydalangan. Qiyosiy assosiativ uslubdagi tashbih, tansiq us-sifat, murot an-nazir, yoki emotsional mu-bolag'a tasvir usullari: tablig', murojaat, ritorik so'roq, savolu javob, shuningdek, tazod, tajnis va yana ko'pgina san'atlar shoir devonining badiyiligi ta'minlagan.

Xususan, shoir talmech san'atining badiiy-poetik, falsafiy-estetik hamda ratsional-logik imkoniyatlaridan mukammal foydalangani holda patetik g'oyalarni asar zamiriga frazeologik ibora kiritish bilan amalga oshiradi. Shu o'rinda asarda g'oyani kuchaytirish maqsadida u irsol ul — masal san'atidan ham foydalangan:

Ne g'am ishqing ko'ngulni qilisa vayron

Kim erur doimo vayronada ganj. 116 b.

baytida «xazina lionli vayronada yotadi» masali orqali u o'z ruhiy holatini, o'zining asl boyligi muhabbati ekanligini masala orqali ifodalay, binobarin, poetik tasvirning keng imkoniyatlari doirasida ta'sirchan uslubda ifodalamoqda.

Devondagi mavzularning an'anaviyligi ayrim o'rinlarda qo'fiya va radiflarning an'anaviy shaklda qo'llanishini ta'minlagan. Ammo «ko'ngili», «kelmadi», «bo'ldi» kabi an'anaviy radiflar bilan bir qatorda shoir hali she'riyatda qo'llanilmagan (yoki kam qo'llanilgan) so'zlarni radif qiladiki, bu bilan shoirning an'anaviylikdan chekinishga intilishi yaqqol seziladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, an'anaviylik, klassik shakl asar estetik ruhini ta'minlashga xizmat qiladi, bu-aksisoma. Ammo individual shakl, yangi usulda so'z qo'llash ijodkorning matn ustlubidagi alohida maqsadini shakllantiradi. Shaboniy she'rilarida qo'llangan «chibin», «bo'lun-bo'lalay», «ekin» kabi radiflar uning psixologiyasida ekzotikaga bo'lgan intilishni ko'rsatadi. Tabiat qo'ymiga sayohat unga yangi ruh bag'ishlar ekan yangi ruh yangi, «tesha tegmagan», original so'zlar - lingvopoetik arxitektonikada ham o'z aksini topadi. Asar tarkibiga bu kabi ekzotik so'zlarni kiritish shoir tasavvurining ijtimoiy, tabiiy paradigmalarni ortiqcha izohsiz tushunishga yordam beradi.

Qo'fiyalardagi originallik yoki qo'fiyaviy ekzotika natqat oddiy so'zlarni badiiy ishtihoga kiritishga bo'lgan urinish, balki shu harakat zamiriga singgan olam hodisalarini balandparvoz so'zlar domida qoldirmagan holda elementar izoh oridagi buyuk g'oyalar inkishofini izlash sifatida qabul qilinnog'i lozim. Bunday arxitektonik tuzilish g'azal xalqchilligi bilan bir qatorda unda emotsional-psixologik kechin-malarning original germeneytikasini shakllantirishga yordam beradi.

Masalan, devonda 141-ab sahifadagi g'azalning to'qqiz bayti «birov», «lkkov»dan tortib, to «to'qqizov» gacha bo'lgan jamlov sonlar bilan qo'fiyalangan. Shoir qo'fiya so'zlarda o'z badiiy — estetik qarashlarini namash orqali jamiyat munammolariga munosabatini bildirgan.

Shaboniy devondagi asarlar munadarjasi uning ijodi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishimiz uchun imkoniyat yaratadi. She'rilarida yor-diyor muhabbati, sog'inch va ishonch, iftijo va ifitof, tamanno va tasanno, hayrat va hasrat, alam va shodlik tuyg'ulari shu qadar ustalik bilan uyg'unlik kasb etganki, ularning poetik-lisoniy assosiativiyasi inson ichki, ruhiy dunyosining qator qirralarini turli ranglarda ochib berishga xizmat qilgan.

Yorning yuzi, ko'zi, qomatu zulfi tasviri, aqli idroki, nozu karashmasi tavsihi g'azallar leytmotivini tashkil qilgani holda inson go'zalligi-jamiyat go'zalligini tabiat mukammalligiga bog'lagan holda ijtimoiy mukammallikka intilish pok va yorqin tuyg'ular hosilasi bo'la olishini tushuntirishga intiladi shoir. Yana she'rillardagi oshiqning yor firoqidan chekkan azob-ugubati, hajr o'qidan olgan dil yarasi, bevafo falakning musibati, ishq jabr-zulmidan nolishi kabi detallar hissiy dekadanslik-tushkunlik ruhiyati andozasi bo'lgan kechinmalar galb manzaralari paradigmalarning davomiyligidan dalolat beradi. Shaboniy lirikasi falsafiy mundarjasi, undagi mantiq o'ziga xos originallik bilan uyg'unligan. Shoir o'z ichki dunyosi, dunyoqarashini ma'lumoti saviyasi, mentaliteti darajasida yoritishga intiladi va bunga erishadi ham. Bu uning ilmi zohir va ilmi botindan olgan o'ziga xos tushunchasi bilan to'ldirilgani holda badiiy kashfiyotining imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Shaboniy lirikasining badiiy g'oyaviy jihatlari bir tomondan sharq mumtoz she'riyatining eng ilg'or va an'anaviy xususiyatlarini o'zida mujassamlantirganligi bilan boshqa tomondan original, individual badiiy mahoratni lirik satrlarda o'ymog'i va sodda tilda ifodalaganligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

### 5.3. Shaboniy lirikasida soʻzlarning shakli va maʼno paradigmatlari germenevtikasi

Tilidagi soʻzlarning shakli va maʼno paradigmatlari qaysidir maʼnoda inson ruhiy dunyosining psixofiziologik holatini, tushunchalaridagi xilma – xil koʻrinishlarini aks ettiradi. Biroq ulardan foydalanishda yangi maʼno, yangi gʻoya yaratish uchun yangi, original lugʻaviy qurshov hosil qila olish mahorati ham muhim. Toki sheʼr arxitektonikasi, soʻzlar distributiviyasi badiiy yorqin maʼno spektrlarining tovlanishi uchun kosmik assotsiativya yaratadi.

Sheʼrning bunday oʻziga xos koʻrinishini uddalash, asarlarida originallik holatini taʼminlash, binobarin adabiy germenevtikaning yuqori darajasini shakllantirish individual talant, isteʼdodning yorqin qirrasini hisoblanadi.

Soʻzlarning lingvopoetik imkoniyatlari asnosida Sharq poeziyasida iyhom va tajnis sanʼatlari hosil qilishda foydalaniladi. Shoir Shaboniy oʻz asarlarida maʼno paradigmatlarning kosmik spektrlarini tovlanitirish jarayonida ona tilidagi bu imkoniyatdan keng foydalanadi.

Iyhom va tajnis sanʼatlari leksik-semantik birliklarning shakli va paradigmatlariga asoslangan badiiy sanʼat. Asarda shoir bir baytning ichida ikki omonimik munosabaddagi soʻzlarni qoʻllaydi. Shakldosh soʻzlarning potensial imkoniyatlaridan mukammal foydalangan holda hali inson ongi ilgʻab olmagan yangi tafakkur ufiqlarini ishigʻol etadi. Shakldosh soʻzlar mantiq dunyosini anglab etish inson hayoti va tabiat – borliqning turli-tuman rang-barangligini inkihsaf etishning bir usulidir. Shu bois biz devonda shakldosh soʻzlar vositasida aks etgan matn maʼno xususiyatlarining ayrimlari haqida fikr yuritamiz.

Quyida bir baytning maʼno qirralarini shakllantiraylik:

Har kun gʻami ishqidin koʻnglima safar qilur

Sad tavnani sindirub, yuz tavba asar qilur. 39b.

Shoir soʻzning maʼno paradigmatlarini yaratish bilan birga bir bayt ichida, soʻzlarning yagona mavjud arxitektonik matn, distributiv imkoniyatlari doirasida quyidagi mantiq rang-barangligini taqdim etgan:

1. (Dildor) har kuni ishqining gʻami bilan mening koʻngil uyimga safar asnosida kirib keladi (Yaʼni, yor xayoli mutasil mening qalbidam). Men uni oʻylamaslikka yuz tavba qilgan edim, biroq u tavba davorini (arabcha sad-devor) oʻzining ruhiy goʻzalligi bilan buzib, baribir oʻz

goʻzalligi oldida tavba qildiradi, yoki yuz tavbaga yuz marta bosh egdiradi.

2. Men uni oʻylamaslikka yuz (forscha sad-yuz) tavba qilganim holda ishqining gʻami qoshida yana yuz (bet va son) bilan diydorlashuv uchun ruh paydo qilaman.

3. Inon vositasidagi tavba devorini buzib, yuz sifatining asari taʼsiri bilan yuz bora tavba qildiradi.

Baytda aks etgan arxitektonik lingvopoetikaning germenevtik qirralarini turli xilda shakllantirgan holda biz «sad» va «yuz» soʻzlarining maʼno farqlari orqali differensial gʻoyaga erishmoqdamiz. Soʻzlarning distributiv assotsiativiyasi tajnisi tomm va iyhom sanʼatlari (poetik nuqtai nazardan) badiiy tafakkurning imkoniyatlari cheksiz ekanligidan dalolat beradi.

Shoir shakldosh soʻzlar semantik imkoniyatlarini mukammal eʼgallangani holda poetik rang-baranglik chegaralarini kengaytiradi. «Yon» soʻzi hozirgi oʻzbek tilida ham ikki-«tomon» va buyruq feʼli maʼnolarida qoʻllanadi. Eski oʻzbek tilida uning yana «ortga qaytmogʻ» maʼnolari ham faol lugʻaviy qatlamda boʻlgan. Shaboniy soʻzning bu maʼnolarini bir matn doirasida uyushtirib, matning oʻqimishli, jozibador va serqirra maʼnoli boʻlishiga erishmoqda:

Yana doʻstlar firoqi bir soridur

Firoqdin yonmadim yondim deganda 11a.

Shoirning bir bayt tarkibida shakldosh soʻzlarni qoʻllash bilan bir qatorida ularning har ikkalasiga omonim maʼnolarni yuklab sheʼrning taʼsirchanligi va maʼnodorligini kuchaytirishga erishgan. «Firoq», «firon» mahubni yondiradi, «yonmogʻ» feʼlining «qaytmogʻ» maʼnosi ikkinchi misrada yangi maʼnoga, «firoqni oʻz ixiyorim bilan tanladim» maʼnosiga asos solmoqda. Yuqoridagi tahlil asosida baytning mazmunini «firoq azobi meni yondiradi, biroq men firoq azobidan qoʻrqib ortga, (sevgidan) qaytadiganlardan emasman» – maʼnosi shakllanadi.

Yoki quyidagi baytda «oʻz» soʻzining turli maʼnolari ostida matning fioda imkoniyatlari kengayganini koʻrish mumkin:

Shaboniy nolishi tundan oʻzuptur

Ne zulfga tushtum oʻsh oʻzdum deganda 11a.

Tun zulmati cheksiz- chegarasiz, ammo shoirning, oshiqning azobi ham chegara bilmaydi. Shu bois u oʻz azobi iqrori borasida tun zulmati pardasini yirtib chiqishga qodir. «Zulf» soʻzining «tuzoq» maʼnosi uni

yana har qanday holatda ham tuzoq domida qolayotganligidan dalolat beradi.

Shaboniy o'z asarlarida so'zlarning yangi leksik-semantik, stilistik imkoniyatlarini izlab topish, ularning ma'no va shakl qirralarini kashf etish, binobarin, asar tavsif imkoniyatlarini kengaytirish borasida ma'lum ijodiy cho'qqiga ko'tarila olgan. Xususan, quyida ikki jumlada shakldosh so'zlarni yonma-yan qo'llab ma'noni so'z o'yinining ichiga burkaydi:

Eti ohimning tutuni eti ayvonig'aacha 12b.

Yoki: Naylasun g'ayring ko'ngulda nuqta xoling borida 13b,

Bo'lmag'il g'ofil kechalar, ushbu xoling borida 13b.

Yoki: Ne uchun ushbu cherkda so'rmasi qardoshlarim,

So'rmasi andin ne parvokim, meni so'rmi chibin 118b.

Yoki: La'li nobindin qon icharman qonindin qonmayin. 30a.

Poetik asarda germenovika ko'p hollarda so'z istifoda imkoniyatlarining variantligiga asoslangan holda shakllanadi, bunday variantlik she'r arxitektonikasining asosida yotadi. Ya'ni so'zlarning ma'lum assotsiatsiyasi til lug'aviy ifoda qatlamining yuqorida ko'rib o'tilgan nimizdek, etnik yoki etimologik jihatdan differensial iste'mol qilinishi orqali ham yangi holat yoki ma'no to'vanshiga erishish mumkin. Bu xususda quyidagi bayt xarakterli:

Lovi lashkar himmatidin ushbu sadni bog'lading

Sen o'zing yolg'uz turib, xirsingga sad bog'la yana 10b.

Birinchi misradagi «sad» iymon vositasida semantik – stilistik variatsiyaga ega. Arabcha «ayn» bilan yoziladigan «sa'd» o'zbek tilida ham «baxd», «tole'», «yaxshilik» ma'nolarida qo'llangan holda talaffuz yoki vazn talabi bilan aynsiz yozilganda ham shu ma'nolarni istifoda qilishi mumkin. Natijada, bir bayt ichida «sad» so'zi uchta teng ma'noga: «bax-tole'», «devor» va «yuz»(son) ma'nolari bilan shakllangan. Eski o'zbek tilida fors tilining kuchi ta'siri she'r matnida etnik alternativlikka imkoniyat yaratgani holda ularning shakl va ma'nolarining ona tilidagi differentsiatsiyasi orqali yangi fikrlash jarayoni shakllanishi uchun asos bergan.

Eski o'zbek tilida til oldi yumshoq «u» tovushi bilan ovozlantirilgan «tuz» so'zi «tuzmoq», «dala» (yoki «kenglik»), «to'g'ri» va shu ma'no orqali shakllangan «o'q» ma'nolarida qo'llangan. Shoir so'zning bu ma'nolaridan foydalangan holda bir she'rning ichida ham raddul qofiya

san'atiga, ham qaytariq orqali so'z o'yini va poetik-isoniy assotsiatsiya, she'r arxitektonikasining originalligi borasida yangi g'oya ibtidosini ta'minlagan:

Qosharing yolarki anbardin yoyibsan tuzlaring 96a.

Ikkinchi misrada:

Ey ko'ngul jahd aylakim etsun falakka tuzlaring 96a.

Yana bir o'rinda:

Zohiding so'zi bilan tuz-to'g'ri yo'ldin chiqmasam 103b.

Yana bir o'rinda:

Shul ko'ying tuzunda eti zarrai xoling bila 156b.

Mumtoz adabiyotda arab alifbosida «alif», «mim», «yoy» kabi harflarning shakl imkoniyatlari poetik obraz darajasigacha ko'tarilgan. Agar biz mavzuga naturalistik pozitsiyadan yondoshsak, bu shakl imkoniyatlari poetik simvol orqali inson ruhining tabiatdagi analogiyasini shakllantiradi. Inson qalb manzarasini harflning shakl imkoniyati orqali reallashtirish shoir asari ifoda ko'lamining ma'nolar assotsiatsiyasi parametrlarini kengaytiradi:

Lavh yuzungda ajabdur bu yozilgan ikki yo

Kim ne teb yozib, bu yo g'amzangni pinhon aylading 86a.

Birinchi misradagi «yo» birdaniga to'rt ma'noda qo'llangan: «harf», «kamon», «qosh» va «yoki» (bog'lovchi). Ikkinchi misradagi «yo» ham uch ma'noda: «to'rt», «kamon» va «qosh» ma'nolarida. Shu o'rinda shoir «yo» harflning shakl imkoniyati orqali yasalgan «yoz» so'zining «yoyilgan», «kengaytirilgan» (joy yoki dala) ma'nolarini olishga erishgan. «Yoz» so'zi boshqa bir o'rinda «ochmoq» ma'nosini ham yaratgan:

Hajr shomida netakkim bo'ldi yozmas ko'zlaring 83a.

Insonning ijtimoiy holati orqali yasalgan poetik obrazdan san'at yaratish jamiyat psixologiyasining tabiatdan uzviy ravishda so'z, binobarin, ong harakatini gorizontal va vertikal yo'nalishlarini ta'minlaydi. Arxivik elementlar vaqti-vaqti bilan nafqat so'z o'yini uchungina qo'llangan, balki so'z o'yini orqali jitiy-badiiy ongning yoki qalb ruhliy manzarasining mazkur holatdagi tasvirini ochishga imkon bergan. Quyidagi misrada shoir so'zning omonimik assotsiatsiyasi orqali poetik obrazga nisbatan sentimental hissiyotini uyg'unlashtirishga erishgan:

Seni yuborgali shodim, o'zunda yo'q shodlig' 119a.

Qadimgi turk xoqonligida «shod» mansab va lavozim sifatida

xoqondan keyingi daraja sifatida qo'llangan. Shod, shuningdek, qo'shining so'l qanotiga qo'mondonlik ham qilingan. She'rdan bu termin «quvnoq» ma'nosidagi «shod» so'zi bilan semantik-stilistik aloqaga kirgan. Parallel san'atlar orqali tamomila yangi germanevik maydonni yaratgan.

Yoki:

Orang qulduru qullar aro qarq'a

Seni topqan uchun otangni qarq'a 15b.

Jumlasidagi «qarq'a» so'zining «qush», «la'natlamog» ma'nolari ham ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish yoki munosabat variatsiyalari parametrlarini aniqlashga xizmat qilgan.

Shakldosh so'zlar orqali yaratiladigan radd ul-qofiya san'ati qaysidir ma'noda olam va odam munosabatlari aylana shaklda tushunishga turtki beradi. Olam hodisalari ma'nolarning qiyosiy-assosiativ uyg'unligi falsafiy ma'noda ekzotik va ijtimoiy diskriminatsiyani inkor qiladi. Agarda jumla, tushunchalar bir maydonda teng yotar ekan, shu so'z yoki termin vositasida ibtido olgan sinfiy munosabatlar nima uchun differentsiatsiyaga ega bo'lishi kerak? Demak bir matn maydonida bir shaklli so'zlarni qo'llash sinfiy diskriminatsiyaga bartam berishi kerak. Sevgi oldida shoh ham, gado ham teng. Omonimik so'zlar asosidagi radd ul-qofiya san'ati aynan shu holatga ishora qiladi. «Iroq» so'zining quyidagi ma'nolariga e'tibor bering: 1. «uzoq» ma'nosida:

Oh netay do'stlar bo'ldi Samarqand iroq 81a.

2. Ikkinchi baytda «kuy», «jirlov», «ohang» ma'nolarida:

Toza bo'lur jismu jon har necha bo'lsa iroq 81b.

Xuddi shu misra adabiy asarning inson ruhiyatiga katarsis orqali ta'siri haqidagi Aristotel nazariyasini eslatadi. San'at, kuy inson ruhini tozalaydi, uni yangi, pokiza, binobarin, samimiy munosabatlarga chorlaydi.

3. Uchinchi baytda ijtimoiy holatda ichki munosabatlarning qutbiy qirralarini aniqlashga yordam beradi:

Kim qariliq vaqtida bo'ldum alardin iroq 81b.

4. To'rtinchi misrada o'zining harbiy maqsadlarini so'z o'yiniga kiritib, poetik ifodaning nafaqat estetik, balki vertikal maydonda ijtimoiy-ruhiy imkoniyatlarini yaratishga erishgan: o'rta asrlarda hukmdorlarining tashqi va ichki siyosati birinchi o'rinda harbiy potensial holatiga asoslangan. Tashqi munosabatlarni shakllantirishda harbiy razvedka katta rol o'ynagan. Quyidagi misra ifodasi shunga ishora

qiladi:

Qilisa muvassar xudo naylayin ahli Iroq 81b.

Omonimik so'zlarning shakli va ma'no xususiyatlarini aks ettirish jarayonida shoir inson ichki dunyosining ziddiyati ko'rinishlarini ham unutmaydi:

Chunki haqdin to'la bo'ldi ichimu toshim mening 83a.

«Ich» va «tosh» so'zlari o'zbek tilida ot so'z turkumiga oidligi bilan «ichki dunyo» va «tashqi dunyo» ma'nolariga, fe'l so'z turkumiga oidligi bilan «ichmoq», «toshmoq» ma'nolariga ega. Aynan shu ma'nolar matn germanevik imkoniyatlarini, mazmun arxitektonikasining, binobarin, so'zlarning omonimik ma'nolar differentsiatsiyasini shakllantiradi.

Shoirning matn arxitektonikasini tuzishdagi mahorati shundaki, bu erda har ikkala so'zning iboraviy semantik paradigmatlaridan mukammal foydalangan holda asarda matnning mazmundorligini oshirgan. Asar yozilgan vaqtdagi shoirning tashqi – ijtimoiy-harbiy ahvoli va ichki-ruhiy – psixologik ahvoli ikki so'zning semantik-stilistik differentsional paradigmatlari ichida yotadi.

Iyhom vositasida matnning leksik-grammatik strukturasiidan kelib chiqqan holda quyidagi ma'nolarni tushunish mumkin:

1. Ichim: 1) qorim to'q; 2) ongim, zehnim to'la, aqlim etarli; 3) oilam, qarindosh-urug'larim, yaqinlarim yonimga yig'ilgan; 4) (qo'mondon sifatida) jangga etarli lashkar to'plangan; 5) xazinam, boyligim yoki moddiy ta'minotim etarli.

2. Tashim: 1) ustim but; 2) tashqaridan keladigan barcha odamlarim yig'ildi; 3) atrofimdada dushmanlarim to'ldi va ularning kimligi aniq.

Lirik asarning matn xususiyatlari shoirga inversiya yoki badiiy-tasviriy priyom orqali so'zlarning shakli va ma'no xususiyatlari orqasidagi semantik paradigmatlar maydonini hosil qilish uchun imkoniyat beradi. Taqdim qilingan lirik mahni arxitektonik tavsif va interpretatsiya qilish jarayonida nafaqat so'zning leksik-semantik, stilistik imkoniyatlari, balki shoirning ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-psixologik holati bilan birgalikda jismoniy-fiziologik imkoniyatlari va talanti ulkan alamiyatga ega ekanligi yuqoridagi matn tahlili jarayonida namoyon bo'ldi.

Muhammad Shaboniy yirik davlat arbobi, sarkarda, olim va so'z san'atkori sifatida badiiy matnga imkon darajasida ulkan ma'nolarni yukladi, so'zlarning ifoda imkoniyatlarini kengayitirdi. Bu hol uning

g'azallarida turli san'atlarning muvaffaqiyatli qo'llanishi uchun imkoniyat yaratdi.

#### 5.4. Shoirning badiiy – tasviriy vositalar orgali matn germeneytikasini shakllantirish mahorati

Asarning badiyatini yuzaga keltiruvchi vositalar, o'xshatishlar, epitet, so'zlarining turli xil fonetik, deksik-grammatik shakl ifoda imkoniyatlari matn ifoda imkoniyatlari orgali insonga borliqning turli ma'naviy rangli dunyosini aniqlashga yordam beradi. Badiiy-poetik nutqning boshqa nutq shakllaridan farqi – undagi o'ziga xos leksik-grammatik jarayon, emotsionallik, ritm, inversiya, badiiy-tasviriy vositalarning originallik imkoniyatlari, nutqning fonetik-intonatsion tovlanishlari va hokazo.

Epik asarlardan farqli o'laroq she'riy asarlarda, xususan, g'azal janrida poetik tilning mana shu xususiyatlari ijodkor ichki dunyosini, uning qalb manzaralarini ochib berishga xizmat qiladi. Shoir bu o'rinda nafqat oddiy milliy qobig'dan uzib olingan individ sifatida, balki o'sha davrda millat tili, ruhi, badiiy-estetik darajasi, umuman olganda uning borlig'ini ko'rsatadigan oynaga aylanadi. Uning asarlarida aks etgan so'z shakllari, qolip, so'z o'yinlari, so'zning yangi shakllari, ularning leksik-semantik, stilistik paradigmalari qaysidir ma'noda milliylik mezonlarini belgilashga xizmat qiladi.

Lirik asarlarda shoirning vazifasi ma'lum bir qolip (klishe) doirasida so'zlarining leksik-semantik xususiyatlarini hisobga olib, ulardan shunday badiiy arxitektonika, distributsiya yaratishki, shakllangan sintagma o'zining mazmun doirasida mavjud so'zlarining ma'no tovlanishlarining yangi farqlarini, yangi shakllarini keltirib chiqarsin. Badiiy tilning yana bir muhim xususiyati mana shu kutilmagan holatda so'zlarining yangi assotsiatsiyalari orgali tamomila original ma'nolarini yaratishdan iborat. Poetik tilda bunday holatni shakllantirish uchun badiiy-tasviriy vositalar: o'xshatish(tashbeh), qiyoslash (jomii tanho), iboraviylik (talmeb), zid ma'nolilik, ziddiyat (tazod) kabilar yordam beradi. Real badiiy matnda shoir so'zning mavjud yoki mavjud bo'lmagan shakl xususiyatlaridan maqsadga muvofiq istifoda qilishi mumkin. Aynan shu hol uning poetik ijodkorligini ta'minlaydi.

Qadimgi turkiy adabiy yodgorliklar poetik xususiyatlarini o'rgan-

gan N. Rahmonov yozadi: «Agar yodnomalardagi metafora va o'xshatishlarning semantik xususiyatlari, strukturasi (ya'ni predmet, obraz va belgi kabi uch elementga ega bo'lishi) nazarda tutilsa, bo'ri-ting, qo'ni tagini metaforik o'xshatish emas, to'g'ridan to'g'ri o'xshatish deb qarash kerak bo'ladi. O'xshatishdagi formal ko'rsatkichlar (-cha, -ing) uni metaforadan farqlovchi asosiy belgilardan biridir. Metafora formal ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lmay, balki semantik taraqqiyot tufayli kelib chiqadi»<sup>1</sup>. Shaboniy g'azallarida ham o'xshatishlarning ikki usuli eng ko'p uchrashi kuzatiladi:

1) vositali tashbeh (tashbii sarif yoki tashbii mutlaq), bu uslubdagi o'xshatishlar ko'makchilar (Kabi, singari, yanglig', bikiin), yuklamalar (-dek, day, xuddi, naq) vositasida hosil qilinadi.

2) bevosita tashbeh: istitora, metafora; bunda epitet bevosita obrazga aylanadi, predmet o'z belgisi bilan nomlanadi.

Mumtoz adabiyotda g'azal janrida yaratilgan asarlar ko'pchilikni tashkil qiladi, binobarin, g'azal janrida yozilgan asarlarda shoirning ijodiy dunyosi kengroq namoyon bo'lgan. Aynan g'azalning universal poetik arxitektonikasida so'z sehiri o'quvchi, tinglovchi qalbidagi hissiyot ularni cherta oladigan shaklga kira olgan. G'azalning O'rta asrlardagi poetik imkoniyatlari haqida qator tadqiqotlar yaratilgan. G'azal o'z ibtidosini qadimgi arab poeziyasidan oladi. Uning mavzu va shakl jihatlari ham o'sha davrdan saqlanib qolgan. G'azal keyinchalik forsiy adabiyot asosiga olingandan so'ng bu adabiyotda asosiy lirik janrga aylandi va xuddi shu shakl va mazmunda o'zbek mumtoz adabiyotiga kirib keldi. O'zbek va fors adabiyoti bir zaminda shakllandi, har ikki tildagi adabiyot hamohang rivojlangan bo'lsa-da, forsiyo'y shoirilar ko'pchilikni tashkil qilgan va ularning asarlarining badiiy xususiyatlari yuqori baholalar edi. Shu bois O'rta asrlarda nazariy asarlarining diqqat markazida o'rganish ob'ekti sifatida ko'proq fors adabiyoti namunalari turar edi. Qolaversa, o'zbek adabiyotining o'sha davrdagi vakillari, Navoiy, Bobur kabilar ham adabiyotning nazariy muammolariga munosabat bildirish borasida fors va o'zbek adabiyoti o'rtasida farqni sezmagani. O'z fikrlarini isbotlash, asoslash va sharhlash jarayonida har ikki tildagi adabiyot namunalaridan parallel foydalananganlar. Bu hol O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ikki adabiy til: fors va o'zbek tili

<sup>1</sup> Уймак Обидлар. –Т.:1989.192.

bo'lganligidan dalolat beradi.

Qator olimlar fors adabiyotida g'azal janrining nazariyasi bilan shug'ullandilar. Shamsiddin Muhammad bin Qays ar Roziyning «Kitob ul mu'jam fi ma'a'ir ash'or ul ajam» kitobi g'azalni mazmunan o'rganish uchun muhimdir, chunki ayman shu kitobda g'azal mavzusi haqida fikr yuritiladi. «G'azal so'zining ma'nosi ayollar haqida so'zlash, ayollarni vafq qilish, demakdir... Juda ko'p taniqli shoirlar ham g'azalni mahubaning go'zalligini sharaflash, unga intilish yo'lidagi oshiq ahvolini sharhlash, deb ta'riflaydilar... G'azalning maqsadi inson qalbini tinchlantirish, shuning uchun g'azalda qo'pol so'zlardan saqlanadi...»<sup>1</sup>

Qobul Muhammad tomonidan yaratilgan «Haft qulzum» asarida g'azal mavzularidan tashqari uning shakli xususiyatlari haqida ham fikr yuritiladi. «Bilginki, g'azal so'zi sevgi va ayollar haqida hikoya qilishni anglatadi, tom ma'nodagi bu so'z hajm va ohang bilan jipslangan bir necha bayt demakdir. Bularning birinchi bayti matla deb, har ikkala misrasi qofiyalangan baytni anglatadi. Agar ikkinchi baytning ham har ikkala misrasi qofiyalansa, zebi matla, husni matla deyiladi. Oxirgi baytni maqta yoki xotima deydiyar. G'azal hajmi 11 yoki 12 baytdan oshmasligi zarur. Ayrimlar 19 baytni chegara hisoblaydilar... Agar g'azal 19 baytdan ortiq bo'lsa, qasida hisoblanadi (baytlar miqdori nuqtai nazaridan)<sup>2</sup>».

Shu yo'nalishda shakllangan va an'analar bois mustahkamlangan g'azal janri keyinchalik ko'plab musulmon sharqi xalqlaridagi kabi o'zbek adabiyotida ham etakchi janrga aylandi. Sevgi – muhabbat mavzusidagi g'azallar asosan ikki tipda shakllanadi: dialogik xarakterdagi g'azallar yoki sharti hol xarakterdagi g'azallar. Demak, g'azal tarixan «men-mahubba» ning «men-sen» yoki «men-u» shaklidagi universal lirik sxemasida tuziladi.

Shaboniy g'azallari arxitektonikasi, ularda uchragudigan badiiy-tasviriy vositalar shoir lirikasi poetik imkoniyatlarini yorqin namoyon qiladi, binobarin, shoir yashagan davr adabiy qarashlari, poetik an'ana-

<sup>1</sup> Памсиддин Мухаммад Бин Кайс ар Розий. Китоб ул му'ажам фи ма'а'ир аш'ор ул ајам. 415-416-бетлар. Қаранг: И. Стеблева. Семантика гэзелей Бабура. –М.: 1982. стр.9.

<sup>2</sup> Қобул Мухаммад. Хафт қулзум. 7-том. Лакснау. 1891. 44-45-сехифалар. Қаранг: И. Стеблева. Семантика гэзелей Бабура. –М.: 1982. стр.11.

lari ham shu erda o'z ifodasini topgan. Biz quyida shoirning alohida g'azallari misolida fikrimizni isbotlashga intilamiz.

Ey yuzungdin nuri lohi, ko'zlarindin kun qamar,  
Yo qoshing ko'rganch seni, o'shul oy eksilib o'zdin ketar.

Ey sening jising javohir, halqa yoyding gavhare,  
Gavhar ismin eshitgach, kufru kufforlar etar.

Sochlarind tuninda Hindni sen parishon qovlading,  
Zulfu sunbulung tararda subh yuzungdin asar.

Qoshlarind mehrob o'ldi, sarv qadding jon aro,  
Jon aro qadding agar bo'lmasa ul jondin ketar.

Qayda bo'lsa bu Shabonni solasan maydon aro,  
Munda va mashharda dilbar sening otingni bitar. 30a.

G'azal dialogik shaklda (men-sen) shoirning ekstaz holatini aks ettirish usulida shakllangan. Bu holat unda misralarning «ey» undovi bilan boshlanayotganligi uchun farqlanadi. Murojaat vositasida shoir o'zining butun mahoratini, lug'aviy imkoniyatlarini mahubani ulug'lashga hamda o'zining-lirik qahramonning ruhiy ekstaz holatini izohlashga qaratgan.

Birinchi baytda murojaat asnosida tashbih, tashbihi mashrut qo'llangan: «agar ilohning yuzi nuri bo'lsa, senikichalik bo'lar, qamarning nuri ko'zingnikichalik bo'lar». Yo qosh (yoydek qosh) simvol vazifasida ham oyga, ham qilichga o'xshatilgan, oy jonlantirilgan holatda qoshning o'zidan go'zalligini bilib, aqlini yo'qotadi-o'zidan ketadi.

Ikkinchi misrada iyhomi tomm (yoki tajinisi tomm): «yo» bu erda ikki ma'noda qo'llangan: 1-ma'noda «yo», «yoydek»; 2-ma'noda «yoki», «yoxud». «Qoshing» so'zi yo'ylning ma'nosiga qarab ikki vazifani bajargan. 1-«qosh», «badan a'zosi»; 2-sinekdoha usulida «oldingda, qarshingda».

Shu baytda yana murot an-nazir san'ati ham bor. «Qamar» va «oy» so'zlari o'zaro sinonimik munosabatta.

Ikkinchi baytda yana murojaat: «jism - javhar» (tashbeh), yoki «jising javhar halqasi», «ham javhar halqasi», «ham javhar», «javhar» so'zi metonimiya hosil qilgan. Shu asnoda ramz-simvolga asos

solgan. Murot an-nazir san'ati: «javhar»-«gavhar» (bu erda yana tanosub san'ati ham bor). Baytda tashohebul atrof (tasdir ham deyiladi) san'ati ishtirok etgan.: «gavhar» so'zi birinchining oxirida va ikkinchi mstraning boshida qo'llangan (takrir).

Uchinchi baytda tashbhi izmor: yashirin o'xshatish, bekitiqcha qiyos bor, «sochlarining tun, tunde qora» (istora, metafora). «Qoralkda sochlarining Hind tunidan ham oshib tushadi» (jomii tanho-qiyoslab o'xshatish, oshirib o'rsatish, ig'roqi fis-sifat - giperbola). Keyingi misrada murot an-nazir (sinonim so'zlarni keltirish) san'ati: «zulf-soch», «sunbul» metaforik ravishda soch ma'nosini bildirib, «zulf» bilan sinonimik qatorni hosil qilgan. «Subh» (tong) yuzga tashbhi mashrut vositasida o'xshatilgan. Baytning mazmuni quyidagicha shakllanadi: «soching qoralkda Hind tuni, yuzing oqlikda o'z nurlari bilan soching tunni tarab, ya'ni Hindning qora sochlarini oqartiradi, ya'ni tunni nihoyasiga etkazadi». Umumiy qilib aytganda, «baxti qora Hindning baxti bo'lishi uchun sening husning bahosi vosita bo'ladi». Bu o'rinda «taramoq» fe'li epitet vazifasini bajargan. Shu baytning o'zida «soch-zulf-sunbul» sinonimik qatori, «tun-subh» leksik, «soch»(tun) – «yuz» (subh) funksional antonimiyasi ishtirok etgan. Bunday variatsiya shoir ruhiy holatining muttasil kolliziyaga obrazli o'zgarishlar orqali uchrab turishi ko'rsatishi bilan birga, uning tabiat vositalarini badiiy tafakkurda obrazli izohlay olish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

To'rtinchi baytda yana tashohebul atrof yoki tasdir san'ati, tashbhi, istora san'atlari qo'llangan. Ikkinchi misrada tashbhi izmor bor. «agar qadding (metaforik ravishda sen o'zing) bo'lmasa, ul (ya'ni oshiq) jondin ketadi», (yorning o'zi oshiqning joni ma'nosida). «Sarv» so'zi ham iyhom hosil qilgan: birinchi ma'nosi «sarvqad», «go'zal, tik qadli», ikkinchi ma'nosi «sarv qadding-jon ustuni» va manna shu orqali ikkinchi misrada tashohebul atrof (yoki tasdir) vositasida yangi ma'no kelib chiqmoqdaki, unga ko'ra «jon (oshiq-istora) aro qadding (mabubaba-istora) agar bo'lmasa, ul jondin ketadi, ya'ni tanadan es-hush ayrtiladi, jomii tark etadi.

Beshinchi baytning birinchi misrasida shoir o'z fikrini yakunlashga, lirik chekinishga intilgan: «maydon» so'zi metonimik usulda qo'llangan: «ishq maydoni» va bu maydon jang maydonining bir qismi. Ikkinchi misrada istidrot san'ati, ya'ni to'ldirish bor: «munda (ya'ni, shu dunyoda-hashvi malih) va mashharda (u dunyoda) dilbar, seni yodlab

o'tadi». Bu erda yana siyogat ul adod va tazod san'atlari ham ishtirok etgan: «bu dunyo-u dunyo».

G'azal matnining badiiy-tasviriy vositalar leksik-semantik paradigmasi orqali mazmuni va mundariyasi tahlili bizni shoirning lirik ekstaz holatidagi ahvolini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Shoir o'z ahvoli va dilbar vasfni uyg'unlashtirishda bir xillikdan qochadi, yangi leksik-semantik vositalar izlaydi, so'zlarning yangi ma'nolarini kashf qiladi va shu asnoda u murojaat qilgan adabiy til shoirni mana shunday imkoniyat bilan ta'minlaydi. Yoki aniqrog'i, shoirning ijodiy fantaziyasida, tasavvurida yuz berayotgan hodisalar tilda, jamiyat tilida aksini topadi. O'z fikrimizni tasdiqlash uchun shoirning yana bir g'azaliga murojaat qilamiz.

Labing tabassum ila tirgizurki, Masih

Zihi tabassum shirin, zihhi kalomi fasih.

Karashma birla yana jonim ichra soli tannur  
Ko'ngulni ovlag'uvchi bir saman uzori malih.

Qoshing yosina bo'ldi yana buta ko'nglum  
Vale qarog'chi ko'zing naqdi jonim oldi sareh.

Chekub ko'zum yana kirpuklarimni rishatasina  
Sarashk donasidin gildi har sori tasbeh.

Muridi ishq bo'luptur Shaboniy miskin  
Dedi ishorat ila qilmadi ani tasrih. 29a-b.

G'azalda tanish motivlar uning kompozitsion taraqqiyotini ikki semantik markaz vositasida shakllanishiga xizmat qilgan.

Birinchi baytning birinchi misrasida yor labi hayotbaxsh masih (obrazli istora, metafora), ikkinchi misrada ikkinchi semantik markaz xususiyatlari xarakterlanadi: «tabassum shirin», «kalomi fasih» («zihhi» sifatning ortirma darajasini yasaydi). Bu erda siyogat ul adod, tansiq us sifot san'atlari: «labing masih'-malohatli shundan kelib chiqib tabassum shirin «fasih'-fasohatli. Yor (mabubaba)ning a'zolari: «lab», «tabassum», «kalom» masih, shirin, fasih so'zlardan epitet oladi, binobarin, hamma vaqt epitet zihhi bilan ortirma darajaga ko'tarilgan (tazyil san'ati-baytda ifodalananayotgan ma'noni qat'iy qayd

qilish uchun soʻz keltirish).

Ikkinchi baytda — yor karashmasi jon uchun tannur (tashbihi mashru), koʻngul ovlagʻuvchi saman uzori malih, yaʼni kuoʻngil ovchisi boʻlgan goʻzal yuzing malih (malohatli «uzor -yuz») tashbihi mutlaq).

Uchinchi baytning birinchi misrasida tashbihi mutlaq yoki tashbihi sarif (qoshing yosi) misra davomida tashbihi izmor/bekitigcha oʻxshatish) qoʻllangan: «qoshing yosiga (kamonga) koʻnglum-yuragim buta boʻldi-otitish uchun oʻrnatildi». Buni ikki maʼnoda tushunish mumkin: yuragim shakli kamon oʻqini eslatganligi uchun uni oʻq qilib olib yuborasan(xohlagan tomoningga), yoki mening ruhiy holatimga befarqsan, yoki menga ishqing oʻqi qoshing kamonidan koʻnglumga otildi-mustahkam joylandi. Lekin qarogʻchi koʻzing jonim naqdini(yuragimdagi shijoatni) olib qoʻydi.

Toʻrtinchi baytda faqat mahbubaning badan aʼzolari (badiiy detallar) ishirok etgan: koʻz, kirpuk, koʻz yoshlarining sarashk donasi mahbuba tomonidan tashilga («yorning domiga» istiora, tashbihi izmor) terilgan (siyoqat ul adod).

Beshinchi baytda shoir birdaniga lirik chekinishga oʻtgan oʻziga nisbatan «muri di ishq», «miskin» epitetlarini qoʻllagan. Lirik chekinish vositasida oʻz dardining tuzalmas ekanligiga ishora qiladi. Yoki «ishora qiladi-yu, fikrini oydinlashingmaydi».

Yuqoridagi ikki gʻazalda matn arxitektonikasining germevenitik imkoniyatlari koʻrsatadiki, muuntoz adabiyotda, gʻazal janrida shoir oʻz ruhiy holatining samarali ifodasini poetik tasviriga erishish jarayonida turli-tuman badiiy-poetik vositalarni qoʻllaydi. Dialogik xarakterdagi gʻazallarda lirik ekstaz izhori ikki lirik gʻahramon: oshiq va mahbuba atrofida uyushadi. Gʻazalning har bir baytidagi badiiy detal yuqoridagi holatni taʼminlashga, fikrni taʼkidlashga, mantiqni izchillashirishga xizmat qiladi.

Badiiy vositalarning barcha koʻrinishlari — epitet, oʻxshatish, parallelizm, metafora, antiteza va boshqalar badiiy adabiyotning zarur elementlari sifatida Shaboniyning dialogik xarakterdagi gʻazallari tarkibiga kirib, deyarli shu shaklda sharti hol gʻazallarida ham uchraydi. Bu oʻrinda ham yuqoridagi kabi soʻzlardagi takroriylik, emotsiya, evfonya, alliteratsiya kabilar asarning badiiyligini taʼminlovchi vosita hisoblanadi. Ayrim hollarda tovush takrori-alliteratsiya soʻz takrori-iltizomni (yoki tasdirni) hosil qiladi. Shaboniy gʻazallarining muhim

xususiyatlaridan biri ularda istoraviy obrazlar, aniqrogʻi epitetning obrazga aylanishi, bu hodisa metaforani hosil qiladi.

Quyida lirik gʻahramon I shaxs birlik olmoshi (egalik qoʻshimchalari bilan) va mahbuba III shaxs olmoshi «u» (kelishik va egallik qoʻshimchalari ishtrikida) ifodalangan tavsifiy — sharti hol xarakterdagi gʻazal matnini germevenitik tahlildan oʻtkazamiz.

Qoshining yoyi yozilmish mohi tobonigʻacha  
Zulfi ayli soliptur qaddi poyonigʻacha.

Koʻrunguz koʻkda bulutni qildi yuzini qaro  
Yeti ohimning tutuni etti ayvonigʻacha.

Kirpukingning oʻqlari ochti susab gʻuncha ogʻiz  
Rang olur koʻnglum qonindin oʻqi paykonigʻacha.

Oncha kizlar erdim ushbu ishq sirin el aro  
Oshkoro qildi koʻzum yoshi pinhonigʻacha.

Kelmasun hargiz itingga furgatining mehmati  
Furgating iti tugatti eyu et qonigʻacha.

Naylasun bechora bulbul hech muyassar boʻlmasa  
Kim figʻondin ayli yongʻay bilki domonigʻacha.

Boʻlmagʻanidin ne gʻandur mehmoni yor ham  
Bu Shaboniy ayli tufta qildi oʻsh jonigʻacha. 30a.

Gʻazal sharti hol xarakterida boʻlsa ham, uch oʻrinda: uchinchi va beshinchi baytning birinchi va ikkinchi misralarida lirik gʻahramonning bevosita ikkinchi shaxsga murojaati bor. Biroq bu hol gʻazal munda darjiasining xarakteri uchun efemer holat boʻlib, unga dialogik xarakter bera olmaydi.

Gʻazal matnining arxitektonik imkoniyatidan kelib chiqadigan germevenitik tasnif quyidagicha:

Birinchi baytning birinchi misrasida tashbhihning ichida istiora berilgan, yaʼni qosh-obʻekt, detal oʻxshatilmish, oʻxshamish yoy, qoshning egriligi (shakl asosida) yoyga oʻxshatilgan boʻlib, metafora hosil qilgan. Shu baytning oʻzida istiora «mohi tobon», yaʼni yorning yuzi oy kabi



yorug' va jozibali-o'ziga tortuvchi. Ikkinchi misradagi «zulf» so'zining qo'llanishida iyhom bor, ya'ni birinchi ma'noda, «zulf»-soch, «to qaddi poyovni'acha» solingan. Ikkinchi ma'noda «qulf, dom» ma'nosida, butun jismi mahv etgan.

Ikkinchi baytda tashbhihi izmor muvaffaqiyat bilan qo'llangan, shuningdek, uning zamirida iyhom bor: ko'kda bulut – abr, abr-qosh, ko'kdagi bulutdan maqsad, uni qoshga o'xshatish, o'xshatish davomida tashbhihi aks keltirilgan-oy uning (mahubuning) yuzi. Ikkinchi misrada shoir tajnisi tommga erishgan: etti (fe'l)-etti(son).

Uchinchi baytda shoir bevosita ikkinchi shaxsga murojaat qilgan bo'lib, bu hol unda ta'sirchanlikni-ekstazning yuqori fazasida oshiq holatidagi ta'sirchanlikni oshirish uchun qo'llangan xolos. Bunday ho-disa haqida I.Stebleva yozadi: «Sharhi hol xarakteridagi g'azal matniga murojaatni kiritish, uning matnini dialogik shakliga aylantiradi va bu bilan undagi ta'sirchanlikni oshiradi»<sup>1</sup>. Ikkinchi misra mundarijasi uni yana sharhi hol shakliga qaytargan.

Bu erda yana metonimik xarakterdagi metafora bor: «kirpuking o'qlari», keyin davomida tashbhihi izmor, ya'ni «ochti susab g'uncha og'iz», ya'ni «ko'z ochdi». Ikkinchi misrada iboraviy uslubdagi tashbhihi izmor: «ko'nglum qonindin rang olur», ya'ni «kiprtigi uchlardagi yosh qonli». Tasdir san'ati ham ishtirok etgan. Kiprning paykonga –metal boshqoqli o'zga o'xshatilishi metafora.

To'rtinchi bayt umumiy ma'noda izoh-tafsir san'atini tashkil qilgan, chunki baytdagi ma'noga izoh kiritgan: ko'z yoshini, qonli yoshni aynan oshiqning o'ziga nisbat qilgan.

Beshinchi baytda yana dialogik uslub qo'llangan: «itingga»-lirik qahramonga(oshiqqa), ikkinchi misrada istiora (metafora) rivojlan-tirilgan: «furgating iti». Bu erda yana jam' va ta'dil san'atlari ham ishtirok etgan.

Oltinchi baytda metafora «bulbul», metonimiya «domonig'acha», ya'ni «oxiriga qadar, tamomila» ma'nosida.

Yetinchi baytda shoirming tafsir va tajozub san'atlariga murojaat qilganligi, uning umuman yuqoridagi fikrlarini hammasi uchun yakuniy xulosa yasashga intilganidan dalolat beradi va bir jumla bilan izohlanadi: «mehmoni yor bo'lmadi», ya'ni yorning iltifotiga musharrat bo'lmadi.

<sup>1</sup> Стеблева И. Семантика газелей Батфура. –М.:1983. стр. 189.

Amalga oshirilgan asar arxitektonikasining poetik-germenevtik tahlilari ko'rsatadiki, g'azalning dialogik yoki sharhi hol xarakterida ifodalinishi uning asosan shakliy, ya'ni ekstaz holatining atrofdagilarga nisbatan ifodasiga bog'liq. Shu bois ulardagi umumiy tonmlar ko'p, xususan, she'rda g'oya ikki poetik obraz(semantic markaz) atrofida uyushadi. Har ikkala tipdagi g'azallarda ham shoir mavjud lisoniy maydonda, mavjud leksik-semantic vositalar ishtirokida o'quvchi ongida (tasavvurda) o'zining ekstaz holatidan kelib chiqadigan holatni nazarda tutgan holda fikrlar mundarijasini bayon qiladi. Shoir tilda, ongda mavjud holatlardan tashqari yangi, original g'oya yaratishga intiladi, yangi ma'noni ixtiro qiladi. Shoirning poetik mahorati har ikkala uslubdagi g'azallarda ham poetik san'atlar vositasida namoyon bo'ladi, chunki aynan san'atlar g'azalda badiiy fantaziyani ta'minlovchi poetik vosita sifatida ishtirok etadi. Lingvopoetik vositalarning san'at tufayli ma'lum matn arxitektonikasida (distrubutsiyada) yangi ma'nolarning ixtiro etishi (ibdo san'ati) poetik tilning ijodiy imkoniyatlari doirasida yotadi.

Qadimgi turkiy yodgorliklar poetikasi bo'yicha kuzatishlar olib borgan N.Rahmonov ta'kidlaydiki, qadimgi turkiy toshbitiglar, xusus-san, Kultegin bitigtoshining lirik uslubini ta'minlagan holat shundan iboratki, u davrda poetik til keng qamrovi bo'lib, lirik vositalarni atroflicha epik janrlarga tayangan holda yoritish imkonini bergan, ammo epitetlar: o'xshatish, rim va boshqa vositalar asrdagi poetik ruhni saqlashga xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlanishi lozim bo'lgan yana bir hol muhimki, bunda lirik matnlarda logik urg'u doimo epitelarga tushadi, chunki aynan epitet badiiy ruh in'ikosi, asar matni fantaziyasini ta'minlovchi vositadir.

Epitetlarning qo'llanishi badiiy adabiyotda turlicha kechadi, u davr ruhi, ijimoiy ongning shakllanishi bilan bog'liq. Masalan, qadimgi turkiy yodgorliklarda ma'lum predmet yoki ob'ektlarga nisbatan bir xil atributlarning qo'llanishi mif, kult yoki ideal tushunchalarni ifodalash bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, qahramonlarni doimo alp, dono yoki yovuz, bilimsiz sifatida tasvirlash yoki voqea-hodisa, ob'ektlarni muqaddas deb qarash tufayli unda mifologik tushunchalar o'z aksini topgan. Binobarin, eng qadimgi davrda (VIII asrgacha bo'lgan davrda)

abstrakt fikrlashga moyillik bo'lmagan<sup>1</sup>.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimoiy sharoit tubdan o'zgarishi bilan bir qatorda ijtimoiy ongning shakllanishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Endilikda oddiy mifk taassurotlar ijtimoiy borligining real obrazlariga aylanadi, abstraktlik konkretlik kasb etadi. Shoir ikkinchi tabiat (jamiyat) vositalarini epitet sifatida qo'llashdan yoki mifk obrazlarni ular bilan yonma yon keltirishdan hech qanday g'ayritabiiylik his qilmaydi.

Shaboniy g'azal kompozitsiyasini qator poetik san'atlar vositasida tuzadi. Yuqoridagi g'azallar tahlilida kuzatganimizdek, g'azal arxitektonikasi paradigmalarida so'zning leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, so'z ma'nosi uning shakli bilan mustahkam bog'liq bo'lgani holda, matn ichidagi so'zlarning tartibi, so'zlarning arxitektonik assoatsiatsiyasi ham asar g'oyasining yorqin asosida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Arxitektonika she'r-shoir, ijodkor ichki dunyosining so'z, ritm, ohangdagi tuzilishi demakdir.

Badiiy matn germeneytik tahlili ko'rsatadiki, so'zning semantik etimoni (o'zak, boshlang'ich ma'nosi) bir ma'noni ifodalasa, uning inson mentalitetidagi, issoniy imkoniyatidagi yorqin asnosida shakllanadigan semantik paradigmalari so'z ma'nosining to'xtovsiz kontinuumiga (ma'nolarning o'zgarib borishiga), binobarin, asar mazmunining turli parametrlarda shakllanishiga olib keladi.

She'riy matnda, g'azalda so'z ma'nosini belgilaashda distributsiya ham muhim o'rin tutadi, bu o'rinda shoirning inversiya orqali ma'no paradigmalarini yarata olish mahorati ko'zda tutiladi. Poetik nutqning emosional taraqqiyoti albatta, uning yangi ma'no fantaziyasining omili bo'lishi tayin. Takrorning barcha ko'rinishlari, xususan, epifora, anafora ham matnda so'z ma'no taraqqiyoti orqali yangi badiiy fantaziyaning asosida yotadi.

Poetik nutqning eng xarakterli xususiyatlaridan biri akkordlik (so'zlardagi hamohanglik) bo'lib, bu holatda bir necha so'zlarning bir ma'noni yoki bir so'zning bir necha ma'noni ifodalashi ko'zda tutiladi. Qo'fiya, radif she'riy asarlarda ritmi, ritm esa, akkordlikni hosil qiladi. Shoirning asar ma'no qirralarini shakllantira olish borasidagi poetik mahorati yana uning hamma leksik-semantik vositalarni yagona

dominant ma'no atrofida birlashira olishida ham ko'rinadi. Hamma poetik aksestarlar (2-darjali detallar): parabola (bir fikri turi shakllarda ifodalash), evfemizm, ekivok (so'zlardagi ko'pma'nolilik), remissensiyazo'rg'a, arang seziladigan ma'no), gradatsiya (ma'noni kuchaytiradigan so'zlarni ketma-ket qo'llash) va shu kabi poetik strategiyalarni umumlashtiruvchi arxitektonik paradigma ham asarda yangi ma'no, yangi dominant ma'no ixtirosi uchun xizmat qiladi.

Fors adabiyotida poetik nutq so'z shakli va so'z tizimiga asoslangan bo'lib, so'zlarni bir tizimda qo'llash bir matn dorasida bir xil ma'noni ifodalasa, ikkinchi tartibda ikkinchi xil ma'no yaratilishiga xizmat qilgan. Bu uslubning mutasil davom etishi, so'z ma'nosi va shaklining almashirilib turishi nutqda jimjimadorlikni ta'minlagan. Fors adabiyotida so'z o'yini asosiy hisoblangan.

Navoiy esa, poetik nutqda so'z ma'nosini bosh o'ringa suradi, ta'kidlaydiki, muhimi qanday aytilish emas, nimani aytilishda. Aytilgan so'zdan kelib chiqadigan ma'no tovlanishlari poetik tafakkur asosida yotadi. Shaboniy o'z lirik merosini shakllantirishda aynan shu an'anaga asoslangan.

Yuqoridagi fikrlar asosida shoirning yana bir shartli hol xarakteridagi g'azalini tahlildan o'tkazamiz.

Isbu sirti ul sanamning nuqtai xolindadur  
Bu nuammo nuqtasi oshiqqlarning holindadur.

Qol birla hol sirtini so'fi hargiz bilmadi  
Harki so'zlar ushu sirmi barchasi qolindadur.

Otqay erdim so'filar vasili muyassar bo'lsadi  
Barcha ma'no bilingizkim, chehrai olindadur.

Chehrai gulning firoqin chekkali men doimo  
Murg'i jonimning makoni zulfning dolindadur.

Yo magar jon nuqtasidur chehralarda ko'rganim  
Bu nuammo sirti mushkil oy netay qolindadur.

Nog'u tushti ushu igna xirmani jon ichiga  
Ko'zlagil joning ichinda sarvining bolindadur.

<sup>1</sup> Уймак обидлар. -Т.: 1989. 169-бет.

Ey Shaboniy kechti umrung qilmading bir dam qaror  
Yo'q emish ishqning qarori lablaring olindadur.

Bu g'azalni yoz faslinda deyrurman, ey mo'g'ul,  
Qozi-yu mufti so'zumdin barcha af'olindadur. 40b, 41a.

G'azaldagi sharhi hol ustlubi uni ikki semantik markaz atrofiga  
– «men»(shoirning meni) va «u» (mahubba) atrofiga shakllanishini  
ta'minlagan.

Birinchi baytda shakldosh so'zlar ishtirok etgani holda radd ul  
gofiya san'atini keltirib chiqargan. Vaholanki, g'azal mundartjasi  
boshlang'ich nuqtasi ham shu erda. Sharq adabiyoti nazariyasi  
bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ta'kidlashicha, matla'da  
butun g'azalning kompozitsion va semantik tuzilishiga turki beradigan  
potensial ruh-nuqta bo'ladi, shuning uchun ham g'azaldagi effektiv  
matla'lar uning arxitektonik tadrijiy rivojiga va binobarin, dominant  
nuqtasining g'oyaviy jihatdan muvaffaqiyatli ochilishiga kuchli ta'sir  
o'kazadi.

Shoir birinchi misrada tashbhihi aksga murojaat qilgan, ya'ni «ishq  
sirri ochilmas sir», «zulmat xuddi ul sanamning xoli kabi», bu erda yana  
tashbhihi izmor ham uchraydi: «zulmat kabi qora xol», ya'ni «yorning  
xoli qoralikda Hind zulmati». Ikkinchi misrada tashbhihi aks va tashbhihi  
izmor asarning badiiy mazmuni tarqiyotiga asos solgan: «oshiqlarning  
holi(ahvoli) yomon (qora, echilmas muammo) xuddi ul sanamning xoli  
kabi». Bu tashbihlar baytda metonimiyani ham shakllantirgan. «tun»-  
«qora xol», «muammo-ahvoli», «hol-tun», shuningdek, «nuqta» so'zi  
iltizom qilingan.

Ikkinchi baytda: so'z – gap (qol) ahvolning muammosini echa  
olmadi, «minmaiki so'zlasa, barchasi quruq gap», baytda «qol» so'zining  
bayt boshi va oxirida qo'llanishi uning ma'nosiga shoir tomonidan  
alohida urg'u berilayotganiga ishora.

Uchinchi baytda ritorik so'roq: So'fi! Bu so'roq ortida shoirning  
o'z maqsadi yo'lida qat'iyligi aks etgan. Toki din muhasiblari uni  
dibarga erishuv yo'lidan qaytara olmaydilar. Shoir davom etadi – hayot-  
ning mazmuni chehraning o'ligida, qizilligida. Qizillik: 1) chehraning  
rang; 2) tiriklik belgisi (sinekdoha).

To'rtinchi baytda forsiv izofali so'z birkimasida tashbhihi aks.  
Ikkinchi misra qatorlashirilgan metaforalar bilan keltirilgan, istiora

bilan tashbehi aks yonma yon: «jonim qushining (mening jonimning)  
makoni zulfing domida (yor zulfing gajagida, gajagi o'ramasida)»,  
shuning uchun tashqariga chiqolmaydi va yorning gul chehrasi firoqida,  
gul chehradan yiroqda qolaveradi. Shu o'rinda antiteza orqali shoir  
ajoyib falsafa yaratishga intilgan: «zulf» - tun, ya'ni u dunyo-notirik ;  
chehra – kun –bu dunyo- hayot manbai.

Beshinchi misrada shoir matlada ifodalangan fikrga qaytib, uni to'ldirgan (istidrog), g'ayta izohlagan (tafsir). Bu bilan g'azaldagi g'oyaviy  
butunlikni ta'minlashga erishgan. Bu baytda «jon nuqtasi-xol», ikkinchi  
misradagi oy (metafora) – «yor yuzi».

Oltinchi misrada original istiora uchraydi: «igna-ishq dardi», «xir-  
moni jon-badani», ya'ni ishq dardi-igna tushgan joy. Ikkinchi misrada  
shoir ignani yorning qomati bilan qiyoslagan, uning qomatidek uzun,  
baland tasavvur qilgan.

Yetinchi baytda Shaboniy bevosita lirik chekinishga o'tgan, o'ziga  
(1 shaxsga) murojaat qilgan: umr o'tdi, ammo tinim bilmading, ikkinchi  
misrada tafsir vositasida o'z fikrini izohlagan: «oshiqda qaror yo'q»;  
shu yerda shoir yana radd ul gofiyaga murojaat qilmogda: «lablaring  
olindadur». Faqat epitet lab uchun qo'llangan, avvalgisida chehra, yuz  
uchun edi. Yana shu baytda shoir g'azalning yakuniga ishora qilgani  
holda taxallus keltirgan.

Sakkinci bayt shoir tomonidan bevosita istidrog san'ati uchun  
keltirilgan, chunki shoir g'azal yakunidan qonimadi, uni to'ldirish  
uchun vaqtga ishora qilgani holda «g'azal yoz faslida aytilidi», deya  
yakunlagan.

Yuqoridagi g'azallarining matn arxitektonikasining germenevtik  
tahlili ko'rsatadiki, Shaboniy poetik mahorati yuksak shoir sifatida  
asarlarida so'zlarning ma'no, shakl, distributiv va germenevtik  
imkoniyatlaridan mukammal foydalangan holda (bu borada u Alisher  
Navoiy an'alarini davom ettirdi) yuqori poetik saviyadagi asarlar  
yaratishga intildi. Asarlarining nafqat shakl jihatidan, balki eng avvalo  
mazmun, g'oya jihatidan mukammal bo'lishini ta'minlashga erishgan.  
O'rta asrlar o'zbek mumtoz adabiyotining poetik imkoniyatlari shoirga  
bu maqsadni amalga oshirish uchun material bera oldi. Shoir nafqat  
yuksak g'oyali, balki yuksak poetik asar yaratishga ham intildi.  
G'azallarida so'zlarning lingvopoetik imkoniyatlariga tayangan holda  
poetik san'atlarni keng qo'lladi, so'zlarning yangi ma'nolarini kashf

qildi. Adabiy an'analar asnosida o'z g'azallarida taxallusdan ham qo'fiya va san'atlar yaratish borasida foydalandi. Shoir devon tilini boyitish, asarlarida badiiy tafakkur poetik jilolarini yanada yorqinroq namoyon etish, asarda g'oya va mazmun yuksakligini ta'minlash borasida nafaqat ona tilidagi, balki o'zga tillardagi leksik-semantik vositalardan ham erkin foydalanishga intildi. Bu hol o'sha davrdagi adabiy-lisoiy an'analar bilan hamohang hol bo'lib, ular shoirga asarlarida poetik mahoratni barkamol bo'lishiga xizmat qilgan deb aytilish mumkin.

### 5.5. G'azalda simvol germevntikasi

Badiiy matnning poetik shakllanishida so'zlarning ko'pma'noiligi muhim o'rin tutadi. Shoir so'zning matni ichida mumkin bo'lgan ma'nolarini qo'llash bilan cheklanib qolmasdan originallik va poetik talab da'vosi bilan so'zning nomumkin ma'nolarini axtarishi mumkin. Qo'llanilgan so'zning original shakl va ma'no xususiyatlarining o'rni va ma'no muvaffaqiyati shoir iste'dodi, mahorati va u murojaat qilgan tilning leksik-semantik imkoniyatlari bilan bog'liq.

O'rta asrlar o'zbek adabiyoti naqadar katta hududda shakllangan bo'lishiga qaramasdan qator lingvopoetik vositalar deyarli hamma erda bir xil shakl va ma'noda qo'llangan. Xorazmda yaratilgan badiiy adabiyot yodgorliklari tilini Samargand-Buxoro va Toshkent — Qo'qonda yaratilgan asarlar tiliga qiyoslab o'rganish bu xulosani tasdiqlash uchun imkon beradi.

Muhammad Shaboniy asarlari ma'lum bir asnodagi an'analar doirasida yaratilgan bo'lib, asarlarning matn arxitektonik xususiyatlari, badiiylik, mazmun mohiyat hamda asar poetikasini ta'minlovchi lingvopoetik qirralari o'sha davr poetik til an'analari asnosida shakllantirilgan. Albatta, shoirning poetik novatorligi, uning badiiy mahorati asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilgan.

Poetik matnning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda so'zlarning ko'p ma'noiligi muhim rol o'ynaydi. Shoir so'zning matnning qurshov arxitektonikasida yoki qurshovdan alohida ma'nolarini shakllantirish jarayonini tashkillostirishda turli poetik usullardan foydalanadi. Originallik da'vosi bilan so'z — matnning nomumkin ma'no qirralarini axtarishi mumkin. Qo'llanilgan uslub, o'rin va vositaning muvaffaqiyati shoir iste'dodi, maorati va u murojaat qilgan tilning lingvopoetik

imkoniyatlari bilan bog'liq.

Poeziya, binobarin badiiy tafakkur tabiiy vositalarning inson ruhiy dunyosiga, ruhiyat tasavvuriga ko'chirishga xizmat qiladi. U bir narsalarni xarakterlash, tavsiflash uchun o'zga narsalardan o'xshatish, epitetlar izlaydi. Ma'lum predmetlar uchun qo'llanilgan epitetlarning muvaffaqiyati chiqishi uni ramz (simvol) darajasiga ko'taradi, ammo bu o'rinda natija epitetning umumxalq tushunchasi sifatida ilohiylik darajasi bilan ham bog'liq. A.A.Potebnya tilning lug'at tarkibi boyishi jarayonida so'zning dastlabki ma'nosi yo'qola borishini ta'kidlab, simvol-ramzning paydo bo'lishi haqida fikr bildirganda, so'zning obrazlilik ifodalash xususiyatini nazarda tutib, buni quyidagicha izohlaydi: «So'zning o'z unutilgan ma'nosini tiklashga bo'lgan talab ramz (simvol) hosil bo'lishining sabablaridan biridir»<sup>1</sup>.

«Oq» epiteti o'zbek xalqida eng qadimgi davrlardan buyon adolat, ishonch, maraba, to'g'ri ramzi sifatida epitet vazifasini bajarib kelgan. Tongning olishi (oq) maqsadga erishuv, tun, hijron va firoy (azob, qora) epitetlari davrlar mobaynida tadriflilik xususiyatini o'zida kasb eta bordi va simvol-ramz darajasiga ko'tarildi:

Chiqdi oq evdin sanam 75a.

«sanam oq — muhabbat uyidan chiqdi».

«Qora» metafora sifatida birinchi ma'nosida qosh, ikkinchi ma'nosida to'siq, parda. Zulf — sochning ortida, pardada berkindi (sanam). Bir o'rinda tun soch uchun epitet vazifasida kelgan bo'lsa, boshqa o'rinda zulf-soch tunning epiteti darajasiga ko'tarilgan.

Dudog'ing ustida xolingni o'xshata bilman,

Kora chibin yana qo'nib asalga berkandu. 142b.

Natijada «qora» so'zi sekin-asta epitetdan simvol-ramz darajasiga o'tadi. Bu so'zning metafora sifatida ayrim o'rinlarda soch (zulf), xol, zindon, tun, ruhiy holat ma'nolarini anglatishi shoir ruhiy dunyosining ichki qirralarini ochish barobarida borliq, tabiat, jamiyat va inson munosabatlarining murakkab assotsiatsiyalari orqali yangi gipotezalariga asos soladi. Ular o'z navbatida inson aqli anglab etmagani yangi istifohlarni ochishga yordam beradi.

Ramz-simvol va epitetlar o'rni-o'rni bilan obrazga aylanadi. Boshqa mumtoz adabiyot namoyandalari ijodida kuzatilganidek, Shaboniy

<sup>1</sup> Потебня А.А. Эстетика и поэзия. — М.: 1977. стр. 222.

## XULOSA

g'azallarida ham bu obrazlar orasida murakkab geometrik-logik munosabatlarni mavjud. Ular so'z ma'nolarining nafqat semantik-grammatik imkoniyatlari, balki, behad ko'p qirrali etnik-etimologik va individual-biologik imkoniyatlari bilan ham xarakterlanadi. Xususan, «qora» so'zining falokat, yomonlik, zulm, shavqatsizlik, adolatsizlik va boshqa ijtimoiy murakkab munosabatlarning turli-tuman paradigmalari ochib beradigan qirralari sharq xalqlari tilidagina uchraydi. Mutanosib ravishda «oq» ezigulik, baxt, davlat, hokimiyat va yana qator inson romanik orzularining simvolini anglatadigan tuyg'ularni nomlashga xizmat qiladi. Demak, simvol tuyg'ular umumiy nomi sifatida sahnaga chiqar ekan, ularning tabiat vakillari nomlari bilan ataydi. Binobarin, ijtimoiy hissiyot tuyg'usi bo'lmish simvolni yana tabiiy asoslarga qaytaradi.

Adabiy tafakkur ijtimoiy ongning ajralmas qismi sifatida qadim zamonalardan buyon inson hayotini bezab keladi. San'at, so'z san'ati olam va odam yaratganining dastlabki kunlaridan boshlab inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. San'at namunalarini izohlash, ularda aks etgan tafakkur qirralarini sharhlash ham ma'lum tarixiy mezonlarni birilashiradi.

Germenevtik tadqiqotlar antik davrda Aleksandriya maktabi olimlarining ilmiy risolalarida o'z ibtidosini olgan. Bibliya matnlarida aks etgan g'oyalarni insoniyatga ochib berish jarayonida ular ilohiy mazmun interpretatsiyalarini amalga oshirganlar. Keyinroq bunday usul U. Shekspir asarlari matn xususiyatlarini o'rganishga ham tatbiq qilingan.

Falsafiy germenevtika asosida shakllangan adabiy germenevtikaning asoslari Shleyermaxer, Dilley va Gadamer kabi olimlar tomonidan ishlab chiqildi. Adabiy germenevtika badiiy matnlarning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga intilar ekan, badiiy asarning arxitektonik holati orgali original, yangi g'oya, borliqning ochilmagan qirralarini topishga harakat qiladi. Badiiy matning inson ruhiy dunyosini kashf qilish jarayonidagi imkoniyatlarini tadqiq qilish jarayonida amerikalik olim Xirsh interpretatsiyaning uch o'lchamini taklif qilgan: deskriptiv, me'yoriy va metafizik. Bu o'lchamlar badiiy matni o'zaro qiyosiy o'rganish nuqtai nazaridagina qo'llanishi mumkin.

Badiiy matni tushunish, umuman, tushunish jarayoni adabiy germenevtikaning asosida yotadi. Matni inson tomonidan o'zlashtirilishi ikki usulda kechadi: ratsional va emotsional shaklda. Ratsional usulda inson matn mazmuni va binobarin g'oyasini aql bilan anglab etadi. Emotsional o'zlashtirishda esa, u qalban his qiladi asarda bu holatni. Badiiy matni ruhiy-psixologik o'zlashtirish san'atda, xususan, adabiyotda qator modernistik oqimlarning turli g'oyalar tashishi bilan ham xarakterlanadi.

Madaniy germenevtikaning bir shakli sifatida adabiy germenevtika san'at asari orgali aks begona inson qalb manzaralarini o'rganar ekan, asar arxitektonikasi orgali uning o'ziga xos dunyosi shtrixlarini kashf qiladi.

Badiiy adabiyotning poetik imkoniyatlarini to'laqonli o'zlashtirishda uni sillogizm, transformatsiya va illyuziya imkoniyatlarini tahlil qilish muhim. Poetik yorqin, ijodiy yorqin umuman san'at asarining mo'jizaviy qirralarini kashf etibgina qolmasdan, uni umuminsoniy qadriyat sifatida baholashga xizmat qiladi.

Adabiy germenevika badiiy matnini mukammal o'rganadi, qachonki asarda aks etgan til qurilishi materiallarini mukammal o'zlashtira olsa, binobarin badiiy asar tili, badiiy tili adabiy germenevikaning tadqiqot doirasining ajralmas hamrohi sifatida qaraladi, vaholanki, germenevika lingvistik kodlarini dekodirovat qilish(tavsiflash) orqali asar g'oyasini ochib beradi.

Jahon adabiyotshunosligining so'nggi yutuqlari biri bo'lmish germe-nevistik tavsif, badiiy asar matnini germenevistik o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili orqali o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini poetik istifoda qilish borasida lirik asarlarda matn arxitektonikasi hamda badiiy matnlar falsafiy-poetik va semantik-stilistik imkoniyatlarini kengaytirishning nazariy asoslarini yaratish kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri.

Germenevistik tahlil jarayonida uning badiiy til bilan bog'liq qirralari ochib berilar ekan, badiiy tilda mavzu va g'oya tillarining shakllanishi jarayonida yorqin kategoriyasini hisobga olish ham muhim. Yorqin leksik — semantik vositalardan holi o'laroq o'quvchi ongida ma'lum bir yo'nalish asosida o'y — fikrlar birligini ta'minlaydi, uni ma'lum tushunchalar doirasida mulohaza yuritishga chorlaydi. G'oya tilda ham xuddi mavzu tilda bo'lgani kabi tegishli parametrlar asar g'oyasini qat'iy bir mavzu ostida shakllanishini ta'minlaydi.

Asar g'oyasi uning ijodiy metodi masalasini ham shakllantiradi. Xususan, romantik asarlarda lirik hissiyot, realistlik asarlarda real turmush tashvishlari tasviri ustunlik qiladi.

Badiiy asar lingvopoetikasi asar arxitektonikasining lingvistik elementlar bilan ta'minlashga bog'liq til xususiyatlari demakdir. Unga muvofiq badiiy asar tilini o'rganishning kriteriyalari aniqdab olinganidan so'ng ma'lum bo'ladi, mavzu va g'oya asarda ma'lum bir shakl (so'z shakli yoki so'zning tovush tarkibi, grammatik va leksik-semantik holati) ni talab qiladi. Talab qilingan til shakllari milliy yoki individual til resurslari imkoniyatida yotadi. Bunday imkoniyat turli millat, shuning bilan bir qatorda turli insonlarda turli darajada bo'ladi.

Badiiy tilning tavsifa qilingan kriteriyalari asosida tadqiq qilinishi uning barcha xususiyatlarini qamrab oladi. Shu yo'nalishda o'rganilganda badiiy g'oya asarda qanday shakllanganini germenevistik jihatdan to'la ochib berish imkoni tug'iladi. Tilning tasviriy — ifoda vositalari asarda o'ziga xos shaklda qo'llanishi ijodkorning individual ushbu hisoblanadi. G'oya til shaklida bo'ladi. O'quvchi bu tilni qanday qamrab oladi? Yoki qanday tushunadi? Tushunilishi davomida badiiy asar san'at namunasi sifatida o'quvchida kerakli emosional his-tuyg'u yoki psixofizilogik holat uyg'ota oladimi- yo'qmi? Shu holatni yasash uchun ijodkor qanday mavzu, g'oya, shaklni tanlashi va ularga muvofiq qanday til resurslaridan foydalanishi kerak? Xuddi shu holatlar so'zsiz badiiy asarning muvaffaqiyati zaminida yotadi hamda ularning javobi germenevistik tahlil orqali topiladi.

Filologik fanlar orasida germenevika adabiyotshunoslik va lingvistik orasidagi joyini egallaydi. Bu uch fan bo'yicha tadqiqot ishlarida alohida shug'ullanish mumkin, biroq nazariy tadqiqotlarda muvaffaqiyatga erishish, tushunishning amaliy, pedagogik yoyilishini ta'minlash borasida faqatgina bu uch fan bo'yicha ilmiy-amaliy dunyog'arashni birlashtirgandagina natijaga erishish mumkin bo'ladi. Bu uch filologik fan bo'limlari o'ziga xos axborot jarayonlarini yaratadi, ular sub'ektiv reallik matn vositalari bilan etkaziladi, biroq turli qirralarini ochib berish orqali amalga oshiriladi.

Badiiy matn filologik tahlilini to'laqonli amalga oshirish uchun uch filologik fanning ilmiy imkoniyatlarini birlashtirish zarur. Adabiy germenevika o'z maqsadini to'laqonli amalga oshiradi qachonki unga yondosh adabiyotshunoslik va tishunoslik fanlari tadqiqot usuli va metodlari bilan imkoniyatlari birlashtirganda. Adabiyotshunoslik badiiy asarning kundalik adabiy jarayondagi o'rni va ahamiyatini belgilashga xizmat qilsa, tishunoslik badiiy matn konstruksiyalarining shakli va mazmun qirralarini aniqdab beradi.

Xususan, germenevika yoki adabiyotshunoslik emas, balki aynan adabiy tanqid matn doirasida badiiy to'qimaning darajasini aniqdab beradi. Biroq ulardagi fikr — g'oyaning korrelyatsiyasi aniq, real inson o'y-fikrlari, ruhiy kechinmalari bilan beriladi. Lingvistika bunday vositalarni til inventari sifatida qabul qiladi. Lingvistik tadqiqotda epizodda badiiy tasviriy vositalarning asar g'oyasini ochib beruvchi qurol sifatidagi ahamiyati uni qiziqitmaydi.

Badiiy asar tilining yangi taklif qilingan kriteriyalari asar g'oyasining optimal mazmunini yaratishga imkon beradi. Badiiy asar tili shu yo'nalishda tahlil qilinganda uning estetik g'oyasi mukammal ochib berilishi tabiiy.

O'zbek mumtoz adabiyoti qanchalik qadimiy va boy an'analarga ega bo'lmasin unda har bir adabiy siymo yoki adabiy asar namunasining o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Bu rang-baranglik birinchi navbatda bevosita badiiy adabiyot namunasining arxitektonik tuzilishi va tilida namoyon bo'ladi. Ijodkorning badiiy mahorati, uning falsafiy-estetik dunyosi ifodasi uning o'zi egallab tilning isoniy imkoniyatlari bilan belgilanadi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimoiy sharoit tubdan o'zgarishi bilan bir qatorda ijtimoiy ongning shakllanishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Endilikda oddiy mifk taassurotlar ijtimoiy borligining real obrazlariga aylanadi, abstraktlik konkretlik kasb etadi. Shoir ikkinchi tabiat (jamiyat) vositalarini epitet sifatida qo'llashdan yoki mifk obrazlarni ular bilan yonma yon kelirishdan hech qanday g'ayritabiiylik his qilmaydi.

O'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tili eng gullab yashagan davrda ijod qilgan Navoiy, Bobur, Shaboniy, Mashrab, amiriy, Nodira, Uvaysiy va Ogahiy kabi ijodkorlar asarlarining mumtoz adabiyot va adabiy til tarqiqivoitida o'ziga xos o'rni bor. Binobarin, ular ijodiy merosida shakllangan badiiy matn arxitektonikasi va uning poetik – germenevik tahlili o'zbek mumtoz adabiyoti doirasida ijodkor, u mansub bo'lgan millat, binobarin, butun bashariyat estetik-falsafiy dunyoqarashi va qalb manzaralarini ochish, inson ruhiyati ma'no spektrlari orqali dunyoning yangi ranglarini topishga imkon beradi.

XVI asr o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandasi Muhammad Shaboniy etuk g'azalnavis shoir sifatida g'azal kompozitsiyasini qator poetik san'atlar vositasida tuzadi. Uning lirik merosi tahlilida kuzatganimizdek, g'azal arxitektonikasi paradigmatlarida so'zning leksik-semantik tahlili so'z ma'nosi uning shakli bilan mustahkam bog'liq bo'lgani holda, matn ichidagi so'zlarning tartibi, so'zlarning arxitektonik assoatsiatsiyasi ham asar g'oyasining yorqin asosida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Arxitektonika she'r-shoir, ijodkor ichki dunyosining so'z, rim, ohangdagi ifodasi demakdir.

Badiiy matn germenevik tahlili ko'rsatadiki, so'zning semantik

etimoni (o'zak, boshlang'ich ma'nosi) bir ma'noni ifodalasa, uning inson mentalitetidagi, isoniy imkoniyatidagi yorqin asnosida shakllanadigan semantik paradigmatlari so'z ma'nosining to'xtovsiz kontinuumiga (ma'nolarning o'zgarib borishiga), binobarin, asar mazmunining turli parametrlarda shakllanishiga olib keladi.

Adabiy germenevitika, badiiy matn arxitektonikasi va badiiy tilni o'rganishning yangi parametrlari filologiyada badiiy asarning poetik tahlilini mukammallashtirishga xizmat qiladi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari doirasida olib borilgan germenevik tahlil badiiy matnda aks etgan nafaqat ijodkor, balki kitobxon ruhiy-psixologik, falsafiy-estetik, ijtimoiy yoki individual dunyosining yangi ma'no tovlanishlarini ochishga turki beradi.

Germenevik tadqiqotlar natijasi insonga o'zini anglash, o'zining nimalarga qodiru, nimalarga qodir emasligi bilishni o'rgatadi, ya'ni uning o'ziga o'zini tushunish san'atini o'rgatadi. Uning birinchi galdagi vazifasi insonlarga psixologik mo'tadillikni hech qilish, uni saqlashni o'rgatishdan iborat. Toki, psixologik mo'tadillikni topish, aniqlash; uni boshqalarga isbotlash; bunday mo'tadillikni xolis baholash; psixologik mo'tadillik doirasida yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratish ham san'at.

Adabiyotning, san'atning eng katta dahshati kushandasi vulgarizm. Vulgarizm har qanday san'at va u orqali aks etgan go'zallikni yolg'iz shaxsiy manfaat – nafsga bog'lab qo'yadi. Nafs esa, insoniylikning kushandasi. Insoniylik tinimsiz nafs bilan kurashib boradi. Vaholanki, nafsning turi va shakli behisob va ular tinimsiz yangi ko'rinishda paydo bo'laveradi. Inson esa, unga faqat bir vosita – san'at bilan kurashadi. San'at insoniylik mezoni. Uni tushunish, uni tushunishning yangi ko'rinishlarini yaratish donishmandlarning tinimsiz mehnatidan iborat.

Yaponlarning bir maqoli bor: Eng muhimi e'tiqod, xudolar esa, har doim topilaveradi. Har qancha kufroniy istiloh bo'lmasin bu gapda ham jon borgan o'xshaydi, chunki e'tiqodning tozaligi riyoni istisno qiladi. Germenevitika insonga tasavvur orqali yangicha fikrlash dunyosini ochadi. Demak, eski fikrlash devori barham topadi. Aynan shu hodisa yangi davr insoni, aniqrog'i yangicha, ilg'or fikrlaydigan odamlar jamiyatini shakllantiradi, unda ichki madaniyatni yaratadi, zero "ichki madaniyat eng go'zal va eng katta boylikdir" (S.G'anieva).

1. Abdullaev F.A. Arabizmi v uzbekskom yazyke. avtofer. diss... kand. fil. nauk – T.: 1945. – 22 s.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. –T.: 1979.
3. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – T.: O'qituvchi. 1989. 98b.
4. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tilini o'qitish metodikasi. –T.:1973.
5. Abdurahmonov G', Rustanov A. Qadimgi turkiy til. - T: 1982.
6. Abulg'oziy Bahodurxon. Shajarai turk. –T.: Cho'lpon. 1992.
7. Abulg'oziy Bahodurxon. Shajarai tarokima. – T.: Cho'lpon. 1995.
8. Aznaurova E.S. Pragmatika xudojestvennogo slova. – T.: 1988.
8. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. –T.: 1969.
9. Alisher Navoiy. Xamsa. – T.: 1958.
10. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. I-IV tomilar. T.: 1959-1960.
11. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. - T.: 1961-1966.
12. Alisher Navoiy. Ilk devon. Faksimil nashr (nashrga tayyorlovchi Hamid Sulaymon). – T.: Fan. 1968.
13. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 1-2-3-4-tomlar. – T.: 1983-1985.
14. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. – T.: Fan. 1993.
15. Alisher Navoiy. G'azallar, sharhlar. – T.: Kamalak. 1991.
16. Anikin G.V., Mixalskaya N.P. Istoriya angliyskiy literatury. –Moskva 1975.
17. Antichnye ritoriki. – Moskva: 1978.
17. Arraurov M. Psixologiya literaturnogo tvorchestva. –Moskva: 1970. 653b.
18. Atoullloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi'. –T.: 1981.
19. Auerbax E. Mimesis. –Moskva: Progress. 1976. str. 555.
20. Afogova N.M. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'alar filologiya fanlari nomzodi...diss.:10.01.02;10.01.08. O'ZR.FA, Til va adabiyot instituti.
21. Axmetov Z. Kazaxskoe stixoslojenie. –Alma-Ata: 1964.
22. Ahmad Zaki Validiy. Shayboqxonning she'rleri // «Yangi Turkiston» 1-soni. – Istanbul: 1927.
23. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –T.: 1991.
24. Ahmedov B.O'zbek ulusi. –T.: 1992.
25. Bayron Dj.G. Izbrannye proizvedeniya v dvux tomax. –Moskva:1987.
26. Bar L.i dr. Analiz xudojestvennogo proizvedeniya / Ucheb.pos. –T.: Ukituvchi. 1995.
27. Basin E.N. Semanticheskaya filosofiya iskusstva.-Moskva: 1973.
28. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva: 1986.
29. Bogin G.I. Filologicheskaya germenevika. – Kalinin: 1982.
30. Bogin G.I. Sovremennaya lingvodidaktika. – Kalinin. 1980.
31. Bogin G.I. Obretenie sposobnosti ponimat: vvedenie v filologicheskuyu germeneviku.-Moskva: Psixologiya i biznes. On layn. 2001. 516.
32. Borev Yu.B. Estetika: Teoriya literatury: Ensiklopedicheskii slovar terminov. - M., 2003.
33. Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. –T.: 1982.
34. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik gatlamlari. –T.: 1985.
35. Belinskiy V.G. Izbrannye sochineniya. –Moskva: 1947.
36. Binoiy Kamoliddin. Shayboniyнома. O'ZR.FA kutubxonasi.
37. Vitgensteyn L. Logiko-filosofskiy traktat. – Moskva: 1958.
38. Vohidov E. Saylanma. 3 jildlik. –T.: Sharq. 2000-2001.
39. Gadamer X.G. Istina i metod: Osnovy filosofskoy germeneviki. –Moskva: 1988.
40. Gasparov M.L. Ocherk istorii russkogo stixa. –Moskva: 1984. 319.
41. Istoriya amerikanskoy literatury. Pod red. N.I.Samoxvalova. Ch.1-2. – Moskva: 1971.
42. Istoriya zarubejnoj literatury XX veka 1917-1945.–Moskva: 1990.
43. Istoriya russkoy literatury XIX veka (1-2-polovina)-Moskva: 1973-1978.
44. Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati. –T.: 2000.
45. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. –T.: 2000-2001.
46. Solijonov Y. XX asr 80-90-yillar o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi.-T.:2002.
47. Slovar inostrannyx slov. –Moskva: 1983.
48. Bobur Z.M. Boburnoma. –T.: 1960.



49. Bobur Z.M. Muxtasar. Faksimil nusxa. - T.: Fan. 1071.
50. Boboev T. Aruz vaznlarini o'rganish. - T.: 1991.
51. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: 2005.
52. Boymirzaeva S. O'zbek prozasining lingvopoetik tahlili. T.: 2004. 154.
53. Bogomolov E.I. i dr. Posobie po literature. -M., 1989.
54. Vasileva A.N.Xudojoesvenmaya rech.-Moskva: Russkiy yazyk.1983.
55. Vanspenkeren K. Amerika adabiyoti (tarj: prof. H.Karomatov) - T.: 1994.
56. Vinogradov V.V. Yazyk i stil russkix pisateley.-Moskva:1982.
57. Vinogradov V.V.O yazyke xudojественnoy literatury.- M.: 1988.
58. Vinokur G.O. Filologicheskie issledovaniya.-Moskva:1988.
59. Vinokur G.O. O yazyke xudojественnoy prozi.-Moskva: 1991.
60. Vladimirov G.P., Filippov P.P. Literaturnye janry / Ucheb.pos.- T.: Uktivchi, 1996.
61. Gasparov M.L. Sovremennyy russkiy stix. Metrika i ritmika.-Moskva: 1974.
62. Gegel. Leksiya po estetikе. Soch. T. XIV. kn. 3.-Moskva: 1958.
63. Girtsman M.M. Stixovomaya rech // Teoriya literatury. - Moskva: 1965.
64. N.A.Gulyaev. Teoriya literatury. - M.: Vysshaya shkola, 1977.
65. Gumilyov L.N. Drevnie tyurki. - Moskva: 1967.
66. Goncharov B.P.Zvukovaya organizatsiya stixa i problemi rifmy.-M.: 1973.
67. Devonu lug'oti turk. Indeks lug'at.-T.: 1967.
68. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. - T.: Fan. 1988.
69. Esenin S. Sobranie sochineniy v dvux tomax.Tom 1-2.-Moskva: 1990-1991.
70. Inomxo'jaev S., Xo'jaeva L. Badiiy so'z san'ati. - T.: 1972.
71. Ionin A.P.O filologicheskoy germenevtike //Jurnal MNP.1863.ch.120.
72. Ishogov Yo. Navoiy poetikasi. - T.: 1983.
73. Ishaev A. O'zbek dialektal leksikografyasi. -T.: 1990.
74. Jo'raboev O. Shoir bo'lib shuhrat topganlar // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -T.: 2010 yil 19 noyabr soni.
75. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: 1994.
76. Karimov N. Nekbin ruh, haqsevar g'oya // O'zbekiston adabiyoti va san'ati -T.: 2010 yil 19 noyabr soni.
77. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. - Samarqand. 1992.
78. Karpov A.S. Stix i vremya. -Moskva: 1966.
79. Kashin V.V. Ontologicheskie i gneseeologicheskie problemi genezisa ponimaniya.-Ufa: 2000.
80. Komilov N. Najmiddin Kubro: Risola. - T.: 1995.
81. Kuznetsov V.G. Germenevtika i gumanitarnoe poznanie.-Moskva: 1991.
82. Kuznetsov V.G. Germenevtika i ee put ot konkretnoy metodiki do filosofskogo napravleniya. http: www.i-u.ru /
82. Kvyatkovskiy A. Poeticheskiy slovar. -Moskva: 1966.
83. Literatura drevnogo Vostoka. - Moskva: 1971.
84. Lixachev D.S. Tekstologiya: Na materiale russkoy literatury X-XVII vekov. Moskva: 1983.
85. Lotman Yu.M. Analiz poeticheskogo teksta. Struktura stixa.-Leningrad: 1972.
86. Lutfiy. Devon. - T.: 1966.
87. Lutfiy. Gul va Navro'z. - T.: 1978.
88. Mallaeв N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: 1976.
89. Malov S.E. Pamyatniki drevneyurkskoy pismennosti.-Moskva-Leningrad: 1951.
90. Mahmudov N. Badiiy so'z mas'uliyati // O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-T.: 2010 yil 23 aprel 17-soni.
91. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiy va uning «Hibat ul haqoyiq» asari haqida. - T.: 1972.
92. Mahmudov Q. XIII-XIV asr turkiy yozma obdalar tilining fonetik sistemasi. T.: Fan. 1990.
93. Mirtemir. Asarlar. 4 jildlik. T.: 1980-1983.
94. Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. -T.: 1975.0
95. Mirzaev I. Problemy lingvopoeticheskoy interpretatsii stixovornogo teksta. -T.: 1992. 243.
96. Musina G. Shoirta Zulfiyaning ijodiy yo'li. -T.: 1961.
97. Mixaylov A.A. Sovremennaya filosofskaya germenevtika. - Minsk:1984.
98. Muborak maktublar. - T.: 1987.

99. Mutallibov S.M. «Divanu lugati-turk» Maxmuda Koshgarskogo. Avtorefer. diss... dokt. Filol.nauk. –T.:1967.
100. Muhammad Yusuf. Ulug'imsan vatanim. T.: 2004.
101. Navoiy zamondoshlari. – T.: 1948.
102. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: 1972.
103. Normatov U. Nasrimiz ufqlari. –T.: 1974.
104. Nosirov O. O'zbek adabiyotida g'azal. –T.: 1972.
105. Nosirov O. va boshq. O'zbek klassik she'riyati janrlari. –T.: 1979.
106. Nurmonov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. –T.: 1990.
107. Nurmuhammedov M. Karvon yurar // Guliston. 1976 yil 3-son.
108. Pisateli Anglii o literature. –M. 2001. 330.
109. Potebnya A.A. Estetika i poetika. – Moskva. 1976.
110. Rashidov Sh. Adabiy tanqid // Sharq yulduzi. 1950 yil 5-son.
111. Rikyor P. Konflikt interpretatsiy: Ocherki o germenevtike. – Moskva:1995.
112. Rysaliev K. Kirgizskoe stixoslojenie. ADD. – Frunze: 1964.
113. A.I.Revyakin. Problemy izucheniya i prepodavaniya literatury. – M. 1972.
114. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: 1978.
115. Rustamov E.R. Uzbekskaaya poeziya v pervoy polovine XV veka.-Moskva: 1963.
116. Salieva K.A. Evolyusiya arxaichnyx elementov v gazetnoy leksike sovetsoy epoxi. avtorefer. diss...kand.filol.nauk.-M.:1985.
117. Samoylov D. Kniga o russkov rifme. – Moskva: 1973.
118. A.N.Semenov, V.V.Semenova. Teoriya literatury: Voprosy i zadaniya. – M.: Klassika Stil. 2003.
119. Sodiq S. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. 2006. 169.
120. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy yozuvlar. –T.: 1995.
121. Sosyur de F. Kurs obuiy lingvistiki. Trudy po yazykoznaniiyu. – Moskva: 1977.
122. Stebleva I.Ya. Semantika gazeley Babura. – Moskva: 1983.
123. Stebleva, I.V. Poetika drevneyurkskov literatury i ee transformatsiya v ranneklassicheskoy period. –Moskva: 1976.
124. Stepanov G.V. O granitsax lingvistikicheskogo i literaturovedcheskogo analiza // Teoriya literaturnyx stiley // Sovremennye aspekti

- izucheniya. –Moskva: 1982.
125. Tagirdjanov A.T. Rudakiy. Jizn i tvorchestvo. Istoriya izucheniya. – Leningrad: 1968.
126. Tizengauzen V. Sbornik materialov otnosyauixsya k istorii Zolotoy Ordsy. T. II. – SPb.: 1884.
127. Timofeev L. Slovar literaturovedcheskix terminov. M., 1977.
128. Timofeev L.I. Osnovy teorii literatury. –Moskva: 1971.
129. Tiselton E. Germenevtika. – Cherkassi: 2008.
129. Timofeev L.I. Teorii stixa. –Moskva: 1939.
130. Tojiboev M. Muhammad Shaboniy lirikasida badiiy til muammolari. T.: 2006.
131. Tomashevskiy B.V. Stilistika i stixoslojenie. –Leningrad: 1959.
133. To'rabekova Saodat. G'afur G'ulom poemalarining tili va stili haqida. – T.:1961.
134. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – T.: Fan. 1990.
135. Forobiy Abu Nasr. Shoirlar san'ati qonunlari haqida risola // O'zbek tili va adabiyoti. 1976 yil 3-son.
136. Fitrat A. Aruz haqida. –T.: 1997.
137. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – T.:1995.
138. Fozilov E. XIV asr Xorazm yodnomalari. – T.: Fan. 1973.
139. E.Ya.Fesenko. Teoriya literatury. - Arxangelsk, 2001.
140. Surganova E.A. Germenevtika // Zapadnoe literaturovedenie XX veka.-Moskva: 2004.
141. Yusupov Sh. Xudoyorxon va Furgat. –T.: Sharq. 1995.
142. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. –T.: 1971. 311.
143. Xalizev V.E. Teoriya literatury. - M.: Vysshaya shkola. 2007.
144. Xamraev M.K. Osnovy tyurkskogo stixa. –Alma-Ata: 1963.
145. Xafiz-i Tanish Buxariy. Sharaf-name-yi shaxi. Faksimile rukopisi. D.88. Perovod s persidskogo. Ch.1. –Moskva: 1983.
146. Xarezmi. Muxabbat-name. Izdanie E.Nadjipa.-Moskva: 1961.
147. Sharipova M. Muhammad Shayboniyxon. –T.: Sharq.2004.
148. Shoabduraxmanov Sh. Uzbekskiy literaturniy yazyk i uzbekskie govory. avtorefer. diss... dokt.filol.nauk. – T.: 1963.
151. Sharafutdinov O. Poemada til va stil masalalari // «Zamon-qalb-poeziya». – T.: 1962.

152. Sharafuddinov O. Ma'naviy kamolot yo'llarida.-T.: 2001. 85-bet
153. Shoabdurahmonov Sh. Oybek romanlarining tili // Sharq yulduzi. 1955 yil 10-son.
154. Shomagsudov A. Muqimiy satirasining tili. - T.: 1971.
155. Shpet G.G. Germanevitika i eyo problemi // Kontekst. Literaturo-teoreticheskie issledovaniya.-Moskva: 1989-1992.
156. Shukurov N. va boshq. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: 1984.
157. Shulga E.N. Kognitivnaya germanevitika. - Moskva: 2002. Str.235.
158. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u biling. -T.: 1971.
159. O'zbek xalq maqollari. -T.: 1978.
160. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: O'qituvchi. 1990.
161. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -T.: 1982.
162. Quronbekov A. Hofiz g'azaliyotida ma'nolar silsilasi.-T.: Fan.1994.
163. Qo'chqorto'ev I. Badiiy nutq stilistikasi.-T.: 1975.
164. Qo'chqorto'ev I. So'z ma'nosi va uning valentligi. -T.: 1982.
165. Qo'shchonov M. Hayot va qahramon: Adabiy maqolalar. -T.: 1979. 368b.
166. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. -T.:1968.
167. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. -T.:1968.
168. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. Forsiydan Ismoil Bekjon tarjimai. - T.: 1993.
169. Hojiev A. Tishunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: 2002.
170. Hofiz Xorazmiy. Devon.I-II-jild. -T.:1981.
171. Hirsch E.D. Validity in interpretation. - New Haven: 1967.
172. Ibid. Three dimention of hermeneutics // New literary history. - Baltimore: 1972. V.3. № 2.
173. Ibid. The aims of interpretatoin-Chikago. 1976.
174. Madison. The hermeneutics of postmodernity. Bloomington. 1988.
175. Silverman H. Gadamer and hermeneutics.-New York. 1991.
176. Grondin J. Hermeneutics Wahrheit? Zum Wahrheitsbegriff H. -G/Gadamer's. Weinheim. 1994.

242

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>I BOB. ADABIY GERMEDEVITIKA VA BADIIV ASAR ARXITEKTONIKASI</b> .....	26
1. Badiiy asar matnini tushunish adabiy germeveditikaning asosiy omli sifatida.....	26
2. Adabiy germeveditikaning taraqqiyot mezonlari.....	37
3. Badiiy matni tushunish va aqliy faoliyat tizimi jarayonlari.....	49
4. Adabiy germeveditikaning boshqa fanlar orasidagi o'rni .....	51
5. Adabiy germeveditika tarixidan .....	58
6. Germeveditik tahlil va badiiy asar yorqini .....	66
1.7. Badiiy matni o'zlashtirish jarayonida ijodiy yorqin imkoniyatlari.....	74
1. 8. Badiiy matn germeveditik tahlilining munosabat kategoriyalari77	
<b>II-BOB. GERMEDEVITIKA VA POETIKA</b> .....	86
2.1. Badiiy asarning germeveditik tahlili mezonlari .....	86
2.2. Hayot haqiqati va ijodiy metod .....	91
2.3. Poetik vositalarning badiiy g'oya shakllantirish imkoniyatlari.....	95
2.4. Lirik asarlarda g'oyaning germeveditik tavsifi .....	99
2.5. Germeveditik tahlil va adabiy tanqid .....	106
<b>III BOB. BADIIV TIL TAHLILINING GERMEDEVITIK MEZONLARI</b> .....	113
3.1. Badiiy til san'atini tushunishning ijtimoiy mezonlari.....	113
3.2. Mumtoz badiiy tilni tushunishda adabiy tahlilning germeveditik mezonlari.....	122
3.3. Lirik asarlarda ruhiy - psixologik kechimmalarining germeveditik qirralari .....	133
3.4. Jahon adabiyotida ma'rifatarparvarlik asarlari g'oyasining germeveditik tahlili.....	144
3.5. Sharq adabiyotida erkin she'r va badiiy til.....	152
<b>IV BOB. MUMTOZ BADIIVAT VA GERMEDEVITIKA</b> .....	160
4.1. Mumtoz she'r iyatda badiiyat va badiiy til muammolariga doir.....	160
4.2. Z.M. Bobur asarlarida lingvopoetika masalalari .....	168

243

4.3. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodiy merosining badiiy- poetik tahlili .....	172
4.4. Ogahiy lirikasida g'oyaviy motiv va badiiy –lisoniy tahlil germevenvikasi.....	181
<b>V BOB. MUHAMMAD SHABONIY IJODIY MEROSINING GERMEVENVTIK TAHLILI .....</b>	<b>189</b>
5.1. Shaboniy asarlarining matn va lisoniy manbalari.....	189
5.2. Shaboniy lirikasi poetikasi.....	202
5.3. Shaboniy lirikasida so'zlarning shakl va ma'no paradigmalari germevenvikasi.....	208
5.4. Shoirning badiiy – tasviriy vositalar orqali matn germevenvikasini shakllantirish mahorati .....	214
5. 5. G'azalda simvol germevenvikasi .....	228
Xulosa .....	231
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	236

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 29.11.2022.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Times New Roman" garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 15,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 141.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.